



UDK:51:37-3

Abdimumin ABDIRAXMANOV,
QarDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: abdirahmonov.abdimumin@mail.ru
O.RO'ZIBOYEVA,
QarDU Algebra va geometriya kafedrasida o'qituvchisi

Professor, psix. f. D. A. Jabborov taqrizi asosida

BO'LAJAK MATEMATIKLARNING MUTAXASSISLIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Bunda matematik bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkam shakllanishi bilan birga maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari matematikasida o'rganiladigan har bir tushuncha ilmiy asoslangan holda talabaga yetkaziladi. Bunday yondoshish matematik tafakkurning yuqori darajada rivojlanishini ta'minlaydi, ilmiy tushunchalarni o'quv va didaktik yo'nalishga o'tkazishga, uni o'quv jarayonining bir qismiga aylantirib, ratsional foydalanish imkoniyatini yaratishga olib keladi.

Kalit so'zlar: Ko'nikma, malaka, shakllantirish, ma'ruza, amaliy, mashg'ulot, laboratoriya, ijodiylik, izlanuvchanlik, faoliyat, didaktik, metod, aloqadorlik.

ФОРМИРОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ МАТЕМАТИКОВ

Аннотация

Наряду с прочным формированием математических знаний, умений и навыков, каждое понятие, изучаемое по математике в школе, академическом лицее, профессиональном колледже, имеет научное обоснование. Такой подход обеспечивает высокий уровень развития математического мышления, приводит к переводу научных понятий в учебно-дидактическое направление, делая их частью учебного процесса, создавая возможность рационального использования.

Ключевые слова: Навык, компетентность, формирование, лекция, практика, обучение, лаборатория, творчество, любознательность, активность, дидактика, метод, актуальность.

FORMATION OF SPECIAL SKILLS OF FUTURE MATHEMATICS

Annotation

Along with the solid formation of mathematical knowledge, skills and abilities, each concept studied in mathematics at school, academic lyceum, and vocational college has a scientific basis. This approach ensures a high level of development of mathematical thinking, leads to the translation of scientific concepts into educational and didactic directions, making them part of the educational process, creating the possibility of rational use.

Key words: Skill, competence, formation, lecture, practice, training, laboratory, creativity, curiosity, activity, didactics, method, relevance.

Kirish. Bakalavrlarning matematik tayyorgarligi bilan pedagogik kasbga tayyorgarligi orasidagi mantiqiy bog'lanishning asosi sifatida biz bo'lajak matematika o'qituvchilarini, eng avvalo, matematik bilimlarni o'zlashtirganligini tushunamiz. Bu aloqadorlik o'zining tarkibi va mazmuni bo'yicha universitetlarda o'qitilayotgan matematikaning barcha bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda va hamkorlikda bir-birini to'ldirgan holda o'rgatilmog'i lozimligini belgilab beradi. Bunday o'qitish o'z o'rnida maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlardagi matematika kursidan olgan bilimlariga suyanadi. Bu bilimlar matematikadan va uni o'qitish metodikasidan ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, laboratoriya ishlarini tashkil etishda, talabalarni ijodiylik va izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan muammoli usullardan foydalanishga, matematik masalalarni yechishni va teoremlarni isbotlash usullaridan ratsional foydalana olishni o'rgatishga, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda matematika o'qitish kasbga yo'naltirilganligini shakllantirish va o'qitishda didaktik hamda metodik tamoyillarni keng qo'llashga zamin yaratadi.

Matematik bakalavrlarni kasbiy tayyorlash uchun matematika, psixologiya, pedagogika fanlari orasida o'zaro aloqadorlik bo'lishi uchun didaktik va uslubiy shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Didaktik shart-sharoit deganda, biz matematikani boshqa fan asoslari bilan o'zaro aloqadorlikda, muvofiqlashtirilgan tizim asosida, mazmunan tasniflangan holda o'qitishni tushunamiz. Uslubiy shart-sharoit deganda, o'qitilayotgan mavzuni ochish uchun umumiy yondoshishlar, matematikaning xarakterli holatlari va informatsiyani berish uchun sharoitlar yaratish, shuningdek,

o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etishni tushunamiz. Shunday qilib, bakalavr matematiklarni tayyorlashda birinchi o'rinda ularning matematikadan tayyorgarligi hamda bo'lajak matematika o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligini shakllantirish vazifasi qo'yiladi. Matematik tayyorgarligi deganda, matematik tasdiqlar, qoidalar, qonuniyatlarni har bir talaba erkin o'zlashtirganligi va ularni boshqa fanlarga tatbiq qila bilishlarini tushunilsa, kasbiy tayyorgarlik deganda, ta'limning kasbga yo'naltirilganligini, uning mazmuni, usullari va tashkil etilishi talabalarda bo'lg'usi pedagogik faoliyatlari uchun zarur bo'ladigan shaxsiy sifatlarini uyg'otish va shakllantirish nazarda tutiladi. Talabalarda dasturda belgilab qo'yilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari hamda shakllantirishlarini ta'minlash o'ziga xos pedagogik vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa qaralayotgan muammoni ham psixologik-pedagogik, ham didaktik, ham metodik nuqtayi nazardan o'rganishga olib keladi.

Ma'ruza o'qish, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida talabalar turli ko'rinishdagi kasbiy va texnik xarakterdagi masalalarni yechadilar. Bunda ular masala mazmunidagi ilmiy va amaliy jihatlariga, ularning o'zaro aloqadorligiga, tashqi va ichki qonuniyatlariga, modellashtirish imkoniyatlarini beruvchi aloqalariga, masalani yechish algoritmini topish va uni tekshirishga alohida e'tiborlarini qaratadilar. Bu jarayon talabalarining ko'z o'ngida bo'lib, ular o'quv-o'rganish faoliyatining bevosita ishtirokchisiga aylanadilar, ko'rilayotgan masalaning mazmunini o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liqligini, uning o'rni va vazifasini, vaqtini qiyosiy baholashni tahlil qiladilar. Bularning barchasi talabaning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun pedagogik tajribalarni to'plab borish imkoniyatini beradi

hamda professional qobiliyatlarining shakllanishi uchun zamin yaratadi. Shuning uchun matematikani o'qitishda u ma'ruza ko'rinishida bo'ladimi yoki amaliy mashg'ulot holatidami o'qituvchining kasbiy mahorati muhim o'rin tutadi. Chunki ongimizda aks etayotgan borliqning haqiqiy holatining abstraktlashgan ma'lum bir shakl va munosabatlari o'zaro aloqador tushunchalari tizimiga jamlanadi hamda bularni o'zlashtirish murakkab va o'ziga xos psixologik jarayondan iboratdir. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida matematikani o'qitishda talabalarning psixologik tayyorgarligi, auditoriyada ma'lum bir psixologik va pedagogik tadbirlar yordamida qulay psixologik sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Masalan, yangi o'quv mavzuni o'rganish uchun, avvalo, oldin o'tilgan mavzu bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish va uni yangi mavzuga bog'lashga, yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratuvchi matematik tushunchalarga alohida urg'u berish talab qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan har bir matematika kursi davlat ta'lim standarti bo'yicha aniqlangan mazmun va tarkibga, o'zining o'qitish metodlariga ega. Ayrim matematik tushunchalar umumiylik xususiyatiga ega bo'lib, bir necha bo'limlarda uchrashi mumkin. Bir bo'limning asosiy tushunchasi sifatida uning mazmunini va tarkibini o'rganish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qilsa, o'zaro aloqadorlikda boshqa bo'lim tushunchalarini o'rganish uchun vosita sifatida ishtirok etishi va umumpedagogik maqsadlarni amalga oshirishga yordam berishi zarur.

Bakalavr matematiklarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash bilan birga mustahkam kasbiy bilim va malakaga ega bo'lish uchun psixologiya hamda fiziologiya, pedagogika va falsafa, texnika fanlari sohalarida ham keng va asosiy bilimlar berish zarurligini qayd etamiz. Bu talablardan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida bakalavr matematiklarni tayyorlash bizning fikrimizcha, matematikani va uning amaliy yo'nalishlarini o'rganish psixologik-pedagogik konsepsiyaga yo'naltirilgan bo'lishi, o'quv predmetlarini o'rganishda tafakkur faoliyatining psixologik-pedagogik asoslariga suyanligi, matematik tushunchalarni o'zlashtirish va kasbga yo'naltiruvchi omillarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlariga amal qilish, kasbiy faoliyatning usullarini matematika bilan psixolo-pedagogik tushunchalarni o'zaro aloqadorligida takomillashtirishga qaratilmog'i kerak.

Bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning matematikaviy va professional-pedagogik tayyorgarliklarining o'zaro aloqadorligini kuchaytirish uchun quyidagilarning bajarilishi muhim hisoblanadi:

- matematika va kasbga yo'naltiruvchi fanlar asoslarining, bilim olish faoliyati usullarining, professional-pedagogik bilimlar va ko'nikmalar tushunchalarining tizimi yagonaligi;
- texnika, iqtisod va boshqa turdosh fanlar bo'yicha matematika va kasbga yo'naltiruvchi ilmiy asoslangan hamda sinovdan o'tgan tushunchalarning shakllanganligi;
- oliy o'quv yurti va maktab matematika ta'limining ketma-ketligi hamda uzviyligi;
- professional-pedagogik tayyorgarlikka yo'naltirilgan, pedagogik tafakkur rivojlanishining muhim shakli sifatida nazariya bilan amaliyotning birligi.

Bu shartlar quyidagilar asosida ta'minlangan bo'lishi mumkin:

- maktab va oliy o'quv yurti matematiklarining uzviyligi hamda ketma-ketligini ta'minlovchi ta'limning usullari, vositalari va shakllarini rivojlantirish;
- oliy o'quv yurti matematika kursining mazmunini politexnik yo'nalganligini kuchaytirish;
- matematikani boshqa fanlar (fizika, ximiya, va h.k.) bilan aloqalarni mustahkamlash;
- umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda talabalarning professional pedagogik faoliyatlarini rivojlantirishning manfaatdorligini yo'lga qo'yish.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida matematikani o'qitish ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, integrativ va tarbiyalovchi vazifalarni bajaradi.

O'qituvchi o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rishda diqqat bilan o'quv mavzularini tayyorlaydi, uni o'quvchilarga yetkazib berish shakllarini o'ylaydi, o'zlashtirilishi lozim bo'lgavn o'quv mavzulariga nisbatan talabalarning aqliy faoliyatlarini rejalashtiradilar.

4-masala. Jamoa xo'jaligidagi mavjud bo'lgan bir xil ish unumdorligiga ega bo'lgan kombaynlar birgalikda ishlab, hosilni bir sutkada yig'ishi mumkin. Lekin reja bo'yicha birinchi soatda bitta, ikkinchi soatda ikkita, uchinchi soatda uchta kombayn ishlagan va hokazo. Hamda faqat hosil yig'ini tugashiga bir necha soat qolgandagina barcha kombaynlar birga ishlagan. Agar beshta kombayndan tashqari barcha kombaynlar yig'im-terim boshidan ishlaganida edi, reja bo'yicha ish vaqti 6 soatga qisqargan bo'lar edi. Jamoa xo'jaligida necha kombayn bo'lgan?

Yechish. Jamoa xo'jaligida n ta kombayn bo'lsin, ularning har biri bir soatda hosilning $1/x$ qismini yig'ishtira olsin. U holda barcha kombaynlar birgalikda bir sutka ishlab barcha hosilni yig'ishi mumkin. Shuning uchun

$$\frac{24n}{x} = 1 \quad (1)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Amalda esa birinchi soatda bitta kombayn ishlab hosilning $1/x$ qismini yig'ishtirgan, ikkinchi soatda ikkita kombayn ishlab hosilning $2/x$ qismini yig'ishtirgan va hokazo. n -soatda n ta kombayn ishlab hosilning n/x qismini yig'ishtirgan. Keyinchalik bir necha soat davomida (faraz qilaylik, m soat) barcha kombaynlar ishlab, shu m soatda hosilning qolgan nm/x qismini yig'ishtirishgan. Shuning uchun

$$\frac{1}{x} + \frac{2}{x} + \dots + \frac{n}{x} + \frac{nm}{x} = 1. \quad (2)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Kombaynlar hammasi bo'lib $(n+m)$ soat ish vaqtida barcha hosilni yig'ishtirishgan. Agar $(n-5)$ ta kombayn ishlaganda edi, u holda ular hosilni $(n+m-6)$ soatda yig'ishtirgan bo'lar edi. Shuning uchun

$$\frac{(n-5)(n+m-6)}{x} = 1 \quad (3)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Demak, biz quyidagi uch noma'lumli uchta tenglamalar sistemasiga ega bo'ldik.

$$\begin{cases} 24n = x, \\ \frac{1}{x} + \frac{2}{x} + \dots + \frac{n}{x} + \frac{nm}{x} = 1, \\ (n-5)(n+m-6) = x. \end{cases} \quad (4)$$

(4) tenglamalar sistemasi berilgan matnli masalaning matematik modelini ifodalaydi. Bu sistemani yechish uchun, uning ikkinchi tenglamasiga arifmetik progressiya hadlari yig'indisini topish formulasini qo'llab uni

$$\begin{cases} 24n = x, \\ \frac{(n+1)n}{2} + nm = x, \\ (n-5)(n+m-6) = x. \end{cases} \quad (5)$$

ko'rinishiga keltiramiz. Bu sistemadan x ni yo'qotib va $n \neq 0$ ekanligin e'tiborga olib ushbu

$$\begin{cases} m + \frac{n+1}{2} = 24 \\ (n-5)(n+m-6) = 24n \end{cases} \quad (6)$$

sistemani hosil qilamiz.

(6) sistemadan m ni yo'qotish natijasida $n^2 - 18n - 175 = 0$ ko'rinishdagi n ga nisbatan kvadrat tenglamaga kelamiz. Bu tenglamani yechib, $n_1 = 25$ va $n_2 = -7$ ildizlarni topamiz. Jamoa xo'jaligidan kombaynlar

soni n bo'lgani uchun n musbat butun son bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, masala shartini faqat $n = 25$ qanoatlantiradi.

2-masala. Uchta eritmada spirtning (massa bo'yicha) foiz miqdorlari geometrik progressiyani tashkil qiladi. Agar birinchi, ikkinchi va uchinchi eritmalarini 2:3:4 massa nisbatida aralashtirilsa, u holda 32 % spirtli eritma hosil bo'ladi. Agar ularni 3:2:1 massa nisbatida aralashtirilsa, u holda 22 % spirtli eritma olinadi. Har bir eritmada necha foiz spirt bor?

Yechish. Birinchi eritmada $x\%$, ikkinchisida $y\%$, uchinchisida $z\%$ spirt bo'lsin. Masala shartiga ko'ra x, y, z sonlar geometrik progressiya tashkil qiladi, shuning uchun $y^2 = xz$ bo'ladi.

Birinchi eritmaning 1 gramida $\frac{x}{100}$ g spirt, ikkinchi eritmaning 1 gramida $\frac{y}{100}$ g va uchinchi eritmaning 1 gramida g spirt bor. Agar biz birinchi eritmadan 2 g, ikkinchi eritmadan 3 g va uchinchi eritmadan 4 g olsak, 9 g aralashma olinadi. Bu aralashmada $\left(2 \cdot \frac{x}{100} + 3 \cdot \frac{y}{100} + 4 \cdot \frac{z}{100}\right)$ g spirt bor.

Masala shartiga ko'ra olingan aralashmaning 32 % spirtidan iborat, ya'ni

$$9 \cdot \frac{32}{100} \text{ g spirt bor.}$$

Bu shartlardan $\frac{2x + 3y + 4z}{100} = 9 \cdot \frac{32}{100}$ tenglama hosil bo'ladi.

Xuddi shuningdek, $\frac{3x + 2y + z}{100} = 6 \cdot \frac{22}{100}$ tenglama ham hosil bo'ladi.

Yuqoridagilar asosida:

$$\begin{cases} 2x + 3y + 4z = 288, \\ 3x + 2y + z = 132, \\ y^2 = xz \end{cases}$$

tenglamalar sistemasini hosil qilamiz va uni yechamiz.

Birinchi ikkita tenglamani y va z bo'yicha yechib hamda olingan qiymatlarni uchinchi tenglamaga qo'yib, $x^2 - 76x + 768 = 0$ tenglamani hosil qilamiz. Hosil bo'lgan

tenglamani yechib uning $x_1 = 64$, $x_2 = 12$ ildizlarini topamiz. Lekin $x_1 = 64$ ildiz masala shartini qanoatlantirmaydi, chunki unga mos $y = 48 \cdot 2x$ qiymat manfiy bo'ladi. Demak, faqat $x = 12$ qoladi. U holda bu qiymat bo'yicha $y = 24$ va $z = 48$ ekanligi oson topiladi.

Javob: Birinchi eritmada 12 %, ikkinchi eritmada 24 %, uchinchi eritmada 48 % spirt bor.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan masalalarning yechilishi jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, har qanday nostandart masalani yechish jarayoni quyidagi ikki asosiy operatsiyaning ketma-ket qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi:

1. Nostandart masalani unga ekvivalent bo'lgan, lekin standart ko'rinishga ega bo'lgan masalaga almashtirish (bunda zarur bo'lgan holda shakl almashtirishlar bajarish yoki masala mazmunini saqlagan holda matnning bayonini o'zgartirish);

2. Nostandart masalani bir necha standart masalalarga bo'laklab o'rganish.

Masalaning murakkabligiga qarab bu operatsiyalarning birini yoki ikkalisini bir vaqtda tatbiq etish mumkin.

Umuman, matnli masalalarni yechish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagilardan iborat deb bilamiz:

1. Berilgan masalani tahlil qilish orqali uning standart yoki nostandart turga mansub ekanligini aniqlash.

2. Masalaning yechish yo'lini izlash va umumiy qoidalar (formulalar, ayniyatlar) yoki umumiy holatlar (ta'riflar, teoremlar) asosida yechish rejasini (rejalarini) tuzish.

3. Tuzilgan rejani berilgan masalaning shartlariga tatbiq etish orqali masalaning yechilishini amalga oshirish. Agar rejani amalga oshirish davomida biror-bir bosqich o'zining bajarilishi uchun qo'shimcha biror rejani amalga oshirishni taqozo etsa, u holda bu qadamga nisbatan ham xuddi, shuningdek, operatsiyalar bajariladi (turini aniqlash, yechish rejasini tuzish, yechishni amalga oshirish).

Xulosa. Bulardan kelib chiqqan holda shularni ta'kidlash mumkinki, masalalarni yechish jarayonida qiyinchiliklarni chetlab o'tish uchun, birinchi navbatda, bakalavr matematiklarning matematika bo'yicha tayyorgarliklarini ta'minlash, ya'ni matematika kursida o'rganiladigan barcha umumiy qoidalarni va umumiy tasdiqlarni mustahkam o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Ikkinchidan, yechish rejasiga kiritilgan umumiy qoidalar, formulalar, ayniyatlar, ta'riflar, teoremlarni ketma-ket ishlatish tartiblarini ochish va amalga oshirishni bilishlari kerak.

ADABIYOTLAR

1. Методика преподавания математики в средней школе (общ.метод.) / сос.: Р.С.Чернасов – М., 1985.
2. Методика преподавания математики в средней школе (част.мет.) / сос Мышин В. – М., 1987.
3. Методика преподавания математики в средней школе (общ.метод.) / М.Ю.Колягин и др. – М., 1975.
4. Ачилов М. Нравственное формирование будущего учителя. – Ташкент: Укитувчи, 1979. – 328 с.
5. Алихонов С. Математика укитиш методикаси. – Ташкент: Укитувчи, 1962.
6. Тологанов Т., Норматов А. Математикадан практикум. – Тошкент: Укитувчи, 1989.



UDK:371:378 (575.1)

Aziza ABDULLAYEVA,

Tashkent State University of Economics English teacher of the “Center for teaching the Uzbek language and foreign languages”

E-mail: teacher.abdullayeva@gmail.com

Taylakova Dilnoza Norbekovna on the basis of the assessment of the Pedagogical Sciences

IMPROVING EDUCATIONAL SERVICES ON THE BASIS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

Annotation

This article aims to explore the enhancement of educational services by focusing on the cultivation of communicative competence among students. Communicative competence is a crucial skill that encompasses the ability to effectively convey and interpret messages in various contexts. By honing this skill, students can improve their communication abilities, which are essential for academic success and personal development. This article will delve into strategies for managing the development of communicative competence in students, including the integration of innovative teaching methods, the utilization of technology in educational settings, and the fostering of a supportive learning environment. Ultimately, by prioritizing the enhancement of communicative competence, educational institutions can better equip students with the skills needed to thrive in an increasingly interconnected and communication-driven world.

Key words: Educational services, communicative competence, student development, improvement strategies, innovative teaching methods, technology integration, supportive learning environment.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ НА ОСНОВЕ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Цель данной статьи - изучить возможности совершенствования образовательных услуг, уделяя особое внимание развитию коммуникативной компетентности у учащихся. Коммуникативная компетентность - это важнейший навык, который включает в себя способность эффективно передавать и интерпретировать сообщения в различных контекстах. Оттачивая этот навык, студенты могут улучшить свои коммуникативные способности, которые необходимы для успеха в учебе и личностного развития. В этой статье будут рассмотрены стратегии управления развитием коммуникативной компетентности учащихся, включая интеграцию инновационных методов обучения, использование технологий в образовательных учреждениях и создание благоприятной учебной среды. В конечном счете, уделяя приоритетное внимание повышению коммуникативной компетентности, образовательные учреждения могут лучше обучить учащихся навыкам, необходимым для процветания во все более взаимосвязанном и управляемом коммуникациями мире.

Ключевые слова: Образовательные услуги, коммуникативная компетентность, развитие учащихся, стратегии совершенствования, инновационные методы обучения, интеграция технологий, благоприятная учебная среда.

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH ASOSIDA TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolaning maqsadi o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor berib, ta'lim xizmatlarini takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganishdir. Kommunikativ kompetensiya - bu turli xil kontekstlarda xabarlarni samarali yetkazish va talqin qilish qobiliyatini o'z ichiga olgan muhim mahorat. Ushbu mahoratni oshirish orqali talabalar akademik muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin. Ushbu maqolada o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni boshqarish strategiyalari, jumladan, innovatsion o'qitish usullarini birlashtirish, ta'lim muassasalarida texnologiyalardan foydalanish va qulay o'quv muhitini yaratish ko'rib chiqiladi. Oxir oqibat, kommunikativ kompetensiyani oshirishga ustuvor ahamiyat berib, ta'lim muassasalari o'quvchilarga tobora o'zaro bog'liq va kommunikatsiyalarga asoslangan dunyoda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni yaxshiroq o'rgatishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim xizmatlari, kommunikativ kompetensiya, talabalarni rivojlantirish, takomillashtirish strategiyalari, innovatsion o'qitish usullari, texnologiyalarni birlashtirish, qulay o'quv muhiti.

Introduction. Effective communication is a fundamental skill that plays a crucial role in students' academic success, social interactions, and future career prospects. As educators, it is essential to focus on managing the development of communicative competence in students to enhance their ability to express themselves clearly, listen actively, collaborate effectively, and engage meaningfully with others. By improving educational services with a strong emphasis on communicative competence, schools can empower students to become confident and proficient communicators who are well-equipped to navigate the complexities of the modern world. In this context, this essay explores strategies and considerations for enhancing educational services based on managing the development of communicative competence in students [1].

Improving educational services through the management of communicative competence in students is a crucial aspect of fostering academic success and personal growth. By focusing on

enhancing students' communication skills, educators can create a more inclusive and engaging learning environment that promotes collaboration, critical thinking, and effective expression of ideas. Here are some key strategies for improving educational services based on managing the development of communicative competence in students:

Literature review.

1. Integration of Communication Skills:[2] Integrate communication skills development across all subjects and grade levels to ensure that students have ample opportunities to practice and enhance their verbal, written, and nonverbal communication skills.

2. Interactive Learning Activities: Incorporate interactive learning activities such as group discussions, debates, presentations, and collaborative projects that require students to communicate effectively with their peers and teachers.

3. Feedback and Reflection: Provide constructive feedback on students' communication skills and encourage them to reflect on their strengths and areas for improvement. Offer specific guidance on how they can enhance their communication abilities.

4. Language Development Support: Offer language development support for students who are English language learners or who may struggle with verbal communication. Provide resources and tools to help them improve their language skills.[3]

5. Professional Development for Educators: Provide professional development opportunities for educators to enhance their own communication skills and learn effective strategies for teaching communication skills to students.

6. Technology Integration: Utilize technology tools and platforms that facilitate communication and collaboration among students, such as online discussion forums, video conferencing, and digital storytelling tools.

7. Cultural Competence[4]: Promote cultural competence by encouraging students to engage in cross-cultural communication and understanding. Create a diverse and inclusive learning environment that values different perspectives and experiences.

8. Parent and Community Involvement: Involve parents and the community in supporting students' communicative competence development. Encourage open communication between educators, parents, and community members to create a strong support network for students.

Research Methodology. By implementing these strategies and emphasizing the importance of communicative competence in education, schools can create a more dynamic and enriching learning environment that prepares students for success in academics, careers, and life.

Improving educational services based on managing the development of communicative competence in students involves a comprehensive approach that focuses on enhancing students' ability to communicate effectively in various contexts [5]. Here are some additional strategies and considerations for improving educational services in this area:

- Differentiated Instruction: Tailor instruction to meet the diverse communication needs of students. Provide differentiated activities and assignments that accommodate different learning styles, language abilities, and communication preferences.

- Social-Emotional Learning (SEL): Incorporate social-emotional learning into the curriculum to help students develop self-awareness, social awareness, relationship skills, and responsible decision-making. Effective communication is a key component of SEL and can contribute to a positive school climate [6].

- Peer Feedback and Peer Assessment: Encourage students to provide feedback to their peers on their communication skills. Peer assessment can be a valuable tool for students to learn from each other and improve their own communication abilities.

- Role-Playing and Simulations: Use role-playing activities and simulations to help students practice real-life communication scenarios. This hands-on approach can enhance students' confidence and competence in communicating effectively in different situations.

- Public Speaking and Presentation Skills: Offer opportunities for students to develop public speaking and presentation skills through class presentations, debates, speeches, and other public speaking engagements. Provide guidance on structuring presentations, using visual aids, and engaging the audience.

- Collaborative Learning: Promote collaborative learning experiences that require students to work together on projects, solve problems, and communicate effectively to achieve common goals. Collaboration fosters teamwork, critical thinking, and communication skills [7].

- Professional Development for Educators: Provide ongoing professional development opportunities for educators to enhance their knowledge and skills in teaching communicative competence. Offer workshops, training sessions, and resources on effective communication strategies for educators.

Analysis and results.

- Assessment and Monitoring: Implement regular assessments to measure students' progress in developing communicative competence. Monitor students' communication skills through observations, rubrics, self-assessments, and performance tasks to identify areas for improvement.

- Community Partnerships: Collaborate with community organizations, businesses, and professionals to provide students with authentic communication opportunities outside the classroom. Engage guest speakers, mentors, and experts who can share their expertise and insights with students [8]. By implementing these strategies and fostering a communicative competence-focused approach in educational services, schools can empower students to become confident, articulate, and effective communicators who are well-prepared for success in academic, professional, and personal endeavors.

Conclusion/Recommendations.

In conclusion, improving educational services on the basis of managing the development of communicative competence in students is a vital step towards equipping students with the skills they need to succeed in various aspects of their lives. By focusing on enhancing students' ability to communicate effectively, educators can help them build strong relationships, collaborate successfully, and navigate the challenges they will face in their academic and professional journeys. Implementing strategies such as promoting active listening, providing opportunities for meaningful interactions, and offering feedback and support can go a long way in fostering communicative competence in students. Ultimately, by prioritizing the development of this essential skill, educational institutions can empower students to become confident and articulate communicators who are prepared to thrive in an increasingly interconnected and communication-driven world.

REFERENCES

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied linguistics*, 1(1), 1-47.
2. Byram, M., Gribkova, B., & Starkey, H. (2002). *Developing the intercultural dimension in language teaching: A practical introduction for teachers*. Council of Europe.
3. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Snow, M. A. (2014). *Teaching English as a second or foreign language*. Cengage Learning.
4. Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition*. Oxford University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and methods in language teaching*. Cambridge University Press.
6. Savignon, S. J. (2002). *Interpreting communicative language teaching: Contexts and concerns in teacher education*. Yale University Press.
7. Thornbury, S. (2005). *How to teach speaking*. Pearson Education.
8. Warschauer, M., & Kern, R. (Eds.). (2000). *Network-based language teaching: Concepts and practice*. Cambridge University Press.



Ilhom ABDURAZZOQOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: ilhomabdurazzoqovterdpi@gmail.com
Umida ESHBOYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Nortura XUDOYBERDIYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) S.Sattorov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES THROUGH “CLOUD TECHNOLOGIES” (IN THE CASE OF FOREIGN COUNTRIES)

Annotation

In this article, the role of cloud technologies in any field and the importance in the organization of the educational system, as well as the importance of applying the cloud-based teaching method to the national education process of our republic, the use of cloud technologies in foreign countries, the types of organization of cloud technologies, We thought about the advantages and disadvantages.

Key words: Cloud, Cloud technologies, Cloud service provision, Cloud technologies in USA, China, India.

ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАТИКЕ И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ ПОСРЕДСТВОМ «ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ» (НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН)

Аннотация

В данной статье рассматривается роль облачных технологий в любой сфере и значение в организации системы образования, а также важность применения облачного метода обучения в национальном образовательном процессе нашей республики, использования облачных технологий в зарубежных странах, виды организации облачных технологий, Мы подумали о преимуществах и недостатках.

Ключевые слова: Облако, Облачные технологии, Предоставление облачных услуг, Облачные технологии в США, Китае, Индии.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI “BULUTLI TEXNOLOGIYALAR” ORQALI O‘QITISHNING AHAMIYATI (XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada bulutli texnologiyalarning bugungi har qaysi sohada o‘rni va ta‘lim tizimini tashkil etishdagi ahamiyati, shuningdek, bulutli o‘qitish metodini respublikamiz milliy ta‘lim jarayoniga tadbiiq etishdagi ahamiyati, chet el davlatlarida bulutli texnologiyalardan foydalanish, bulutli texnologiyalarning tashkil etish turlari, avzalliklari va kamchiliklarini haqida fikr yuritdik.

Kalit so‘zlar: Bulut, Bulutli texnologiyalar, Bulutli xizmat taqdim etilishi, AQSH, Xitoy, Hindistonda bulutli texnologiyalar.

Kirish. Hozirda kun sayin yangilanayotgan har bir sohamizga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) juda katta sur‘atlarda joriy etilib, har bir sohamiz faoliyati samaradorligini oshirishda xizmat qilmoqda. Bugungi kunda har bir shaxs kundalik hayotini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz (televizor, radio, mobil telefonlari, kompyuter, planshet va eng yangi zamonaviy qurilmalar) tasavvur qilish qiyin. Jamiyat hayotidagi faol shaxslar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, turmushi mazmunini boyitadi, ish va ta‘lim olishdagi vazifalarini yengillashtiradi. Hozirgi davrda barcha sohalar qatorida ta‘lim tizimida ham barcha turli fanlarni o‘qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish va ulardan keng foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti YUNESKO da ham AKT ta‘limning ochiqligi va haqqoniyligini ta‘minlashga, o‘qitish sifatini oshirishga va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, tegishli siyosat, texnologiyalar va imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda, AKT ta‘limni boshqarish, yetakchilik va ma‘muriyatni yaxshilashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda mamlakatimiz ta‘lim tizimini isloh etishda yurtboshimiz tomonidan juda katta ishlar amalga oshirilmogda. Xorijiy mamlakatlarda informatika fanini o‘qitishdagi yangi g‘oyalar ham juda ko‘plab olimlarimiz tomonidan o‘rganilib kelinmogda va bulutli texnologiyalar ham hozirgi kunning yangi texnologiyalaridan biri hisoblanib, doimiy ravishda xorijiy davlatlar tajribasi faol mutaxassislar tomonidan o‘rganilib o‘zimizning nafaqat ta‘lim tizimiga, balki barcha sohalariga joriy

etilib borilmogda. Shu jumladan, professor o‘qituvchilar B.Z.Abduxalilov, N.B.Usmonova, G.M.Jamolova, S.Q.Tursunov, M.R.Fayziyeva, U.Yuldoshovlarning bu sohada qilayotgan ishlarni alohida e‘tirof etmoq lozim. Maktablarimizda dars jarayonini yanada samarali tashkil etishda Informatika va axborot texnologiyalari fanini yangi metodlardan foydalanib, shu jumladan, bulutli texnologiyalarni qo‘llashni ham ilg‘or pedagoglarimiz tomonidan taklif etilmogda.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirda bulutli texnologiyalar ta‘lim jarayonini samarali tashkil qilishning zamonaviy yangi usuli bo‘lib, ta‘lim jarayonini tashkil etishning an‘anaviy usullariga muqobil variantni taklif qiladi va shaxsiy ta‘lim, jamoaviy o‘qitish va interfaol imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida “bulutli” texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, doimiy ravishda yetakchi xorijiy davlatlar tajribasi keng o‘rganilmogda. Jumladan, ta‘lim jarayonida zamonaviy shaxs nafaqat bilim va ko‘nikmalar to‘plamini o‘rganishi, to‘plashi va jamoaga tadbiiq etish masalasi yotadi. Bulutli texnologiyalarni o‘qitishda ham turli zamonaviy metodlarni qo‘llash mumkin va bu foydalanuvchiga ortiqcha muammo tug‘dirmaydi.

Tahlil va natijalar. Bilamizki, zamonaviy ta‘limni IT va raqamli texnologiyalarsiz tassavur etish qiyin. Ta‘lim jarayonini bulutli texnologiyalar orqali tashkil etishdagi tahlil va tajriba jarayonlaridan, shuni aytayotgimizki, bulutli texnologiyalar bilan ta‘lim jarayonini tashkil etish ta‘lim tizimining yangi zamonaviy ko‘rinishidir. Bulutli texnologiyalar yordamida ta‘limni tashkil etishda xorijiy yetakchi davlatlarda ham alohida e‘tibor berilgan. Bulutli texnologiyalarning afzalligi va kamchiliklari haqida yetarlicha ma‘lumot berildi.


Men taklif o'rnida shuni ayta olamanki, Bulutli texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanishni doimiy ravishda Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tashkil etish va buni ommaga keng yoyish bizning ta'lim jarayonimizga samari foyda keltiradi.

Bulutli texnologiyalar

Bulutli texnologiyalar – bu model iste'molchiga ATni servis sifatida internet orqali namoyon qiladi. Bulutli hisoblashlarning yuzaga kelishida “virtualizatsiya” texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. “Bulutli texnologiyalar” tushunchasi (inglizcha “cloud computing”) ingliz va rus man'balarda keng ishlatiladi. O'zbek tilida bu termin tarjimasidan muallif foydalangan. T.N.Nishonboevning “Servisga yo'naltirilgan arxitektura” monografiyasida ham ushbu termin ko'p ishlatilgan.

Bugungi kunda biz bulutli hisoblash (cloud computing) deb ataydigan hisoblash tarmog'i jadallik bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud),

DropboxInc, Cisco, Oracle va boshqa ko'plab yirik kompaniyalar bugun o'z bulutli xizmatlar spektrini kengaytirishga katta e'tibor qaratishmoqda. Ko'plab xizmatlar bulutli tarmoqqa kiritilmoqda va foydalanuvchilar ular orasidan o'ziga kerakli xizmatlarni bulutdan olish imkoniyati yaratilgan. Dunyo miqyosida keng rivojlangan va rivojlanishda davom etayotgan bulutli hisoblash tizimlari O'zbekistonda ham bugun rivojlanishda davom etmoqda. Masalan, Huawei kompaniyasi bilan hamkorlikda yaratilgan Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (MQIM)ning ishga tushirilishi O'zbekistonda ham bulutli xizmatlarni rivojlantirish uchun katta ishlar olib borilayotganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda bulutli hisoblashlar sohasi va ular taqdim etayotgan xizmatlar spektri ham kengayib bormoqda. Xizmatlarning ko'payishi va qulayligi sababli uning iste'molchilari soni ham o'tirmoqda. Har qanday ta'lim shaklining pedagog mutaxassislari hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida bulutli texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy yondashuvlaridan keng foydalana olishi hamda bunda ish unumdorligining qay darajada o'sishi haqida kengroq ifoda etilgan.



1-rasm Bulutli hisoblash xizmatlarining tashkil etilishi

Bulut – AT-infratuzilma tashkilotlarining innovatsion modeli (konsepsiya) hisoblanib, u alohida ajratilgan va konfiguratsiyalangan apparat hamda tarmoq resurslaridan, dasturiy taminotdan tashkil topgan va ular masofadagi provayderlarni ma'lumotlar markazida yotadi.

Bulutli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

Bulutli texnologiyalarning afzalliklari

Iste'molchilar kompyuterlardan ishlash kuchi xarakteristikalariga qaramaydi. Kompyuterlar yuqori kuchda ishlashi uchun, katta xotira va ko'p hajmli disklarga ega bo'lgan bo'lishlari shart emas.

Iste'molchilar uchun kompyuterlarni ishlash sifati oshishi. Iste'molchilar kompyuter dasturlar, fayllarni masofadan turib ishga tushirishda kam yukli qilishlari uchun kam ilovalardan foydalanishlari kerak.

Xizmat ko'rsatishdagi va DTni sotib olishdagi xarajatlarni kamaytirish. Bulut hisoblash texnologiyalarini shaxsiy serverlarda qo'llanilishi kompaniya ko'lamida kichik hisoblanib, shuning uchun ularga xizmat ko'rsatish oson bo'ladi.

Hisoblash kuchi o'sishi. Shaxsiy kompyuterlar bilan bulutli hisoblash resurslarini solishtirganda, bulutli hisoblash resurslari katta imkoniyatlarga ega.

Operatsion tizim bilan mos kelishi. Bulutli texnologiyalar iste'molchilarda qanday operatsion tizim turganligiga qaramaydi.

Bulutli hisoblashlarda fayllardan erkin foydalanish imkoniyati mavjudligi. Agar ma'lumotlar bulutda saqlanilayotgan bo'lsa, bu ma'lumotlardan istalgan vaqtda iste'molchilar foydalanishlari mumkin.



2-rasm Bulutli texnologiyalarning afzalliklari

Bulutli texnologiyalarning kamchiliklari

Doimiy ravishda bizga ma'lumki, biror yangi texnologiyalarni joriy etish yoki foydalanishda uning ishlatish jarayonida yutuq va kamchiliklarini aytish mumkin. Bulutli texnologiyalarning ham hozir ishlatish jarayonidagi kamchiliklarini aytib o'tamiz.

Doimiy internet tarmog'i bilan aloqada bo'lishi lozim. Bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishda har vaqt tarmoq Internetga ulangan bo'lishi lozim.

Ishlash tezligi sekinligi. Ko'pgina bulutli servislar to'laqonli ishlashlari uchun normal Internet – ulanishni talab qiladi. Bu muammoni kelib chiqishini oldini olishda choralar ko'rilmogda va bu muammo tez orada hal qilinishiga ishonchimiz komil.

Dasturlarning sekin va to'liq funksional imkoniyatlarga ega bo'lmagan holda ishlashi. Bir necha dasturlar bulutli tizimlarda lokal kompyuter tizimiga qaraganda sekin ishlashlari mumkin.

Ma'lumotlar xavfsizligiga xavf borligi. Iste'molchilar tomonidan bulut texnologiyalariga qo'yilgan har bir ma'lumot xavfsizligi xavf ostida bo'lishi mumkin. Lekin bunda birinchi masala provayderga iste'molchining ishonishi muhimdir. Agar bulutli texnologiyalar provayderi ma'lumotlar almashishini ishonchli shifrlasa, zaxira nusxalasa va bulutli texnologiyalar sohasi bozorida o'ziga yarasha tajribaga ega bo'lsa bu holda xavfsizlik borasida muammolar tug'ilmaydi.



3-rasm. Bulutli texnologiyalar kamchiliklari.

Bulutli xizmat taqdim etilishi

Xususiy bulut – bu infratuzilma bulutli hisoblashni tadbiq etishda yagona tashkilot doirasida foydalaniladi.

Community cloud(jamoaviy bulut) – bu infratuzilmada bulutli hisoblashdan faqatgina tashkilotning alohida bir jamoasi, (bo'lim) foydalanishi mumkin.

Public cloud (ommaviy bulut) – bu infratuzilma bulutli hisoblash xizmatlaridan keng omma foydalanish imkoniyatiga ega.

Bulutli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi ahamiyati

Bugungi kunda bulutli hisoblash texnologiyalari asosida ta'lim tizimini tashkillashtirish bo'yicha ko'plab ishlanmalar ishlab chiqilgan.

Quyida keltirilgan tizim modeli bulutli texnologiyalar asosida yagona platformada ta'lim tizimini tashkillashtirish va boshqarishni tafsiya qilamiz.



4-rasm. Bulutli texnologiyalarda internet ta'lim tizimi.

Bulutli tarmoq platformasini tashkillashtirish uchun ko'plab serverlar bugungi kunda dunyo bo'ylab tashkil etilgan. Masalan, ommalashgan bulutli tizimlarga Yandeks.Disk va Disk Google kabilar misol bo'lishi mumkin. Ushbu bulutli serverlar orqali dunyoning istalgan joyidan serverga ma'lumot joylash, saqlash va boshqarish mumkin. Bulutli xizmatlarni tashkillashtirish uchun bugungi kunda ko'plab internet tizimlari mavjud. Ushbu tizimlarning eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilardan iborat:

- Box.net;
- Dropbox.com;
- Diigo.com;
- Smartsheet.com;
- Microsoft Office 365.

Xorijiy mamlakatlarda Bulutli texnologiyalardan foydalanish

AQSH da bulutli texnologiyalar:

Bizga ma'lumki, shubhasiz, bulutli hisoblash texnologiyalari boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda AQShda ham tez va juda keng rivojlanib bormoqda. Tengsiz taraqqiyotni kuzatdi. Aynan hozirgi kunda raqamlashtirishning ta'siri dunyo miqyosida kuchayib borayotgani sababli, bulutli saqlashga bo'lgan ehtiyoj dunyoning har bir mintaqasida kuzatilishi mumkin.

AQSH davlatining bulutli gigantlari Amazon, Microsoft va Google dunyoda global bulut bozorining 65 foizini egallaydi. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda bulutli texnologiyalarning rivojlanishiga 100 milliard dollardan ortiq mablag' sarflagan. AQSH mamlakatda Amazon Web Services, Microsoft Azure va Google Cloud Platform butun dunyo bo'ylab eng qulay va ishonchli bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda AQSh bulutli hisoblashlardan foydalanish bo'yicha dunyoda yetakchilik qilsada, Xitoy va Hindiston kabi Osiyo-Tinch okeani davlatlari ham gibrid ma'lumotlar markazlarini yaratishda oldinga siljishmoqda, shu sababli hukumat bulutli qurilmalarni yuqori darajada rivojlantirishda doimiy ravishda izlanishlar olib bormoqda.

Xitoyda bulutli texnologiyalar:

Xitoyda ham bulutli texnologiyalar rivojlanishida hukumat juda ko'p ishlarni amalga oshirgan. Bu mamlakat osiyoda bulutli texnologiyalar xizmatini taklif etish bo'yicha yetakchi o'rinda bormoqda.

Xitoyning bulutli hisoblash bozori 2022-yilda 30 milliard dollardan ortiq daromadga erishdi, bu 2021-yilga nisbatan 10 foizga ko'pdir. Biroq, Xitoy 2025-yilga kelib yillik daromadni 90 milliard dollarga oshirishni rejalashtirmoqda va bu borada ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Xitoyda ommaviy bulut xususiydan oldinda. Xitoyda davlat va xususiy bulutli hisoblashlar o'rtasida katta tafovut mavjud. Darhaqiqat, ommaviy bulutli hisoblash bozori xususiy bulutli hisoblashdan deyarli ikki baravar katta va u ham tezroq o'sib bormoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, Xitoyda bulutli hisoblash uchun eng katta xizmatlar Alibaba Cloud, Huawei Cloud, Tencent Cloud va Baidu AI Cloud bo'lib, ular umumiy Xitoy bulut bozorining deyarli 80 foizini tashkil etadi.

Alibaba Cloud-ning eng katta afzalliklaridan biri uning keng tarmog'ida. Haqiqatan ham, 2023-yil holatiga ko'ra, kompaniya butun dunyo bo'ylab 30 ta joyda joylashgan 89 ta ma'lumot markazlarida ishlay oladi va ularning yarmi faqat Xitoyda joylashgan.

Hindistonda bulutli texnologiyalar:

Hindistonda Bulutli hisoblash va IT sohasi juda tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Hindistonda ushbu yangi bulutli texnologiyalarga moslashish uchun doimiy ravishda mutaxassislar qayta o'qitilib shu soha bo'yicha yangi kadrlar ishlab chiqarilmoqda. Hindistondagi bulutli hisoblash infratuzilmasi doimiy ravishda rivojlanmoqda.

Hindistonda bulutli xarajatlar yiliga 30 foizga o'sib, 2024-yilda 9,1-9,2 milliard dollarga yetishi taxmin qilinmoqda.

Hindiston hukumati Microsoft India Pvt Ltd, Bharat Sanchar Nigam Ltd (BSNL), Hewlett Packard Enterprise India Ltd (HP), IBM India Pvt Ltd va Sify Technologies Ltd kabi xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni GI Cloud (MeghRaj) tarkibiga kiritdi. Ushbu tashabbusdan maqsad davlat idoralari uchun elektron xizmatlarni monitoring qilish va ushbu xizmatlardan to'laonli foydalanishdan iboratdir.

Hindiston IT bozori bulutli texnologiyalar borasida moslashuvchanlik va ish unimdorligini bilishib undan keng foydalana boshladi. Shuni inobatga olib yaqin kelajakda Hindistonda bulutli texnologiyalar yanada rivojlanishiga imkonimiz komildir.

Xulosa. Bu xizmatlarni taqdim etuvchi turli xil tushunchalarni o'z ichiga olgan bitta katta tushunchadir. Masalan, dasturiy ta'minot, infratuzilma, platforma, ma'lumotlar, ish joyi va boshqalar.

Ikkinchidan, xizmatga, ayniqsa, murakkab hisob-kitoblarni bajarish yoki ma'lumotlar qatorini saqlash buyurilganida, "kommunal hisoblash" (kommunal hisoblash). Uchinchidan, bu kollektiv (tarqatilgan) hisoblash (gridcomputing). Amalda, ushbu barcha turdagi hisob-kitoblar orasidagi chegaralar yetarlicha loyqa. Biroq bulutli hisoblashning kelajagi yordamchi va tarqatilgan tizimlarga qaraganda ancha katta.

ADABIYOTLAR

1. Bulutli texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.E.Delov. – Toshkent, 2020. – 217 b.
2. Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich (2022). Fransiya va avstraliya davlatlarida informatika va axborot texnologiyalari fanining rivojlanishi, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar // World Scientific Research Journal. – № 8 (1). – B. 123-126.
3. Iacopo Falciani (2020). "Flipped classroom". Europass Teacher Academy. Retrieved 2022-12-16.
4. Abdurazzoqov I.R. & Mamatmurotov R.S. o'g'li. (2023). Xorijiy davlatlar tajribasi asosida informatika ta'limi samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar. Scholar. – № 1 (28). – B. 323-328.
5. Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich. (2022). Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda informatika va axborot texnologiyasi fanining o'rni // PEDAGOGS Jurnali. – № 20 (1). – B. 58-61.
6. Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich. (2022). Fransiya va avstraliya davlatlarida informatika va axborot texnologiyalari fanining rivojlanishi, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar // World Scientific Research Journal. – № 8 (1). – B. 123-126.
7. Bell T., Andreae P., Robins A. Yangi Zelandiya maktablarida informatikani joriy etish bo'yicha amaliy tadqiqot // Kompyuter ta'limi bo'yicha ACM operatsiyalari (TOCE), 2014. 14-jild. 2. – S. 10-43.
8. Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI // World Scientific Research Journal. – № 25 (1). – B. 86-90. Retrieved from.
9. Eshboyev Umid Shuxratovich & Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR" ORQALI O'QITISH (XORJIY DAVLATLAR MISOLIDA) // World Scientific Research Journal. – № 25 (1). – B. 79-85.



Yusufjon AZIMOV,

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasida katta o‘qituvchisi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori D.Kulmuradov taqrizi asosida

THE METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS THROUGH THE PROBLEM-BASED TEACHING METHOD IN THE PROCESS OF PHYSICS TEACHING

Annotation

The article analyzes the issues of conditions for the development of creative thinking when using a problem-based learning model in the process of teaching physics. It is noted that the use of problem-based learning in the educational process in secondary schools is one of the pressing issues.

Key words: Problem-based learning, problem-based presentation of knowledge, solving problems, conducting small-scale research projects, problem-based learning, explanation in the form of illustrations, informational training, programmed training.

FIZIKA O‘QITISH JARAYONIDA MUAMMOLI TA‘LIM METODI ORQALI O‘QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotsatsiya

Maqolada fizikani o‘qitish jarayonida muammoli ta‘lim berish modelini qo‘llash orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishning shart-sharoitlari masalalari tahlillar ostiga olingan. Umumta‘lim maktablarida muammoli ta‘lim berishning o‘quv jarayoniga tadbiiq etish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biriligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoli ta‘lim, bilimlarni muammoli bayon qilish, muammoli topshiriqlarni hal qilish, kichik ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish, muammoli o‘qitish, illyustratsiya tarzida tushuntirish, axborot-ma‘lumot, dasturlashgan ta‘lim.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ПРОБЛЕМНЫЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ

Аннотация

В статье анализируются вопросы условий развития творческого мышления при использовании проблемной модели обучения в процессе обучения физике. Отмечается, что применение проблемного обучения в образовательном процессе в общеобразовательной школе является одним из актуальных вопросов.

Ключевые слова: Проблемное обучение, проблемное изложение знаний, решение проблемных задач, проведение малых научно-исследовательских работ, проблемное обучение, объяснение в форме иллюстраций, информационно-информационное обучение, программированное обучение.

Kirish. Muammoli ta‘lim berish – fandan o‘quv materialini o‘quvchi ilmiy izlanishlarga asoslangan holda, bilim berish vazifalari va muammolarini yuzaga keltiradigan mukammal pedagogik usulda o‘rgatish metodikasiga aylanib bormoqda. Bunday metodikadan foydalanishdan maqsad, o‘quvchini fanga qiziqtirish bilan fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishni, ularni obyektiv ravishda muammoni hal etish uchun izlanish o‘tkazish va mantiqiy fizik qonunlarga muvofiq ilmiy xulosalar chiqarishda kreativ fikrlashni rivojlantirishga da‘vat etishdan iboratdir.

Fizika fanidan ta‘lim berish jarayonida muammoli ta‘lim turlari (bilimlarni muammoli bayon qilish, muammoli topshiriqlarni hal qilish, kichik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish)ni qo‘llash, o‘quvchilarni ta‘lim olishga undash va uni rag‘batlantirib borishni, dars davomida ijodiy ta‘lim muhitini yuzaga keltirishni, darsga oid ko‘rgazmali qurollar, jihozlar va asboblardan unumli foydalanishni, o‘quvchilarning faolligini oshirishni ta‘minlaydi [1].

XVIII asrning nemis pedagogi va liberal siyosatchisi Adolf Diesterverg: “Yomon o‘qituvchi haqiqatni ochib beradi, yaxshi o‘qituvchi uni topishni o‘rgatadi”, degan edi. Biz yaxshi o‘qituvchi bo‘lishni istasak o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish usullaridan biridan foydalanib, fizika darslarida ham muammoli vaziyatlarni yaratilish lozim deb hisoblaymiz.

Muammoli o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini hal etish, balki ularni kreativ fikrlashga undab ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Bu o‘qituvchiga, o‘quvchilarga eng samarali yo‘lni taxminlash imkoniyatini beradi. Bu, birinchi navbatda, ilmiy bilimlarning rivojlanish jarayonining muammoli, ziddiyatli, dialektik mohiyatini ochib berishdir.

Bunday topshiriqlarda o‘quvchilar nafaqat fizika va texnika, ishlab chiqarish o‘rtasidagi jonli bog‘liqlikni ko‘radi,

balki ularni bajarish orqali jismoniy va texnik ijodkorlikka qiziqish ham uyg‘otishi mumkin.

Muammoli ta‘limning kasbga yo‘naltirish ahamiyati muammoli topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning guruhlariga nisbatan tez “ajralishi” kuzatilishi bilan bog‘liq. Muayyan fanga, ayni paytda, fizika faniga layoqatga ega bo‘lganlar va bo‘lmaganlar aniqlanadi. Qiziqishlarning diqqat markazi va chuqurligi ochib beriladi. O‘quvchilarning kreativ ijodkorlik darajasi ortadi.

Shuningdek, fizikani o‘qitishda illyustrativ materiallardan foydalanish, ko‘rish orqali ma‘lumotlarni o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy kishi kreativ fikrlay olishi, kuzata olishi, muhokama qila olishi, taklif kirita olishi, ma‘lumotning turli manbalari bilan ishlay olishi kerak.

Hozirgi zamonda o‘qitish jarayoni har bir o‘quvchi uchun turli-tumanlashtirish va uni yanada qiziqarli qilish uchun zamonaviy elektron vositalarining imkoniyatlari yetarlicha keng.

Qoidaga ko‘ra, insonda ko‘rish bilan bog‘liq xotirasi hammadan ko‘ra rivojlangan, shu tufayli ko‘rish (obrazlari) har qanday o‘quv jarayonida faol qo‘llaniladi. Ko‘rish obrazlari dunyoning fizik tasavvurini to‘g‘ri shakllantirishga imkon beradi.

Rasmga oid masalalarni yechish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning uchta asosiy bosqichi mavjud:

Birinchi bosqich. O‘quvchilarda faqat diqqat, harakatlarda aniqlik va izchillikni talab qiladigan vazifalar taklif etiladi.

Masalan, “Doimiy elektr toki” mavzusidagi tasvirlangan elementlarini an’anaviy belgilar bilan almashtiradi, o‘lchov asboblari, qurilmalar v.h. lari ko‘rsatkichlarini aniqlaydi. Bu o‘quvchilar ongida yopiq elektr zanjirining umumlashtirilgan tasvirini yaratadi va uning asosiy tushunchalarini shakllantiradi.

Birinchi bosqich bilan taqqoslanganda, ikkinchisi ancha murakkab. U yanada murakkab vazifalar bilan tavsiflanadi. Murakkab vazifalar fizikaning asosiy qonunlarini bilishga asoslangan mustaqil faoliyatni (to'liq yoki qisman) nazarda tutadi. Muvoffaqiyat vazifalar tizimini qurish ketma-ketligiga bog'liq.

Qurilmalarni shakllantirishning yakuniy uchinchi bosqichi talabalarning amaliy faoliyatini o'z ichiga oladi[2]. Amaliy faoliyat bajarish jarayonida (ushlab ko'rish) xissi orqali tasviriy tasavvurlar tozalanadi va boyitiladi. "Virtual" (ko'rgazmali) masalalar laboratoriya ishlarini bajarishga zamin yaratadi.

Fizika darslarida axborot texnologiyalarini qo'llash zamon talabidir. Zamonaviy sharoitda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarning ma'lum miqdorda bilim olishigina emas, balki ularda bilimlarni mustaqil egallash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilimlarni mexanik tarzda o'zlashtirishdan mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga o'tish, o'quvchilarni axborot bilan ishlashning zamonaviy usullari bilan tanishtirish imkoniyatini beradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holdagi dars sifat jihatdan yangi turdagi dars bo'lib, unda o'qituvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullarini an'anaviy pedagogik texnologiyalar bilan muvofiqlashtiradi, bu esa o'quvchilarda o'ziga ma'qul rejimda ishlash imkonini beradi. Bundan tashqari, o'quvchining o'zi o'rganishi mumkin bo'lgan (bu esa eng muhimi) o'quv materialining darajasini tanlaydi.

Natijada, axborot texnologiyalarga to'g'ri tanlangan o'qitish texnologiyalari bilan birgalikda o'qitishning zaruriy sifat darajasini hamda individualligini yaratadi.

Ko'rgazmali kompyuter dasturlarini ishlab chiqishda shuni yodda tutish kerakki, psixologik va pedagogik talablarga muvofiq namoyishning optimal davomiyligi 8-10 minutni tashkil qiladi, chunki aynan shu vaqt oralig'ida talabalarning diqqatini yuqori darajada ushlab turish mumkin.

Dars jarayonida muammoli vaziyatning yuzaga kelishi o'quvchining ma'lum bir psixologik holatida o'z ifodasini topadi. Bunday vaziyat o'quvchining ma'lum bir topshiriqlarni bajarish (masala yechishda yoki savolga javob topishda) jarayonidagi ichki va tashqi ziddiyatlarning ta'siri tufayli yuzaga chiqadi[3]. O'quvchining yuzaga kelgan vaziyatni anglab yetishi, berilgan topshiriqni bajarishning usullari yoki shartlari haqidagi yangi bilimlarni qidirib topish ehtiyojini paydo qiladi.

Fizika fanidan o'quvchilarning nazariy tushunchalarni amaliy tajribalar orqali qo'llay olishlari juda muhimdir. Bu esa loyihalar g'oyalarni tuzish va ularni hal qilish orqali nafaqat o'quvchilarga fizika tamoyillarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, balki, ularda qiziquvchanlik va izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Quyida qiziqarli va tarbiyaviy bo'lishi mumkin bo'lgan maktab fizikasi loyihalari uchun ba'zi g'oyalar mavjud:

1. Uy sharoitida (qo'lbola) termometr yasash: Ushbu loyiha sizga termometr qanday ishlashini va haroratni qanday o'lchashni tushunishga imkon beradi. Shisha butilka, suv va kapillyar naycha kabi uy-ro'zg'or buyumlari yordamida termometr yasashingiz, keyin uni turli harorat diapazonlari yordamida sozlashingiz mumkin.

2. Optik tajribalarga asoslangan loyiha: ushbu loyihada talabalar optika va yorug'likning sinishi tamoyillarini o'rganishlari mumkin. Bu linzalar, nometall va prizmalar kabi turli xil materiallar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, yorug'likni aks ettirish qanday ishlashini tushunish uchun ko'zga yordamida periskop qurish mumkin.

3. Qayta tiklanadigan energiya tajribasi: mazkur loyiha talabalarga qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rganish imkonini beradi. Ular plastik shisha, parrak va motor kabi oddiy materiallardan foydalanib, kichik shamol turbinasi qurishlari mumkin. Keyin ular turli xil shamol sharoitida shamol turbinasi tomonidan ishlab chiqarilgan energiya miqdorini o'lchash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'qituvchining muammoli ta'lim metodidan foydalanib, olib boriladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlaydigan o'quv materialida quyidagilarni rejalashtirish talab etiladi[4]:

o'rganiladigan mavzuning maqsad va vazifalari, uni muammoli ta'lim vositasida o'rganish imkoniyatlari; mavzuni o'rganishda o'quvchilarga beriladigan muammoli savollar va topshiriqlarning mazmuni; o'quvchilarning muammoli topshiriqlarni yechishga xizmat qiluvchi, avvalgi o'rgangan bilim zaxiralari; muammoli topshiriqlarni hal etishga yordam beruvchi o'quvchilarning ko'nikma va malakalari; topshiriqlarni yechishga qanday ko'rgazmali qurollar, vositalar kerak bo'lishi; muammoli topshiriqlarni yechish natijasida bilim va ko'nikmalarning taxminiy hajmi; qilingan ishlar va ularning natijalaridan, qanday xulosalar chiqarish lozimligi haqidagi ishlar.

O'quvchining qiziqishlarini keltirib chiqara olmaydigan har qanday savol, uning muammoni hal etish uchun ichki intilishini uyg'ota olmaydi. Demak, savollar o'quvchining ichki tuyg'ularini uyg'ota oluvchi, fikrlash qobiliyatini faollashtiruvchi, o'zida qandaydir qarama-qarshiliklarni ifodalovchi shaklda tuzilishini talab etadi.

Albatta, dars jarayonini tashkil etishda muammoli o'qitish metodidan foydalanish, o'quvchining o'quv materialini o'rganish ketma-ketligini va materialni tahlil etishga o'ziga xos yondoshuvni talab etadi[5]. Bunday holatda savollar o'quv muammosini ifoda etishi kerak. Qo'yilgan savollar o'zida ma'lum muammoni keltirib chiqarib, ta'lim masalasini o'zida aks ettirishi zarur. O'quvchilarni muammoli masalaning muhokamasida faol ishtirokini ta'minlash uchun, o'qituvchi muammoli savollarni o'rtaga tashlaydi. O'quvchilarning muammoli masalani yechish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash maqsadida, ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib, muammoli o'qitishni turli darajali bosqichlarda tashkil etishi mumkin[6].

1. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uning yechimini topib beradi, qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga majbur etadi.

2. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

3. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar mustaqil fikrlab, muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topadilar.

4. Bu bosqichda o'qituvchi o'qitish sohasini belgilamaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni va yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Xulosa. Muamoli ta'lim berish usuli bir qancha afzalliklarga ega:

qanday qilib samarali natijaga erishib o'qitish mumkin degan (qanday, nimaga, nima uchun o'qitish kabi) savollarga javob topiladi;

o'qituvchining mehnat samaradorligini oshirib, ishidan qoniqish hosil qiladi;

dars jarayonida har bir o'quvchining xarakteri va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, pedagogik jarayonni tashkil qilish, bilim natijalarini baholashda esa sub'ektiv (xususiy) baholashdan o'qituvchini ozod etish imkonini beradi;

o'qitish jarayonida o'qitish vositalariga yuklanadigan bosh vazifalar, o'qituvchining dars vaqtidan samarali foydalanib, har bir o'quvchi bilan ishlash imkonini beradi;

bilimlarni sub'ektiv baholashga imkon bermasdan, uni nazorat qilish va monitoringining shaffofligini ta'minlab, ob'ektiv baholash imkoniyatini keltirib chiqaradi;

muammoli o'qitish metodi o'quvchilar (mantiqiy, tanqidiy va kreativ) fikrlashlarining rivojlanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Bahromov A, Yuldasheva M. Fizika. 9-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: G'afur G'ulom, 2010. – 128 b.
2. Сериков В.В. Развитие личности в образовательном процессе / В.В.Сериков. – Москва: Логос, 2012. – 447 с.

3. Axmadaliev S.Y. Kasbiy yo'naltirilgan muammoli o'qitish texnologiyasi. <https://cyberleninka.ru/article>.
4. Складенко А.Н. Технология формирования компетенций // методические рекомендации для преподавателя. – Москва, 2011. – 106 с.
5. Гаврилова Г.Н., Гаврилова Е.В. Развитие креативности у учащихся. Монография. – Чебоксары, 2012. – С. 76-80.
6. Складенко А.Н. Технология формирования компетенций // методические рекомендации для преподавателя. – Москва, 2011. – 106 с.



G'iyosiddin AKRAMOV,
UBS "Ijtimoiy-fanlar" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: akramovgiyosiddin@mail.ru

Falsafa fanari bo'yicha falsafa doktori, dotsent D.Alibekov taqrizi asosida

PHILOSOPHY AND MARGINALIZATION: THE CONTRIBUTION OF PHILOSOPHICAL IDEAS TO THE UNDERSTANDING OF MARGINALIZATION

Annotation

The article is a brief description of the main ideas, arguments and conclusions presented in the work. The article explores how philosophical concepts and theories contribute to a deep understanding of the phenomenon of marginalization in various social contexts. The authors analyze the contribution of various philosophical trends - from existentialism to poststructuralism - in understanding the mechanisms of exclusion, stigmatization and discrimination, as well as the possibility of overcoming them. Particular attention is paid to the influence of philosophical ideas on the development of strategies for inclusion and sustainability of social groups located on the periphery of society.

Key words: Philosophy of social justice, marginalization and exclusion, theories of identity, structural inequalities, phenomenology of the other, ethics of responsibility, critical social theory, postcolonial criticism, intersectionality, philosophy of power, alternative epistemologies.

ФИЛОСОФИЯ И МАРГИНАЛИЗАЦИЯ: ВКЛАД ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В ПОНИМАНИЕ МАРГИНАЛИЗАЦИИ

Аннотация

Статья представляет собой краткое описание основных идей, аргументов и выводов, изложенных в работе. Статья исследует, как философские концепции и теории способствуют глубокому пониманию явления маргинализации в различных социальных контекстах. Авторы анализируют вклад различных философских направлений – от экзистенциализма до постструктурализма – в осмысление механизмов исключения, стигматизации и дискриминации, а также возможности их преодоления. Особое внимание уделяется влиянию философских идей на разработку стратегий инклюзии и устойчивости социальных групп, находящихся на периферии общества.

Ключевые слова: Философия социальной справедливости, маргинализация и исключение, теории идентичности, структурные неравенства, феноменология другого, этика ответственности, критическая теория общества, постколониальная критика, интерсекциональность, философия власти, альтернативные эпистемологии.

FALSAFA VA MARGINALIZATSIYA: FALSAFIY G'OYALARNING MARGINALIZATSIYANI TUSHUNISHGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya

Maqolada ishda keltirilgan asosiy g'oyalari, dalillar va xulosalarning qisqacha tavsifi. Maqolada falsafiy tushunchalar va nazariyalar turli ijtimoiy kontekstlarda marginalizatsiya hodisasini chuqur tushunishga qanday hissa qo'shishi o'rganiladi. Mualliflar har xil falsafiy yo'nalishlarning – ekzistensializmdan poststrukturalizm gacha – istisno, stigmatizatsiya va diskriminatsiya mexanizmlarini tushunishga qo'shgan hissasi hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Falsafiy g'oyalarning jamiyatning chekkasida joylashgan ijtimoiy guruhlarini qamrab olish va barqarorlik strategiyasini ishlab chiqishga ta'siriga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy adolat falsafasi, marginalizatsiya va istisno, o'ziga xoslik nazariyalari, tarkibiy tengsizliklar, boshqaning fenomenologiyasi, javobgarlik etikasi, tanqidiy ijtimoiy nazariya, postkolonial tanqid, kesishish, hokimiyat falsafasi, muqobil gnoseologiya.

Kirish. Marginalizatsiya-bu odamlarning ayrim guruhlari o'zlarini ijtimoiy hayotning chekkasida topish jarayoni, bu ularni jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarida to'liq ishtirok etishdan chetlashtirishga olib keladi. Falsafa, o'z navbatida, ushbu hodisani tahlil qilish va tushunish uchun noyob vositalarni taklif etadi, adolat, tenglik, o'ziga xoslik va marginallashtirishning asosiy tamoyillarini o'rganadi[1]. Tarixiy jihatdan, turli davrlar va yo'nalishdagi faylasuflar Platon va Aristotel kabi qadimgi yunon mutafakkirlaridan tortib, Mishel Fuko va Judit Butler kabi zamonaviy faylasuflargacha bo'lgan ijtimoiy adolat va istisno mavzulariga to'xtalib o'tdilar. Ushbu mutafakkirlar ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar hokimiyat va resurslarning taqsimlanishiga qanday ta'sir qilishini va bu marginal guruhlariga qanday ta'sir qilishini tahlil qildilar.

Frankfurt maktabi asarlarida paydo bo'lgan tanqidiy nazariya marginallashtirishni qo'llab-quvvatlovchi g'oyalari va ijtimoiy tuzilmalarni tanqidiy tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Maks Xorkkaymer va Teodor Adorno kabi nazariyotchilar madaniy va iqtisodiy mexanizmlar marginal guruhlarini bostirishga qanday hissa qo'shishini o'rganishdi. Fenomenologiya, ayniqsa Moris Merlot-Ponti va Emmanuel Levinasning asarlarida marginalizatsiya tajribasini birinchi shaxs nuqtai nazaridan tushunish uchun vositalarni taqdim etadi[2]. Ushbu yondashuv

istisno mexanizmlarini tushunish uchun kalit sifatida shaxsiy tajriba va dunyo bilan o'zaro munosabatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Marginalizatsiya-bu zamonaviy jamiyatning turli jabhalariga kirib, ko'plab odamlar va guruhlarini ortda qoldiradigan hodisa. Bu istisno, tengsizlik, kamsitish va ijtimoiy tizimning chekkasida bo'lganlar uchun cheklangan imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Falsafa intizom sifatida bizga marginalizatsiya kabi murakkab hodisalarni tahlil qilish va tushunish uchun vositalarni taqdim etadi. Ushbu maqolada biz falsafiy g'oyalarning marginallashtirish haqidagi tushunchamizga qo'shgan hissasi va falsafa ushbu qiyinchiliklarni engishga yordam beradigan usullarni o'rganamiz. Falsafa marginallashtirishning asosi bo'lgan ijtimoiy tuzilmalarga tanqidiy nuqtai nazarni taqdim etadi. Bu bizga qanday mexanizmlar va institutlar tengsizlik va kamsitishni qo'llab-quvvatlayotganini tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy falsafa va tanqidiy nazariya kabi falsafiy oqimlar ijtimoiy munosabatlarni hokimiyat kontekstida tahlil qilib, ma'lum guruhlarning marginallashtirishiga olib keladigan bostirish va boshqarish mexanizmlarini aniqlaydi.

Falsafa marginallashtirishning axloqiy jihatlariga ham e'tibor beradi. Bu jamiyat chetida qolganlarga nisbatan qanday mas'uliyatimiz borligi haqida fikr yuritishga yordam beradi[3].

G'amxo'rlik, adolat va o'zaro qo'llab-quvvatlash axloqi marginallashtirish haqidagi falsafiy mulohazalarda Markaziy o'rinni egallaydi va bizni har bir insonni qimmatli va teng deb bilishga undaydi. Marginalizatsiya ko'pincha madaniy tushunchalar va stereotiplarga asoslangan. Falsafa bizga "norma" va "og'ish" haqidagi g'oyalarni qanday mafkuralar va nutqlar shakllantirishini va bu tushunchalar muayyan guruhlarining ijtimoiy qo'shilishi yoki chiqarib tashlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Marginallashtirish falsafiy muhokama qilishning Markaziy jihatlaridan biri bu tenglik g'oyasi. Falsafa har bir inson teng imkoniyat va huquqlarga ega bo'lgan jamiyatga intilish uchun asos yaratib, adolat va tenglik haqida fikr yuritishga yordam beradi. Falsafa marginallashtirish haqidagi tushunchamizda muhim rol o'ynaydi, bu bizga tanqidiy tahlil, axloqiy fikrlash va ijtimoiy faollik uchun vositalarni taqdim etadi. Uning hissi har bir inson tenglik va hurmat huquqiga ega bo'lgan yanada adolatli va inklyuziv jamiyatga intilishimizga yordam beradi. Marginalizatsiya, ijtimoiy hodisa sifatida, har doim faylasuflarning e'tiborini tortgan, chunki u adolat, tenglik va inson qadr-qimmatining asosiy masalalariga to'xtalib o'tadi. Falsafa marginallashtirish mexanizmlarini tushunishda va uni engish uchun yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi[4]. O'z mohiyatiga ko'ra, marginalizatsiya-bu ma'lum guruhlar yoki shaxslar o'zlarini jamiyatning chekkasida topadigan, resurslar, imkoniyatlar va tan olinishdan mahrum bo'lgan jarayon yoki holat. Ushbu guruhlariga ozchiliklar, kambag'allar, nogironlar, muhojirlar va boshqa ijtimoiy zaif toifalar kirishi mumkin. Falsafa marginalizatsiya nafaqat individual saylovlarning natijasi, balki ijtimoiy tuzilmalarning tizimli nuqsoni ekanligini tushunishga yordam beradi.

Falsafiy g'oyalarning marginallashtirish tushunishga qo'shgan asosiy hissalaridan biri bu tengsizlikning ildizlari va tabiatini tahlil qilishdir. Aristoteldan tortib zamonaviy mutafakkirlargacha bo'lgan faylasuflar odamlarni chetga surib qo'yadigan narsalar haqida fikr yuritdilar. Ular ijtimoiy sinf, irqiy yoki etnik kelib chiqishi, jinsi va boshqalar kabi omillarni ajratib, ularning jamiyat tuzilishi va shaxslarning imkoniyatlariga ta'sirini o'rganishdi[5]. Masalan, Mishel Fuko va Per Burdierning asarlari ma'lum guruhlarining marginallashtirishiga yordam beradigan ijtimoiy kamsitish va hokimiyat mexanizmlarini ochib beradi. Yana bir muhim jihat – marginallashtirish axloqiy va axloqiy jihatlarini ko'rib chiqish. Falsafa ushbu hodisa bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlashga va hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini ko'rib chiqishga yordam beradi. Buning uchun adolat, tenglik, erkinlik va qadr-qimmat kabi tushunchalar qo'llaniladi. Faylasuflar, shuningdek, ijtimoiy siyosatni shakllantirishda marginal guruhlarining ovozi va tajribasini hisobga olishning muhimligiga e'tibor berishadi.

Marginallashtirish muammosini hal qiladigan asosiy falsafiy yo'nalishlardan biri bu feministik falsafadir. U gender tengsizligi va patriarxal tuzilmalarning ayollarning jamiyatdagi mavqega ta'siri masalalarini ko'taradi. Feminist faylasuflar ayollarni marginallashtirishni yaratadigan va qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy va madaniy omillarni tahlil qiladilar va ozodlik va inklyuziya tushunchalarini taklif qiladilar. Shuni ta'kidlash kerakki, falsafa nafaqat marginalizatsiya muammosini tahlil qiladi, balki uning echimlarini izlashga konstruktiv hissa qo'shadi. Falsafiy g'oyalar tengsizlikni yumshatish va adolatli jamiyat yaratishga qaratilgan ijtimoiy va siyosiy strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, falsafa marginallashtirish tushunish va engishda muhim rol o'ynaydi. Bu hodisaning ildizlarini ochishga, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ochib berishga yordam beradi,

shuningdek, har bir inson teng imkoniyat va huquqlarga ega bo'lgan yanada inklyuziv jamiyat qurish yo'llarini taklif qiladi.

Falsafaning marginalizatsiya kontekstida ko'tarilgan asosiy savollaridan biri bu adolat va tenglik masalasidir. Faylasuflar kabi Jon Roulz, Amartiya Sen, Marta Nussbaum va boshqalar adolat va tenglikning turli jihatlarini va ularning marginallashtirishga bo'lgan munosabatini o'rganishdi[6]. Ularning ta'kidlashicha, marginalizatsiya adolat tamoyillarini buzadi va tengsizlikni keltirib chiqaradi, bu esa odamlarning ayrim guruhlarining huquq va imkoniyatlarini buzilishiga olib keladi. Mishel Fuko va boshqa tadqiqotchilarning kuch va hukmronlik sohasidagi ishlaridan ilhomlangan faylasuflar hokimiyat mexanizmlari marginallashtirishga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladilar. Ular ijtimoiy tuzilmalar va institutlar nazorat, kamsitish va majburlash mexanizmlari orqali marginallashtirish qanday qo'llab-quvvatlashini o'rganadilar. Falsafa kuch va hukmronlik qanday shakllanishi va saqlanishi va marginallashtirishga qarshi kurashish uchun ularni qanday engish mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Sharlotta Vitgenshteyn va Jak Derrida kabi faylasuflar marginalizatsiya sharoitida o'ziga xoslik va tan olinishning rolini o'rganishdi. Ular etarlicha aniqlanmagan guruhlarini tan olmaslik yoki tan olmaslik ularning marginallashtirishini qanday kuchaytirishi mumkinligiga e'tibor berishadi. Falsafa o'ziga xoslikni shakllantirishga qanday madaniy va ijtimoiy omillar ta'sir qilishini va ularni qabul qilish va inklyuzivlikni yaxshilash uchun qanday o'zgartirish mumkinligini tushunishga yordam beradi. Karol Gilligan va Nel Noddings kabi faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan g'amxo'rlik etikasi tushunchalari, shuningdek, Richard Rorti va Ayn Rand tomonidan muhokama qilingan ijtimoiy adolat g'oyalari marginallashtirish axloqiy jihatlarini tushunishga yordam beradi[7]. Ular jamiyat chekkasida bo'lganlarga g'amxo'rlik qilish muhimligini va resurslar va imkoniyatlarni adolatli taqsimlash uchun sharoit yaratishga intilishni ta'kidlaydilar.

Falsafa bilim sohasi sifatida borliq, inson mavjudligi va ijtimoiy munosabatlarning ma'nosini tushunishga intiladi. Faylasuflar o'z tadqiqotlarida marginallashtirishning ildizlari va mexanizmlariga, shuningdek, unga qarshi kurashishning mumkin bo'lgan yo'llariga e'tibor berishadi. Ular marginallashtirish nafaqat ijtimoiy hodisa, balki adolat, tenglik va inson qadr-qimmatini haqidagi falsafiy savol sifatida ham ko'rishadi. Marginallashtirish tushunishga yordam beradigan asosiy falsafiy tushunchalardan biri bu frantsuz faylasufi Emmanuel Levinas tomonidan kiritilgan "boshqasi" (l'autre) tushunchasidir[3]. Levinasning ta'kidlashicha, bizning o'zimiz va dunyo haqidagi tushunchamiz boshqa odam bilan uchrashish orqali shakllanadi, u biz uchun doimo sir bo'lib qoladi va uning oldida javobgarlikni keltirib chiqaradi. Marginalizatsiya nuqtai nazaridan, bu jamiyat chekkasidagi odamlar ham biz boshqalar ekanligimizni va jamiyatning teng a'zolari sifatida qabul qilinishi kerakligini tan olishni anglatadi.

Xulosa. Falsafa ushbu murakkab hodisani tahlil qilish uchun analitik vositalar va tushunchalarni taqdim etish orqali marginallashtirishni tushunishda ajralmas rol o'ynaydi. Turli xil falsafiy yondashuvlar marginallashtirishning sabablari va oqibatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, uni engib o'tish va yanada adolatli va inklyuziv jamiyat yaratish strategiyasini ishlab chiqadi. Va nihoyat, falsafa faollik va ijtimoiy o'zgarishlarni ilhomlantiradi. U bizni nafaqat marginallashtirishni tushunishga, balki unga qarshi harakat qilishga undaydi. Adolat va erkinlik haqidagi falsafiy g'oyalar ijtimoiy harakatlar va marginal guruhlarining huquqlari uchun kurash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Малейко, Александр Сергеевич. "Политическая ситуация и проблема маргинализации в странах Евросоюза: социологический анализ: аннотация к дипломной работе/Малейко Александр Сергеевич; Факультет философии и социальных наук, Кафедра социологии; научный руководитель; науч. рук. НВ Курилович." (2014).
2. Герашенко, Игорь Германович. "Причины и последствия интеллектуальной маргинализации в современной философии." *Credo New* 3 (2020): 12-12.
3. Лысенко, Наталья Николаевна. "Маргинальность как проблема социальной философии." *Позиция. Философские проблемы науки и техники* 12 (2018): 96-101.

4. Хома, О. И., and Э. И. Чухрай. "Серьезность как этика и внутренний смысл картезианства: маргинализация смеха в философии xvii века." Докса 3 (2003): 52-52.
5. Гижа, А. В. "Философия в поисках новых смыслов: маргинализация или обновление дискурса?." Донецкие чтения 2016. Образование, наука и вызовы современности. 2016.
6. Джураев, Джамшед. "Маргинализация современной молодежи в контексте социальных изменений." Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 3.1 Part 2 (2023): 58-66.
7. Иванова, Мария Сергеевна. "Маргинализация и ее динамика в современном российском обществе." Вестник Пермского университета. Философия. Психология. Социология 2 (2013): 162-169.



Mirkamol ALIMOV,
Termiz davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: mirkamol197727@gmail.com

TerDU "Amaliy matematika" kafedrasida o'qituvchisi, Phd. SH.Yuldashev taqrizi asosida

USE OF ELECTRONIC TEXTBOOKS BASED ON MEDIA EDUCATION IN THE PROCESS OF TEACHING STUDENTS.

Annotation

The article is devoted to the use of electronic media education in the process of teaching students, the advantages of using electronic textbooks based on media technology in the school, taking into account the age characteristics of students.

Key words: Media, media education, media literacy, media technology, text, information, electronic textbook.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ НА ОСНОВЕ МЕДИООБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Статья посвящена использованию электронного медиаобразования в процессе обучения учащихся, преимуществам использования электронных учебников на основе медиатехнологий в школе с учетом возрастных особенностей учащихся.

Ключевые слова: Компьютер, СМИ, медиаобразование, медиаграмотность, медиатехнологии, текст, информация, электронный учебник.

O'QUVCHILARNI O'QITISH JARAYONIDA MEDIATA'LIMGA ASOSLANGAN ELEKTRON DARSLIKlardan FOYDALANISH

Аннотация

Maqola o'quvchilarni o'qitish jarayonida elektron mediata'limdan foydalanish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'zda tutilgan maktabda mediatexnologiyaga asoslangan elektron darsliklardan foydalanishning afzalliklariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Media, mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatexnologiya, matn, axborot, elektron darslik.

Kirish. Zamonaviy ta'limni zamonaviy o'quv elektron media ta'limlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular orasida elektron ta'lim resurslari, xususan, kompyuterda ko'paytiriladigan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunda har bir inson o'z farzandining kelajagi, uning olayotgan bilimi haqida qayg'uradi. O'z farzandlarini umumta'lim maktablariga yuborish orqali ta'lim olish jarayonida zarur bilimlarni olishi, har tomonlama rivojlanishi ota-onalarni o'z farzandlarining bilimi uchun mas'ul ekanligi, uning kelakda komil inson bo'lib yetishishida muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'qitish jarayonida elektron mediata'limni joriy etishni o'qituvchilar va ota-onalar hamkorlida faoliyat yuritishsalar ta'lim samaradorligi yaxshilanar edi.

Asosiy qism. Jamiyatimizda ko'pgina tadqiqotchilar va o'qituvchilarning nisbatan yosh va tez rivojlanayotgan informatika va axborot texnologiya faniga qiziqishi tobora ortib bormoqda.

2023-2024 o'quv yilidan maktablarda bilimni baholashning yangi tartibi joriy etildi: o'qituvchi o'quvchilar o'tilgan mavzularni amaliyotda qo'llashi, ularning tanqidiy fikrlashi va materialni tahlil qilishini baholaydi. Prezidentimiz qarorlari bilan joriy yildan 1-sinflarda xam informatika va axborot texnologiyalari fani joriy etildi.

1-sinfda Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganish obyekti sifatida: Mening sezgi organlarim, ko'rish, ko'ruv axboroti, rang va shakl, eshitish, hid bilish axborotlari, ta'm bilish axborotlari, tegib-sezish axborotlari, men obyektlarni qanday qabul qilaman, tabiatdagi qaytarilib turuvchi voqeahodisalar, yo'lni qanday topish mumkin, xavfsiz fazo, obyektning qismlari, obyektning qismlardan yig'ish, obyektlarni taqqoslash, qarama-qarshi xususiyatlar, haqiqiy – yolg'on mavzulari reja asosida o'tilmoqda. Bolalarni yoshligidan axborot va uning xususiyatlari, rang va shakllarni farqlay olish, eshitish va hid bilish organlari imkoniyatlari, tabiatdagi qaytarilib turuvchi voqea va hodislar to'g'risida obyektlarni taqqoslash yuzasidan bilim va malakaga ega bo'ladi.

Rivojlangan jamiyatimizda umumta'lim maktablari informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi eng qiyin

va qiziqarli kasblardan biri hisoblanadi. Informatika fani o'qituvchisi kompyuter texnologiyalari rivoji, yangi zamonaviy dasturlar bilan ishlash texnikasi va usullarining o'zgarishini diqqat bilan kuzatishga majbur.

Fan o'qituvchilari muttasil quyidagi savollar bilan yuzmayuz keladi: «Nimani, kimni, qayrda va qanday o'qitish kerak? Qanday qilib o'quvchilarni tez rivojlanayotgan axborot texnologiyalari dunyosida yo'nalish olishni o'rgatish kerak?» Buning uchun o'qituvchi o'zini doimiy ravishda takomillashtirib borishi kerak, shaxsiy maqsadga muvofiqlik va doimiy ravishda axborot texnologiyalari dunyosida va pedagogik sohada sodir bo'layotgan voqealarni bilishga intilish kerak.

Mavzuga oida adabiyotlar tahlili. Butun dunyoda zamonaviy mediatexnologiyaga asoslangan elektron darsliklarni yaratish va joriy etish jarayoni davom etmoqda; ko'pgina mamlakatlar allaqachon o'quv amaliyotida mediatexnologiyaga asoslangan elektron darsliklardan foydalanishni boshladilar.

Birinchi virtual maktablar 1990-yillarning o'rtalarida AQSh va Kanadada paydo bo'lgan. Masalan, Ontariodagi xususiy virtual maktab 1996-yildayoq ikkita onlayn dars taklif qildi, biri biologiya va biri Kanada adabiyoti. Floridadagi yirik virtual maktabda 30 000 ga yaqin talaba tahsil oladi[11].

Belarus Respublikasining elektron Belarusiya uchun davlat axborotlashtirish dasturi qayd etilgan salbiy jihatlar va omillarni bartaraf etishga qaratilgan. Dasturni tayyorlashda bir qator xorijiy mamlakatlarning shu kabi dasturlarni shakllantirish tajribasi hisobga olindi: Rossiya Federatsiyasi, Polsha, Hindiston va boshqalar. Dasturda quyidagi maqsad, vazifalar, muddatlar va amalga oshirish bosqichlari belgilangan. Dasturning asosiy maqsadi axborot jamiyatiga o'tish bosqichlaridan biri sifatida respublikada yagona axborot makonini shakllantirish, iqtisodiyot, davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlashdan iborat. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni bepul qidirish, uzatish, tarqatish huquqlarini ta'minlash.

2007 yildan buyon Janubiy Koreyada "Elektron darslik" dasturi faoliyat ko'rsatmoqda, uning doirasida virtual interaktiv kitob ishlab chiqildi va foydalanilmoqda, ya'ni. "Kengaytirilgan haqiqat" deb nomlangan 3D qo'llanma.

2012 yil yanvar oyida Apple ta'lim kontentini ishlab chiquvchilar uchun mualliflik o'quv materiallarini elektron darslik formatiga aylantirish imkonini beruvchi va quyidagi funksiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan vositani taqdim etdi: kerakli ma'lumotni tezkor qidirish; fotosuratlar va illyustratsiyalarni mashtablash; interaktiv uch o'lchamli modellarni aylantirish; sahifa elektron darsliklariga tegish orqali kerakli bobga tez o'tish va boshqalar.

Elektron o'quv qo'llanmalarining yaratilishi ta'limni axborotlashirishning ajoyib yangi darajasi deb tushunish mumkin. Elektron hisoblash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'sib borayotgan va rivojlanayotgan dunyomizda bolani yoshligidan axborotni olish, o'zgartirish, uzatishning elektron vositalaridan foydalanishga o'rgatish juda muhimdir. Biz an'anaviy darslik ko'rinishidagi an'anaviy o'qitish usullariga qarshi emasman - bu klassik, ammo zamonaviy dunyoda maktabda beriladigan bilim yagona manbadan uzoqdir.

Barcha dolzarb savollarga javob topishingiz mumkin bo'lgan kutubxona va darsliklar o'rnini kitob, jurnal va maqolalarning "elektron" varianti davri egalladi.

Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri har doim "o'rganishga o'rgatish" bo'lib kelgan, o'qituvchilar bolalarni o'rta maktabda muvaffaqiyatli o'quv jarayonini ta'minlaydigan umumlashtirilgan o'quv faoliyati usullariga tayyorlashlari, o'quvchilarning mustaqil ravishda o'quv maqsadlarini belgilash qobiliyatini rivojlantirishlari kerak, ularni amalga oshirish usullarini loyihalash, ularning yutuqlarini nazorat qilish va baholash, ya'ni o'quvchining o'zi o'rganishga qodir bo'lishi kerak.

Elektron darslik - o'quv fanining taqdimotini, uning bo'limini, o'quv rejasiga mos keladigan qismini o'z ichiga olgan, o'quv jarayonining didaktik tsiklining asosiy bo'g'inlarini qo'llab-quvvatlovchi, individual faol faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan o'quv elektron nashri. Ta'lim muhiti va ushbu turdagi nashr sifatida rasman tasdiqlangan. Tabiiyki, mediatexnologiyalarga asoslangan elektron darslikni ishlab chiqishda yoshni hisobga olgan holda bir qator talablar qo'yiladi:

o'quvchilarning xususiyatlari, masalan

kichik o'quvchilar uchun matnli ma'lumotlarning kichik bloklarini kiritish tavsiya etiladi;

darsliklarida mediatexnologiyalarga asoslangan elektron darslik matnlarni ovozli qilish tavsiya etiladi;

2) o'quvchilar uchun mediatexnologiyalarga asoslangan elektron darslik rang-barang tarzda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak;

3) ob'ektlarni realistik video ketma-ketligi; jadvallar, diagrammalar;

3) yosh o'quvchilar uchun mediatexnologiyalarga asoslangan elektron darslikning navigatsiya apparati sodda va tushunarli bo'lishi kerak;

4) o'quv jarayoni uchun mediatexnologiyalarga asoslangan elektron darslikda assimilyatsiya va nazoratni tashkil etish apparatiga o'yin shaklidagi vazifalarni kiritish tavsiya etiladi;

5) mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan materiallar nisbati bo'lishi lozim.

Barchamizga ma'lumki, zamonaviy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli dars bo'lib, uning doirasida elektron darslikdan turli xil stsenariylarda foydalanish mumkin: o'qituvchining butun sinf bilan frontal ishlashidan o'quvchining mustaqil o'rganish mumkin. Individual traektoriya bo'ylab. Bir yil yoki bir necha yillik o'qish davomida foydalanilgan to'liq to'plamni bitta mobil qurilmaga joylashtirish imkoniyati o'qituvchilarga mavjud fanlararo aloqalarni amalda ko'rsatish imkonini beradi. Informatika fani o'qituvchilarning imkoni bor: o'rganilayotgan mavzu boshqa darslikda qanday berilganligiga o'quvchining e'tiborini jalb qilish, darsliklardan ma'lumotlarni qidirishni tashkil etish.

O'quv jarayonini tashkil etishga bunday yondashuv o'quvchilarning o'quvchi bilan ishlashga qo'shimcha motivatsiyasini yaratishga yordam beradi. Elektron darslik materialni mustahkamlash bosqichida qo'llanilishi lozim, bu erda uning imkoniyatlari har xil turdagi va murakkablik darajasidagi vazifalarning individual tanlovlarini yaratishga imkon beradi.

Elektron darslik, shuningdek, nazorat sifatida o'rganilgan materialni o'quvchilar tomonidan sinov, mashqlarni bajarish shaklida o'zlashtirishdan foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi.

Elektron darslikni ta'lim muassasasining ta'lim axborot tizimlariga integratsiyalashuvi yagona tizimda o'quvchilar natijalarini qayd etish, qayta ishlash va saqlash imkonini beradi. Monitoring ma'lumotlaridan o'quvchi, o'qituvchi, ma'muriyat foydalanishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi kunda o'quvchilarda zamonaviy smart televizorlar, mobil qurilmalar, planshetlar hamda kompyuterda ishlash ko'nikmasi yoshligidan shakllanib bormoqda.

Zamonaviy kompyuterlarda matnli axborotlardan tashqari grafik ko'rinishidagi axborotlarni ham qayta ishlash imkoniyati mavjud. Bu narsa masala mohiyatini yanada chuqurroq tasavvur qilishga va xulosa chiqarishga yordam beradi. Grafik axborotlar rasm, shakl, surat va chizmalarda aks etadi. So'nggi yillarda grafik chizishdan va kompyuter dizaynidan barcha sohalarida keng foydalanilmoqda. Maxsus grafik muharrirlar yordamida oddiy tasvirlardan tortib, yuksak san'at asarlarini ham yaratish mumkin.

Respublikamizdagi "Barkamol avlod" maktablarida "Kompyuter dizayn va grafikasi" to'garagi o'quvchilarga fan va texnika sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, zamonaviy kompyuter va axborotlar tizimidan keng foydalanish, kompyuterda dizaynlar yaratish va grafika ishlarini amalga oshirishni o'rgatadi. "Kompyuter dizayn va grafikasi" to'garagiga 10 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar jalb qilinadi. O'quvchilarni "Barkamol avlod" maktablarida tashkil etilgan to'garaklarga jalb etishni tavsiya etamiz.

Mediata'limga asoslangan elektron darslik imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish uchun tavsiyalar:

- mediatexnologiyaga asoslangan darslik resursini o'zlashtirishning yakuniy maqsadini oldindan aniqlash va unga erishish yo'llarini tushuntirish;

- amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishning har bir bosqichida o'quv va tarbiyaviy vazifalarni aniq shakllantirish;

- media resurslarda o'rganish uchun lozim bo'lgan axborotning ustuvor yo'nalishlari va darajalarini belgilash;

- media resursda amaliy interaktiv nazorat ishlari orqali o'quvchilarning o'quv faoliyati nazorat qilish;

- darsning amaliy mashg'ulot qismida o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirish yo'naltirish;

- amaliy mashg'ulotda bajarilgan xatolarni tuzatish imkoniyatini ta'minlash;

Elektron darslikdan foydalangan holda darsni loyihalashda kompyuter o'quvchi ishlaydigan yagona o'quv vositasiga aylanmasligi lozim. Maqolaning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda mediatexnologiyaga asoslangan elektron o'quv resurslardan foydalanishning uslubiy, didaktik jihatlarni to'liq ochib berishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, ushbu masala bo'yicha mumkin bo'lgan yondashuvlarni belgilab, biz keng pedagogik jamoatchilik e'tiborini bunga qaratmoqchimiz. O'qituvchilarni, o'quvchilar uchun mediata'limga asoslangan elektron darslik va o'quvchilar uchun o'qilishi mumkin bo'lgan elektron qo'llanmalarni yaratishga, ishlab chiqishga undash.

Umumta'lim maktablarida mediata'limga asoslangan elektron darsliklar asosida zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rgatishning afzallik tomonlari:

- o'quvchilarning darsda faol qatnashishlarini, o'zlashtirish sifatining oshishi;

- boshlang'ich ta'lim uchun yaratilgan elektron darsliklar yordamida darslarni qiziqarli tashkil qilish mumkin;

- o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanib borishi;

- darsda o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari haqida tushunchalarini shakllanishi;

- darsning sifat va samaradorligining o'shishini ta'minlaydi.

O'quv jarayonida mediatexnologiyaga asoslangan elektron darslikdan foydalanishning muhim afzalliklarini sanab o'tdik, ayrim xollarda bu jarayonning "salbiy tomonlari"ni unutmang: zamonaviy axborot texnologiyalari vositalariga haddan tashqari ishtiyok sog'liq uchun zararli bo'lishi mumkin: ko'rishning buzilishi, bosh og'rig'i, harakatsiz turmush tarzi. Bu umurtqa pog'onasining turli kasalliklarini rivojlanishi bilan bog'liq

muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar va ota-onalar o'z farzandlariga bilimiga juda ehtiyot bo'lishlari

kerak. Ko'zlar va mushaklari uchun turli xil mashqlarni bajarish kerakligini eslatishni unutmang.

ADABIYOTLAR

1. Ya. Mamatova, S. Sulaymanova "O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida". O'quv qo'llanma. «Extremum-press». Toshkent – 2015
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. – T.: 2017.
3. Zakirova F.M, Babadjanov S.S "Bo'lajak o'qituvchining mediakompetentligini rivojlantirish" Toshkent–2020 "Aloqachi" nashriyoti.
4. M.M.Alimov "Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda fan to'garaklarining ahamiyati". Журнал номи Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКА» 2 tom. 1104 стр.
5. M.M.Alimov. Эффективность обучения информатике и информационным технологиям в средней школе с помощью медиатехнологий. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi jizax politehnika instituti. Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami. 2- Qism (2022 yil 8-9-aprel).2-qism.237 bet
6. Alimov, MM Informatika va axborot texnologiyalari faniga integratsiyalashgan mediata'limni tashkil etish. UCHENYY XXI VEKA. MOSKVA Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal ISSN , 2410-3586.
7. Alimov, MM (2023). Mediata'lim sohasida interaktiv multimedia xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari , 2 (12), 160-166.
8. Alimov, M. Informatika va texnologiyalari fanini o'qishda mediata'limga asoslangan "O'qishning besh pogonali metod" dan foydalanishga yordam beradigan o'qishlar faolligini oshirish Elektron ta'lim"—"Elektronnoe obuchenie"—"E-learning" September, 2022.
9. Play market ilovasi
10. www.edu.uz
11. <http://www.directmedia.ru>
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron_ta%27lim



Dildora ALIMOVA,

Uzbekistan State University of World Languages, Teacher of the Department of English Theoretical aspects-3

E-mail: dildora.alimova.1992@mail.ru

PhD, associate professor on the basis of the review of Kh.Akhmadaliyeva

1-DARAJALI TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI SAMARALI KO'NIKMALARNI QANDAY RIVOJLANTIRISH MUMKIN

Аннотация

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash uchun mashqlarni birlashtirish orqali B1 darajasidagi o'quvchilarda samarali ko'nikmalarni, ya'ni og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish ko'rib chiqiladi. Til o'rganish darslariga tanqidiy fikrlash mashqlarini kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning o'z fikrlarini samarali ifoda yetish va o'rganayotgan tilida tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishi mumkin. Maqolada B1 darajasidagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil strategiya va usullar muhokama qilinadi, masalan, ma'lumotni tahlil qilish va baholash, g'oyalar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va izchil dalillarni shakllantirish uchun ma'lumotlarni sintez qilish. Bundan tashqari, maqolada tanqidiy fikrlashni til o'rganishga integratsiyalashning afzalliklari, jumladan, muloqot ko'nikmalarini yaxshilash, faollikni oshirish va kognitiv qobiliyatlarni oshirish ta'kidlangan. Umuman olganda, ushbu hujjatning maqsadi o'qituvchilarga tanqidiy fikrlashni qo'llash orqali B1 darajasida o'quvchilarda samarali ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy bilim va tavsiyalar berishdir.

Kalit so'zlar: Samarali ko'nikmalar; tanqidiy fikrlash faoliyati; B1 darajasidagi o'quvchilar; til o'rganish; gapirish; yozish; rivojlanish; integratsiya.

КАК РАЗВИТЬ ПРОДУКТИВНЫЕ НАВЫКИ С ПОМОЩЬЮ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ В1

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие продуктивных навыков, а именно устной и письменной речи, у учащихся уровня В1 путем интеграции упражнений на критическое мышление. Включив упражнения на критическое мышление в занятия по изучению языка, преподаватели могут повысить способность учащихся эффективно выражать свои мысли и критически мыслить на изучаемом языке. В статье рассматриваются различные стратегии и методы, которые могут быть использованы для развития навыков критического мышления у учащихся уровня В1, таких как анализ и оценка информации, установление связей между идеями и синтез информации для формирования последовательных аргументов. Кроме того, в документе подчеркиваются преимущества интеграции критического мышления в изучение языка, включая улучшение коммуникативных навыков, повышение вовлеченности и расширение когнитивных способностей. В целом, цель данного документа - предоставить преподавателям практические знания и рекомендации по развитию продуктивных навыков у учащихся уровня В1 посредством применения критического мышления.

Ключевые слова: Продуктивные навыки; Деятельность критического мышления; Учащиеся уровня В1; Изучение языка; Устная речь; Письмо; Развитие; Интеграция.

HOW TO DEVELOP PRODUCTIVE SKILLS WITH THE HELP OF CRITICAL THINKING ACTIVITIES OF B1 LEVEL LEARNERS

Annotation

This paper explores the development of productive skills, namely speaking and writing, in B1 level learners through the integration of critical thinking activities. By incorporating critical thinking exercises into language learning activities, educators can enhance students' ability to express themselves effectively and think critically in the target language. The paper discusses various strategies and techniques that can be used to promote critical thinking skills in B1 level learners, such as analyzing and evaluating information, making connections between ideas, and synthesizing information to form coherent arguments. Additionally, the paper highlights the benefits of integrating critical thinking activities into language learning, including improved communication skills, increased engagement, and enhanced cognitive abilities. Overall, this paper aims to provide educators with practical insights and recommendations for developing productive skills in B1 level learners through the application of critical thinking activities.

Key words: Productive skills; Critical thinking activities; B1 level learners; Language learning; Speaking; Writing; Development; Integration.

Introduction. Developing productive skills, such as speaking and writing, in B1 level learners can be enhanced through critical thinking activities. By integrating critical thinking into language learning, students can improve their ability to communicate effectively, engage with the material on a deeper level, and develop their cognitive abilities. In this guide, we will explore strategies and techniques to integrate critical thinking activities into language lessons to foster the development of productive skills in B1 level learners.

Literature review. Several studies have highlighted the importance of integrating critical thinking activities into language learning to enhance productive skills in B1 level learners. In a study by Zhang and Zhang (2018), the researchers explored the impact of critical thinking activities on speaking skills in English

as a Foreign Language (EFL) learners at the B1 level [1]. The results showed that students who engaged in critical thinking tasks demonstrated improved speaking proficiency, as they were able to analyze and evaluate information effectively before expressing their ideas.

Similarly, in a study by Khezrlou and Ellis (2017), the researchers investigated the role of critical thinking in developing writing skills among B1 level English language learners. The findings revealed that students who were exposed to critical thinking activities in writing tasks demonstrated higher levels of creativity, coherence, and organization in their written work. This suggests that integrating critical thinking into writing activities can help B1 level learners improve their ability to express themselves clearly and cohesively [2].

xususiyatlarini o'zgartirishning haqiqiy ilmiy sababini aniqladi va buning uchun xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi.

So'nggi yigirma yilliklarda metallshunoslik ayniqsa jadal rivojlanishiga, metallshunos olimlardan N.S.Kurnakov, A.A.Baykov, A.M.Bochar, N.A.Minkevich, S.S.Shtaynberg, A.P.Gulyaev va boshqa rus olimlari, chet eldan esa A. Ledebur, R. Osten, F. Osmond, A.S.Troost, A. Martens va boshqalar o'z kashfiyotlari bilan hissasini qo'shdi.

Bu kosmik tadqiqotlar, elektronika va atom energiyasini rivojlantirish uchun yangi materiallarga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Buning uchun davriy sistemaning deyarli barcha elementlarini sanoat materiallari qatoriga kiritish zarur edi.

Metall bo'lmagan materialshunoslik o'zining eng katta rivojlanishini sintetik materiallarni yaratishda, bunda yakuniy mahsulot va tayyor mahsulotlarning kerakli xususiyatlarini olish uchun boshlang'ich moddalarning xususiyatlarini loyihalash va birlashtirish mumkin. Organik birikmalarning kimyoviy tuzilishining strukturaviy nazariyasining asoslarini buyuk rus kimyogari A.M.Butlerov (1826–1886) qo'ygan. G.S.Petrov (1907–1914) tadqiqotlari asosida birinchi sintetik fenolik moddalarni sanoatda ishlab chiqarish mumkin bo'ldi. Zanjirli polimerlanish N. N. Semenov (1930–1940) tomonidan zanjirli reaksiyalar nazariyasini ishlab chiqish natijasida mumkin bo'ldi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Insonning atrof-muhitni bilish bosqichlarini eslaganimizda, bundan 300 yil muqaddam ham olimlar nazarida tabiat yagona va bo'linmas, atrofda olam

haqidagi fan tabiatshunoslik, bu dunyoni o'rganishga harakat qilgan hisobchi esa tabiatshunos deb atalar edi. Asta-sekin bu noma'lum yaxlitlikdan, olamni o'rganish vositalarining rivojlanishi bilan inson tahlil qilish uchun mavjud bo'lgan segmentlarni ajrata boshladi. Shu tarzda turli xil ilmiy fanlar jumladan matematika, fizika, kimyo, biologiya, geologiya va boshqalar fanlar shakllandi.

Keyingi bosqichda atrofdagi dunyoni tobora chuqurroq tahlil qilish yo'lidan borar ekan, insoniyat ilm-fan va ta'limda yuqori ixtisoslashgan sohalarni yaratdi, bu esa, jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirishning tarmoq tamoyilini belgilab berdi.

Rivojlanishning birinchi bosqichida barcha ishlab chiqarish sanoat texnologiyalaridan iborat edi: yog'ochni qayta ishlash, tog'-kon sanoati, metallurgiya va boshqalar.

Ikkinchi bosqichda mikroelektronika, aviatsiya, astronomiya va murakkab mashinasozlik, murakkabroq tarmoqlararo integratsiyalashgan texnologiyalar paydo bo'ldi. Biroq iqtisodiyotning tarmoq xususiyati saqlanib qoldi. O'tgan asrning o'rtalarida, atomlar va molekullarni manipulyatsiya qilish imkoniyati paydo bo'lgach, buxgalterlar ulardan yangi moddalar yasashni boshladilar.

Bugungi kunda bizga yaxshi ma'lum bo'lgan kremniy, germaniy, gally arsenid va boshqalarning yarim o'tkazgich kristallari, dielektrik kristallar sun'iy materiallar xususan, lazer kristallari va hatto tabiiy moddalarda mavjud bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'lgan materiallar yaratilgan.

Axborot texnologiyalaridan farqli o'laroq, nanosfera moddiy bo'lib, yangi ilmiy-texnikaviy inqilobning asosini tashkil etuvchi nanotexnologiyalarning paydo bo'lishi bizni o'rab turgan dunyoni, hayotimizni tubdan o'zgartiradi. Nanotexnologiya barcha mavjud tarmoqlar uchun asosiy rivojlanish bo'lib, u axborot texnologiyalarining o'zini yangi tizimning sinergiyasi bilan takomillashadi.

Materialshunoslik – bu metallar, oksid tizimlarining metall bo'lmagan elementlari, oksid bo'lmagan metallga o'xshash va metall bo'lmagan birikmalar asosidagi materiallarning tabiati, xossalari va xatti-harakatlari, shuningdek ularni ishlab chiqarish jarayonlari qonuniyatlari strukturaning shakllanishi, ulanishi va buzilishi haqidagi fandir [3].

Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi - bu yangi materiallarni "loyihalash" va yaratish, ularning texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash sohasini belgilash tamoyillarini o'rnatadigan fandir.

Shunday qilib, zamonaviy materialshunoslik - bu fundamental fanlarning yangi bo'limlarini, shuningdek, materiallarning strukturasi shakllantirish va yo'q qilish jarayonlarini, materiallarni tahlil qilish va diagnostika qilish muammolarini, materialshunoslikda kompyuter modellashtirish usullarini tushunishni talab qiladigan ulkan bilimlar majmuasi va boshqalar.

V.Veyskopfnig ta'kidlashicha, zamonaviy ilm-fanda materiyaning materiallarning strukturaviy darajalari ierarxik g'oyasi qabul qilinadi, bu "tuzilishdagi kvant zinapoyasi" tushunchasi bilan tavsiflangan umuman materiyaning strukturaviy darajalari ierarxiyasining alohida holati sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Kvant zinapoyasi - uzatiladigan energiyaning bosqichma-bosqich ko'payishi yoki kamayishi orqali amalga oshiriladigan materiyaning tizimli holatlari ketma-ketligi deb tushunamiz. Materialshunoslikda kvant zinapoyasining pastki qismi eng muhim hisoblanadi [4].

Kondensatsiyalangan moddalardagi strukturaviy holatlarning xilma-xilligi (suyuqlik, amorf, nanokristallik, polikristallik, monokristallik) materiallarning fizik-mexanik, termal va elektrofizik, magnit, fizik-kimyoviy va boshqa xossalarni nisbatan moslashuvchan va har tomonlama nazorat qilish imkonini beradi.

Bundan kelib chiqqan holda, talabalarining "Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi" fanini o'qitishni takomillashtirishda qattiq jismlarning elektron tarmoqli tuzilishining roli, ularning elektrofiziki, shu jumladan, fizikaviy ta'sir hodisalari haqida nazariy tushunchaga ega bo'lishi kerak, o'ta o'tkazuvchanlik, ferroelektrik va piroelektrik xossalari va elektron strukturasi bilan aniqlangan magnit xususiyatlar va

nihoyat, haqiqiy kristallardagi nuqsonlar va materiallarning nazariy va haqiqiy kuchi haqida barcha texnik mutaxassisliklar talabalari oldiga qo'yilgan vazifalar hisoblanadi [5].

Haqiqiy materiallar ko'p komponentli va ko'p fazali tizimlar bo'lib, shuningdek rivojlangan yoki faol sirtga ega bo'lganligi sababli, texnik universitet talabalari topokimyoviy reaksiyalar, geterogen kataliz va materiallar yuzasi nuqsonlar manbai va ularning muvozanatsizligi, materiallarning korroziya jarayonlarini tushunish, eritmalar va eritmalarini elektroliz qilish va qattiq elektrotrlarni yaratish uchun asos sifatida elektrokimyoshuningdek tomonlari haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Muhandislik materialshunosligi formulasi odatda tarkibi, tuzilishi, xususiyatlari sifatida taqdim etiladi. Materiallarning strukturaviy xususiyatlari ko'p jihatdan ularning turli xil xossalari majmuasini, talabalarining amaliy mashg'ulotlari uchun juda muhimligini aniqlash usullari va usullarini belgilaydi. Materiallarning mexanik, elektrofizik, termofizik va boshqa xususiyatlarini aniqlash uchun zamonaviy uskunalar juda tez takomillashtirilmoqda, shuning uchun har qanday texnik universitetda bunday laboratoriyalar bo'lishi kerak.

Innovatsion texnologiyalarda muhandis uchun materiallarni sertifikatlash va diagnostika qilishda, birinchi navbatda, kamchiliklarni aniqlash va introskopiya natijalarini qayta ishlash va vizualizatsiya qilishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Materiallarda turli xil kelib chiqadigan nuqsonlarni ishonchli aniqlash va mahalliyashtirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan xolda shakllantirish texnologiyalari, biz yetakchi pedagoglarning fikriga kura, axborot texnologiyalari urinini bosmasligi kerak, faqat an'anaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shuning uchun kompyuterga asoslangan o'quv dasturlaridan foydalanish an'anaviy o'qitishda tuplangan tajribadan foydalanishga tusqinlik qilmasligi kerak. Ko'rinib turibdiki, multimedia vositalaridan foydalanish texnik yo'nalish talabalarining texnik kompetensiyasini shakllantirishda ayniqsa dolzarbdir [6].

Strukturaning shakllanishiga qarama-qarshi, materiallarni yo'q qilish hodisalari tashqi elektr maydonlari ta'sirida amalga oshiriladi. Energiya to'planishi natijasida strukturaning bosqichma-bosqich buzilishi va materialning to'liq nobud bo'lishi sodir bo'ladi va vayronagarchilik mahsulotlari kvant zinapoyasining yuqori darajasiga o'tadi. Shu nuqtai nazardan, har qanday mexanik muhandis uchta halokat turini aniq tushunishi kerak: mexanik, kimyoviy va issiqlik. Keyingi yillarda moddalar va kimyoviy birikmalarni sintez qilishning yangi usullari ishlab chiqildi. Materiallarning tuzilishini atom ruxsati darajasida o'rganish, shuningdek, ularning elementar, izotopik va fazaviy tarkibini aniqroq tahlil qilish imkonini beradigan usullar va asboblari yaratilgan.

O'z navbatida, zamonaviy analitik bazaning mavjudligi yarimo'tkazgich texnologiyasi va yadro energetikasida qo'llaniladigan polikristalli materiallarning o'ta sof, nuqsonsiz monokristallarini olish imkonini berdi. Tashqi ta'sir parametrlarining keng diapazonida materiallarning turli jismoniy xususiyatlarini aniq aniqlash uchun usullar va uskunalar allaqachon qo'llanilmoqda.

Tahlil va natijalar. Keng qamrovli nazariy va amaliy tadqiqotlardan foydalanish natijasida yangi materiallardan mahsulot ishlab chiqarishning sanoat texnologik jarayonlari ishlab chiqildi, ularni qo'llashning yangi yo'nalishlari kengaytirildi va an'anaviy va ilg'or sohalarda yangi yo'nalishlar topildi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi va bunda materialshunoslikning katta roli tufayli yangi materialshunoslik kafedralari va fakultetlari tashkil etilmoqda.

Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti Texnologik ta'limi yo'nalishlariga ham "Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi" fani o'qitilib kelinmoqda. "Yosh konstruktor" tugaraklari faoliyat yuritilyapti. Tugarakda talabalar har doim ikki tomonlama bo'lib, bir tomonda o'qituvchilar jamoasi, ikkinchi tomonda auditoriyada talabalar, faqat bitta jarayonning bu ikki tomonining foyda keltiradigan yaxshi natijani ta'minlaydi.

Talabalar auditoriyasini fanlarning ishchi dasturga asosan tashkil etiladi, umumiy ta'lim fanlarini o'rganishda matematika, fizika, kimyo kabi fanlardagi asosiy ta'riflarni takrorlashdan, balki murakkabroq bo'limlarni o'rganish vaqtini qisqartirishdan boshlash kerak. Talabalar eng oddiy geometrik figuralarning maydonlari va hajmlarini aniqlashda qiynalganda, oqim va kuchlanishni, oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarini aniqlashni chalkashtirib yuborsa, murakkabroq materialni o'rganish va muhandislik fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga ishonish muammoli bo'ladi.

Ta'lim jarayonini nufuzini saqlab qolish uchun birinchi navbatda, o'quv dasturi bilan ishlash, har bir talaba fanlarni ma'lum bir ketma-ketlikda o'rganish kerak degan fikrga qo'shiladi. Materialshunoslik va metall texnologiyasi ta'lim yo'nalishini qaraydigan bo'lsak, birinchi yil, birinchi semestr: matematika, fizika, kimyo va chizmachilik fanlari o'qitiladi. Ushbu fanlarning barchasi bir vaqtning o'zida yoki keyinroq o'rganiladi. Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi maxsus kurslarni o'rganish uchun asos bo'lgan umumiy muhandislik fani 3-4 kurslarda o'tiladi. O'quv rejasiga ko'ra, avvalo "Konstruktiv materiallar texnologiyasi", keyin esa "Materialshunoslik" kursi o'qitiladi.

Agar talaba Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi fanini o'rganishda tushunchalar va atamalar bilan ishlaydi, qattiqlik, qotishmalar, diagrammalar, issiqlik bilan ishlov berish, kimyoviy-termik ishlov berish va bularning barchasi keyinroq o'rganiladi.

Shunday qilib, talabalar ko'p narsalarni mustaqil bajara oladi. Nazariy bilimlarni egalab bo'lgandan so'ng, amaliy tomoni haqida bir necha so'z aytmaslik mumkin emas. Kafedrada o'quv ustaxonalari mavjud bo'lib, ularda mexanik mutaxassislik talabalari metall kesish dastgohlarida ishlashga o'rgatiladi. Ular

o'z qo'llari bilan yog'ochdan uy ro'zg'or buyumlarini yasash, duradgorlik guniyasi, bolg'a dastasi, yog'och va to'qmoq yasash, kitob tokchasi yasash, STD-120 stanogida shakldor oyoqlar yasash, yog'och materiallaridan mix yashik yasash, egov uchun dastalar yasash, eshik derazalar yasashni o'rganish, simlar va ulardan turli buyumlar tayyorlashadi.

Yog'och materiallardan buyumlar yasab bo'lgandan keyin talabalar metall materiallardan, ya'ni yupqa list materiallaridan o'y ro'zg'or buyumlari, list materialini bir-biriga yopishtirib kerakli buyumlarini, simlar va simlardan kerakli buyumlarini, sim materialidan kiyim ilgichlar, simlardan atvortkalar, metallarni bir-biriga kovsharlab buyumlar yasashadilar.

Talabalar yosh mutaxassis sifatida amaliy mashg'ulotlarda, tugaraklarda dastgohlar bilan ishlashni o'rganadi.

Biz talabani dastgoh mexaniki qilish maqsadini qo'ymaymiz, bu mumkin emas, lekin metall, kesish jarayonlari, payvandlash hissi paydo bo'ladi va eng muhimi, bu texnologik jarayonlarni boshqarish mumkinligiga ishonch paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar. "Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi" fanini o'qitishni takomillashtirishga aniq dalillar keltirish mumkin. Shunday qilib, "Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi" fanlari turli sohalaridagi mutaxassislarni umumiy muhandislik tayyorlashda eng muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

Materialshunoslik va konstruktiv materiallar texnologiyasi fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar hamda tugraklarni amaliy bajarib o'qitilsa talabalarga fanlararo aloqadorlikni osonroq tushunishi, bilim, ko'nikma, malaka oshishiga zamin yaratiladi[7].

ADABIYOTLAR

1. Сви́дунович Н.А. и др. К вопросу о преподавании курсов «Материаловедение» и «Материаловедение и технология конструкционных материалов» Учебно-методическая работа 2011. № 8. -79 стр.
2. Кушнера В. С. МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЕ. Учебник. Омск 2008. -6 стр.
3. Yakubov S.X., Astanova M.M. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi. Darslik 2023 y. -64 b.
4. Лахтин, Ю. М. Материаловедение: учеб. для студентов вузов. /Ю. М. Лахтин, В. П. Леонтьева. – 3-е изд. перераб. и доп. – М.: Машиностроение, 1990.– 528 с.
5. Арзамасов, Б. Н. Материаловедение: учеб. для студентов вузов. / – М.: Изд-во МВТУ им. Н. Э. Баумана, 2001. – 734 с.
6. Buranova Sh.U. "Zamonaviy ta'lim" jurnali 2023 yil 7(128)-soni -15 b.
7. Buranova Sh.U. Qishloq xo'jaligi mashinalari fanini o'qitishda gorizontaal va vertikal integratsiyadan foydalanish Pedagogika ilmiy-nazariy metodik jurnal//1/2023 -419 b.



Xasan ATAMURODOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi
E-mail: atamurodovxasan@mail.ru

PhD, dotsent G‘.Pirnazarov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF LEGAL LITERACY BY TEACHING THE SCIENCE OF “EDUCATION” TO STUDENTS AS A SOCIAL-EDUCATIONAL PROBLEM

Аннотация

This article in the decree “On the radical improvement of the system for increasing legal awareness and legal culture in society” talks about the role and socio-pedagogical features of the development of legal literacy through teaching the science of “education” to students in secondary schools.

Key words: Democracy, civil society, law, legal awareness, legal culture, legal literacy, legal competence, immunity, axiology, general secondary education, socio-pedagogical features.

РАЗВИТИЕ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ПУТЕМ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ «ВОСПИТАНИЕ» У СТУДЕНТОВ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье в указе «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе» говорится о роли и социально-педагогических особенностях развития правовой грамотности путем преподавания науки «воспитание» у учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: Демократия, гражданское общество, право, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, правовая компетентность, иммунитет, аксиология, общее среднее образование, социально-педагогические особенности.

O‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH ORQALI HUQUQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi” farmonida umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarida “tarbiya” fanini o‘qitish orqali huquqiy savodxonligini rivojlantirish o‘rni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Demokratiya, fuqarolik jamiyati, huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, huquqiy kompetensiya, иммунитет, аксиология, umumiy o‘rta ta‘lim, ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar.

Kirish. Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyani shakllantirish va ularni takomillashtirish, o‘qitish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. Bugungi kunga kelib huquq ta‘limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. O‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni integrativ asosda rivojlantirishga katta ehtiyoj seziladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda huquqni o‘qitishga doir ilmiy adabiyotlarda boshlang‘ich sinfdan boshlab qonunga rioya qilish, xususan, itoatkorlikkaga alohida e‘tibor beriladi va ta‘lim jarayonida interfaol usullardan unumli foydalaniladi. Dunyo tajribasida huquqiy savodxonlik mashg‘ulotlari bir bo‘lim yoki bir mavzu bilan tugab qolmaydi. Umumiy o‘rta ta‘limda, xususan, kasbiy fanlarni o‘qituvchi darsliklarda keltirilgan o‘quv topshiriqlari, keyslar to‘g‘ri yashash ko‘nikmalarining osongina shakllanishiga olib keladi.

Dunyoda fanlarini o‘qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo‘lib, dars jarayonida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish huquqiy savodxonlikning rivojlanishiga olib keladi. Shu o‘rinda chet elda huquqni o‘qitish bilan mamlakatimizda mazkur sohani o‘qitish maqsadlari ma‘lum ma‘noda farq qilishini, ularni bir chiziqda tasavvur qilib bo‘lmasligini ta‘kidlash lozim. Shunga qaramay, inson huquqini o‘rganish bo‘yicha belgilangan darajalar hamma xalqlarda tatbiq qilinmoqda. Bo‘ysunuvchanlik, qonunga hurmat ko‘rsatishni o‘rganishga qo‘yilgan mazkur talablar asosida konstitutsiya mazmunini o‘qish tushunish, tushunganlarini yozib bera olish malakalari shakllanadi. Bunday yondashuvdan ijodiy foydalanib, huquq darslarini ham samarali tashkil etish mumkin. Rivojlangan davlatlarning huquq o‘qitish metodikasida integratsiya asosida o‘rgatiladi, asosan, topshiriqlarga tayanadi, keys va maxsus topshiriqlar aniq farqlanadi, o‘z o‘rnida ishlatiladi. Shu sababli ularning huquqiy kompetensiyani o‘rganish layoqati yuqoridir.

Boshlang‘ich ta‘limdan boshlab, oliy ta‘limga qadar huquqqa doir o‘quv materiallari mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyani shakllantirish, uning natijasida huquqiy savodxonlikni oshirish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Qonunlar mohiyatini o‘qitish orqali bo‘lajak mutaxassislarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1], – deb ta‘kidlanishi huquq ta‘limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z haq-huquqlarini anglaydigan erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Shu ma‘noda o‘quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish orqali huquqiy kompetensiyani to‘la shakllantirish, qonunga bo‘ysunish ko‘nikmasini rivojlantirishga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun huquqiy ta‘limiga doir o‘quv materiallarining metodik ta‘minotini takomillashtirish zarurati mavjud.

Mavzuning dolzarbligi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning manfaatlarini huquqiy himoya qilishga doir qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishning metodologik asoslari, pedagogik ta‘sirchan usul, shakl va omillarini tahlil etish, shuningdek, huquqiy savodxonligini rivojlantirish orqali huquqiy ongni shakllantirish va huquqiy xabardorlikni oshirishning ta‘sirchan mexanizmlari, mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ilmiy masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishda "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan keng foydalanish va ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlarining yangi, zamonaviy ta'sirchan texnologiyalarini ishlab chiqish, modernizatsiyalashtirish va takomillashtirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy tadqiq etishni talab qilmoqda.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Respublikamizda kadrlar tayyorlashning pedagogik asoslari, tashkiliy-metodik shart-sharoitlari, tamoyillari, ushbu jarayonni tashkil etishga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagog kadrlar malakasini oshirishdagi o'rni, pedagoglarning kasbiy rivojlanishida axborot-kommunikativ, huquqiy kompetentlikka ega bo'lishning ahamiyati A.Aminov, Z.A.Artikbaeva, U.Sh.Begimqulov, N.Komilov, A.Mavrulov[2], M.Tojiev, O.Ziyomuxammedov[3], I. Ergashev, G.Tulenova, O.Musurmonova[4], U.Mahkamov, M.Quronov[5], N.M. Egamberdieva, Q.Quronboev[6], O.Jamoliddinova, Z.Salieva, M.Urozova, B.Mirzaolimov, R.Turdiyeva[7], M.Artaqovalarning ilmiy tadqiqotlarida yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, tarixiy tafakkurini modernizatsiyalashtirish didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish, madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish masalalarini takomillashtirish tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan E.X.Moriy (E.H.Mory), Tomas L.Fredman (Thomas L. Friedman), U.Binengraber (U.Bienengraber), O.Vorndran (O.Vorndran), M.Osborn (M.Osborn)larning ilmiy ishlarida kadrlarning axborot-kommunikativ, huquqiy kompetentligini rivojlantirishning integratsion, adaptiv va modulli texnologiyalari tadqiq etilgan.

Qayd etilgan tadqiqotlarda asosan, pedagogik ta'limida o'quvchilarning kommunikativ, kasbiy ko'nikmasini rivojlantirish faoliyatiga doir, ularning ta'lim jarayonini loyihalashtirishga oid ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik tafakkurini rivojlantirish, ularda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining ayrim jihatlari ochib berilgan. Biroq "O'quvchilarda huquqiy kompetensiyani rivojlantirish" muammosi mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. O'quvchilarda "Tarbiya" fanini o'qitish orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirish orqali huquqiy kompetensiyani innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishni takomillashtirish bo'yicha o'quv-metodik ta'minot yaratish.

Tadqiqotning ob'ekti. O'quvchilarda huquqiy kompetensiyani innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, suhbat, so'rovnoma, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish).

Asosiy qism. Bugungi globallashtirish jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tekzor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda. Sobiq tuzumning parchalanishi, Markaziy Osiyo mamlakatlariga, jumladan, mamlakatimizga nisbatan ham turli xil shakl va mazmundagi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va mafkuraviy tahdidlarni kuchaytirdi. O'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviyat, keng dunyoqarash, tafakkurni shakllantirish, ogohlik va sergaklik ruvida tarbiyalash davr talabiga aylandi.

N. Koshanovning ta'kidlashicha, buning sababi fikrlash, tahlil qilish, idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan yosh avlod faqat topshiriqni bajaruvchi manqurtga aylanishi ehtimoli mavjud. Manqurtlar esa kechagi, bugungi, kelgusi kun haqida o'ylamaydi. Ular inson uchun zarur bo'lgan erk, haq-huquq va qadriyatlarining qadriga yetmaydi. Shu o'rinda o'sib kelayotgan yosh avlodni mamlakatimiz va o'z kelajagiga bo'lgan ishonch odobini tarbiyalash ta'lim olishida, shaxsiy hayotida, kelgusi ish faoliyatida, jamoa orasida qat'iy harakat qilishida katta ahamiyatga ega. Har bir ma'naviyatli, ongli insonda vatanidan faxrlanish tuyg'usi bo'lishi, unga munosib bo'lishga harakat qilishi lozim[8]. O'zbekiston fuqarolik jamiyatini qurish sari

harakat qilayotgan davrda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasi yuqori darajada bo'lishi va ushbu jarayonda umumta'lim maktablarida jamiyatda barcha jabhalarda faol ishtirok etishga tayyor, o'z mustaqil fikriga ega, o'z huquq va burchlarini anglagan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shaxsni tarbiyalash eng dolzarb ijtimoiy va pedagogik muammo hisoblanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablari asosida tarbiyalashda ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi uzluksizlikni hamda fan predmetlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash zaruriti mavjud. "Tarbiya" va "tarbiyat" so'zlari 1)parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o'rgatish; 2)navozish; mehribonlik ko'rsatish; ko'z-quloq bo'lish; himoya qilish; kabi ko'p qirali ma'nolarga ega[9]. Inson asosan ikki xil yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin: birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, shuningdek donolar fikrlari, o'g'itlari va asarlarini o'qish orqali; inson o'zining fikrlashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi, eng qudratli-tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin. Ota-bobolarimiz "Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim"deya juda asosli fikr aytishgan[10]. Birinchi prezidentimiz haqli ravishda "Tarbiyachi- ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun avvalo, tarbichining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlariga ega bo'lishi kerak" degan edilar[11]. Mashhur rus pedagogi Makarenko shunday degan edi: "Hamma narsani tarbiyalashadi: odamlar, narsalar, hodisalar, hammasidan ko'ra ko'proq- odamlarni. Ulardan, birinchi navbatda, ota-onalar va o'qituvchilarni". Olim bu fikri bilan asosli ravishda bolalarni tarbiyalovchi insonlarni o'zini eng avvalo tarbiyalamasdan turib tarbiyada natija bo'lmasligini ta'kidlab o'tadi. Tarbiyachi-pedagogning o'zi tarbiyalangan, axloq-odobli, xush xulq - atvorli ya'ni o'quvchiga har tomonlama namuna bo'la olishi lozim. Tarbiyani amalga oshirishning vosita, usullari va omillari ko'pdir. Pedagogikaning ta'lim va tarbiya deb nomlanuvchi ikkita bo'limi bir-biriga uyg'un holatda amalga oshiriladi. Pedagogikada "ta'lim ustuvor bo'lishi kerakmi yoki tarbiyami"?-degan bahsli munozaralar mavjud. Sababi ta'lim orqali tarbiyalaymiz, tarbiya vositasida esa ta'limga rag'batini oshiramiz.

N.Koshanova "Tarbiya mavsumiy, ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan ish emas, balki jamiyat va davlat ahamiyatiga molik kechiktirib bo'lmaz, uzluksiz davom etadigan jarayon va strategik masaladir. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'sirida amalga oshiriladigan dinamik tizim sifatida qaraladi. Tarbiya jarayoni ta'lim muassasasi pedagogik faoliyatining yadrosidir[12]. Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tarbiya to'g'risida shunday deganlar "Tarbiya tug'ilgan kundan boshlab, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zallantirmoq zehnimizni ravshanlantirmoq lozim". Faylasuf Immanuel Kant esa o'z asarlarida "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir", degan fikrlarni bildirgan.

Umum ta'lim maktab o'quvchilarini kelajakka yo'naltirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish, ularga o'ziga xosligini tushunishga, boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilishga o'rgatish, o'zini xolis baholash, o'z qobiliyatlari, malakalarini hisobga olgan holda kelajak uchun real rejalarni tuzish, o'z-o'zini anglashi, o'zini boshqarish tizimini takomillashtirish ishbilarmonlik, axloq va tashabbuskorlikni tarbiyalash, ularning oilalari, o'qituvchilar bilan o'zaro aloqalarini faollashtirish lozim. Bizning fikrimizcha tarbiya jarayoni maxsus ishlab chiqilgan bo'lishi, ya'ni bolaning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilgan maqsadga muvofiq tizim bo'lgandagina haqiqiy bo'ladi. XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog'lom, ma'naviy axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo'lishi shu bilan birga dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarga loqayd bo'lmaligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo'lishi lozim. Bolaning shaxs sifatida shakllanish va ijtimoiylashtirish davri asosan maktab tizimida yuz beradi. Shu bois mamlakatimizda umumta'lim maktablarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda bir qancha tizimli islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-

iyuldan kuchga kiritilgan 422-sonli qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtirgan holda yagona «Tarbiya» fani I -9- sinflarda 2020/2021 o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilandi. 2020-2023 yillarda Respublika oliy ta'lim muassasalarining «Boshlang'ich ta'lim», «Tarix» (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha), «Tarix o'qitish metodikasi», «Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili», «O'zbek tili va adabiyoti», «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi», «Pedagogika va psixologiya», «Dinshunoslik» va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)», «Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)» ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilariga umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Tarbiya» fanini o'qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarni ko'rilishi belgilab berildi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-

tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida 4 ta ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlar integratsiyasidan iborat "Tarbiya" fani bosqichma-bosqich joriy qilinishi belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki o'tkazilgan tahlillar natijaci quyidagi xulosa va tavsifalarni ishlab chiqishga acoc bo'ldi:

o'quvchilarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari integrativ tizim: fanlararo bog'liqlik, sub'ektlar integratsiyasi: o'qituvchi bilan o'quvchilar ta'limiy muhitning tashkilotchisi, boshqaruvchisi va ishtirokchisi sifatida hamda korporativ (guruh jamoasi) boshqaruv komponentlari asoslash bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish;

o'quvchilarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirishning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish modeli pragmatik ta'lim usuli hamda ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilish mexanizmi ishlab chiqish;

o'quvchilarning huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda huquqiy savodxonlikka doir tushunchalarni izohlash va keystopshirirlarning metodik imkoniyatlarini kengaytirishga doir malakacini oshirib borish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
2. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 80 б.;
3. Тожиев М., Зиёмухаммадов О. Миллий педагогик технологияни таълим-тарбия жараёнига татбиғ'и ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни. – Т.: МО'МТОЗ СО'З, 2010. – 290 б.,
4. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед.фан.док. ...дисс. – Т., 1993. – 364 б.;
5. Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед.фан.док. ... дисс. – Т., 1998. – 316 б.;
6. Қуронбоев Қ.Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари (ёшлар ташкилотлари мисолида): Пед.фанл.номз. ... дисс. – Т.: 2000. – 155 б.;
7. Турдибоева Р. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 185 б.;
8. Кошанова Н. Умумтаълим мактабларида "тарбия" фанини ўқитиш: давр талаби, этиёж ва зарурият// International Scientific and Practical Conference April 21-22
9. Ўзбек тилининг изоҳли дуг'ати.2 жилдик,II том,-М.: «Рус тили нашриёти»,1991,-125-б. 3. Каримов И.А.Буюк келажигимизнинг ҳақиқий кафолоти, Тошкент, "Шарқ" нашриёт- матбаа концернининг Бош таҳририяти,1993, 27-28-бетлар.
10. Сафо Очил.Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Тошкент "Ўқитувчи"1995.-Б. 208.
11. Каримов И.А. Буюк келажигимизнинг ҳуқуқий кафолоти. – Тошкент, Шарқ нашриёти – матбаа концерни Бош таҳририяти, 1993, 27-28-бет.
12. Н.М.Кошанова.Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш механизмлари(кластер ёндашуви асосида) //пед.фан.фалсафа доктори дисс.Чирчиқ,2022. –Б.160.
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 7.07.2020.санасидаги 422-сонли қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4885018> 2. 5. б.
14. Пирназаров Г' .Н. Талаба-ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини оширишнинг замонавий технологиялари (Олий таълим муассасалари маънавий-маърифий ишлар тизими мисолида).Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. С.2021: – 23 б.



Олимжон АХМАДЖАНОВ,
старший преподаватель кафедры русского языка НамГУ
E-mail:ahmadjanovlimjon498@gmail.com

Рецензент доцент Наманганского политехнического института С.Абдуллаева

ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕКТРОННОГО ОБМЕНА ИНФОРМАЦИЕЙ В ИНФОРМИРОВАННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В этой статье автор говорит о том, что в информатизированном обществе наиболее важным является информация, поскольку способность владеть, анализировать и управлять ею требует от людей большой ответственности. Анализирует выводы мировых ученых, работавших в этом направлении, утверждая, что в настоящее время существует практика управления информационным потоком, его изменениями и при необходимости возможности её использования в политических и экономических интересах. Он также излагает свои мысли о различных опасностях и проблемах, связанных с современным информатизированным обществом и о способах их решения.

Ключевые слова: Информация, концепция, общество, информатизированное общество, инновации, принципы, обмен информацией, постиндустриальный, системный, глобальный.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA ELEKTRON AXBOROT ALMASHINUVINING XUSUSIYATLARI

Аннотация

Muallif ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda eng muhimi axborot ekanligini unga egalik qilish, tahlil qilish va boshqara bilish insonlardan katta mas'uliyat talab etishi borasida so'z yuritadi. Hozirgi kunda axborotlar oqimini boshqara olish, o'zgartirish va, kerak bo'lsa, siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlarni ko'zlagan holda undan foydalanish amaliyoti mavjudligini takidlab, bu borada ish yuritgan dunyo olimlari xulosalarini tahlil etadi. Zamonamizda axborotlashgan jamiyat bilan bog'liq turli xavf va muammolar yuzuga kelganligi va ularni hal etish yo'llari haqidagi fikrlarini ham bayon etadi.

Kalit so'zlar: Axborot, konsepsiya, jamiyat, axborotlashgan jamiyat, innovatsiya, tamoyillar, axborot almashuv, postindustrial, tizim, global.

FEATURES OF ELECTRONIC INFORMATION EXCHANGE IN AN INFORMED SOCIETY

Annotation

In this article, the author says that in an informatized society, information is the most important, since the ability to own, analyze and manage it requires great responsibility from people. Analyzes the conclusions of world scientists who have worked in this direction, arguing that currently there is a practice of managing the information flow, its changes and, if necessary, the possibility of its use in political and economic interests. He also presents his thoughts on various dangers and problems associated with the modern informatized society and on ways to solve them.

Key words: Information, concept, society, informatized society, innovations, principles, information exchange, post-industrial, systemic, global.

Введение. Информация – важный фактор развития общества и государства. Мировые афкорские массы хорошо знают, что в экономически высокоразвитых странах эффективное внедрение информационно-коммуникационных и компьютерных технологий во все сферы является залогом успеха. В основе этих достижений лежат информатизация, телекоммуникации и компьютерные технологии. Уже XXI век – век информированного общества. Для обсуждения вопроса об информативном обществе и особенностях обмена информацией в нем мы считаем необходимым сначала остановиться на самом понятии «информированное общество», на его происхождении.

Концепция информированного общества впервые была подробно проанализирована в исследовании американского социолога Даниела Белла (1919-2011), посвященном истории развития информационных технологий. В конце этого исследования Белл продвигает концепцию информированного общества[1]. Согласно его концепции, информированное общество имеет следующие характеристики;

- информационно-технический-это технический резерв, который производится и используется обществом;

-социально-информационный – это использование обществом информационных технологий.

-социально-технические охватывают социально-антропологические особенности. Отдельно стоит отметить, что информатизация общества оказывает непосредственное влияние на общественную жизнь. К ним можно отнести,

прежде всего, новые социальные проблемы, сформировавшиеся в результате развития средств массовой информации, сотового телефона и сети Интернет. Белл утверждает, что информационное общество – это прежде всего общество, которое формирует элиту нации по уровню образования и квалификации. Он также интерпретировал информацию как «коллективный продукт», который физически не потребляется и не изнашивается, обращая внимание на то, что, поскольку это совершенно новый продукт в жизнедеятельности человека в индустриальном обществе, к нему должны применяться законы и критерии, отличные от тех, которые применялись в то время.

Анализ литературы по теме. Еще одним ярким представителем концепции постиндустриального общества является американский социолог, экономист и футуролог Элвин Тоффлер (1928). В своей работе «третья волна» освещает картину перехода к постиндустриальному обществу. «Волны-это волны истории, которые человечество простило в процессе своего развития и построило цивилизацию. Эти волны, идущие одна за другой, создают науку, показывающую историческую драму, состоящую из трех действий, это три волны цивилизации, а именно аграрная цивилизация доиндустриального общества, индустриальная цивилизация, постиндустриально – информационная цивилизация, сформированная на основе информационных технологий, которые изменяют инфраструктуру общества и образ жизни людей. Третья волна-последняя фаза развития общества, основанная на

информационно-коммуникационных технологиях» [2]. Так, по мнению автора, в третьей волне – постиндустриальном обществе-ведущая роль переходит к информационным и коммуникационным технологиям, которые оказывают влияние на все структуры общества на образ жизни и сознание людей. В обществе появляются новые технологии создания благ. Они больше полагаются на умственные способности человека, а не на его физическую силу. Среди новых информационных методов создания социального богатства Тоффлер выделяет:

- быстро развивающаяся экономическая система. Эта экономическая система будет напрямую зависеть от информации и знаний. Новая система основана не на массовом производстве, а на быстром и отзывчивом потреблении продукта;

- единицами обмена служат не металлические или бумажные деньги, а средства массовой информации. Капитал становится более мобильным, увеличивается количество его источников. Новую экономическую основу составляют компьютерные системы, связывающие частные дома с производственными и торговыми организациями, банками и государственными учреждениями, школой и Университетом. Микроэлектронная революция в этих системах еще больше увеличит ресурсы и мощь человеческого интеллекта;

- товары и услуги систематизированы. Это требует расширения и пересмотра установленных стандартов. При этом идет борьба за контроль над информацией, которая устанавливает стандарты. Каждый сотрудник будет полностью осведомлен о функционировании средств массовой информации над ним. Формируются новые типы сотрудников, способных сочетать знания с инициативой, генерировать новые идеи;

- новая система будет развиваться одновременно на локальном (локальном) и глобальном (универсальном) уровнях. Меняется отношение людей к информации. Вместо бренда информация воспринимается как импульс творческих сил и исследований. Потому что тот факт, что люди постоянно имеют дело с компьютером, учит их, как вести себя в глобальном информационном пространстве. Это принципиально меняет характер трудовой деятельности, образ жизни и культуру [3].

Концепция третьей волны, основанная на этих принципах, в отличие от всех известных нам цивилизаций, создает такую светскую цивилизацию, которая отличается большим здоровьем, интеллектом и жизнеспособностью, упорядоченностью и демократизацией. В то же время в третьей волне скрываются и большие опасности, начиная от экологических проблем и заканчивая острым набором ядерных или электронных угроз.

По словам Тоффлера, который изучал, что метод получения новых знаний в информированном обществе основан на вычислительных методах, «в информированном обществе методы науки позволяют собирать данные, которые очень велики по объему» [4]. При этом вместо поиска новых фактов ученые ищут данные для изучения корреляций, тенденций. Получает научную информацию посредством информационных операций. Таким образом, источник производства в информативном обществе зависит от технологий накопления знаний, обработки информации и символической коммуникации.

Анализ и результаты. Если взглянуть на историю исследований информированного общества, можно увидеть, что на раннем этапе большинство его теорий были склонны к технократическому или экономическому детерминизму. Позже, в связи с возрастанием значимости информации в других сферах жизни общества, это влияние ослабевает, и появляются теории, непосредственно связанные с информационными процессами в той или иной сфере жизни общества, в которых начинают охватываться более философские, социологические, этические аспекты. Некоторые из этих теорий сыграли роль посланников глобальной сети. Одна из таких теорий информированного общества была разработана японским социологом и футурологом Ёнэзиди Масуда (1905-1995) и характеризуется

глубокой философской интерпретацией этого общества. В своей книге «Информированное общество – постиндустриальное общество», опубликованной в 1972 году, он рассматривал компьютерные технологии как основу будущей социальной структуры, подчеркивая приоритетную роль умственного труда в производственных отношениях. Ученый признавал информированное общество свободным обществом, основанным на демократическом управлении (выборах). Ё.Масуда считает, что инновация в информационных технологиях-это скрытая сила социальных изменений, которая проявляется в резком увеличении количества и качества информации, а также в увеличении объема обмена информацией. Особенностью информации является то, что она не исчезает при потреблении и не может быть передана другому человеку целиком, как материальный товар. Кроме того, с увеличением количества новой информации увеличивается и ее качество. «Информированное общество» – одно из величайших достижений человечества, - пишет Ё.Масуда. - Развитие новых технологий ведет к собственным позитивным изменениям в социальной жизни [5]. Масуда сказал: « В информированном обществе меняются человеческие ценности. Это общество бесклассовое и бесконфликтное, управляемое меньшим государственным аппаратом».

Вклад японского социолога в концепцию информационного общества заключался, прежде всего, в различении информатизации и компьютеризации как отдельных отраслей общественного развития. И, следовательно, Ё.Масуда был назван "отцом информационного общества".

Узбекский социолог Абдуазимов, исследовавший истоки информированного общества и средств массовой коммуникации, предлагая разбить историю развития средств массовой коммуникации на три периода, отмечает, что переход к информированному обществу произошел с появлением электронного обмена информацией в третий период [6].

Впервые выражение «информированное общество» употребил японский ученый Ю. Хаяси и специалисты нескольких японских организаций. Ё. Масуда, расширяя понимание информированного общества, в своей философской концепции теории постиндустриального общества обосновывает, что информация занимает ведущее место во всех сферах общественной жизни и возникает «информационный авторитет», который царит в эпоху технического прогресса общества. Фактически, информационная власть является последователем неформальной четвертой власти по сравнению с тремя существующими властями государственного управления в индустриальном обществе. Ё.Масуда разделит развитие человечества на традиционное, индустриализированное и информированное (постиндустриальное) общество, в котором 10 атрибутов информированного общества:

«сфера услуг (организация и управление, информатика и телекоммуникации)», «использование новых информационных технологий (удовлетворение личных и культурных потребностей)», «рост роли интеллектуалов, техников и ученых», «знания (практические и теоретические)» «информационный спрос», «инновационные отрасли»

«информация», «законодательная, исполнительная, судебная», «информационная власть», «информация, профессиональная квалификация, эрудиция», Выделяют наличие «информативной педагогики, инновационных технологий», в том числе «новых информационных технологий», «общей культуры, профессиональной культуры, информационной культуры».

Вывод. Можно сказать, что сегодня современные информационные технологии делают большие успехи в области обмена информацией. У нас также есть возможность отслеживать события, происходящие в разных частях мира, в режиме реального времени. С помощью современных технологий это может сделать каждый. Глядя на историю, то есть даже в двадцатые годы прошлого века самым быстрым

средством связи для передачи любого сообщения другому государству был телеграф. Он также единственный, кто может отправлять информацию только в письменной форме. Современные технологии позволяют мгновенно отправлять информацию в виде записей, аудио, изображений и видео в любой уголок планеты. Все это свидетельствует о высоком уровне информатизации человеческого общества. В нашей республике также уделяется большое внимание развитию

технологий обмена информацией. Растет и качество получения, отправки информации и ее анализа. Социализация молодежи, помимо традиционных факторов (семья, школа, круг сверстников), проходит под влиянием виртуального мира (социальные сети, Интернет). Это как никогда преувеличивало важность обмена информацией в модернизирующемся обществе[7].

ЛИТЕРАТУРА

1. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.: Академия, 2000. 956 с.
2. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.: Академия, 2000. 956 с.
3. Тоффлер Э. Шок будущего: Пер. с англ. / Э. Тоффлер. — М. «Издательство АСТ», 2002. — 557, [3] с.
4. Тоффлер, Э. Третья волна = The Third Wave. — М.: АСТ, 2010. — С.448.
5. Масуда Ё. Информационное общество как постиндустриальное общество. — Москва: 1991
6. Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг 2001-2016 йиллардаги материаллари мисолида) .Монография.– Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – Б. 49–50.
7. Ахмаджанов О.К. Жамиятнинг янгиланиш жараёнида электрон маданиятнинг регулятив функциялари // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. Наманган, 2022. – махсус сон. – Б .273-280



Fotima BABAJANOVA,
Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: babajanovafotima@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor v.b T.Islomov taqrizi asosida

STUDY OF THE PROBLEM OF DEMONSTRATING SCIENTIFIC AND CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS

Annotation

In the article, it is shown that the level of study of the problem of the manifestation of scientific and creative abilities of students is scientifically based by psychologists. Not only the amount of accumulated knowledge, but also their consistency and the ability to apply scientific knowledge in practice is important for students to adapt to the complex realities of modern society. This requires a certain way of thinking, usually called scientific, capable of seeing and creating new connections between things in the material and spiritual spheres. Creative abilities based on new, scientific knowledge for the individual and society are creativity. The article also focuses on the basis of the scientific and creative abilities of psychologists on the higher neuro-physiological system.

Key words: Ability, creativity, creativity, psychologists, neurophysiology, problems, solutions.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ И ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Ruhiy salomatlik kasalliklarining barcha turlari cheksiz o'zgarib turadi va ularning tasniflari psixiatriyada doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi, ammo biz sog'liq-kasallik dioxotomiyasining mohiyatini tushunishga yaqinlashmaymiz. Salomatlik mustaqil va ko'p qirrali hodisa bo'lib, chuqur, xolis tadqiqotni talab qiladi, shuning uchun sog'liqning zamonaviy kontseptsiyasini ishlab chiqish va sog'lom shaxsning faraziy modelini yaratish zarur, bu ikkala sog'lom (to'liq) xususiyatlarini o'rganish uchun indikativ asos bo'ladi.

Salomatlik psixologiyasi psixologiya fanining bir tarmog'i sifatida salomatlik bilan bog'liq hodisalarni o'rganishga qaratilgan. Uning qo'llaniladigan vazifalari quyidagilardan iborat[7]: atrof-muhitdagi inson salomatligiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash, kuzatish, ro'yxatga olish, tahlil qilish, prognozlash va ulardan foydalanish. Shu bilan birga, psixologiya fanining tegishli sohalarida qabul qilingan metodlar va tadqiqot usullari - mehnat psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya qo'llaniladi.

Asosan kasallikka, ruhiy jarayonlarga, bemorning funktsional holatiga va xususiyatlariga e'tibor qaratadigan tibbiy psixologiyadan farqli o'laroq, "kasallik prizmasi orqali" ko'rib chiqiladi, salomatlik psixologiyasi uchun bunday "prizma" "salomatlik" tushunchasidir[2].

Psixologiyada shaxs xususiyatlari, funktsional holatlari va organizmda sodir bo'ladigan jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar g'oyasi an'anaviy bo'lib qoldi. O'z navbatida, salomatlik, tananing funktsional holatlari va shaxsiy munosabatlar o'rtasida bog'liqlik mavjud[8].

Sog'likka ta'sir qiluvchi ko'plab omillar (tashqi - atrof-muhit ta'siri va ichki, insonning tipologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda) mavjud[4]. Ushbu omillarning umumiy ko'rinishi tadqiqotchiga ularni aniqlash uchun mos psixologik usullarni tanlash imkonini beradi. "Salomatlik psixologiyasi" faniga oid adabiyot manbalarini tahlil qilish asosida salomatlik yoki kasallik bilan bog'liqliklari eng kuchli bo'lgan uchta omillar guruhini shakllantirish mumkin. Keling, ularni chaqiramiz: Birlamchi (oldingi), uzatuvchi (efir) va motivatorlar (umumiy javob omillari).

Keling, ushbu omillar guruhlarini batafsilroq ko'rib chiqaylik.

I. Birlamchi (prekursor) omillar: ularning salomatlik va kasallik bilan bog'liqligi eng kuchli hisoblanadi.

1. Salomatlik yoki kasallikka moyil bo'lgan omillar.
2. Kognitiv omillar va insoniy xususiyatlar.
3. Ijtimoiy muhit omillari:
4. Demografik omillar

II. O'tkazuvchi (uzatuvchi) omillar - bu turli xil stress omillariga javoban yuzaga keladigan o'ziga xos inson xatti-harakati. Bu guruhga quyidagilar kiradi:

1. Salomatlikni saqlashga yordam beradigan xatti-harakatlarning stereotiplari:
2. Salomatlikni saqlashga yordam bermaydigan xatti-harakatlarning stereotiplari:

III. Motivatorlar umumiy javob omillari:

1. Stress organizm va psixikaning umumiy adaptiv reaksiyasi sifatida.
2. Kasallikning mavjudligi
3. Insonning adaptiv imkoniyatlari organizm resurslarining ajralmas xarakteristikasi sifatida

Biz har qanday tashqi omillarning insonga ta'siri bilvosita - uning psixikasi orqali sodir bo'lishini ta'kidlaymiz. Salomatlikdagi og'ishlarning ko'rsatkichlari salbiy ruhiy holatlardir.

Tadqiqot metodologiyasi va metodi. 2021-2022-yillarda o'tkazilgan tadqiqotning maqsadi yoshlar o'rtasida salomatlik va kasallik haqidagi ijtimoiy g'oyalarning xususiyatlarini o'rganish va bu g'oyalari dinamikasini aniqlashdan iborat edi. G'oyalari tahlili yoshlar tomonidan salomatlik va kasalliklarga qanday ma'no berishini ko'rib chiqishga, shuningdek, bu g'oyalarning barqaror va harakatchan elementlarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot ob'ekti yoshlar edi. Tadqiqotda turli yo'nalishdagi 210 nafar talaba, shu jumladan mehnat va o'qishni birlashtirgan talabalar (170 ayol va 40 erkak),

Biz salomatlik va kasallik haqidagi ijtimoiy g'oyalarda o'zgarishlar yuz berdi, degan taxmindan kelib chiqdik, ammo ular atrofida kristallanadigan "kuch" - "zaiflik" qarama-qarshiligi o'zgarishsiz qoldi. Salomatlik g'oyasining o'zgarishi salomatlikni saqlash usullarini ko'rsatadigan elementlarning ko'proq ifodalanishi bilan bog'liq. Kasallik g'oyasining o'zgarishi uni davolash usullarini ko'rsatadigan elementlarning ko'proq ifodalanishida ifodalanadi.

Savol berish asosiy tadqiqot usuli edi. Anketa 3 qismdan iborat bo'ldi: birinchi qismda kasallik va salomatlik haqidagi g'oyalarning tuzilishini aniqlash uchun bepul uyushmalar usuli qo'llanildi. Ikkinchisida - salomatlikni saqlash choralarini, sog'liq uchun tahdid, ushbu muammolar muhokama qilinadigan guruhlar haqida savollar. Uchinchisi ijtimoiy-demografik muammolarni o'z ichiga olgan. Taqdimot effektini engish uchun ob'ektlar ketma-ketligi o'zgardi. Olingan ma'lumotlar prototip tahlili va kontent tahlilidan o'tkazildi.

Natijalarning tavsifi va tahlili. Hammasi bo'lib, respondentlar "sog'liqni saqlash" ob'ekti bilan 1066 ta, "kasallik" ob'ekti bilan 1089 ta assotsiatsiyani taklif qilishdi. Har bir ob'ekt uchun tushunchalar lug'ati tuzilgan bo'lib, unda 280 ta turli tushunchalar - sog'lik holatida, 311 ta kasallik holatida. Har bir ob'ekt uchun assotsiatsiyalarni tahlil qilish vakillik tuzilishini aniqlash imkonini berdi.

Xulosa. Sog'liqni saqlash, tiklash va mustahkamlash masalalari tadqiqotchilarning ongida, shuningdek, "oddiy odam" ongida sog'lik, to'g'rirog'i, uning yo'qligi muammoga aylanganda paydo bo'ladi.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda zamonaviy sog'liq tushunchalari salomatlik mezonlarining sub'ektivligini ta'kidlaydi. Ushbu holatlar doirasida inson va uning atrofidagi odamlar jismoniy, psixologik va axloqiy noqulayliklarni his qiladilar. Bunday noqulaylik stress, ortiqcha yuk va boshqalar bilan bog'liq vaziyatning buzilishi sifatida yuzaga keladi. Yoki - ayniqsa, vaqt o'tishi bilan, yoshga bog'liq

o'zgarishlar bilan ular "normal farovonlik" uchun yangi mezonlarni ishlab chiqadilar. Shu bilan birga, odamlar ongli ravishda yoki ongsiz ravishda, lekin doimo "norma" darajasini pasaytiradi. Ikkala holatda ham "charchoq" kasallikka aylangan vaqtni o'tkazib yuborish imkoniyati mavjud.

Hayotiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarning nomutanosibligi, muhim hayotiy maqsadlarning yo'qligi bilan bog'liq buzilishlar inson hayotining doimiy "yiqilishi uchun o'yin" ning "o'zgarishlar doirasini" boshlaydi. "Vaziyat charchoqlari" dan boshlab, umuman olganda "hayot charchoqlari" bilan tugaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov A. Sog'lom turmush tarzi uzoq umr garovi. Toshkent "Ibn Sino" nashriyoti 2010 yil.
2. Arziqulov R.U. Sog'lom turmush tarzi asoslari 1-2 jild, Toshkent, 2005 yil
3. Ayrapetov S.G. Salomatlik – his-hayajon, go'zallik. Toshkent "Fan" 1986. - 80 b.
4. Mo'minov H.M. Sog'lom turmush tarzi – salomatlik ilmi va amali. Toshkent, 2006 yil.
5. Qurbonov SH. Q. Ovqatlanish madaniyati. T., Ma'naviyat, 2005. -208 b.
6. Павлов И.Г. Гигиена физического воспитания. Москва изд."Фис" 1986. -225 с.
7. Ананьев Б.Г. Человек как объект познания. - СПб: Питер, 2001. - 288 с .
8. Маклаков А.Г. Общая психология: учебник. СПб.: Питер, 2000. -592 с. .
9. Маклаков А.Г. Оценка уровня развития адаптационных способностей человека // Семинар по психологии управления и профессиональной деятельности / Под ред. Г.С. Никифорова, М.А. Дмитриева, В.Н. Снеткова. - СПб: Речь, 2001. - С. 127-146.
10. Павлов К.В. Психология здоровья // Практическая психология: учебник для вузов / Под ред. М.К. Тутушкина. - СПб.: Дидактика Плюс, 1998. - С. 291-311



E'zoza ZIYODULLAYEVA,
TDPU Logopediya kafedrası o'qituvchisi
E-mail: ezoza.ziyodullayeva.97@mail.ru

Phd, dotsent N.Z.Abidova taqrizi asosida

INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA NUTQNING TOVUSH TALAFFUZINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning tovush talaffuzini rivojlantirish muammosi yoritilgan. Shuningdek, nutqdagi noto'g'ri talaffuzni to'g'irlash, to'g'ri talaffuz malakalarini shakllantirish, bolalarda nutqni diqqat bilan eshitishga o'rgatish, fonematik idrok, tovushlarni tahlil va tarkib qilish malakalarini shakllantirish ishlarining mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual, neyrofiziologik, ibora, shaxs, idrok, fonematik, ekspress, kvalifikatsiya, fonema, leksika.

РАЗВИТИЕ ЗВУКОПРОИЗНОШЕНИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С НИЗКИМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМ РАЗВИТИЕМ

Аннотация

В данной статье описывается проблема развития звукопроизношения речи у детей с ограниченными интеллектуальными возможностями. Также описано содержание исправления неправильного произношения в речи, формирования навыков правильного произношения, обучения детей внимательному вслушиванию в свою речь, фонематическому восприятию, звуковому анализу и навыкам композиции.

Ключевые слова: Интеллектуальный, нейрофизиологический, Фраза, человек, восприятие, фонематический, лексикон, фонема, выразить, квалификация

DEVELOPMENT OF SOUND PRONUNCIATION OF SPEECH IN CHILDREN WITH POOR INTELLECTUAL DEVELOPMENT

Annotation

This article describes the problem of developing speech sound pronunciation in children with intellectual disabilities. The content of correcting incorrect pronunciation in speech, developing correct pronunciation skills, teaching children to listen carefully to their speech, phonemic perception, sound analysis and composition skills is also described.

Key words: Intellectual, neurophysiological, phrase, personality, perception, phonemic, express, qualification, phoneme, lexicon.

Kirish. Ma'lumki, shaxsning mukammal yetishuvida nutq alohida ahamiyat kasb etadi. To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to'g'ri va tovushlar talaffuzi aniq bo'lsa, unga o'z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo'ladi, atrof – olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar hamda o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabati to'liq, mazmunli bo'ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi[1].

Adabiyotlarda intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar muammosi yuzasidan berilgan ma'lumotlar ko'p qirrali va qarama-qarshidir. Nutq murakkab funktsional tizim sifatida dinamik joylashuvga ega va bosh miya tuzilishining turli sohalarini nutqiy faoliyatga jalb etadi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ekspressiv nutqning sust rivojlanishigina emas, balki uning rivojlanishini patologik kechishi ham xosdir. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda til belgilari tizimini egallash imkoniyatining chegaralanganligi seziladi. Bayon qilishni yuzaga keltirish, bezatish operatsiyalari shakllanmagan bo'ladi, xususan, fonemalarni tanlash bilan bir qatorda ichki bo'g'inli va bo'g'inlararo dasturlash (ya'ni, artikulyator dastur) va chuqur-sintaktik va chuqur-semantik darajalarni amalga oshiruvchi operatsiyalar, ya'ni ichki nutq buziladi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq buzilishlari sistemali xarakterda bo'lib, uning barcha tarkibiy qismlari uchun xos: fonetik-fonematik va leksik-grammatik. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lganda bolalar murakkab artikulyatsiya harakatlarini qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi, dinamik artikulyatsion stereotik shakllanmaydi – tovushlarni to'g'ri yoki noto'g'ri takrorlaganda tovushlarning birikishi qiyinlashadi[2]. A.R.Luriyaning ta'kidlashicha intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda o'tgan artikulyatsiya denervatsiyasida qiyinchiliklar va bir artikulyatsiyadan ikkinchisiga silliq o'tishda qiyinchiliklar aniqlangan. Bu tovush va

bo'g'inlar o'rnini o'zgarib qolishga, so'z tuzilishining soddalashishi va buzilishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'pincha, tovushlarni aniq idrok qilolmaganidan bolalar, frazalarning faqat alohida elementlarini bilib oladilar va ularni yagona mazmun tuzilishga bog'lay olmaydilar. Tushunishning bunday chegaralanganligi asosiy nuqsoning ikkilamchi ko'rinishi hisoblanadi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda talaffuz tizimi rivojlanishi sifat va miqdori jihatidan o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Bu barcha bolalarda u yoki bu darajada va nutqiy rivojlanishning har bir etapida namoyon bo'ladi.

Neyrofiziologik jihatdan yondoshilgan ishlarda artikulyatsion buzilishlari bosh miyaning ma'lum bir po'stloq zonalarining shakllanmaganligi bilan bog'liq ko'rsatiladi (R.A. Belov – David, A.N.Traugatt).

Psixologo-pedagogik jihatdan yondoshilgan ishlarda (R.E.Levina, V.K.Orfinskaya, A.K.Markova, Ye.G.Koritsskaya, V.A.Minashina, Ye.F.Sobotovich) intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning fonematik buzilishlari leksik va grammatik rivojlanish xususiyatlari bilan o'zaro bolik deb bayon etiladi. Nutqning fonetik rivojlanishi lug'at boyligining rivojlanish darajasiga bog'liq.


Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar tovush talaffuzining holatini qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun biz Toshkent shahridagi Yunus Obod tumanidagi 480- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti 10 nafar bolalari bilan o'tkazdik[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz boshida bolalarning anamnestik ma'lumotlari bilan tanishib chiqdik. Esperimentda 10 nafar intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan tashxisi qo'yilgan bolalar ishtirok etishdi. Birinchi bo'lib bolalarning anamnestik ma'lumotlarini o'rgandik. Anamnestik ma'lumotlarga ko'ra, 10 nafar boladan 3 nafari o'z vaqtda

tug'ilmagan, ya'ni muddatidan avval, 7 oylik tug'ilgan, 2 nafari jarrohlik yo'li bilan tug'ilgan, 5 nafari esa o'z vaqtida tug'ilgan, ammo, tug'ruq vaqtida turli xil jarohatlar olganligi ma'lum bo'ldi. Onalarining ma'lumotiga ko'ra, deyarli barcha onalarning toksikozlari o'rta og'ir darajada kechgan, barchasi homiladorlik vaqtida gripp, shamollash kasalliklarini boshidan o'tkazgan. 6 nafar bola o'z o'qiga o'ralib tug'ilgan. 2 nafar bola 1 yoshgacha surunkali shamollash bilan og'rikan. Bolalarning gugulashi 3-4

oylikda paydo bo'lgan bo'lsa, ba'zi bolalarning birinchi so'zlari 3 yoshdan keyin va hatto 5 yoshda paydo bo'lgan. Deyarli bolalarning barchasi o'ziga xos imo - ishoralardan foydalanishadi.

Ota-onalarning nutqiy faoliyati tahlil qilinganda, ota-onalarning nutqida qo'pol nuqsonlar yo'qligi qayd etildi. Anamnestik ma'lumotlaridan keyin, bolalarni tanlab olingan metodikalar asosida tovushlar talaffuzi holatini tekshirdik. Olingan natijalar quyidagicha bo'ldi.



1-rasm. Tovush talaffuzidagi kamchiliklarning namoyon bo'lishi.

Yuqoridagi jadvalda ifodalanganidek, tovush talaffuzidagi kamchiliklarni nomoyon bo'lishiga ko'ra, tovushni almashtirish hollari 3 nafar (30%) bolada, tovushlarni so'zda mustahkam emasligi 2 nafar (20%) bolada, tovushni noto'g'ri talqin etish 3 nafar (30%) bolada kuzatildi. Tovush talaffuzi kamchiliklarida, biz tovushni umuman talaffuz eta olmaslik (tovush yo'qligi) holatini 2 nafar (20%)da bola kuzatdik.

Intellectual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq kamchiliklari tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilish bilan chegaralalanib qolmay, shuningdek tovushlarini yetarli farqlamaslik va so'zni tovush tomonidan tahlil va tarkib qilishdagi qiyinchiliklardan ham iborat.

Intellectual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalardagi nuqsonlarning maktabgacha yoshda bartaraf etish tavsiya etiladi. Bunda mashg'ulotlardan keng foydalaniladi. Mashg'ulotlar frontal, guruhli va individual tarzda o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarda olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

- nutqdagi noto'g'ri talaffuzni to'g'irlash;
- to'g'ri talaffuz malakalarini shakllantirish;
- bolalarni nutqini diqqat bilan eshitishga o'rgatish;
- fonematik idrokni rivojlantirish;

tovushlarni tahlil va tarkib qilish malakalarini shakllantirish.

Nutqning fonetik tomondagi kamchiliklarini bartaraf etish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Og'zaki nutqni idrok etishni shakllantirish;
- Artikulyatsion apparat motorikasini rivojlantirish;
- Sirg'aluvchi, shovqinli, sonor, til orqa va chuqur til orqa tovushlarni to'g'ri artikulyatsiyasini tarbiyalash.

Tadqiqotni olib borish jarayonida bir necha o'yinlar shakllantirildi. O'yin jarayonlarining texnologik nuqtai nazardan yoritilishiga alohida e'tibor berildi. Quyida ushbu o'yinlardan biri va ularni tashkil etish jarayoni keltiriladi.

“Chap qo'l barmoqlaridagi nuqta” o'yini. Bu o'yin tarbiyalanuvchilarda chap qo'l barmoqlarining sezgirliigi va o'ng qo'l barmoqlarining harakatchanligini oshirishga yordam beradi, “s”, “l”, “r”, “d”, “t” tovushlarini to'g'ri aytish ko'nikmalarini rivojlantiradi[5].

O'yinning maqsadi: o'ng qo'lning barmoqlari yordamida navbat bilan chap qo'lning barmoqlari uchida nuqtaning rasmi chizish.

O'yin ishtirokchilari: defektolog va tarbiyalanuvchilar.

O'yin vositasi: chap qo'l kafti, chap va o'ng qo'l barmoqlari.

O'yin vaqti: 2 daqiqagacha.

O'yin qoidasi: 1) nuqtani ifodalashda o'ng qo'lning barcha barmoqlari ishtirok etadi;

2) nuqta chap qo'lning kaftida navbatma-navbat o'ng qo'lning barcha barmoqlari yordamida chiziladi.

O'yinning borishi:

1-bosqich. Qo'llar biroz oldinga cho'ziladi.

2-bosqich. Kaftlar ochilib, shu holatda qo'llar bir-biriga qaratiladi.

3-bosqich. Chap qo'l shu holatda ushlab turiladi.

4-bosqich. O'ng qo'lning barmoqlari yordamida navbat bilan chap qo'lning barmoqlari uchida nuqtaning rasmi chiziladi.

5-bosqich. Defektolog: Endi o'ng qo'limizni yana musht qilib tugamiz. O'ng qo'limizning 2-barmog'ini ochamiz. Bu barmog'imiz bilan chap qo'limizning barcha barmoqlarida “nuqta”ni hosil qilamiz. “Nuqta”ni chizishda “Lam-lam-lam” deb takrorlaymiz.

6-bosqich. Defektolog: Endi o'ng qo'limizni yana musht qilib tugamiz. O'ng qo'limizning 3-barmog'ini ochamiz. Bu barmog'imiz bilan chap qo'limizning barcha barmoqlarida “nuqta”ni hosil qilamiz. “Nuqta”ni chizish vaqtida “Ram-ram-ram” deb takrorlaymiz.

7-bosqich. Defektolog: Endi o'ng qo'limizni yana musht qilib tugamiz. O'ng qo'limizning 4-barmog'ini ochamiz. Bu barmog'imiz bilan chap qo'limizning barcha barmoqlarida “nuqta”ni hosil qilamiz. “Nuqta”ni chizish vaqtida “Dam-dam-dam” deb takrorlaymiz.

8-bosqich. Defektolog: Endi o'ng qo'limizni yana musht qilib tugamiz. O'ng qo'limizning 5-barmog'ini ochamiz. Bu barmog'imiz bilan chap qo'limizning barcha barmoqlarida “nuqta”ni hosil qilamiz.

Tovushlar talaffuzi ustida yakka mashg'ulotlar logopedik tashxis ishlari tugagandan so'ng, sentabr oyinig 3-haftasidan boshlandi va 1-iyunga qadar davom etdi. Nutqning fonetik tomonini rivojlantirish ishlari 3 bosqichda amalga oshirildi:

Tayyorgarlik bosqich. Maqsad – umumiy nutqiy malakalarni rivojlantirish, artikulyatsiya apparatini tovushlar talaffuziga tayyorlash. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi: logopedik mashg'ulotlarga qiziqishni, ehtiyojni shakllantirish; o'yin va maxsus mashqlar yordamida eshitish xotirasini rivojlantirish, nutqqa nisbatan ongli diqqatini qaratish (tushunish) bo'yicha ishlar, tovushlarni differentsiatsiya qilishga, tovush manbaini topishni tarbiyalash; artikulyatsiya motorikasini rivojlantirish; barmoqlar mashqi va tizimli tashkil etilgan mashqlar jarayonida mayda motorikani rivojlantirish; bolaning jismoniy holatini mustahkamlash, ikkilamchi kamchiliklarni oldini olish.

Talaffuz ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Maqsad: tovush talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etish, artikulyatsiya akustik jihatdan o'xshash va farq qiluvchi tovushlarni farqlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va nutqda farqlashga o'rgatish.

Tovushni nutqda qo'llash bo'yicha olib boriladigan ishni tovushni nutqqa qo'yish qoidalarini ketma-ketligini xisobga olib rejalashtirish, bunda asosiy diqqat-e'tibor, tovush artikulyatsiyasini ongli ravishda mustahkamlashga qaratilib, bolalar til, lablar, tishlar qay holatda turganligini ko'rsatib, aytib bera olishlari talab etildi. Tovushlarni nutqqa qo'yishda taqlid, mexanik va aralash usullardan bo'rtma profillardan foydalanilish asosida amalga oshirildi. Ona tili fonetikasini shakllantirish tovush o'zlashtirishning ketma-ketlikdagi tabiiy-fiziologik jarayoni singari tashkil qilindi. Tovushlar talaffuzi ustida yakka mashg'ulot davomida, har bir bolaga 10 – 15 daqiqa ajratilgan holda ish olib boriladi. Har bir aniq holatda tovushlarni nutqda qo'llash usullari tanlanadi.[6] Ularni tanlashda bola shaxsiga, talaffuzdagi kamchilik va nutqning xususiyatlariga e'tiborga olindi. Artikulyatsion mashqlar ketma-ketlikda undosh tovushlarni gapirish mashqlari bilan almashtirildi va bu mashqlarga bola to'g'ri talaffuz qiluvchi tovushlar kiritildi. Shu sababli dastlab lablabli p, b, m, yumshoq til oldi t, d, n, sonor l tovushlarga e'tibor qarotildi. Sirg'aluvchi, shovqinli, affrikat tovushlar, «r» tovushi ustida ish olib borildi.

3-bosqichda tovush tahlili va sintezini rivojlantirish ishlari olib borildi. Ushbu darajaga ega bolalar son va otlarni

moslab ishlatish, otlarning kichraytirish-erkalash shakllarini hosil qilish, otlardan sifat yasash, kelishik qo'shimchalarini qo'llay olish nutqda yordamchi so'zlardan foydalanish malakalarini egalladilar, og'zaki nutqda kuzatiladigan leksik-grammatik, fonetik-fonematik kamchiliklar bartaraf etishga erishildi.

Xulosa va takliflar. Muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va o'tkazilgan tekshiruv ishlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

- muammo bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish alalik bolalarni fonematik idrokini rivojlantirishning o'ziga xoz tomonlari O'zbekiston Respublikasida yetarli darajada o'rganilmaganligi aniqlandi;

- intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalardagi fonematik idrok nuqsonlarini maxsus logopedik ishlarsiz bartaraf etilmaydi;

- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tovush tahlil-tarkib qilish ko'nikmalarini tekshirish natijasida bolalarda bu malakalarning (tovushlarni tahlil va tarkib qilish) deyarli shakllanmaganligi aniqlandi;

- tovush talaffuzi nuqsonlarini bartaraf etish, fonematik idrokini rivojlantirishga qaratilgan ishlar bilan birgalikda olib borilgandagina yaxshi natijalarga erishiladi, logopedik ishning samaradorligi oshadi;

- agar bolalarni bunga maxsus o'rgantilmasa, ularda yozma nutq kamchiliklari ham yuzaga kelishi ehtimolidan holi emas. Shuning uchun ham maxsus muassasalarda fonematik idrokni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Ayupova M.Y. Logopediya. –T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2007.
2. Abidova, Nilufar. "Problems of Preparing Future Defecttologists to Work in the Conditions of Inclusive Education." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 2505-2511.
3. Абидова, Н.З. Организация работы учителя-логопеда в условиях инклюзивной практики / Maktab va hayot, журналы, № 4 (168) / 2022, 23-26 Б.
4. Luriya A.R. Osnovi neyropsixologii. – Moskva. - Izdatelskiy sentr Akademiya 2013.
5. Sobotovich YE.F. Rechevoye nedorazvitiye u detey i puti yego korrektsii. -M.: Klassiks stil, 2003.
6. Usanova O.N. Spetsialnaya psixologiya. - Moskva.: Piter, 2008.



Малика ИБАДУЛЛАЕВА,
Студентка Ургенчского государственного Университета
E-mail: malikam3105@gmail.com

На основе рецензии Заведующий отделом социально-гуманитарных наук Хорезмской Академии Мамун старший научный сотрудник, доктор филологических наук Рауфджон Махмудов

DEVELOPING SELF-STUDY SKILLS OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Annotation

This article discusses the flipped learning and its role in modern classroom. Also, the author gives description of some problems in applying flipped learning into class and ways to overcome them.

Key words: Classroom, reverse education, technology, podcast, CMS, LMS, Chernigovskaya, Bergman, creativity.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ У УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье обсуждается перевернутое обучение, являющееся одной из технологий обучения, и его роль в современном классе. Также автор дает описание некоторых проблем применения перевернутого обучения на уроке и путей их преодоления.

Ключевые слова: Класс, обратное обучение, технология, подкаст, CMS, LMS, Черниговская, Бергман, творчество.

INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI MUSTAQIL O'RGANISH KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan teskari ta'lim va uning zamonaviy sinfdagi o'rni muhokama qilinadi. Muallif, shuningdek, sinfdagi teskari ta'limdan foydalanishning ba'zi muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini tavsiflaydi.

Kalit so'zlar: Sinf, teskari ta'lim, texnologiya, podkast, CMS, LMS, Chernigovskaya, Bergman, kreativlik.

Введение. Один из моделей обучения является «Перевернутый класс». В этой модели обучения, входит выполнение домашних заданий, также использование технологий видеокаста:

- просмотр видеолекции;
- чтение учебных текстов, рассматривание поясняющих рисунков;

• прохождение тестов на начальное освоение темы.

При выполнении домашнего задания в классной работе ученики должны делать анализ сложной теоретической части темы. Для этого они уделяют не более 25-30% времени. Также на занятиях ученики под контролем учителя решают практические задачи и делают исследовательские опыты. Для понятия пройденной темы после аудиторного урока они дома должны делать практические задания и чтобы закрепить знания решать тесты. Чтоб перейти к модели перевернутого класса надо научить учеников к главенству в аудитории [3].

Джонатан Бергман и Аарон Сэмс в 2007 году впервые создали модель «перевернутого класса». Они придумали этот метод студентам спортсменам которые пропускают уроки и развили эту идею в новое образовательное направление. При этом помогли публикации в крупных американских газетах и журналах. Например, в журнале «Таймс» от 10 декабря 2006 года в статье «Как вытащить наши школы из XX века» читаем: «Американские школы, конечно, не застыли во времени, но, учитывая темпы изменений в других областях жизни, наши государственные школы становятся все более и более похожими на пережитки прошлого. Дети проводят свой день так, как когда-то их прадеды: сидят рядами, слушают лекцию учителя, пишут от руки в тетрадях и читают учебники, которые устарели на момент выхода в свет».

Бергман вспоминает: «Весной 2007 года Аарон показал мне статью о программном продукте, который позволял создавать слайд-шоу PowerPoint, включающее голосовые и любые текстовые заметки. Затем все это преобразуется в видеофайл, который можно легко распространить в Интернете. Мы поняли, что это позволит нашим ученикам пропускать занятия, не пропуская обучения! Это программа даёт возможность к онлайн обучению. Мы

начали публиковать наши лекции в Интернете, чтобы студенты могли получить к ним доступ. Честно говоря, мы записывали наши лекции из корыстных соображений. Мы потратили слишком много времени на курсы повышения квалификации для студентов, пропустивших занятия. Записи лекций стали нашей первой линией защиты».

Нам не известно, принял ли iSpring эту идею еще в 2007 году, но сейчас в iSpring Suite существует такие методы обучения как перевернутое обучение с прямой загрузкой видео на YouTube.

Данный метод иногда обвиняют в ослаблении роли учителя. Фактически в этом методе повышается роль преподавателя. Благодаря предварительному видеокастингу у учителя остаётся время на закрепление и углубление знаний, полученных учениками самостоятельно.

Модель обучения «Перевернутый класс» часто путают с дистанционным обучением. Но разница в том что, время очной аудиторной работы остается неизменным, принципиально меняется лишь ее содержание [5].

Другие критики утверждают, что модель перевернутого класса понижает традиционное образования из-за невозможности задавать вопросы преподавателю. Защитники модели говорят, что необходимость в таких вопросах снижается дополнительным возможностям, которые появляются при использовании LMS:

- сколько угодно можно посмотреть непонятную часть видеолекции; вы можете обратиться к справочнику FAQ (часто задаваемые вопросы);
- используя дискуссионный модуль в LMS (сюда дополнительно включены механизмы социальной когнитивной теории) вы можете задавать вопросы другим ученикам;
- чтобы получить разъяснения по поводу предстоящего занятия вы можете отправить своему учителю вопросы по встроенной электронной почте.

Популярность обучения перевернутой модели после существования её десятилетия продолжает расти несмотря на критику. Это подтверждает график, полученный с помощью Google Trends. Ключевые используемые термины: «Перевернутый класс» и «Перевернутое обучение». Во всех

сферах жизни происходящие изменения, бросают вызов системе образования, требуя от неё «идти в ногу» [1].

Необходимо надо понять чтобы ответить на этот вызов, каким требованиям должны соответствовать участники образовательного процесса – кто преподает и кто учится. Для этого имеется стандарты Международного общества технологий в образовании.

Обновленный стандарт для учащихся (предыдущий опубликован в 2007 году, новый – в июне 2016 года) напрямую связаны с преподаванием в перевёрнутом классе, которые содержит множество требований. К примеру из них приведены ниже:

Ученики в процессе обучения должны использовать технологические инструменты и «специализировать среду обучения для расширения знаний».

Учащиеся должны действовать только безопасными и законными способами, понимать в цифровом мире специфику обучения.

Критически мыслить должны ученики при изучении материала.

Необходимо не только изучать нынешние материалы, но и знать «решать проблемы, создавая новые решения».

То есть модель обучения перевёрнутого класса позволяет эффективно применить эти требования. При этом важную роль играют индивидуализации образовательного пространства, которые невозможно реализовать без предводокастинговой деятельности. Скорее всего, одним из главных трендов образования XXI века станет индивидуализация. Необходимость в этом является на глубокие различия между людьми указывающими научно доказанными фактами. В новой книге «Подростковый мозг: думай иначе?» приводит данные о том, что жизненно важное для развития страха перед опасностью, является менее активно в мозге подростков, чем у взрослых, и притом менее активно у мальчиков, чем у девочек. Вероятно всего, девочки именно поэтому в среднем учатся лучше, поскольку они больше боятся плохих оценок. В своей лекции профессор СПбГУ Татьяна Черниговская «Как научить мозг учиться?» также указывает на научно установленные гендерные особенности восприятия и обучения информации о строении и функционировании мозга. К примеру, для девочек важно, чтоб учебный материал выглядел красиво.

О механизмах мозга рассказывает Профессор Татьяна Черниговская, позволяющих нам учиться.

Понятно, что система образования будет стремиться к персонализации. Именно модель образования «перевернутый класс» может стать той моделью, которая поможет организовать с более индивидуальным подходом учебный процесс.

Даже несмотря на факторы модели «Перевернутый класс» основным направлением модернизации образования, становится ограничивающие рост его популярности.

Во-первых, в разных странах официальные органы образования пока предоставляют грантовую поддержку только учителям-энтузиастам. Любители педагогической профессии в основном без официальной поддержки решают вводить перевёрнутое образование. Растущее число научных

публикаций и диссертаций может привести к пользе перевёрнутого образования и его узаконение.

Во-вторых, энтузиасты на YouTube по опыту внедрения делятся, что ученикам может не прийти по вкусу, так и их родителям. Более того, если средняя успеваемость в перевёрнутых классах заметно улучшится то, у учителей могут возникнуть проблемы с коллегами.

Основная задача для разработки модели «перевернутого класса» является значительное увеличение нагрузки учителя в переходный период. Имеющийся материал надо разделить так чтоб часть переводилась в водкаст, а часть оставлялась для классной работы. Для контроля учащихся надо создать тесты, разработать систему оценки самостоятельной работы дома и коллективной работы на уроке, освоить технику разработки водкастов и создать самим водкасты [4].

Очевидно, сложность этой проблемы имеет две составляющие – методологическую и технологическую. На первом месте стоит технологическая часть проблемы, так как для учителя все в ней новое.

Результат. Для преодоления технологической трудоемкости имеется две основные возможности:

Во-первых, огромное число ресурсов наиболее различной темы вместе с на- меренными высококачественными водкастами. К примеру, видеоуроки с всеобщее популярной Академии Хана либо единственный с наиболее эффективных русских проектов с целью подростков «Интернет-урок».

Данное пополняющаяся а также обновляющаяся подборка видеоуроков (в настоящее время их наиболее 4000) согласно главным дисциплинам школьной проекты. В случае если оптимальная видеолекция обнаружена, остается только лишь изменить ее в необходимый параметры а также использовать в подобранную LMS [2].

В случае если необходимая для вас видеолекция никак не обнаружена, вы сможете «перевернуть» деятельность без помощи других. Единственный с менее сложных методов – сформировать презентацию в Power Point а так же использовать ее в iSpring Cloud (традиционный). Он будет автоматически преобразован в формат, который можно прочитать на всех устройствах. Вам сможете использовать видеоматериал совместно с демонстрацией

(либо в том числе и взамен ее), в том числе водкасты ваших лекций либо уроков, аудиофайлы а также рисунки.

Выводы и предложения. Большинство исследований не обнаруживают существенной разницы между традиционным обучением и перевёрнутым классом. Успеваемость детей в перевёрнутом классе улучшается, но незначительно. Удовлетворенность деятельностью остается прежней. Таким образом, «перевернутый класс» — это не ключ к отличным результатам обучения, а способ внести разнообразие в большее количество уроков. Современные педагогические технологии разнообразны и многочисленны. Однако они непривычны почти всем учащимся и педагогам, всё же, сложности в их применении можно решить и достигнуть большей продуктивности обучения.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Butzler K. B., (2015), ConfChem Conference on Flipped Classroom: flipping at an open-enrollment college, J. Chem. Educ., DOI: 10.1021/ed500875n.
2. Fautch J. M., (2015), The flipped classroom for teaching organic chemistry in small classes: is it effective? Chem. Educ. Res. Pract., 16, 179–186.
3. Ibadullayeva M.X. Teskari sinf texnologiyasi. Ilm sarchashmalari Jurnal. 2024 y, №1.
4. Ибадуллаева М. Технология обучения перевёрнутого класса в общеобразовательных школах. Хоразм Маъмур Академияси Ахборотномаси илмий – журнал. 2023-12/3 й.
5. https://didact.bsu.by/item/video_as_an_educational_tool
6. <https://infourok.ru/statya-innovacionnaya-model-obucheniya-perevornutyj-klass-...>



Guli ISAEVA,

Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida dotsenti

E-mail: isaevag@mail.ru

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

ANALYSIS OF KHOJA AHMAD YASSAVI'S IDEAS ABOUT A PERFECT PERSON

Annotation

In this article, the creative and educational aspects of Khoja Ahmed Yassavi, especially his wisdom, are analyzed. Khwaja Ahmed Yassavi believed that the basis of perfection is in knowledge and intellectual purity, and with this he gained great fame among the people and did not put himself above others, did not give in to arrogance, on the contrary, looked at himself with a critical eye. It is explained that the fact that he called himself and others to be knowledgeable and humble is also an example for today's youth. Most of the Sufi teaching of Khwaja Ahmed Yassavi is devoted to the education of faith. It lists 40 statuses, of which 10 statuses are logut, that is, enlightenment and knowledge. This is mainly based on the intellectual upbringing of a person. From this point of view, the great scholar shows that in the status of enlightenment, knowledge is the foundation of the formation of intelligence and thinking in a person, and explains that this status includes the moral formation of a person. Also, he was able to justify the processes of intellectual education and moral formation in their interdependence

Key words: Perfect human being, Sufism, Divan, wisdom, Sufism, science, intellect, education, faith, spirituality. Khoja Ahmed Yassavi, Sufi teachings, faith, education, status, enlightenment and learning, human, mind, great scholar, enlightenment.

XOJA AHMAD YASSAVIYNING BARKAMOL INSON HAQIDAGI G'OYALARI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xoja Ahmad Yassaviyning ijodi, ayniqsa hikmatlarini ta'lim-tarbiyaviy jihatlari tahlil qilingan. Xoja Ahmad Yassaviy komillikning asosini, ilmida, aqliy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozonganligi va o'zini o'zгалardan ustun qo'yimayligi, valiyman deb, kibru havoga berilmaganligi, aksincha, o'ziga tanqidiy nazar bilan qarab, o'zini va o'zгалarni bilimdonlikka, kamtarlikka chaqirganligi bugungi kun yoshlari uchun ham ibrat namuna ekanligi yoritilgan. Xoja Ahmad Yassaviy so'fiylik ta'limotining aksariyat qismi imon-e'tiqod tarbiyasiga bag'ishlangandir. Unda 40 ta maqom ko'rsatilgan bo'lib, ulardan 10 ta maqomi logut, ya'ni ma'rifat va ilm olishga qaratilgan. Bunda asosan, inson aqliy jihatdan tarbiyalanishi asoslanadi. Shu nuqtai nazardan buyuk alloma ma'rifat ma'qomida ilm, insonda aql va tafakkur shakillanishining poydevori ekanligini ko'rsatadi hamda bu maqom insonning axloqiy shakillanishini ham o'z ichiga qamrab oladi, deb tushuntiradi. Shuningdek, u aqliy tarbiya va axloqiy shakillanish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda ham asoslab bera olgan

Kalit so'zlar: Kamil inson, so'fiylik, devon, hikmatlar, tasavvuf, ilm, aql, ta'lim-tarbiya, e'tiqod, ma'naviyat. Xoja Ahmad Yassaviy, so'fiylik ta'limoti, imon-e'tiqod, tarbiya, maqom, ma'rifat va ilm olishga, inson, aql, buyuk alloma, ma'rifat.

АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ХОДЖИ АХМЕДА ЯСАВИ О СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются творческие и просветительские стороны Ходжи Ахмеда Яссави, особенно его мудрость. Ходжа Ахмед Яссави считал, что основа совершенства – в знании и интеллектуальной чистоте, благодаря чему он приобрел большую известность в народе и не ставил себя выше других, не поддавался высокомерию, наоборот, смотрел на себя с критический взгляд. Объясняется, что тот факт, что он называл себя и других знающими и скромными, также является примером для сегодняшней молодежи. Большая часть суфийского учения Ходжи Ахмеда Яссави посвящена воспитанию веры. В нем перечислено 40 статусов, из них 10 статусов логут, то есть просветление и знание. В основном это основано на интеллектуальном воспитании человека. С этой точки зрения великий учёный показывает, что в статусе просвещения знание является основой формирования интеллекта и мышления у человека, и поясняет, что этот статус включает в себя нравственное формирование человека. Также он смог обосновать процессы интеллектуального воспитания и нравственного формирования в их взаимозависимости.

Ключевые слова: Совершенный человек, суфизм, диван, мудрость, суфизм, наука, интеллект, образование, вера, духовность. Ходжа Ахмед Яссави, суфийское учение, вера, образование, статус, просвещение и обучение, человек, разум, великий учёный, просветление.

Kirish. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalarida mohiyati va ko'lamiga ko'ra asrlarga teng tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Biz ko'rayotgan erkin jamiyatning yangicha munosabatlarga asoslaganligi mustaqil rivojlanish strategiyasini amalga oshirish, jahon jamiyatida o'zimizning munosib o'rnimizga ega bo'lishimizga asos bo'lmoqda. Darhaqiqat bu tanlangan milliy taraqqiyot modeli, bozor iqtisodiyotiga tayangan erkin, demokratik, fuqrolik jamiyati asoslarini shakillantirish, bir tomondan ko'p asrlik tarix, buyuk madaniyat, yuksak madaniyat, yuksak milliy an'analar, muqaddas qadriyatlarga, ikkinchi tomondan esa jahon xalqlarining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassam etgan yo'limizning to'g'ri ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Demak, bundan buyon ham kelgusi taraqqiyotimizning bosh omillaridan biri-xalqimizning tarixiy ma'daniy merosida bor bo'lgan bunyodkor, insonparvar g'oyalarni o'rganib, tiklab davr ehtiyojlari nuqtai nazaridan baholab, ulardan ma'naviyatimizni, yoshlar tarbiyasi ta'lim mazmunini boyitishda unumli foydalanishdir. Shu nuqtai nazaridan ham buyuk ajdodlarimizning, jumladan Xoja Ahmad Yassaviy merosida o'z ifodasini togan ma'naviy tarbiyaviy g'oyalarni o'rganish ham ilmiy ham ijtimoiy amaliy zaruriyatdir. Bu haqda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, ma'naviy merosimizni alohida ehtirom bilan chuqur o'rganish lozimligini qayta-qayta ta'kidlab shunday fikr bildirganlar: „Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unitilmas hissa qo'shgan olimu-fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan milliy meros, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish

darkor. Men bu o'rinda Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kubro kabi mavzuga dahldor asarlarini nazarda tutaman"[1].

Tadqiqotning ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar.

Bunda Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini ta'lim-tarbiya, ayniqsa ma'naviy tarbiya sohasidagi tutgan o'rni juda ulkan ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, uni pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish va ta'lim-tarbiya amaliyotida foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bugungi kunda pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

So'fiylik maqomidagi ushbu tamoyillar tarbiya sohasida bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ayniqsa, bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida Xoja Ahmad Yassaviyning "Rasoil", "Faqirnoma", "Devoni hikmat" asarlaridagi diniy va dunyoviy bilimlar bilan ta'minlovchi hikmatlardan foydalanish o'quvchi va talabalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni kuchli e'tiqod egasi qilib shakillantirish imkonini beradi. Imon-e'tiqodli kishi esa barcha yo'llardan holi bo'lishi, ya'ni u pok, halol, to'g'riso'z, o'zga moliga, omonatiga hiyonat qilmasligi, qanoatli, sabr-toqatli, saxovatli, diyonatli va sadoqatlik kabi sifatarga ega bo'lishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi-yoshlarning e'tiqod tarbiyasi bilan shug'ullanishimiz foydadan holi bo'lmaydi.

Endi esa biz ta'lim-tarbiya, e'tiqod tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy manbalardan olingan Yassaviy tariqatiga oid ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish, savol-javob, suhbat metodlari orqali tahlil qilamiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Tarixchilarning guvoh berishicha, madrasa va maktablarda Qur'oni karim va Sunna, payg'ambar hadislaridan keyin Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan o'quv qo'llanma sifatida yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanilgan. Xoja Ahmad Yassaviy shogirdlariga faqat ruhoni ustoz, pir bo'libgina qolmay, har bir fuqaro ahliga munosib, halol va adolatli, ish buyurgan holda yashash yo'llarini o'rgatadi. Xususan, insonlarni bilim olishga chaqirib, g'ayri millat vakillariga ozor bermang, deya ta'kidlaydi:

Sunnat ermish kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qattiq dilozordan xudo bezor.

Ushbu hikmatda bugungi kun uchun nihoyatda ahamiyatda bo'lgan millatlararo bag'rikenglik, xushmuomalalik, shirinso'zlik targ'ib qilingan. Yosh Ahmad bolaligidanoq o'zining bilimdonligi bilan tengdoshlari orasida aql-zakovati bilan namuna bo'lib kelgan. Uning bilimdonligi, aql-zakovati haqida bir qancha rivoyatlar mavjud.

Aqliy tarbiya haqida fikr yuritar ekanmiz, shuni albatta nazarda tutishimiz joizki, ya'ni inson ko'nglini poklab olishi uchun, avvalo, o'zidagi son-sanoqsiz illatlardan xalos bo'lishi zarur. U birinchi navbatda, ma'rifatsizlikdan qutilishi uchun o'zi bilan o'zi kurashishi, o'ziga tanqidiy nuqtai nazardan qarab, nafs va g'araz, kibru havo, ta'magiriklik kabi nuqsonlarni yengishi, o'ziga o'zi qat'iy ta'nayu dashnomlar berishi lozim.

Yassaviy nodon zolimlar, dunyo va nafs uchun intiluvchi aqlsiz, farosatsiz kishilarni tanqid qilishdan oldin aql-zakovat bilan fikr yuritib, ko'z dunyo moliga to'yamasligini, bunday kishilarning hech qanday so'zi xalqqa ta'sir qilmasligini ko'rsatib, har bir kishida havas qiluvchi sifat – iymon, e'tiqod bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

"Rivoyatlarga ko'ra, Xoja Ahmad Yassaviy 63 ga, ya'ni payg'ambar yoshiga kirgach, g'orga kirib, umrini toat-ibodat, bilim olish va vaqti-vaqti bilan yoshlarga bilim berish bilan shug'ullangan. U umrini riyozatda o'tkazib, 125 (boshqa manbalarda ko'rsatilishicha-133) yoshida vafot qilgan." Sharqda o'tgan aksariyat bilimdon, xudojo'y, Haq yo'lida fidoyi so'fiy – donishmandlardan (Arslonbobning 300 yosh yashaganligi, ustoz Yusuf Hamadoniyning 95 yil umr ko'rganligi kabi) ko'pchiligining 100-120 yil umr ko'rganlarini inobatga olsak, Yassaviyning shuncha yoshga kirgani va shu yillar davomida yoshlarning tarbiyasi bilan shug'ullanganligiga ishonsa bo'ladi [1].

Xoja Ahmad Yassaviy o'z-o'zini tarbiyalab, oliy ruhiy olam sirlariga yetishgani, ya'ni valiylikka erishgani uchun o'z

nafsidan, kibru havodan kechgan edi. Quyidagi baytlarda buni yaqqol ko'rish mumkin:

Jondin kechgan chin oshiqlar dunyo demas,

Bu dunyoda sudu ziyon bo'lsa bilmas,

Nafsi o'luk, obu ta'om g'amin yemas,

Dunyo kelib, jilva qilsa boqqani yo'q.

Ayni vaqtda ulug' shoir o'zini o'zgalardan ustun qo'ymaydi, valiyman deb, kibru havoga berilmaydi, aksincha, o'ziga tanqidiy nazar bilan qaraydi, o'zini va o'zgalarni bilimdonlikka, kamtarlikka chaqiradi:

Yo'ldan chiqib ozganimni bilmadim men,

Haq so'zini qulog'imga olmadim men,

Bu dunyodan ketarimni bilmadim men,

So'rar bo'lsa, men qul anda ne qilg'ayman?.

Xoja Ahmad Yassaviy qabrlari ustida sohibqiron Amir Temur 1395 yil ulkan maqbara qurirdi. Uning salobati, muhabbatini Bibixonim, Oqsaroy, Buxorai sharifdagi Ark, Shayxul Olam (Sayfiddin Boharziy) obidalariga tenglashtirish mumkin. Maqbaraning 35 ta xonasi mavjud. Ayni shu kunlarda Qozog'iston hududida joylashgan Yassidagi Xoja Ahmad mozorlari butun dunyodan keladigan e'tiqod egalari uchun obod va fayzbaxsh ziyoratgoh, Yassaviy ta'limoti esa to'g'ri yo'lni topish uchun tarbiya dasturiga aylangandir.

Maqbara binosining asosiy peshtoqi janubi sharq, qibla tomonga qarab qurilgan. Xoja Ahmad Yassaviy hoki ustida qad ko'targan ushbu maqbarani muhtashamligi jihatidan Misrdagi Heops ehromiga va Hindistonning Agra shahrida Shoh Jahon qurdirgan Mumtoz Mahal (yoki Tojmahal) maqbarasiga qiyoslash mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy tariqati bilan yaqindan tanishib, yening ilmi ma'naviy merosi muhlisiga aylangan Yevgeniy Yefimovich Berezikov "Nasafiy" tahallusi bilan 1993-yili "Xoja Ahmad Yassaviy" kitobini nashrdan chiqardi. Bu kitobda u o'zini 1990-yilning dekabr oyida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarsida o'tgan xalqaro anjumanda qatnashganligi to'g'risida bayon qilib, unda YUNESKOning "Buyuk ipak yo'li"dagi madaniy aloqalar: Xoja Ahmad Yassaviy olami dasturimasiga ko'ra dunyoning 25 mamlakati vakillari ishtirok etganligini ma'lum qiladi. Maqbaraning muqaddas mehrobi oldida Qur'on tilovat qilish chog'ida o'zi ham qo'shilib tilovat qilganligini hamda buyuk Xoja Ahmad qabriga sig'inib, mo'jizaviy quvvat olganligini jo'shqin mamnuniyat bilan ifodalaydi. Shuningdek, u bizga qadar Yassaviydan yetib kelgan "Devoni hikmat" nomli asar hamma zamonlarda, barcha turkiyzabon avlodlarga manzur va maqbul bo'lib kelganligi, insonni asl komillikka etadigan, fidoiylik va e'tiqodda sobitlik, halollik, poklikni targ'ib-tashviq etadigan to'plam ekanligi, shu bilan birga kishilarni asl maqsad – Olohh vasliga erishmoq yo'lida mashaqqat – riyozat chekmoqqa, ma'rifat kasb etmoqqa, islomiy va dunyoviy ahkamlarni egallamoqqa chorlashi haqida to'xtalib o'tadi.

Bugungi kunda ham Xoja Ahmad Yassaviy masjidi peshtoqiga hazrati Rasulullohning "Talabo'l ilmi farizaton ala kulli musulma va muslimatin", ya'ni "Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farz", degan hadis bitilganligini ko'rishimiz mumkin. Bulardan yoshlarga bilim berishda hadislardagi boy tarbiyaviy o'gitlarni, hayot haqiqatlarini turkiy tilda tarqatish Yassaviy tariqatining maqsadi ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Bu o'rinda Ahmad Yassaviyning birinchi hikmati har bir insonni o'ziga jalb qilishi tabiy.

Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib,

Toliblarga durru gavhar sochdim ma'no,

Riyozatno qattiq tortib, qonlar yutib,

Men daftari soni so'zin sochdim ma'no.

Ya'ni, o'z shogirdlariga qanday qiyinchiliklar, riyozatlar orqali bilim gavharini sochganligini aytib, so'zni talab qilganlarga va qalb orqali seza bilganlarga, g'arib, yetim, faqirlarning ko'nglini olib, ilm berganligini tasdiqlaydi.

Alloma ilmning cheksizligiga, buni qancha ko'p bilsang ham, shuncha ko'p narsani bilmasliging ma'lum bo'lishligiga ishora qiladi. Bu fikrida Xoja Ahmad Yassaviy o'zi shahsiy namuna ko'rsatib, aqlli, ilmi odam g'ariblarning ko'nglini olish, elni kezib ularni topish va dardlashish, dunyoparast bilimsiz kishilardan uzoq yurishga da'vat qiladi:

Oqil ersang, g'ariblarni ko'nglin ovla,

Mustafodek elni kezib, yetim kovla,

Dunyoparast, nojinslardin bo'yin tovla,

Bo'yin tovlab, daryo bo'lib toshdim ma'no.

“Ayni paytda Yassaviy nodonlik, jaholat, va diniy aqidaparastlikni razolat deb qattiq qoralagan. Shuning uchun ham o'tmishda hikmatlari singari o'zining shuhrati ham Turkistonda keng tarqalgan, xalq orasida Yassaviyning donishmand, bashoratchi alloma sifatlaridan voqif etuvchi ko'plab rivoyatlar yaratilgan.” [2. 208-b.]

Xoja Ahmad Yassaviy ilm-ma'rifat targ'ibotchisi sifatida ko'zga ko'ringan tarbiyashunos olim hamdir. Bu ma'noda mol-dunyo yig'uvchilarga, mol-dunyo uchun bir-biriga shafqat qilmasdan nodonlik, aqidaparastlik, johillik qiluvchilarga nafrati zo'r ekanligini o'z ta'biri bilan ko'rsatadigan quyidagi hikmatini keltirish o'rinlidir:

Nodonlarga essiz so'zim, hayf hikmat,

Odammen deb belin bog'lar, qani hikmat!

Dunyo uchun bir biriga qilmas shafqat,

Zolimlarga asir bo'lib o'ldim ma'no.

Ushbu hikmatda teran ijtimoiy pedagogik ma'no bor.

Ya'ni nodonlarga so'zning bedor ketishi, ular odamman deb belini bog'lashlari bilan hech kimga himmat ko'rsata olmasliklari, mol-dunyo uchun bir-birlariga shafqat qilmasliklarini aytadi. Aynan zolimlikning kelib chiqish sababini ham Xoja Ahmad Yassaviy bilimsizlik va nodonlikdan deb biladi. Shu o'rinda yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan “Kuch-bilim va tafakkurda” degan fikrlarni naqadar chuqur tarixiy zaminga ega ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Yassaviy yoshlarga murojat qilib, bilim egallash oson emasligini, buning uchun esa yillar davomida har qanday qiyinchiligi mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o'z ustida qunt bilan ishlash kishidan irodali bo'lishni talab qiladi. Shunday xulqqa ega bo'lgan shaxsgina bilim va fan cho'qqilarini yillar davomida egallab olishini ta'kidlaydi. Bu borada u o'zining 20 yoshgacha Buxoroda va boshqa shaharlarda ustozlari rahnamoligida ilm ma'rifat o'rganganligi, natijada barcha

insonlardagi kabi o'zida bo'lgan xilma-xil illatlardan umri davomida qutulishga intilganligini quyidagi misralarda ifodalaydi:

O'n to'qqizda yetmish maqom zohir bo'ldi,

Zikrin aytib, ichuv toshim tohir bo'ldi,

Qoyda borsam, Hizr bobom hozir bo'ldi,

G'avs-ul-g'iyos may ichurdi, to'ydim ma'no.

Yoshim yetti yigirmaga, o'tdim maqom,

Bixamdilloh, pir xizmatin qildim tamom.

Ul sababdan Haqqa yovuq bo'ldim ma'no.

Xoja Ahmad Yassaviy mutasavvuf qoydasiga ko'ra, ilm-ma'rifat hosil qilib irshod (vasiyatnoma) olganidan keyin ham faqirlik yo'lini tanlab, biror yerda muqim uy-joy qilmay, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, xalqni ilmga, ma'rifatga, hukmdorni iymon-e'tiqodga, insof-diyonatga da'vat qiluvchi bilimlarni targ'ib qilgan, zuxd, taqvoni yuzaki tushungan va ilmga amal qilmaydigan zohidlarni qoralagan.

Xoja Ahmad Yassaviy o'zining “Hikmatlar” nomli asarida ustoz Arslonbob so'zlarini eslatib, ana shunday bilimsiz dindorlarni qattiq qoralaydi:

Pir xizmatin qilduk deb, tolibmen deb yurarlar,

Yoyyib harom-harishni, qo'lbarig'a urarlar,

Ko'zlarida name yo'q, xalq ichra kirarlar,

Arslon bobom so'zlarin eshitingiz, tabarruk.

Yassaviyning “Hikmatlar” asaridagi ilm va aqliy tarbiyaga doir fikrlarni o'rganish va ularni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Xoja Ahmad Yassaviy faqat yirik din arbobi bo'libgina qolmay, ajoyib shoir va buyuk ma'rifatparvar, pedagog ekanligi bilan ham ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning atrof-muhitdagi hayot ziddiyatlarini kuzatishlari juda nozik va teran pedagogik mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Xullas, Xoja Ahmad Yassaviy zikrida buyuk bir ruhoniy poklik olamiga intilish shaxs kamoloti deb izohlanadi. Kamolotga yetishish esa hayotda mashaqqat chekish, izlanish orqali amalga oshadi, deb ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1990 – 412 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda O'zbekiston nashriyotlari. 1 – 2 kitoblar. – T.: 1996 – 1999, - 272 b.: -208b.
3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992 – 208 b.
4. Nasaviy (Yevgeniy Yefimovich Berezikov). Xoja Ahmad Yassaviy. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – 15 b.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991 – 256 b.
6. Bebaho ma'naviy meros. – T.: “Qatortol-Kamolot”, 1999. -18 b.
7. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994 – 432 b.



Risolat ISKANDAROVA,
TATU Urganch filiali stajyor o'qituvchisi

TATU Urganch filiali dotsenti Sh. Abdullayevaning taqrizi asosida

TALABALARGA INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA SINXRON TARJIMA QILISHNI O'RGATISHDA ELEKTRON ILOVALARNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyasi - bu zamonaviy ta'lim nazariyasiga asoslangan nazariy va amaliy texnologiya bo'lib, u o'qitish samaradorligini oshirish, ta'lim va o'qitish jarayonini optimallashtirish uchun zamonaviy fan va texnika yutuqlari va tizimli fandan foydalanish, o'quv jarayoni va o'quv resurslarini o'rganish orqali ta'lim muammolarini hal qilish, ayniqsa, texnika yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarida talabalarga sinxron tarjimani o'rgatishda mobil ilovalar orqali pedagogik usullardan foydalanish va samaradorlikka erishish jarayonlari tahlil qilinadi. Tarjimani o'rgatish - bu tilning keng qamrovli qobiliyatini tarbiyalash bo'lib, tarjimani o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyasini qo'llash o'quv jarayonini tashkil etish va o'quvchilar nuqtai nazaridan ta'lim resurslarini optimallashtirish va muvofiqlashtirishga urg'u beriladi. Bu talabalarning sinxron tarjima qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi va bugungi XXI asr axborot texnologiyalari asrida o'quvchilarni har tomonlama darsga qiziqitirish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish maqsadida elektron ilovalardan foydalanishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: Sinxron tarjima, elektron ilova, ilova, tarjimashunoslik, tilshunoslik, ilovalar bozori, ish stoli, texnologiya, lug'atlar.

THE ROLE OF ELECTRONIC APPLICATIONS IN TEACHING STUDENTS TO SIMULTANEOUS TRANSLATION FROM ENGLISH TO UZBEK

Annotation

In this article, modern educational technology is a theoretical and practical technology based on modern educational theory, which uses modern science and technology achievements and systematic science to improve the effectiveness of teaching, optimize the education and training process, solving educational problems by studying the educational process and educational resources, especially the processes of using pedagogical methods and achieving efficiency through mobile applications in teaching simultaneous translation to students in technical educational organizations are analyzed. Teaching translation is the cultivation of comprehensive language skills, and the use of modern educational technology in translation teaching is emphasized on the organization of the learning process and the optimization and coordination of educational resources from the perspective of students. This requires the use of electronic applications in order to significantly increase the ability of simultaneous translation of students and to make students interested in lessons in all aspects and spend their free time effectively in the age of information technologies of the 21st century.

Key words: Simultaneous translation, electronic application, application, translation studies, linguistics, application market, desktop, technology, dictionaries.

РОЛЬ ЭЛЕКТРОННЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ СИНХРОННОМУ ПЕРЕВОДУ С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ

Аннотация

В данной статье современная образовательная технология – это теоретическая и практическая технология, основанная на современной теории образования, которая использует достижения современной науки и техники и системной науки для повышения эффективности преподавания, оптимизации учебно-воспитательного процесса, решения образовательных задач путем изучения образовательных технологий. Анализируются процессуальные и образовательные ресурсы, особенности использования педагогических методов и достижения эффективности посредством мобильных приложений при обучении синхронному переводу студентов технических образовательных организаций. Обучение переводу – это развитие комплексных языковых навыков, а использование современных образовательных технологий в обучении переводу делается упор на организацию процесса обучения, а также на оптимизацию и координацию образовательных ресурсов с точки зрения студентов. Это требует использования электронных приложений, чтобы существенно повысить возможности учащихся по синхронному переводу, заинтересовать их во всех аспектах и эффективно проводить свободное время в век информационных технологий XXI века.

Ключевые слова: Синхронный перевод, электронное приложение, приложение, переводоведение, лингвистика, рынок приложений, десктоп, технология, словари.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar o'zlarining ziyrakligi, berilgan topshiriqlarni tez va oson yo'llar bilan bajarishi hammamizga ma'lum. Shu bois bugungi XXI asr axborot texnologiyalari asrida ularni har tomonlama darsga qiziqitirish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish maqsadida uyga vazifalar berish jarayonida elektron ilovalardan foydalanish zamon talabalaridan biridir. Zero, telefon, kompyuter va planshetlar har bir talaba hayotining muhim bir ajralmas bo'lagiga aylangan. PlayMarket, AppStore ilovalaridan android va apple telefonlariga mos keladigan turli xil sinxron tarjima qilishni o'rgatadigan va hattoki tarjima qilishda eng muhim omillardan biri hisoblanadigan talaffuz qilishni o'rgatish imkonini bera oladigan bir nechta ilovalar mavjud. Bu esa ta'limda dars mashg'ulotlarida elektron ilovalardan foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Dars davomida mobil ilovalardan foydalanishga bo'lgan e'tibor dunyo miqyosida oshib borishi bilan birga bir qator olimlar keng hajmdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Jumladan, bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar T.N. Golitsyna va N.L. Polovnikov, D. Kigan, V.A. Kuklev, A. KukulskiHulme, D. Lorrillard, R.S. Nagovitsyna, M.Yu. Novikov, S.A. Rodionov, H. Kirchhoff, K. Kuzmina, F.M. Zakirova, M.M. Nafasov va boshqalar e-learning, mobil ta'lim va unda mobil ilovalarning o'rni, shu jumladan ularning dolzarbligi va amalga oshirilishini, afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarining didaktik xususiyatlariga bag'ishlangan maqolalari va tadqiqot ishlarida o'z fikrlarini bayon etganlar.

Metod va metodologiya. Dunyo miqyosida elektron ta'lim holatini tahlil qilish, modellashtirish, xulosa chiqarish,

kuzatish, nazariy tahlil va sintez qilish sinxron tarjimani texnika ta'lim yo'nalishi talabalariga o'rgatishda elektron ilovalardan dars paytida foydalanish to'g'risidagi fikrlarimiz bayon etiladigan maqolaning metodologik asosini tashkil etadi. Maqolada ma'lumotlar qiyosiy-tahlil metodi asosida yoritiladi.

Natija. Texnika yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarida talabalarga sinxron tarjimani o'rgatishda mobil ilovalardan pedagogik usullar orqali foydalanish va samaradorlikka erishish

Muhokama. Hammamiz bilamizki, talabalarga, ayniqsa texnika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga yangi tilni o'rganish qiyin bo'lishi mumkin. Yozuvchi Malkolm Gladvell tomonidan mashhur bo'lgan 10 000 soatlik qoidani ko'pchilik yaxshi biladi, bu har qanday sohada mutaxassis bo'lish uchun 10 000 soat bag'ishlangan amaliyotni talab qiladi. Qoida bahsli bo'lsa-da, ikkinchi tilni yaxshi bilish uchun hali ham yuzlab (agar minglab bo'lmasa) soatlar kerak bo'ladi, uchinchi yoki to'rtinchi tilni aytmasa ham bo'ladi. Sinxron tarjimani talabalarga o'rgatish pedagoglardan ma'lum strategiyalarni dars paytida qo'llashni taqozo etadi.

Tarjima qilish strategiyalari "bardosh berish taktikasi" deb ham nomlanadi. Tegishli adabiyotlarga ko'ra, strategiyalar tarjimonlarning qayta ishlash qobiliyatining cheklanishi yoki bilim bo'shlig'i natijasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yoki osonlashtirish uchun ataylab va maqsadga yo'naltirilgan protseduralardir. Strategiyalarni takroriy va muvaffaqiyatli ishlatish avtomatik faollashtirishga olib keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kamida olti oylik intensiv diqqat-e'tibor bilan bajarilgan vazifalar odamlarga bir-biriga o'xshash vazifalarni bajarish uchun maxsus protsessual ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi. Strategiyalar ham protsessual ko'nikmalar ekanligini hisobga olsak, strategiyadan foydalanish bo'yicha treninglar tinglovchilarga ularni tarjima qilish amaliyotida qo'llash imkonini beradi, deb taxmin qilish mumkin[1].

Sinxron tarjima strategiyalari amaliy tilshunoslik bo'yicha olib borilgan boshqa tadqiqotlardan unda kelib chiqadigan ko'plab tillar va vaziyatlarning uslubiy muammolari bilan farq qiladi. Avvalo, talabalarga sinxron tarjima qilishni o'rgatishdan oldin uning aslida qanday ma'noga ega ekanligini anglatish lozim. Sinxron so'zi esa yunoncha "synchronos" so'zidan olingan bo'lib, bir vaqtli, bir davrli degan ma'noni bildiradi. Ya'ni, sinxron so'ziga batafsil ta'rif beradigan bo'lsak, sinxron so'zi-bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lgan yoki bo'ladigan sinxronizmga, sinxronlikka ega bo'lgan sifatdir[8]. Bu jarayon talabalarda birdaniga shakllantirib bo'ladigan hodisa emas, balki muntazam mashqlar va tajribalar orqali o'rgatib borilishi mumkin. Bunda dars jarayonida o'qituvchilardan elektron ilovalardan foydalanishni yo'lga qo'yish eng foydali strategiyalardan biri deb hisoblash mumkin. Ko'pgina mobil ilovalar qurilmaning o'zida oldindan o'rnatiladi yoki ularni App Store, Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do'konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin. Dastlab, mobil ilovalar elektron pochmani tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarida ham kengayishiga olib keldi. Masalan, mobil telefon va GPS o'yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va Internetdan foydalanish[7]. Bugungi kunda mobil ta'lim texnologiyasini joriy etishning asosiy vositalari mobil ilovalar hisoblanadi. O'zbek tilida "mobil ilova" atamasi ingliz tilidan olingan (asl atamasi "mobile application" yoki "mobile app"). Oksford lug'atida mobil ilova quyidagicha ta'riflanadi: "Smartfon yoki planshet kabi qurilmalarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan o'yinlar yoki ma'lumot qidirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot[2]".

Ilovalarni kompyuter ish stoliga yuklab olish uchun foydalanuvchilar rasmiy va norasmiy imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin. Masalan, ish stoli foydalanuvchisi FileHippo.com yoki Softpedia kabi norasmiy manbalardan ilovalarni yuklab olishi mumkin. Ish stoli ilovalari odatda norasmiy manbalar orqali topish osonroq. Biroq, foydalanuvchilarning programma turiga xos bo'lgan bir nechta rasmiy dastur manbalari mavjud. Misol uchun, Apple Mac kompyuteriga ega bo'lgan shaxslar Mac App Store do'konidan ish stoli ilovalarini yuklab olishlari mumkin. Bundan tashqari, veb-ilovalar ham mobil qurilmalarda, ham ish stollarida ishlatilishi

mumkin. Bunday turdagi ilovalar odatda yuklab olinishi shart emas. Biroq, ba'zi qidiruv tizimlarida o'zlarining ilovalar do'konlari mavjud, masalan, faqat Google Chrome brauzerida ishlaydigan ilovalarni misol qilib keltirish mumkin.

Endi ushbu ilovalar qatorida sinxron va yozma tarjimani o'rgatishga mo'ljallangan tarjima ilovalari ham mavjud bo'lib, ularning hammasi ham mukammal emas, ayniqsa gap sinxron tarjimani o'rgatishga yo'naltiriladigan ilovalar haqida ketadigan bo'lsa. Chunki har bir tilning grammatikasi va leksik-semantik birliklari bir-biridan farqlanishi tabiiy hol, va aynan bu farqlarni talabalarga o'rgatish ancha qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Lekin ular doimo takomillashmoqda. Sinxron tarjimani o'rgatishda dars jarayonida google translate, Microsoft translate, TripLingo, DuoLingo kabi ilovalardan foydalanish mumkin, chunki bunday ilovalardan foydalanish juda qulay va talabalarda shubhasiz, darsga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi mumkin.

Google Translate - bu tarjima uchun eng yaxshi ilovalardan biri. iPhone va Android qurilmalarida mavjud bo'lgan Google tillar ro'yhatida tarjimon jummalarni 103 xil tilga tarjima qila oladi. U o'sha tillarning ko'pchiligi uchun ovoqli, tasvirli va qo'l yozuvi tarjimalarini ham taklif etadi va ikki tili suhbatlarni tezda tarjima qilishi mumkin. Ilova mutlaqo bepul (ilova ichidagi xaridarsiz). Biroq uning bir nechta kamchiliklari bor, xususan, jumalar tarjimalarini bir butun sifatida tahrir qila olmasligi (ayniqsa, xitoy kabi tillarda). Hozirda Google o'zining so'nggi jonli tarjimalarni joriy etish ustida ishlamoqda.

Hozir ilovalar bozorida iTranslate Converse, iTranslate Voice va iTranslate Translator kabi bir nechta turli iTranslate ilovalari mavjud. Google singari, iTranslate ishlab chiquvchilari Ear Translator deb nomlangan jonli tarjima xizmatini mukammallashtirishga harakat qilmoqdalar. Aksariyat tarjima ilovalarida roman va boshqa Yevropa tillarini tarjima qilishda muammo yo'q, lekin ko'pincha Osiyo tillarining to'g'ri tarjimasini ta'minlashda qiynaladi. Buning sababi, aksariyat tarjima ilovalari Amerika Qo'shma Shtatlarida yaratilgan bo'lib, u yerda kompaniyalar xitoy va yapon kabi tillar bo'yicha keng ma'lumotlarga ega emaslar. Koreyaning eng yaxshi qidiruv tizimi yaratuvchisi Naverdan Papago atigi 10 ta tilni qo'llab-quvvatlaydi, ammo raqobatchilarga qaraganda Osiyo tillariga yaxshiroq tarjimalarni taqdim etadi. U boshqa ilovalar bilan bir xil xususiyatlarni, jumladan, matn, ovoz, fotosurat va suhbat tarjimalarini taklif etadi. Sharhlarga ko'ra, u ovoz va fotosuratlarni noto'g'ri talqin qilishi mumkin, lekin u taklif etayotgan tillar uchun eng aniq tarjima ilovasi bo'lib, yanada yaxshilanishda davom etmoqda.

Microsoft Translator - 60 dan ortiq tillar uchun matn, tasvir va ovoqli tarjimalarni taklif etadi, ularning barchasini oflayn rejimda ishlatish uchun yuklab olish mumkin. Bundan tashqari, ilovani ulashishingiz va bir nechta odam suhbatlarini tarjima qilishingiz mumkin (garchi bu Windows Phone bilan ishlamasa ham). Microsoft Translator'da tasdiqlangan tarjimalar va talaffuz bo'yicha qo'llanmalar uchun so'zlashuv kitobi mavjud bo'lib, u sayohat paytida muhim iboralarni o'rganishga yordam beradi. U ko'pgina aqlli soatlar va qurilmalarga mos keladi va agar siz ilovani o'zingizning istalgan qurilmangizga yuklab olsangiz, u allaqachon qilgan tarjimalaringizni avtomatik ravishda sinxronlashtiradi va bir xil tarjimani qayta-qayta qilmasligingizni ta'minlaydi. Microsoft Translator Microsoft Office, Bing va Twitter tomonidan qo'llaniladigan bir xil texnologiya bilan ishlaydi.

TripLingo boshqa shunga o'xshash ilovalarga qaraganda tarjima qilishda biroz boshqacha yondashuvni qo'llaydi. U odatiy ovoz, tasvir va matn tarjimalarini taklif qiladi, shuningdek, tarjimalar uchun to'rt xil jargon darajasiga ega (rasmiy va norasmiy). Hozirda u 42 tagacha tilni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu ilovaning yana bir qiziq xususiyati shundaki, agar tarjima ishlamasa yoki siz hali ham uning ma'nosini tushuna olmasangiz, TripLingo sizga yordam berish uchun jonli tarjimon bilan bog'lanadi (albatta, to'lov evaziga). Ushbu ilova juda zo'r bo'lsa-da, afsuski, boshqa tarjima ilovalaridan eng qimmatli hisoblanadi.

Bundan tashqari Mentimeter, Quizlet, Duolingo, Babel, Kontekst Reverso, DeepL, iTalki kabi boshqa mobil ilovalar ham dars mashg'ulotlari davomida tarjima qilishni o'rgatadigan turli xil interaktiv va samarali o'yinlar, so'rovnomlar, jonli nutqlar

hamda mashqlarni o'z ichiga oladi. Albatta, bu ilovalardan foydalanibgina o'z maqsadimizga to'laqonli erisha olmaymiz, chunki bu ilovalar faqatgina tarjima qilishni o'rgatadigan yordamchi qurollardir.

Sinxron tarjimani o'rgatish- bu bir kechada shakllanmaydigan har tomonlama til qobiliyatini tarbiyalashdir. U ko'p sonli tarjima amaliyoti hamda ma'lum nazariya va ko'nikmalarni egallash orqali asta-sekin amalga oshirilishi kerak. Tarjimani o'qitish ikki til o'rtasidagi qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni, til va madaniy asos bilimlarini chuqur tushunishni kuchaytirish, tarjima nazariyalari va ko'nikmalarini o'rgatish va qo'llashni oshirish; o'quvchilarning ongliligi va turli tarjima ko'nikmalaridan mohirona foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini tayyorlashni kuchaytirish, tilni tushunish va ifodalashning aniqligini oshirishni o'z ichiga oladi[3].

Avvalo, mobil texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish quyidagi afzalliklari mavjud:

- Talabalar bir-biri bilan erkin muloqot qilishlari mumkin va o'qituvchi faqatgina doska bilan kifoyalanmaydi;
- Bir nechta kompyuterlarga qaraganda auditoriyada bir nechta mobil qurilmalarni joylashtirish osonroq;
- Mini yoki planshet kompyuterlar (PDA) va elektron kitoblarni fayllarga qaraganda kamroq joy egallaydi; shuningdek sichqoncha yoki klaviaturaga qaraganda sensorli ekrandan foydalanish ancha osonroq
- Vazifalarni almashish qobiliyati va talabalar bir-biri bilan hamkorlik qilish;
- Mobil qurilmalardan istalgan joyda istalgan vaqtda foydalanish mumkin, shu jumladan uyda, poezdida, mehmonxonalarda;
- Mobil texnik vositalar, masalan, telefonlar, gadjetlar, o'yin qurilmalari va boshqalar talabalarda ta'limga nisbatan qiziqish uyg'otadi[5].

Bunday afzalliklarga qaramay, ma'lum mobil ta'limning kamchiliklari ham mavjud:

- mobil ilovalardan foydalanishning ko'payishi bilan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning pasayishi kuzatilmoqda, chunki talaba va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa minimallashtiriladi. Binobarin, o'qitishning ushbu shakli muloqot, ishonch,

yetakchilik va jamoada ishlash qobiliyati kabi fazilatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi;

- gadjetlardagi ilovalarning qulay ishlashidan foydalanish uchun zarur bo'lgan ayrim hududlarda Internetga bepul ulanish bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjud bo'lishi mumkin;
- yuqori sifatli mobil ilovani ishga tushirish uchun kapital moliyaviy xarajatlar talab etiladi;
- texnik qurilma bilan ishlay olmasangiz, materialni o'rganishda, shuningdek, uni o'zlashtirishda boshqa qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin;
- qator mobil ilovalarda mavjud bo'lmagan uzun matn parchalarini o'qishda diqqatni jamlashning yo'qolishi.

Ammo, bu kamchiliklarga qaramay, ularning ba'zilari to'liq yoki qisman yo'q qilinishi mumkin. Masalan, bosqichma-bosqich ko'rsatmalar yordamida foydalanish qulayligini oshirishingiz mumkin [6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mobil ilovadan ta'lim jarayonining ixtiyoriy shakli (onlayn/offlayn) da foydalanish mumkin. An'anaviy ta'limda o'qituvchi ta'lim jarayoni bilan birgalikda mobil ilovalarni yuritishi orqali ham katta samaradorlikka erishadi. O'quvchi an'anaviy ta'limda dars jarayonida qatnashishi bilan birgalikda mustaqil ravishda takroran darsni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, hamda o'zlashtirilgan bilimlarni mobil ilovada turli sinovlar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. So'nggi paytlarda ushbu texnologiya o'sib kelayotgan avlod uchun zerikarli va monoton xususiyatga ega bo'lgan an'anaviy tillarni o'rganish usullari o'rniga til o'rganishning innovatsion usuli sifatida butun dunyo bo'ylab ta'lim muhitiga yo'l ochmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mobil ta'lim an'anaviy ta'lim bilan 100% almashtirmaydi, lekin uni qo'shimcha resurs sifatida oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoni va ta'limning tarkibiy qismi qilib ishlatish mumkin. Mobil ta'lim kompyuterlarni portativ qurilmalar bilan almashtirishni maqsad qilmaydi, balki qiziqarli yangi usullar bilan talabalar uchun qulayroq muhitda o'rgatishni ta'minlaydi[5]. Muxtasar qilib aytganda, mobil ilovalardan dars paytida shug'ullanish yanada samaraliroq va rag'batlantiruvchi bo'lishi mumkin. Bugungi rivojlangan texnologiyalar davrida bunday ilovalardan foydalanish talabalarni sinxron tarjimaga o'rgatishda eng zamonaviy metodlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Kirchhoff H. (2002). Simultaneous interpreting: Interdependence of variables in the interpreting process, interpreting models and interpreting strategies. In: F. Pöchhacker & M. Shlesinger (Eds.), *The Interpreting Studies Reader*. London and New York: Routledge. pp. 111-119.
2. Kuzmina, K. (2019). 10 преимуществ использования мобильных приложений в образовании. <https://techrocks.ru/2019/03/27/10-preimushhestvispolzovaniya-mobilnyhprilozhenij-v-obrazovanii/>
3. Su, W.L. (2021) How to Use Modern Teaching Methods to Improve English Chinese Translation Ability. *Open Access Library Journal*, 8, 1-6. doi: 10.4236/oalib.1108279.
4. Nafasov M.M. (2020). The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process // *EPR International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*. pp.142-166. DOI:10.36713/epira2013
5. Доскажанов Ч.Т., Даненова Г.Т., Коккоз М.М. Роль мобильных приложений в системе образования // *Международный журнал экспериментального образования*. – 2018. – № 2. – С. 17-22.
6. <http://docs.cntd.ru/document/1200159701>
7. uz.m.wiktionary.org



Gulbaxor ISHMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
E-mail: gulbahorishmuradova@mail.ru

Qarshi DU professori N.Qayumova traqrizi asosida

DEFINITION OF COMPETENCIES IN THE TRAINING OF SPECIALIST PERSONNEL AND THEIR TYPES

Annotation

This article will talk about the types of competencies in the training of specialist personnel, the interpretation of their origin and the main characteristics of Soft skills and Hard skills skills skills skills, methods for assessing staff skills , a group of professions in indicating the ratio of soft and hard skills.

Key words: Competencies, technology, creativity, soft skills and hard skills.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ И ИХ ВИДЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются виды компетенций в подготовке специалистов, история их возникновения и основные характеристики навыков Soft skills и hard skills, методы оценки квалификации персонала , группы профессий при указании соотношения мягких и жестких навыков..

Ключевые слова: Компетенции, технологии, креативность, мягкие навыки и жесткие навыки.

MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASHDA KOMPETENSIYALARNING TA'RIFI VA ULARNING TURLARI

Аннотация

Mazkur maqolada mutaxassis kadrlar tayyorlashda kompetensiyalarning turlari, ularning kelib chiqish ta'rixi va Soft skills va Hard skills ko'nikmalarning asosiy xususiyatlari, xodimlar malakasini baholash usullari , yumshoq va qattiq mahorat nisbatlarini ko'rsatishda kasblar guruhi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiyalar, texnologiya, ijodkorlik , Soft skill va Hard skill ko'nikmalar.

Kirish. Hozirgi kunga qadar ko'pchilik kishilar kelajak muvaffaqiyatlarini o'zining kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratiga bog'laydi va bu tabiiy nuqta nazardan to'g'ri hisoblanadi. O'z ishini ustasigina yuksak muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Lekin kasbiy jihatdan va umuman muvaffaqiyatli bo'lishning yana bir tomoni borki – bu yosh muhandislarning amaliy (soft/yumshoq) ko'nikmalarga ega bo'lishidir.

Bizga ma'lumki, kompetensiyalar - bu shaxsning shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini, ishni samarali bajarish va yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir.

Hard va soft skills atamalarini harbiy ishlardan kelib chiqadi. 1959 yilda AQSh armiyasi harbiy xizmatchilarni tayyorlashga ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqishni boshladi. Rivojlanish jarayonida tadqiqotchilar harbiy xizmatchilar uchun nafaqat kasbiy mahorat (hard skills), balki tizimli mashg'ulotlarga mos kelmaydigan universal kompetensiyalar (soft skills) muhimligini aniqladilar. Soft va hard skills o'rtasidagi farqlarni tushunish 1968 yilgi "harbiy tayyorgarlikni loyihalash tizimi" doktrinasida quyidagicha ifodalangan: hard skills asosan mashinalar bilan ishlash ko'nikmalari, soft skills odamlar va qog'ozlar bilan ishlash ko'nikmalaridir. Harbiy fan va psixologiyada atamalar paydo bo'lgandan so'ng, ular biznes sohasida erkin foydalanishga o'tdilar. Bugungi kunda bo'sh ish o'rinlarida, shu jumladan rus tilida, "kasbiy mahorat" va "shaxsiy fazilatlar" bo'limlari o'rni - hard skills va soft skills-ni topishingiz mumkin [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A. Баладин [7] , O.Суховейко[8] N. V. Kuzmina, I.A. Zimnya, N.A.Muslimov, O.A. Qoysinov, M.H.Usmanbayevalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilindi [17].

Hozirgi vaqtda Soft skills (yumshoq) va hard skills (qattiq) kompetensiyalar deb ataladigan yumshoq ko'nikmalar va qattiq ko'nikmalarni baholash odatiy holdir.

Soft skills — inglizchadan to'g'ridan to'g'ri tarjimasida "yumshoq ko'nikmalar" degan ma'noni bildiradi. Amaliyotda esa, yumshoq ko'nikmalar insoniy ko'nikmalar yoki shaxslararo ko'nikmalar sifatida ham ishlatiladi. Soft skill uchun misollar: Bu

oddiy kundalik hayotimizda odamlar bilan muloqot qilish uchun foydalanadigan xatti-harakatlarimizning jamisidir.

Hard skills — ingliz tilidan "qattiq ko'nikmalar" deb tarjima qilinadi. Qattiq ko'nikmalar — inson tomonidan o'qib rivojlantiriladigan texnik bilimlar yoki tajriba orqali shakllanadigan qobiliyatlar hisoblanadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimizda adabiyotlarni tahlil qilish, induksiya va deduksiya, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev yoshlarimiz oldiga qo'yilayotgan vazifalar haqida o'z vaqtida quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz"[1].

XXI-asr boshlarida texnologik taraqqiyot va dinamik o'zgaruvchan tadbirkorlik muhiti sharoitida moslashuvchan ko'nikmalar tobora ommalashib bormoqda, deb ishoniladi [3,4]. Xususan, Jahon iqtisodiy forumi va Gaydarov forumi ishtirokchilari texnologik inqilob sharoitida ta'limning o'zgarishi moslashuvchan ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib kelishini ta'kidladilar[5,6,7]. A AQSh biznes ta'limi assotsiatsiyasi va OECD zamonaviy mehnat bozori sharoitida moslashuvchan ko'nikmalarni ish bilan ta'minlashning muhim omili sifatida belgilaydi [78] Bugungi kunda ko'pgina tovarlar (xizmatlar) ni yaratish uchun turli sohalardagi mutaxassislarining hamkorligi talab etiladi, ularning muvaffaqiyati rivojlangan moslashuvchan ko'nikmalarga asoslanadi.

Iqtisodchi Andrey Belousov moslashuvchan ko'nikmalarni rivojlantirishni yaqin kelajakda mamlakatning kadrlar siyosatini belgilaydigan tendentsiya deb hisoblaydi.

Tahlil va natijalar. Soft skills (yumshoq ko'nikmalar) - bu insonning xarakteriga bog'liq bo'lgan va hayotiy tajriba orqali erishiladigan shaxsiy fazilatlaridir. Bunday universal kompetensiyalarni miqdoriy jihatdan o'lchash qiyin. Ular amalda ma'lum bir ishning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq emas, lekin ular karerani shakllantirishga yordam beradi. Bularga intellektual, ijtimoiy va irodaviy kompetensiyalar kiradi: tanqidiy fikrlash;

qat'iylik; tahliliy ko'nikmalar; yetakchilik; aloqa maxorati; ijodkorlik; jamoada ishlash qobiliyati; ko'p vazifalarni bajarish; aniqlik va h.k.

Masalan, kotib lavozimiga da'vogar uchun muloqot va ko'p vazifalilik kabi Soft skills (yumshoq) kompetensiyalar, dizayner uchun - ijodkorlik va tanqidiy fikrlash, loyiha menejeri uchun - jamoada ishlash qobiliyati, qat'iyatlilik va tahliliy qobiliyatlar birinchi o'ringa chiqadi. Yumshoq ko'nikmalarni miqdoriy jihatdan o'lchab bo'lmaydi va ko'pincha odamda mavjud yoki yo'q shaxsiy fazilatlar deb ataladi. Darhaqiqat, ular

1-jadval.

Hard -skills	Soft-skills
Texnik konikmalar	Kommunikativ qobiliyatlar
Jihozlar bilan ishlay olishi	Shaxslar bilan ishlay olishi
Jarayonlar bilan boshqarish	Munosabatlarni boshqara olishi
Tahlil va raqamlar	Sezgilar va tajriba
Texnologiya	San'at
Reglamentlar	Intuisiya
Standartlar	San'at

Eng oddiy qiyin ko'nikmalarga yozish va o'qish qobiliyati kiradi; bu shuningdek, chet tilini, mahsulot, ish dasturi, standartlar va qoidalarni bilish, mashina haydash va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Masalan, frontend dasturchi uchun qattiq ko'nikmalar quyidagicha ko'rinadi: HTML va CSS-ni bilish, JavaScript-ni

2-jadval

Malaka	Namoyish eta olishi
Ishlab chiqarish uskunalarini boshqarish qobiliyati	Masalan, tikuv mashinasida yubka tikish yoki stanokda biror detal yaratish
O'z kasbiy mutaxassisligi bo'yicha chet tilini bilish	Kundalik muloqot uchun chet tilini bilish hali mustahkam mahorat emas. Ammo agar mutaxassis o'z sohasi bo'yicha ingliz tilida gapirsa yoki geolog o'z sohasida maxsus atamalarni bilsa, bu boshqa masala
Ixtisoslashtirilgan dasturlar bilan ishlash qobiliyati - maket, taqdimotlar yaratish	Maqola muallifi yoki yozuvchi qo'shimcha ravishda mahsulotni oldindan chop etishi va uning reklamasini tayyorlashi mumkin
O'n barmoq usulida teginish orqali yozish	Odatda, hamma "bir barmoq" bilan yozishi mumkin. Qattiq mahorat - bu texnologiya va maxsus tayyorgarlik natijasi
Matematik masalalarni yechish	Olim yoki tadqiqotchi uchun bu kasbning bir qismidir
Tahlil qilish uchun qon olish qobiliyati	Hamshiraning mustahkam mahoratiga misol, lekin, masalan, shifokordan bu mahorat talab etilmaydi [1].

Har bir mutaxassislik bunday ko'nikmalarning o'z ro'yxatiga ega bo'ladi. Masalan, shifokor uchun bu tugallangan ta'lim va amaldagi sertifikat, o'z mutaxassisligi bo'yicha kasalliklarni davolashning zamonaviy usullarini bilish, dori vositalarining ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning muvofiqligini tushunishni anglatadi. Quruvchi diplom olgandan

(3-jadval).

Malaka	Xulq-atvorda namoyon bo'lish	Malaka qiymati
Hissiy intellekt	Xodim ish munosabatlarni o'rnatishi va saqlab turishi mumkin. Yaxshi rivojlangan hissiy intellekt, bu sizga odamlarning ehtiyojlari va his-tuyg'ularini baholashga va muloqotda buni hisobga olishga imkon beradi.	Hamkorlar va mijozlar bilan muloqot qilish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi
Tanqidiy fikrlash	Inson ma'lumotni so'rashga qodir. Mutaxassis turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va ikki marta tekshiradi va mohiyatini tushunadi	Agar siz savollar berishni va boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qilishni o'rgansangiz, yanada ishonchli ma'lumot olishingiz mumkin. Axborotga asoslangan qarorlar qabul qilishga va ma'lumot etishmasligi tufayli xato qilmaslikka yordam beradi
O'z-o'zini o'rganish qobiliyati	Xodim ishni bajarishning yangi usullarini faol ravishda qidiradi va bir yoki ikki marta takrorlangandan so'ng, yangi usulda harakat qilishni o'rganadi.	Xodim muvaffaqiyatli ishlaydi, chunki u tezda yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi va uni hayotda qo'llashi mumkin.
Muammolardan qochish emas, balki ularni hal qilish qobiliyati	Inson qiyinchiliklarni engib, zarur choralarini ko'rishga qodir	Ko'nikma qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, odam shunchalik ko'p qiyinchiliklarga dosh bera oladi. Har qanday loyiha, masalan, qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi va uni engish kerak bo'ladi
O'z harakatlarini tahlil qilish qobiliyati	Biror kishi muvaffaqiyatsizlikka uchraganda, u boshqalarni yoki vaziyatni ayblamasdan, qayerda xato qilganini aniqlashga harakat qiladi.	Bu mahorat ongli ravishda harakat qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.
Insonning zo'ravonliksiz insoniy muloqotga moyilligi	Xodim suhbatdoshlarga ma'lumotni hukm qilmasdan etkazadi, hamkasblari, bo'ysunuvchilari va sheriklariga zarar etkazmasdan maqsadiga erishadi.	Zo'ravonliksiz muloqotning foydasi shundaki, odam o'z taklifi yoki sharhining afzalliklarini ko'rsatish orqali boshqalarning ishonchini qozonadi. Bu ijtimoiy aloqalarni o'rnatadi va obro'-e'tibor yaratadi

Shaxs kompetensiyalarini qanday metodlar orqali aniqlash mumkin?

Shaxslarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini to'g'risida eng ob'ektiv fikrni beradigan xodimlarning malakasini baholash usullariga batafsil to'xtalib o'tamiz:

1. Test - xodimlar va arizachilarni baholashning eng oddiy usuli. Amalda psixologik va professional testlardan foydalaniladi. Birinchisi, shaxsiy fazilatlarini aniqlashga imkon beradi - yumshoq ko'nikmalar, ikkinchisi - professional, qattiq mahorat. Usulning asosiy afzalligi - masofadan turib test o'tkazish imkoniyati.

2. Intervyu - savol-javob shaklidagi og'zaki suhbat. Strukturasiz bo'lishi mumkin: erkin shaklda o'tkaziladi, savollarga hissiy munosabatni aniqlash imkonini beradi. Strukturaviy intervyu STAR modelidan foydalanishni o'z ichiga

ko'p jihatdan insonning tug'ma xarakteriga bog'liq, ammo maxsus o'quv va ta'lim dasturlari yordamida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish juda mumkin.

Hard skills (qattiq) ko'nikmalar - bu muayyan ishni bajarish uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'mpetensiyalardir. Ushbu ko'nikmalar kollejlarda, institutlarda, kurslarda o'rgatiladi va ularni imtihon o'tkazish orqali o'lchash mumkin. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda shakllantirilishi lozim bo'lgan Hard skills va Soft skills ushin talab qilinadigan ko'nikmalar ro'yxati ni keltirib o'tamiz. (1-jadval)

bilish, ramkalar va kutubxonalarni tushunish, SQL so'rovlarini yozish va h.k. Hard skills va Soft skills ko'nikmalarini egallagan mutaxassisning malaka talablari va uni namon eta olishini keltririb o'tamiz. (2-jadval)

keyin turli qurilmalar, asboblari va materiallar bilan ishlay olishi, har xil turdagi ishlarning texnologiyasini bilishi va materiallarning sifatini aniqlay olishi kerak. Qattiq ko'nikmalar ma'lum bir texnologiyadan foydalangan holda o'rganish uchun aniq vaqtni talab qilish ko'nikmalarni o'z ichiga oladi (3-jadval).

oladi: S (vaziyat) - vaziyat, T (vazifa) - vazifa, A (harakat) - suhbatdoshning harakatlari, R (natija) - natija. O'tgan kasbiy amaliyotda sodir bo'lgan voqeani esga olish taklif etiladi va arizachining harakatlariga 10 balli shkala bo'yicha baho beriladi.

3. Savol berish - savollar to'plami bilan standart shakl to'ldiriladi, undan so'ng so'rov o'tkazilayotgan shaxsda o'ziga xos xususiyatlarning yo'qligi yoki mavjudligi tahlil qilinadi. Metodologiyaning afzalligi shundaki, u vaqt va byudjet nuqtai nazaridan tejamkor, kamchiliklari - past ma'lumot mazmuni va sub'ektivlik.

4. Sertifikatlash - xodimning malakasining egallab turgan lavozimiga yoki u murojaat etayotgan joyiga muvofiqlik darajasini aniqlash. Sertifikatlash tartibi kompaniya rahbariyati tomonidan tasdiqlangan hujjatlarda tavsiflanishi kerak. Qoida tariqasida, u imtihon va suhbat shaklida amalga oshiriladi.

Sertifikatlash natijalariga ko'ra, xodimni lavozimga ko'tarish, ish haqini oshirish yoki kamaytirish yoki ishdan bo'shatish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

5. Ekspertlar tomonidan baholash - o'z tajribasiga tayangan holda, xodimlarning xususiyatlarini tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan mutaxassislarni jalb qilishni nazarda tutadi. Ichki baholash bevosita rahbar va xodimni yaxshi biladigan hamkasblarni jalb qilgan holda va tashqi kadrlar bo'yicha mutaxassislar ishtirokida tashqi baholash mumkin.

6. Baholash markazi - nostandart sharoitlarda xodimlarning xatti-harakatlarini baholash uchun bahsli ish

Yumshoq va qattiq mahorat nisbatlarini ko'rsatish uchun 3 ta kasblar guruhi

№-gruppalar	Guruhning nomlanshi	Misollar
1-guruh	Etakchi qattiq mahoratga ega kasblar	Savdo, biznes, siyosat, ijodiy kasblar. Bu odamlar o'zlarining professionaligini oshirishlari kerak. Ammo yumshoq ko'nikmalarsiz ular o'z mutaxassislari bo'yicha hech narsa qila olmaydilar, chunki ularning ishi boshqa odamlarning - tomoshabinlar, tinglovchilar, xaridorlar, mijozlarning ehtiyojlari va his-tuyg'ulariga bog'liq.
2-guruh	Ikkala turdagi ko'nikmalar muhim bo'lgan kasblar	Advokat, moliyaviy mutaxassis, hamshira, shifokor, o'qituvchi yoki universitet o'qituvchisi. Ushbu mutaxassislarga bir xil darajada kasbiy ko'nikmalar va rivojlangan shaxsiy fazilatlar - muloqot qobiliyatlari, xizmat ko'rsatish, o'zini o'zi tashkil etish, yaxshi niyat kerak, chunki ular odamlar bilan ishlaydi.
3-guruh	Yumshoq ko'nikmalar muhimroq bo'lgan kasblar	Yadro fizigi, IT ishlab chiquvchisi, texnik yozuvchi, jarroh, samolyot yoki vertolyot uchuvchisi. Ushbu kasblar bo'yicha mutaxassislar nazariy jihatdan o'z ishlarida ajoyib natijalarga erishishlari mumkin, ammo jamoada ishlash va odamlar bilan muloqot qilishda unchalik yaxshi emas.

Har bir talaba qattiq ko'nikmalarga ega ekanligini dalillarni ilova qilish orqali (sertifikatlarni, diplomlarni, baholarni va hokazolarni) osongina isbotlashi mumkin, yumshoq ko'nikmalar bilan esa ular bunday qila olmaydilar. YA'ni, masalan, agar ish beruvchi ingliz tilini biladigan xodimni qidirayotgan bo'lsa, unda sizning bilim darajangizni ko'rsatuvchi sertifikat yoki hujjatlarni (IELTS, CEFR) topshirish kifoya qiladi. Ammo siz aloqa qobiliyatiga, yetakchilikka yoki boshqa yumshoq ko'nikmalarga ega ekanligingizni qanday isbotlaysiz? Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lish haqidagi odatiy so'zlar kerakli lavozimni egallash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunday holda, ma'lum bir ko'nikmaga egalikni real vaziyatlarda qanday ishlatganingiz haqida bir necha misollar keltirib, namoyish etishingiz tavsiya etiladi.

Bakavrlar tayyorlashda ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus kurslar, ichki treninglar tashkil qilish va joylarda o'rganish amaliyoti orqali bu ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qattiq ko'nikmalarni qanday rivojlantirish kerak?

vaziyatlarini simulyatsiya qilish bilan biznes o'yinini o'tkazish. Baholar ekspert komissiyasi tomonidan beriladi. Bundan tashqari, baholash markazi suhbatlar va testlarni o'z ichiga olishi mumkin. Integratsiyalashgan yondashuv bundan mustasno hisoblanadi.

7. "180, 360, 540 daraja" usullari - real vaziyatlarda xatti-harakatlarini baholash:

"180 daraja" bahosi – xodim va menejning so'rovi.

"360 daraja" baholash - xodim va uning biznes muhiti: menejer, qo'l ostidagilar, hamkasblar haqida so'rov.

"540 daraja" baholash – "360 daraja" + mijozlar va yetkazib beruvchilarning so'rovi.

Yumshoq va qattiq mahorat nisbatlarini ko'rsatish uchun 3 ta kasblar guruhi

Qattiq ko'nikmalar o'qush va amaliyot davomida muayyan kasbiy vazifalarni bajarish davrida rivojlanadi va shakllanadi. Yangi ko'nikmalar va allaqachon olinganlarni rivojlantirish faqat yangi texnikani o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish orqali egallanishi mumkin. Bunga malaka oshirish kurslari, treninglar, onlayn va oflayn kurslar misol bo'la oladi. Va amaliyot yordamida siz qattiq ko'nikmalarni yaxshilashingiz va avtomatlashtirishga olib kelishingiz mumkin [13].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, bugungi kunda ish beruvchilar nafaqat qattiq ko'nikmalarga ega kadrlarni, balki yumshoq ko'nikmalarga ega nomzodlarga ham tobora ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Nega bunday bo'lmoqda? Buning sababi qattiq ko'nikmalarga o'rgatish yumshoq ko'nikmalardan ko'ra osonroqdir. Masalan, kompyuterda ishlashni qisqa vaqt ichida o'rgatish mumkin, lekin yetakchilik, jamoaviy ishlash yoki ish axloqini o'rgatish ancha qiyin bo'ladi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda bu ko'nikmalarning har birini o'z o'rnini bo'lib, har ikkala kompetensiyalarni rivojlantirish zamon talabiga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 592 б.
2. Что такое Hard и Soft skills? в чем разница? что важнее? <https://proforientator.ru/publications/articles/chto-takoe-hard-i-soft-skills-v-chem-raznitsa-chto-vazhnee.html>.
3. Soft skill va Hard skill nima degani Soft skills — inglizcha | DRENIX IT ACADEMY <https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/drenixacademy/863>
4. “Путин рассказал молодёжи о важности soft skills”. TJournal. 21 октября 2017. Архивировано из оригинала 25 октября 2017. Дата обращения: 25 октября 2017.
5. “Путин рассказал молодёжи о важности soft skills и технологиях, которые «страшнее ядерной бомбы»”. АфишаDaily. 22 октября 2017. Архивировано из оригинала 26 октября 2017. Дата обращения: 25 октября 2017.
6. Lou Adler. The 15 crucial 'soft skills' the best leaders have in common. World Economic Forum. Дата обращения: 30 января 2017. Архивировано 2 февраля 2017 года.
7. Анастасия Баландина, РАНХиГС. На ГФ обсудили вызовы образовательных программ для подготовки лидеров цифрового мира (13 января 2017). Дата обращения: 27 января 2017. Архивировано 3 февраля 2017 года.
8. Ольга Суховойко, РАНХиГС. На Гайдаровском форуме обозначили направления развития управленческих кадров России в сфере государственной службы (14 января 2017). Дата обращения: 27 января 2017. Архивировано 3 февраля 2017 года.
9. Важность Hard и Soft Skills сотрудников для IT компаний. TalentScan.Pro (22 февраля 2018). Дата обращения: 1 августа 2018. Архивировано 1 августа 2018 года.
10. National Business Education Association. This We Believe About Teaching the Soft Skills: Human Relations, Self-Management, and Workplace Enhancement Policy Statement 67. (недоступная ссылка)
11. Hard skills va soft skills. <https://sarlavha.com/articles/hard-skills-va-soft-skills/>
12. Soft и Hard skills. Что это такое? <https://1-arb.ru/articles/upravlenie-personalom/kak-prigoditsya-v-rabote-hr-test-belbina-t/>
13. Қаттиқ ва юмшоқ кўникмалар (hard and soft skills) ўртасидаги фарқ. https://telega.ph/Қаттиқ_ва_юмшоқ_кўникмалар-hard-and-soft-skills-ўртасидаги_i-farq-12-19
14. Hard skills и soft skills – что это такое? <https://imes.su/press-tsentr/stati/item/1227-hard-skills-i-soft-skills-chto-eto-takoe>
15. Soft и hard skills современного управленца. <https://cokpat.com/soft-hard-skills>
16. Муслимов М., Усмонбоева Н.А., Сайфулов М.Х., Тўраев Д.М., А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов – Тошкент, 2015. – 120 бет.
17. Ишмуродова Г. И. Texnologiya o'qituvchisi didaktik kompetensiyalarini takomillashtirish // Ilm sarshasmalari. 2021 y. №10. 105-109b.



Yulduz KARAYEVA,
Termiz davlat universiteti, Psixologiya kafedrası v/b dotsenti PhD
Email: karayevayulduz@mail.ru,

TerDU dotsenti, PhD A.Qodirova taqrizi ostida

EGOISM AND ADOLESCENT PERIOD IN THE INTERPRETATION OF PSYCHOLOGISTS

Annotation

This article presents the opinions of foreign scientists about egoism, and analyzes its manifestations, manifestations, and types in human behavior. As we know, the topic of adolescence occupies a special place in developmental psychology. By this period, social relations, attitudes toward oneself, people, and society begin to form in a teenager's life. This article also analyzes the theoretical views on the manifestation of egoism in adolescence, the reasons for its influence, and its essence is fully explained.

Key words: Egoism, altruism, egocentrism, egoistic personality, personal interest, behavior, need, orientation

ЭГОИЗМ И ПОДРОСТКОВЫЙ ПЕРИОД В ТОЛКОВАНИЯХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация

В данной статье представлены мнения зарубежных ученых об эгоизме, а также анализируются его проявления, проявления и виды в поведении человека. Как мы знаем, тема подросткового возраста занимает особое место в психологии развития. К этому периоду в жизни подростка начинают формироваться социальные отношения, отношение к себе, людям, обществу. В данной статье также анализируются теоретические взгляды на проявление эгоизма в подростковом возрасте, причины его влияния, полностью объясняется его сущность.

Ключевые слова: Эгоизм, альтруизм, эгоцентризм, эгоистическая личность, личный интерес, поведение, потребность, направленность.

EGOISM VA O'SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGLAR TALQINIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada egoizm haqida xorij olimlarining fikrlari keltirilgan bo'lib, uni inson xulq-atvorida namoyon bo'lishi, ko'rinishlari, turlari tahlil etilgan. Bizga ma'lumki, rivojlanish psixologiyasida o'smirlik davri mavzusi alohida o'rin egallaydi. Bu davrga kelib o'smir hayotida ijtimoiy munosabatlar, o'ziga, odamlarga, jamiyatga bo'lgan munosabat shakllana boshlaydi. Ushbu maqolada ham o'smirlik davrida egoizمنىing namoyon bo'lishi, unga ta'sir etish sabablari haqidagi nazariy qarashlar tahlil etilgan bo'lib, uning mohiyati to'liq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Egoizm, altruizm, egotsentriзм, egoistik shaxs, shaxsiy manfaat, hulq-atvor, ehtiyoj, yo'nalganlik

Kirish. Egoizm muammosi bilan faylasuflar, din arboblari, olimlar shug'ullanib kelishadi. Psixologiya mustaqil fan sifatida juda ko'p yillik tarixga ega bo'lmasa-da, shaxs xulq-atvori, uning xususiyatlarini o'rganuvchi ayrim tarmoqlarida egoizm bilan bog'liq qarashlar, nazariyalar va tadqiqotlarni uchratish mumkin. Egoizm shaxsning motivatsion-mazmuniy asosiy xislatlaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtgacha eng kam o'rganilgan va ta'riflangan xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi zamon psixologiya fanida egoizمنىing kelib chiqish tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarning noaniqligi sababli ushbu tushuncha yetarli darajada ko'p o'rganilmagan. Egoizm ko'pincha insonning salbiy xususiyati sifatida qaraladi va bu haqida taniqli faylasuf olim Paskalning yozishicha: "Egoizm nafratlidir va unga nisbatan insonlar befarq bo'lmasliklar kerak". Faylasuflar egoizمنى o'rganishda turlicha qarashlar bilan ajralib turadi hamda jamiyatda insonlar o'rtasida kelib chiqadigan ko'pgina muammolar va qiyinchiliklarning sabablaridan biri deb ta'riflaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Olimlar tomonidan egoizمنى o'rganishda va unga ta'rif berishda turli ta'riflarni uchratish mumkin. Xususan, V.Leybin egoizm haqida shunday ta'rifni keltirib o'tadi: "Egoizm bu – o'z xohish va intilishlari tufayli o'zining dunyosiga boshqalar tomonidan diqqat-e'tibor qaratilishini istaydigan shaxs xususiyatidir" [1]. Yana bir faylasuf olim Epiktet ham egoizmga oid bo'lgan fikrlarni bildirar ekan, inson hamma narsani faqat o'zi uchun amalga oshirar ekan, atrofda gilarning manfaatiga qarshi harakat qilmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Egoizm inson o'z manfaati haqida qayg'urganda emas, balki o'z manfaatlarini atrofda gilar manfaatidan ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ygani boshlanadi.

Fransuz yozuvchisi R.Rolandning aytishicha, agar inson egoistik xislat orqali zavq olib yashashni istasa, unda maqsad ham yo'qolib boradi. Egoizمنى ijtimoiy qatlamlarda va

turli yosh davrlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishda ko'plab tadqiqotlar olib borgan olim K.Muzdibaevning aytishicha, egoizm faqat boshqa odamlar bilan bog'liqlikda, ya'ni shaxslararo munosabatlarning o'zi uchun manfaatli, ammo boshqalarga zararli bo'lgan hollarda paydo bo'ladi. K.Muzdibaev olib borgan tadqiqotlar asosida egoistlarga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni tadqiq etdi. Unga ko'ra egoistlar:

birinchidan, ular burch, me'yorlar va axloqiy qonunlarni e'tiborsiz qoldiradilar, o'z boshimchalik bilan o'z manfaatlari uchun qoidalar o'rnatadilar;

ikkinchidan, ular uchun xulq-atvorning tajovuzkor shakllari (jang, qasos), jinsiy zo'rvonlik, adolatsizlik, yolg'onchilik kabi salbiy xususiyatlar xos

uchinchidan, ular boshqalarga nisbatan yovuzlik, hasad, qasoskorlik, beadablik munosabatida bo'lishadi. Bunday odamlar bilan konstruktiv muloqot strategiyasidan foydalanish samarasiz hisoblanadi;

to'rtinchidan, egoistlar hayotdagi qiyinchiliklarni yengishning samarasiz usullarini qo'llaydilar, shunga qaramay muvaffaqiyatga erishadilar, doimo o'zlari haqida yaxshi fikrda bo'ladilar va o'zlarini baxtli his qiladilar.

Ko'rinib turibdiki, egoist shaxs o'zining manfaatlarini qondiribgina qolmasdan, balki, o'z galar manfaatlarini e'tiborsiz qoldiradi va boshqalar hisobidan o'z ehtiyojlarini qondirishda albatta ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltiradi. Egoizm haqidagi barcha kontseptsiyalarni nisbiy tarzda ikki katta guruhga ajratishi mumkin: biologik va ijtimoiy. Ushbu yondashuvlar doirasida egoizمنىing motivatsion tarkibiy qismlari, egoistik xulq-atvorning samarali jihatlari, egoizm rivojlanishiga olib keladigan tarbiya xususiyatlari va shunga mos ravishda uni korreksiya qilish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. R.Laut egoizمنى shaxsning destruktiv holati ekanligini hamda egoistning o'z

manfaati yo'lida vayronkorlik goyasiga amal qilishini ta'kidlaydi. Egoist, deydi R.Laut, o'zining shaxsiy manfaati uchun jamiyat qonunlarini buzishga, o'ziga kerak bo'lgan narsaga kuch bilan erishishga va hattoki, jazodan qutulish uchun hiylaga yoki ochiq zo'rvonlikka o'tishga tayyor, degan xulosaga keladi [2].

E.Fromm o'zining "Inson o'zi uchun" asarida egoizmining mohiyatini har tomonlama yoritishga intiladi. Fromm ikki qarama-qarshi xususiyatni, ya'ni egoizm va altruizmi tasniflar ekan, altruizm sevgi tarzida namoyon bo'ladigan shaxsning eng mahsuldor yo'nalishi sifatida, egoizm esa samarasiz, natijasiz shaxs yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi, degan qarashni ilgari suradi [3]. E.Frommning fikricha, egoistni faqat o'zi qiziqtiradi, hamma narsa uning manfaatlariga xizmat qilishini xohlaydi, u zavq olishni istaydi, u tashqi dunyoni faqat olish mumkin bo'lgan yoqimli narsalar nuqtai nazaridan anglaydi, boshqalarning ehtiyojlari bilan qiziqmaydi va ularning qadr-qimmatini hurmat qilmaydi, o'zidan boshqa hech narsani sezmaydi, aslida u sevishga qodir ham emas, deydi. Bunday odamlar go'yoki o'zlari haqida qayg'urishayotgandek bo'lishadi, lekin aslida o'zining haqiqiy "men" idagi kamchiliklarni to'g'irlashdagi urinishlari samarasiz ketadi [4].

Egoizm odatda o'z-o'ziga yuqori baho berish hamda avtoritar yo'nalganligi bilan ustun bo'lish kabi xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. G.Kavka o'z ishida egoizm o'rtasida aniq bir farqni ajratishga harakat qiladi va u ikki turdagi egoizmi ajratib ko'rsatadi. Unga ko'ra, birinchi turdagi - maksimallashgan egoizm bo'lib, unda inson har doim o'zining uzoq muddatli shaxsiy manfaatlariga yaxshi xizmat qiladi deb o'ylagan harakatlarni amalga oshiradi. Ikkinchisi, maksimallashmagan egoizm bo'lib, unda har qanday inson o'z harakatlarining yakuniy maqsadi qandaydir foyda keltirishni o'ylaydi [5].

J.Robinsonning ta'kidlashicha, egoizm — "boshqa odamlarning manfaatlarini hisobga olmasdan, o'z manfaatlariga sodiqlikni anglatuvchi tushuncha bo'lib, boshqa odamlarga sadoqat va o'z manfaatlarini qurbon qilish tushunchasiga qarama-qarshidir", deydi.

Egoizmining tabiati va kelib chiqishiga mutlaqo teskari qarash jahon psixologiya fanida 20-asr boshida E.Dyurkgeym, G.Tarde, C.Blondel asarlarining ta'sirida shakllangan. Ushbu yo'nalish tarafdorlari irsiyatning rolini kam baholaydilar, shaxs rivojlanishida ijtimoiy ta'sirni, ya'ni jamoatchilik ongini yuqori darajaga ko'taradi. Shunday qilib, J.Piaje va uning tarafdorlarining fikricha, egoizm bu - o'z qiziqishlari bilan birga nafrati bilan birga rivojlanib boruvchi shaxsning tarkibiy elementi sifatida shaxs taraqqiyotining muhim belgisi sifatida talqin etilgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, shaxs patologik holatida ham egoistik tendensiyalarning zaiflashishi bilan birga, shaxsda o'ziga va boshqalarga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi, zaiflik va psixologik qashshoqlik kabi holatlarning kuchayishi mumkin [6].

Zamonaviy fan insonni ijtimoiy bo'lmagan ammo individni o'z-o'zini saqlashi va o'zini tasdiqlash istagidagi insonning tug'ma biologik omillarni keltirib o'tadi [7]. Evolyutsiya sharoitida barcha tirik mavjudotlar o'zlarining yashash imkoniyatlarini yaxshilash uchun atrof-muhitga moslashishga tug'ma xohishga ega. Biologik nuqtai nazardan, deb yozadi G.Rachlin, egoizm yashash uchun kurashish sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, har qanday egoistik qaror dastlab har qanday alturistik qarorga qaraganda shaxs uchun afzalroq ko'rinadi. Xorijda zamonaviy psixologiya egoizmga nisbatan noaniq, ikkilangan munosabat bilan ajralib turadi. Yana boshqa zamonaviy tadqiqotlarda subyekt uchun egoistik motivatsiya va o'zi uchun qayg'urish zarurligi aytiladi. Shu munosabat bilan E.Fromm asaridan iqtibos keltiramiz: "Zamonaviy madaniyat xudbinlik haqidagi tabular bilan to'lib-

Jadval № 2

Guruhlarning yoshi	Sinaluvchilar soni	yuqori darajasi (%)	o'rtada darajada (%)	past darajada (%)
10-15 yosh (o'smir)	50 nafar	62	24	14
16-18 yosh (o'spirin)	50 nafar	43	35	22

toshgan. Bizga xudbin bo'lish gunoh, lekin boshqalarni sevish yaxshilik deb o'rgatilgan". Psixologik adabiyotlarda egoizmi faol va passiv tipda ajratib o'rganish qabul qilingan bo'lib, faol egoizmlar dunyoda o'zlarini juda yaxshi his etadilar: kimga nima yoqishini bilishadi, xushomadlik qilishni yoqtirishadi, shaxslararo munosabatlar jarayonida u subhatdoshini fikrlarini e'tiborga olmaydi, faqat o'zining maqsadlariga erishish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Lyudvig Feyerbaxning yozishicha, nafaqat yakka yoki individual egoizm turlari, balki ijtimoiy, oilaviy, korporativ, jamoaviy, hatto vatanparvar egoizm turlari ham mavjud. I.S.Turgenev o'z qarashlarida egoizmi tahlil qilar ekan, egoizm xulq-atvorli shaxslarni uch toifaga ajratgan: birinchisi, o'zi yashaydigan va o'zgalarni ham yashashga qo'yadigan egoizmlar; o'zi yashaydigan va o'zgalarga yashashga qo'ymaydigan egoizmlar, o'zi yashamaydigan, ham o'zgalarga yashashga qo'ymaydigan egoizmlar. Ya'ni, zamonaviy psixologik til bilan ifodalanganda, egoizmlar mo'tadil va keskin tipda bo'ladi.

Mo'tadil egoizm – ular rioya qilinadigan ayrim qonun me'yorlari va talablarni, o'zgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini mavjudligini tan olishadi. Ular yordamga muhtoj oddiy odamga yordam qilishi mumkin, masalan, tez tibbiy yordamni chaqirish, yo'ldan o'tkazish, ammo ular bu cheklangan majburiyatlarini tashqarisida o'zlarini erkin shaxs deb hisoblaydi va faqat o'zining manfaatlarini mezoniga amal qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tajribamizda sinaluvchilardan egoizmga moyillik darajasini aniqlovchi K.Muzdibaev tomonidan ishlab chiqilgan psixodiagnostik so'rovnomadani foydalandik. Tajriba-sinov jarayonida so'rovnomada keltirilgan mulohazalarni muvofiqlashtirdik. Ushbu metodikani individual holda yoki guruhda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda ballar hisoblab chiqiladi. Ballar oralig'i minimal 10 balldan maksimal 70 ballgacha. Ballar qanchalik yuqori bo'lsa, egoizm namoyon bo'lishi darajasi ham yuqori deb baholanadi. Biz shaxsda egoizm namoyon bo'lishi turli darajalarga egaligini hisobga olib, egoizm namoyon blishining past, o'rtada va yuqori ko'rsatkichlarini ajratib oldik.

Tahlil va natijalar. Egoizm o'z nazariyasiga ko'ra, inson o'ziga nisbatan ustun burchga ega, shuning uchun unga faqat o'z manfaatlarini muhim. U boshqalarni faqat o'zining "Meni" doirasini bilan cheklaydi, boshqalar u haqida qayg'urishlarini xohlaydi. Boshqacha qilib aytganda, egoizm asosan o'z ehtiyojlarini yuzaga chiqarishga asoslangan maqsadga qaratilgan xulq-atvor sohasida uchraydi. Shu sababli, egoistning o'ziga xos xususiyatlari, birinchidan, maqsadlarning faqat o'ziga qaratilganligi, ikkinchidan, maqsadlarga erishish vositalarining har bir shaxsning huquqlarini himoya qiladigan va jamiyatda adolatni ta'minlaydigan umume'tirof etilgan me'yorlarga mos kelmasligidir.

Har bir ko'rsatkichlarni o'rtacha qiymati hisoblab chiqiladi va har bir guruhlar bo'yicha tegishli xulosalar beriladi. Ushbu metodika orqali ijtimoiy guruhning turli qatlamlari (o'qituvchilar, talaba-yoshlar, rahbarlar, ishchi-xodimlar)da, ularning yosh va jins tafovutlarida egoizm ko'rinishlarini o'rganish mumkin. Bundan tashqari psixodiagnostik metodikalarga qo'yiladigan talablar doirasida so'rovnomadagi ayrim mulohazalarni kengaytirish va ularni qayta ishlash natijasida turli xil yosh davrlar (o'smirlik, o'spirinlik davri)da egoizmi o'rganishda foydalanish mumkin. Biz ham ushbu so'rovnomadani foydalanib tajriba-sinov tariqasida 2 guruhda: birinchi guruh (o'smir) – 10-15 yosh, ikkinchi guruh (o'spirin) – 16-18 yoshdagi sinaluvchilarda o'tkazdik va tajriba natijalarini quyidagi jadvalda ifodaladik.

Xulosa va takliflar. Shaxs jamiyatning muhim bir bo'lagi sifatida o'rganilishi lozim bo'lgan fenomendir. Shunday ekan shaxsning ijobiy hulq atvor ko'rinishlari bilan birga uning egoizm kabi salbiy xislatlarini o'rganish psixologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Yuqoridagi tadqiqotimizdan ko'rinib turganidek, egoizm dinamik ko'rinishga ega, ya'ni egoizmning rivojlanganlik darajasi o'spirinlarga nisbatan o'smirlarda yaqqol namoyon bo'lgan, chunki o'smirlar davrida shaxsni o'z-o'ziga baho berish tizimi yuqori namoyon bo'lishi bilan belgilanadi, bu esa o'smirlarning tarbiyasidagi nuqsonlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma'naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shunday ekan, jamiyatda salbiy deb qaraladigan ayrim hulq ko'rinishlari, xususan, egoizmni o'rganish, ular bilan korreksion ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Biz keyingi tadqiqot ishimizda egoizm yuqori bo'lgan shaxslarni ijtimoiy psixologik treninglar, rolli o'yinlar va psixologik mashg'ulotlardan foydalangan holda korreksiya qilishni oldimizga maqsad qilib oldik.

ADABIYOTLAR

1. Божович, Л. И. Личност и её формирование в детском возрасте / Л. И. Божович. СПб. : Питер, 2008. С.400
2. Илин.Е.П.Психология помощи.Алtruизм, egoизм, эмпатия.Питер.2013.С.110
3. Леонгард, К. Акцентуированные личности. М.: ЭКСМО - Пресс, 2001. С. 24
4. Moslou, A. Egoism / A. Mosley // Ethitss, Mind and Cognitive Stsientse. Originally published: August 7, 2005. P. 1–7.
5. Rudzit, I. A. Egoizm kak vnutrenniy nrvstvenno-eticheskiy faktor razvitiya samosoznaniya cheloveka / I. A. Rudzit // Vestn. LGU im. A. S. Pushkina. 2006. № 1. S. 56–65.
6. Stolyarenko, L.D., Самыгин, S.I. Psixologiya i pedagogika voprosax i otvetax. Rostov – na –Donu: Feniks, 2009. S.157



UDK:101.2

Zuxra KARIMOVA,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: karimovazuxra@mail.ru

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

COMPARATIVE ANALYSIS OF APPROACHES TO COMBATING DRUG ADDICTION IN DIFFERENT CULTURES AND COUNTRIES

Annotation

This article provides a comparative analysis of approaches to combating drug addiction in different cultures and countries. The study covers a variety of strategies and methods used in the fight against drugs and their effectiveness in the context of cultural and social characteristics of different societies. Through the analysis of legislation, prevention programs, medical and social interventions, the authors identify differences in approaches to the problem of drug addiction in various cultural contexts. The article also examines the factors influencing the success of anti-drug programs, including public opinion, political will and access to resources. The results obtained can serve as a basis for the development of more effective strategies and programs for the prevention and treatment of drug addiction in various countries and cultures.

Key words: Drug addiction, comparative analysis, combating drug addiction, cultures, countries, prevention of drug addiction, treatment of addiction, legal aspects, socio-cultural characteristics, medical approaches, public opinion.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К БОРЬБЕ С НАРКОМАНИЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ КУЛЬТУРАХ И СТРАНАХ

Аннотация

Данная статья проводит сравнительный анализ подходов к борьбе с наркоманией в различных культурах и странах. Исследование охватывает разнообразные стратегии и методы, используемые в борьбе с наркотиками, и их эффективность в контексте культурных и социальных особенностей различных обществ. Через анализ законодательства, программ профилактики, медицинских и социальных интервенций авторы выявляют различия в подходах к проблеме наркомании в различных культурных контекстах. В статье рассматриваются также факторы, влияющие на успешность программ по борьбе с наркоманией, включая общественное мнение, политическую волю и доступ к ресурсам. Полученные результаты могут служить основой для разработки более эффективных стратегий и программ по предотвращению и лечению наркомании в различных странах и культурах.

Ключевые слова: Наркомания, сравнительный анализ, борьба с наркоманией, культуры, страны, профилактика наркомании, лечение зависимости, правовые аспекты, социокультурные особенности, медицинские подходы, общественное мнение.

TURLI MADANIYAT VA MAMLAKATLARDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqola turli madaniyat va mamlakatlarda giyohvandlikka qarshi kurash yondashuvlarini qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqot giyohvandlikka qarshi kurashda qo'llaniladigan turli strategiya va usullarni va ularning turli jamiyatlarning madaniy va ijtimoiy xususiyatlari kontekstida samaradorligini qamrab oladi. Qonunchilik, profilaktika dasturlari, tibbiy va ijtimoiy aralashuvlarni tahlil qilish orqali mualliflar turli madaniy kontekstlarda giyohvandlik muammosiga yondashuvlardagi farqlarni aniqlaydilar. Maqolada, shuningdek, giyohvandlikka qarshi dasturlarning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillar, jumladan, jamoatchilik fikri, siyosiy Iroda va resurslardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Topilmalar turli mamlakatlar va madaniyatlarda giyohvandlikning oldini olish va davolash bo'yicha yaxshiroq strategiya va dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, qiyosiy tahlil, giyohvandlikka qarshi kurash, madaniyatlar, mamlakatlar, giyohvandlikning oldini olish, giyohvandlikni davolash, huquqiy jihatlar, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, tibbiy yondashuvlar, jamoatchilik fikri.

Kirish. Giyohvandlik muammosi zamonaviy dunyoda eng dolzarb va dolzarb masalalardan biridir. Giyohvand moddalar va giyohvandlik odamlar hayotiga, jamiyatga va iqtisodiyotga halokatli hissa qo'shadi. Ular nafaqat shaxslarning, balki butun xalqlarning salomatligi va farovonligiga tahdid soladi. Giyohvandlikka qarshi yondashuvlar har bir mamlakatning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Keling, turli madaniyat va mamlakatlarda ushbu muammoga yondashuvlarning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqaylik.

AQSh: giyohvandlikka qarshi urush. AQSh tarixan "giyohvandlikka qarshi urush" siyosatini olib boradi. Ushbu strategiya giyohvand moddalarni jinoyi javobgarlikka tortish, giyohvandlik jinoyati uchun qattiq qonunlar va jazolar hamda giyohvandlikni davolashni qo'llab-quvvatlashga asoslangan. Profilaktika va rehabilitatsiya dasturlari giyohvandlarning xatti-harakatlarini o'zgartirish va giyohvand moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan[1]. Biroq, ushbu strategiya jinoyatchilikning yuqori darajasi va giyohvandlikning ijtimoiy

sabablariga etarlicha e'tibor bermaslik uchun tanqidlariga duch keladi.

Gollandiya: Gollandiyada giyohvand moddalarga chidamlilik modeli qabul qilindi. Bu erda mariyuana kabi yumshoq dori-darmonlarni dekriminallashtirish va giyohvand moddalarni xavfsiz iste'mol qilish joylariga kirishni o'z ichiga olgan "konsensus" siyosati mavjud. Shu bilan bir qatorda, Gollandiyada giyohvandlik va ijtimoiy rehabilitatsiyani davolash tizimi faol rivojlanmoqda. Ushbu yondashuv zararni minimallashtirish g'oyasiga asoslanadi va insonparvarroq deb hisoblanadi, ammo ba'zi tortishuvlar va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Shveysariya: Shveysariya giyohvand moddalarni qo'llab-quvvatlash modeli qabul qilingan mamlakatning namunasi. Bu erda asosiy e'tibor toza ignalar, metadon terapiyasi, tibbiy yordam va rehabilitatsiyadan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan. Maqsad nafaqat OIV va boshqa infeksiyalarning oldini olish, balki giyohvandlarning

hayot sifatini yaxshilash, ularni reabilitatsiya qilish va ijtimoiylashtirishdir.

Rossiya giyohvand moddalarni taqiqlash va ularning tarqalishi va ishlatilishini jinoy javobgarlikka tortish asosida giyohvandlikka qattiq yondashish bilan ajralib turadi. Mamlakatda giyohvandlik biznesini to'xtatish va huquqbuzarlarni jazolashga qaratilgan qat'iy Qonunchilik mavjud. Biroq, kriminallashtirishdan tashqari, Rossiyada reabilitatsiya va profilaktika dasturlari ham rivojlanmoqda, garchi ularning samaradorligi ko'pincha savollar tug'diradi.

Giyohvandlik masalasi zamonaviy jamiyatda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, turli mamlakatlar va madaniyatlar ushbu muammoni hal qilishda turli yo'llar bilan yondashadilar[2]. Giyohvandlikka qarshi kurashning turli xil yondashuvlari nafaqat madaniy farqlarni, balki har bir mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini ham aks ettiradi.

AQSh va Evropaning aksariyat mamlakatlarida taqiq strategiyasi ustunlik qiladi. Davlat organlari giyohvand moddalar savdosi va iste'molchilarni qattiq Qonunchilik va jinoy javobgarlikka tortish orqali giyohvand moddalar tarqalishining oldini olishga intilmoqda. Shunga qaramay, ushbu yondashuv yuqori darajadagi kriminallashtirish va giyohvandlikni davolashda past samaradorlik tufayli tanqidlarga duch kelmoqda. Niderlandiya bag'rikenglik modeli bilan mashhur bo'lib, giyohvand moddalar mavjudligini tan oladi va giyohvandlarga tibbiy yordam ko'rsatishga e'tibor qaratadi. Mamlakatda "tolerant yondashuv" tizimi mavjud bo'lib, u giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarga toza shpritslardan foydalanish imkoniyati berilgan maxsus joylarga, shuningdek, shifokorlar maslahatiga tashrif buyurishga imkon beradi[3]. Yaponiyada profilaktikaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim va tarbiya tizimi fuqarolarning kuchli axloqiy xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu giyohvandlik holatlarini kamaytirishga yordam beradi. Biroq, mamlakat giyohvandlikka qarshi qonunbuzarlarni ham qattiq jazolaydi.

Shveysariya giyohvandlarga dori-darmonlarni tibbiy sharoitda metadon yoki heroin kabi xavfsizroq alternativalar bilan almashtirish imkoniyatini berish orqali almashtirish siyosatini afzal ko'radi. Bu ko'chadagi giyohvand moddalarning zararini kamaytiradi va giyohvandlik muammosiga duch kelganlarni qo'llab-quvvatlaydi. Singapur giyohvand moddalarga nisbatan qattiq taqiqni qo'llaydi, bu giyohvand moddalar savdosi uchun o'lim jazosini o'z ichiga oladi. Ushbu qat'iy yondashuv giyohvandlik darajasi past bo'lgan jamiyatni yaratadi, shuningdek, inson huquqlarini buzganligi va muammoni hal qilishda insonparvarlik yo'qligi uchun tanqidlarga sabab bo'ladi[4]. Turli madaniyatlarda va mamlakatlarda giyohvandlikka qarshi kurash yondashuvlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, muammoning yagona echimi yo'q. Samarali strategiyalar ijtimoiy-madaniy kontekstga qarab farq qiladi. Mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda va giyohvand moddalarni tarqatishni to'xtatish va giyohvandlarga yordam berish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan yanada moslashuvchan va integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqish kerak.

Giyohvandlik zamonaviy jamiyatning barcha mamlakatlar va madaniyatlarga oid eng jiddiy va murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Milliy chegaralardan qat'i nazar, giyohvand moddalar har qanday yoshdagi, jinsdagi va ijtimoiy maqomdagi odamlarga ta'sir qiladi. Biroq, giyohvandlikka qarshi yondashuvlar turli mamlakatlar va madaniyatlarda juda farq qiladi. Giyohvandlikka qarshi kurashish usullarini aniqlashda madaniy xususiyatlar va ijtimoiy kontekst muhim rol o'ynaydi. Ba'zi madaniyatlar profilaktika va ta'limga ko'proq e'tibor berishadi, boshqalari esa repressiv choralar va davolanishga e'tibor berishadi. AQSh birinchi marta 1971 yilda prezident Richard Nikson tashabbusi bilan giyohvandlikka qarshi harbiy kampaniyani boshladi. Ushbu siyosat politsiya operatsiyalari, Qonunchilik choralarini va jinoy javobgarlikka tortish orqali giyohvand moddalarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilishga qarshi kurashga qaratilgan[5]. Biroq, katta sa'y-harakatlar va moliyaviy sarmoyalarga qaramay, ushbu strategiya mamlakatda giyohvandlik va giyohvand moddalar savdosi darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib kelmadi.

Evropa mamlakatlari: Sog'liqni saqlash va reabilitatsiyaga asoslangan yondashuv

Evropa mamlakatlari asosan sog'liqni saqlash va reabilitatsiyaga asoslangan yondashuvlarni afzal ko'rishadi. Masalan, Portugaliya va Gollandiya kabi davlatlar giyohvand moddalarni iste'mol qilishni de-kriminallashtirish va giyohvandlarga tibbiy yordam ko'rsatish foydasiga giyohvand moddalar siyosatini qayta ko'rib chiqdilar. Bu giyohvandlarni jinoy javobgarlikka tortish o'rniga davolash va reabilitatsiyaga e'tibor qaratish imkonini berdi.

Osiyo mamlakatlari: qat'iy qonunlar va jazolar

Singapur va Filippin kabi ba'zi Osiyo mamlakatlari giyohvand moddalarga nisbatan qattiq qonunlar va qattiq jazolarga ega. Ushbu mamlakatlarda giyohvand moddalar to'g'risidagi qonunlarning buzilishi jiddiy jazolarga, shu jumladan o'lim jazosiga olib kelishi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, ba'zi madaniyatlar uchun repressiv choralar giyohvandlikka qarshi kurashning asosiy vositasi bo'lib qolmoqda.

Lotin Amerikasi mamlakatlari: giyohvand moddalar savdosi muammosi

Kolumbiya va Meksika kabi lotin Amerikasi mamlakatlari zo'ravonlik, korruptsiya va ijtimoiy bo'linishlar manbai bo'lgan giyohvand moddalar savdosi muammosiga duch kelishmoqda. Ushbu mamlakatlarda giyohvandlikka qarshi kurash nafaqat harbiy operatsiyalar va politsiya reydlari kabi ichki choralarini, balki xalqaro giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish uchun boshqa davlatlar bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.

Turli madaniyatlarda va mamlakatlarda giyohvandlikka qarshi kurash yondashuvlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu muammoni hal qilishning yagona echimi yo'q. Har bir madaniyat va mamlakat o'z qadriyatlarini, resurslarini va ijtimoiy haqiqatlariga mos keladigan yondashuvni tanlaydi[6]. Turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarda giyohvandlikka qarshi samarali kurashish uchun profilaktika, davolash, reabilitatsiya va giyohvand moddalarga talab va taklifni kamaytirish choralarini o'z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuvga intilish muhimdir.

Giyohvandlik butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarga ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy jamiyatning eng jiddiy va murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Shaxsiy sog'liq va farovonlik oqibatlarini bilan bir qatorda, giyohvandlik ham muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta'sirga ega. Mamlakatdan mamlakatga, madaniyatdan madaniyatga giyohvandlik muammosiga noyob ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy kontekstlarni aks ettiruvchi turli xil yondashuvlar mavjud. Ushbu maqolada biz bir nechta mamlakatlar va madaniyatlarda giyohvandlikka qarshi kurash yondashuvlarining qiyosiy tahlilini ko'rib chiqamiz.

Xulosa. Turli madaniyatlar va mamlakatlarda giyohvandlikka qarshi kurash yondashuvlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu murakkab muammoning yagona echimi yo'q. Har bir mamlakat o'z qadriyatlarini, resurslarini va jamiyat xususiyatlariga eng mos keladigan yondashuvni tanlaydi. Ba'zi mamlakatlar jinoy javobgarlikka tortish va taqiqlashga, boshqalari bag'rikenglik va qo'llab - quvvatlashga, boshqalari esa turli strategiyalarning kombinatsiyasiga e'tibor berishadi. Giyohvandlikka qarshi yondashuvlar ilmiy dalillar, insonparvarlik va samaradorlikka asoslangan bo'lishi, shuningdek, turli xil ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillarni hisobga olishi muhimdir. Shubhasiz, qo'shimcha o'rganish va tajriba almashish ushbu katta muammoni global miqyosda english uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Turli madaniyatlar va mamlakatlarda giyohvandlikka qarshi kurash yondashuvlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikka universal yechim yo'q. Har bir mamlakat va madaniyat o'z qadriyatlarini, resurslarini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga qarab o'z strategiyalarini ishlab chiqadi. Biroq, insonparvar va samarali yondashuvlarni saqlab qolgan holda, ushbu murakkab muammoni hal qilish uchun profilaktika, davolash va reabilitatsiyaga e'tibor qaratgan holda, kriminallashtirishdan sog'liqni saqlashga o'tishga umumiy intilish mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Тюрькова Анастасия Андреевна. "Наркомания как негативное явление: историко-социальный аспект." *The Newman in Foreign Policy* 5.56 (100) (2020): 38-40.
2. Бочаров К. Е. "Наркотики и наркомания, социальные последствия." *Современные тенденции развития гуманитарных, правовых и экономических исследований: теория и практика*. 2022.
3. Пихтина Ольга Александровна. "Профилактика наркомании сегодня." *Актуальные направления научных исследований: от теории к практике* 2 (2015): 87-88.
4. Черненко Ю. В., et al. "Деятельность педагога-психолога по профилактике наркомании среди учащихся." *М 96 Ёзгеретин элементте жастар: Z ұрпағын элементтендірудің* (2022).
5. Пилюгина Т. В. "Наркозависимость вразрез национальной безопасности и интересам страны: социально-психологические особенности и причинная обусловленность." *Экономика. Право. Печать. Вестник КСЭИ* 1 (2014): 162-170.
6. Перекрестова Ольга Михайловна. "Наркомания подростков как социальная проблема и виды ее профилактики." *Юристь-Правоведь* 4 (71) (2015): 56-59.



Sharifa KARIMOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: karimova.sh.76@mail.ru

Oila va gender ilmiy - tadqiqot instituti Phd, dotsenti, U.Jabbarov taqrizi asosida

READING TEXTS ARE THE BASIS OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation

This article focuses on the development of lexical competence of future foreign language teachers in the process of professional training: reading literary texts, working with vocabulary, reading works rich in different plots, linguistic, grammatical, linguistic-cultural, stylistic, is devoted to the importance of the role of literary works, which are permanent custodians of socio-cultural information.

Key words: Future foreign language teachers, professional training, lexical competence, linguistics, linguistic-cultural, text, reading.

ЧТЕНИЕ ТЕКСТОВ – ОСНОВА РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Данная статья посвящена развитию лексической компетентности будущих учителей иностранного языка в процессе профессиональной подготовки: чтению художественных текстов, работе со лексикой, чтению произведений, богатых разными сюжетами, лингвограмматических, лингвокультурологических, стилистических. важность роли литературных произведений, которые являются постоянными хранителями социокультурной информации.

Ключевые слова: Будущие учителя иностранного языка, профессиональная подготовка, лексическая компетентность, лингвистика, лингвокультурологическая, текст, чтение.

O‘QISH UCHUN MATNLAR BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NEGIZIDIR

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida leksik kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy matnlarni o‘qish, lug‘at bilan ishlash, turli syujetlarga boy bo‘lgan asarlarni o‘qish, lingvistik, grammatik, lingvo-madaniy, stilistik, ijtimoiy-madaniy ma‘lumotlarning doimiy saqlovchisi bo‘lgan adabiy asarlarning o‘rni muhimligiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak chet til o‘qituvchilar, kasbiy tayyorgarlik, leksik kompetensiya, lingvistik, lingvo-madaniy, matn, o‘qish.

Kirish. Mamlakatimizda bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan holda tayyorlash xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlash jaxon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanishning me‘yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi boyitildi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida[1] ta‘lim sifatini oshirish, mexnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilandi, shuningdek, xalqaro ta‘lim standartlarini joriy etish va ta‘lim sifatini baholash asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta‘lim muassasalarida tillarning fanlarga integrallashtirilgan holda o‘rgatish imkoniyati kengaytirildi.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida auditoriyada leksik kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga olgan kasbiy ahamiyatli kompetensiyalarni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ular, bir tomondan, umumiy kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining chet tilining kommunikativ kompetensiyasining bir qismidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta‘lim muassasalarida chet tilini o‘qitishning mustaqil usuli bo‘lgan “uyda o‘qish” (home reading) to‘liq o‘rganilmagan va talab qilinadigan didaktik salohiyatga ega ekanligi aniqlanmagan. Ma‘lumki, chet tilini o‘qitishda badiiy matnlar alohida ahamiyatga ega. M.K.Borodulina “badiiy asarlar adabiy til me‘yorlariga muvofiq, chet tilini o‘rganishda ustuvor namunadir”, deb hisoblaydi[2]. Badiiy matn muallif va uning qahramonlari nutqida tilning mavjudligini, chet tilida fikrlarni ifodalash usullariga rioya

qilish va o‘qilayotgan narsaning ma‘nosini bevosita idrok etish kuzatish imkoniyatini beradi.

V.P.Rudnevning fikricha, badiiy adabiyot voqelikning aksi bo‘lmasa-da, u “muallifga tegishli bo‘lgan milliy til madaniyatiga xos nutq faoliyatining aksidir. Badiiy nasrning materiali oddiy nutq faoliyati, ya‘ni, badiiy matn ona tilida so‘zlashuvchilarning haqiqiy zamonaviy nutq faoliyatini aks ettiradi va milliy-o‘ziga xos tushunchalar, chet tilidagi voqelikning ijtimoiy-madaniy holatlari bilan to‘yinganligi bilan tavsiflanadi” [3]. Matnning lingvistik shakli muallifning maqsad va fikrlarini ifodalash uchun til vositalaridan foydalanishning yorqin namunasidir.

Tilga madaniyat sifatida qarash badiiy adabiyotga murojaat qilish o‘rinli ekanligini anglatadi. Mukammal yo‘naltirilgan “o‘qish uchun matnlar” bo‘lajak o‘qituvchining so‘z boyligini oshirishda samarali omil bo‘la oladi, deb hisoblaymiz. Bu holat, o‘z navbatida, talabalarning chet tilini bo‘lajak mutaxassis sifatida o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishi shubhasiz. Zamonaviy mualliflarning badiiy matnlarni o‘rganishga asoslangan bo‘lajak mutaxassislik tilini o‘qitish quyidagi ijobiy jihatlariga ega. Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, badiiy asarlarni mutolaa qilish talabalarning shaxsiy kamlotiga, yuksak axloqiy fazilatlar, tanqidiy fikrlash, qat‘iy hayotiy pozitsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiy asarlar o‘rganilayotgan til madaniyati va zamonining asosiy ontoantropologik muammolariga ta‘sir ko‘rsatadigan, ma‘lum bir mamlakat madaniyatining durdonasi ekanligini inkor etib bo‘lmaydi [4].

Turli lingvistik, grammatik, lingvo-madaniy, stilistik, ijtimoiy-madaniy ma‘lumotlarning doimiy saqlovchisi bo‘lgan adabiy asar talabalarning dunyoqarashini sezilarli darajada boyitadi, ularning lingvistik saviyasini oshiradi, mustaqil xulosalar va umumlashtirishlar uchun material berib, til ta‘limi

sohasida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tafakkurini rivojlantiradi.

N.M.Ahmedova fikricha, auditoriyada haqiqiy matnlar bilan ishlash kasbiy sohaga imkon qadar yaqin bo'lgan vaziyatlarni yaratishga, tili o'rganilayotgan mamlakatidagi kasbiy voqelikni anglashga va mamlakatda kasbiy madaniyat haqida to'g'ri tasavvurlarini rivojlantirishga imkon beradi. Autentik (asl nusxadagi) matnlardan foydalanish talabalarning chet tilidagi kasbiy muhitda erkin harakat qilishlari, bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan hayotiy vaziyatda qo'llashlari uchun asosiy omillardan biridir[5].

Uyda o'qish sifatida foydalaniladigan, o'tmish va bugungi kunning eng dolzarb muammolariga bag'ishlangan, turli syujetlarga boy bo'lgan asarlar talabalar nutqi uchun psixologik shart-sharoitlar yaratadi, bo'lajak mutaxassislarining og'zaki nutqi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Va nihoyat, bizning uchun ayniqsa muhim bo'lgan badiiy adabiyotni o'qish talaba ongida leksik birliklarni yangi kontekstda doimiy ravishda takrorlashni, shuningdek, allaqachon o'rganilgan grammatik tuzilmalarni yangi leksik material bilan uyg'unlashtirishni rag'batlantiradi. Leksik birliklarning bunday takrorlanishi lug'atning kuchli o'zlashtirilishi va undan talabalar tomonidan kelgusida foydalanish uchun qulay imkon yaratadi.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy leksik kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonida matnga asosiy negiz (asos) sifatida qarash bir qator omillar bilan asoslanadi[6]:

- "matn "og'zaki nutqning bir turi bo'lib, nutq jarayonida ma'nolarni tartibga solish uchun bajariladigan og'zaki va og'zaki bo'lmagan intellektual jarayonlarni o'z ichiga oladi" ham aloqa uchun axborot vositasi sifatida, ham tilshunoslikning asosi sifatida ishlaydi;

- matn orqali muloqot to'liq axborot shaklidir, shuning uchun matn talabaning til va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

- Matn orqali siz turli ish turlari va shakllarini tashkil qilishingiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Uyda o'qish (home reading) darslarida har qanday chet til madaniyatini ko'rstib beradigan, ta'lim tili uchun mos, og'zaki va turli janrdagi shuningdek muloqot uslubidagi grafik matnlar axborot manbaidir.

Ma'lumki, uyda o'qish jarayonida matn ustida ishlash pedagogika oliy o'quv yurtida turli maqsadlarni ko'zlaydi va shunga mos ravishda matn ham turli vazifalarni bajaradi, ular quyidagilar: leksik va grammatik materialni o'zlashtirish; og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishni; lingvistik kuzatishlar va lingvistik bilimlarni kengaytirish; chet tilini o'zlashtirishda motivatsiya beruvchi vositalar; ilm olish maqsadiga erishish vositasi, ya'ni ikkilamchi til shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida ishlaydi.

I.B.Utayeva fikriga ko'ra, chet tiliga grammatik materialni yana 2 xil usul bilan taqdim etish mumkin. Bu usullar quyidagilar[7]:

1. Leksik usul yordamida.
2. Modellar yordamida.

Leksik usul bilan tilda kam uchraydigan grammatik hodisalar tushuntiriladi. Bu usulga ko'ra talabalar konkret grammatik hodisalar bilan tanishtiriladi va bu hodisalarni tarjimasini, ma'nosi va qo'llanilishi ko'rsatiladi.

Modellar yordamida grammatik hodisani tushuntirish metodikada keng tarqalgan usuldir. Model deganda o'rganilayotgan tilning fonetik, leksik va grammatik normalar talabalariga javob beradigan shartli ishoralar bilan ifodalangan va muomalaning potentsial, abstrakt, eng kichik berligini nazarda tutadi.

Chet tillarini o'qitish amaliyoti va kasbiy pedagogik faoliyat sohasida tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun biz psixolingvistika nuqtai nazaridan matn tushunish nazariyasiga murojaat qilishimiz muhimdir.

Matn tushunish jarayoni mashaqqatli mehnatni taqozo etadi, buning natijasida keng ma'lumotdan asosiy g'oya ajratib olinadi, qabul qilingan xabar qabul qiluvchida ma'lum bir ma'nolar majmuasini tashkil etadi. Bu xabarni idrok etilayotgan

matn mazmuniga ekvivalent ichki kodning bir turi bo'lgan semantik mavzuga siqish orqali sodir bo'ladi.

V.I. Narolina [8] matn tushunishdan avval so'zlarning kontekstual ma'nolarini aniqlash, shuningdek, ularning sintaktik tuzilishini tushunish kerak, deb hisoblaydi. Yu.N. Karaulov matnlarni to'g'ri tushunish uchun lug'atni yaxshi bilish zarurligini ta'kidlaydi: "Matn idrok etish ortida talaba eshituvchi sifatida turadi va idrok odatda "til-tushuncha" kanali orqali sodir bo'ladi: belgilar matn idrok etish jarayonida o'zgarib, matnga xos standart tushunchani qayta yaratadi" [9; 204-b.].

Ko'plab tadqiqotlarga qaramay, olimlar tushunishning mohiyati bo'yicha bir fikrga kelishmadi. Tushunish ikki tomondan - jarayon sifatida va natija sifatida, jarayonning natijasi sifatida qaraladi. Tushunish, fikrlash, xotira, g'oyalar, qayta tiklash va ijodiy tasavvurga qaratilgan jarayonda hissiy-irodaviy va boshqa psixik jarayonlar, shaxsning xususiyatlari va qobiliyatlari bir tugunga birlashtiriladi. Badiiy asarning semantik mazmunini ochib berish quyidagi aqliy operatsiyalar bilan bog'liq: qiyoslash, bashorat qilish, taxmin qilish, tahlil qilish, sintez qilish, induksiya va deduksiya, tanqidiy fikrlash, abstraksiya va konkretlashtirish va boshqalar, bu esa tushunish jarayonining borishini ko'rsatadi. Ko'p o'lchovli fikrlash jarayoni, jumladan mnemonik faoliyatidir (esda saqlash).

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, matn tushunish jarayoni - bu talabaning qadriyatlarini va shaxsiy tajribasini prizmasidan o'tadigan matnning o'zi, ichki va tashqi omillar o'rtasidagi maqsadli o'zaro bog'liqlik sanaladi. Bo'lajak o'qituvchini pedagogik yo'naltirilgan matnlar asosida kasbiy belgilangan lug'atni to'g'ri tushunish va o'rganishga o'rgatish bizning vazifamizdir.

Haqiqiy xorijiy til voqeligi har doim ham badiiy matnda aks ettirilmasligini inkor etib bo'lmaydi. Shunga qaramay, badiiy obrazda har doim hayotning boshqa madaniy voqeliklarini umumlashtirish, milliy mentalitet, ma'lum bir ijtimoiy tabaqa, ma'lum bir kasb vakilining nutq xatti-harakatining o'ziga xos xususiyatlari borligiga qo'shila olmaymiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilidagi badiiy matnlarni o'qish bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qish jarayonida ba'zi bir til hodisalar talaba uchun alohida qiyinchilik tug'diradi: ular rang barang stilistik leksik birliklar, ko'p ma'noli so'zlar, idiomatik iboralar, frazeologik fe'llar, realialar, jargon iboralar, "ekvivalenti bo'lmagan lug'at"dir. Uyda (mustaqil) o'qish uchun matnlarni tanlash mezonlari qanday? Bizning fikrimizcha, sanab o'tilgan til hodisalarini matndan butunlay chiqarib tashlamaslik kerak, chunki bu uni ekspressivlik va o'ziga xoslikdan mahrum qiladi, shuningdek, uning estetik idrokini buzadi.

Biz kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan mazmunan yaxlit tuzilgan, pedagogik oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy qiziqishlariga javob beradigan, pedagogikaga yo'naltirilgan matn ustida ishlash, bo'lajak chet tili o'qituvchisining kasbiy leksik kompetentsiyasini rivojlantirishning asosiy birligi ekanini tushunamiz. Endi biz haqiqiy matn ustida ishlash texnologiyasi masalasiga so'z bilan javob beramiz.

Nutqning leksik birliklari bilan ishlash, har doim oliy o'quv yurtlari chet tili o'qituvchilarining diqqat markazida bo'ladi. So'zni bilish bu uning tovush va grafik shakllarini, ma'nosini (yoki so'z ko'p ma'noli bo'lsa ma'nolarini) va qo'llanilishini bo'lishni taqozo etadi.

Ingliz tilida ko'p ma'noli so'zlarning hajmi juda katta bo'lganligi sababli, bo'lajak chet tili o'qituvchisi barcha ma'nolarni o'rganishi kerak. So'zning lug'aviy ma'nosini o'zlashtirish, eslab qolish, ularni ko'paytirish, yodlash orqali so'z ma'nosini o'rganish kabi funksiyalarini faollashtiradi. So'zlarni o'zlashtirishga sarflangan sa'y-harakatlar, birinchi navbatda, so'zlovchining fikrini ifodalash zarurati, shuningdek, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ona tilidagi ma'nosiga to'g'ri kelish yoki kelmasligi, aniq/mavhum tushunchalarga ega ekanligi, nutqda uning muhimligi bilan belgilanadi.

E.I. Passov leksik kompetentsiyani samarali rivojlantirish uchun barcha nutq faoliyatini kommunikativ-kognitiv vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va muloqotning aniq maqsadlari va motivlarini amalga oshirish tavsiya etadi. Maxsus adabiyotlarda nutqiy fikrlash faoliyatining asosiy stimulyatori nutqiy fikrlash

vazifasi ekanligi bir necha bor qayd etilgan, chunki u nutq faoliyatiga qiziqish uyg'otadi va kuchli qiziqishni o'rnatadi deb takidlaydi[10; 47-b.].

Bo'lajak chet tili o'qituvchisining kasbiy leksik kompetentsiyasini rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

-KLIK (kasbiy leksik kompetensiya) rivojlantirish texnologiyasi bosqichlari

-Idrok qilish bosqichi: kasbga oid tekstlarning yangi leksik birliklarini tanlash va guruhlash

-Semantizatsiya bosqichi: asosiy ma'lumotga e'tibor qaratish, leksik birliklarni semantikasini tanib, anglab olish va ilk tushuncha hosil qilish.

-Avtomatlashtirish bosqichi: farqlash va identifikatsiyalash (ajratish); taqlid qilish orqali o'zgartirish;

bashorat qilish; assotsiativ(uyushgan) aloqalarni qisqartirish va kengaytirish va boshqalar.

Ijodiy bosqich: aloqaning professional shartli vaziyatlarini modellashtirish (syujet, tematik, o'zgaruvchan, munozarali, muammoli qidiruv).

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, bunday bosqichlar bo'lajak chet tili o'qituvchisining kasbiy leksik kompetentsiyasini rivojlantirish uchun biz yaratgan texnologiyaning asosini tashkil qiladi. Leksik kompetentsiyani samarali rivojlantirish uchun barcha nutq faoliyatini kommunikativ-kognitiv vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va muloqotning aniq maqsadlari va motivlarini amalga oshirish muhimligi yuqorida aniqlandi demak, maxsus adabiyotlarda nutqiy fikrlash faoliyatining asosiy stimulyatori nutqiy fikrlash vazifasi ekanligi bir necha bor qayd etilgan, chunki u nutq faoliyatiga qiziqish uyg'otadi va kuchli qiziqishni o'rnatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son.
2. Бородулина, М. К. Обучение иностранному языку как специальности (Немецкий язык) [Текст] / М. К. Бородулина, А. Л. Карлин, А. С. Лурье. - М.: «Высш. школа», 1975. - 264с.
3. Руднев, В.П. Морфология реальности: Исследование по «философии текста» [Текст] / В.П. Руднев. - М.: Гнозис, Русское феноменологическое общество, 1996. -207с.
4. Стрекалова, М.Д. Основные методические критерии отбора содержания обучения чтению в рамках курса «Домашнее чтение» в языковом вузе [Текст] /М.Д. Стрекалова // Теория и методика обучения и воспитания. -2008.-№3(5)-С.7-10.
5. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: diss... PhD T.:2020. - 75 b.
6. Дридзе, Т.М. Текстовая деятельность в структуре социальной коммуникации [Текст] / Т.М. Дридзе. - М., 1984. - 186с.
7. Utayeva I.B. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning Grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish. Ped.fan.ilmiy darajasini olish uchun diss. T.-2022. 51-bet.
8. Наролина, В.И. К проблеме уровней понимания / В. И. Наролина //Сайт журнала «Вопросы психологии»: - [Электронный ресурс] – режим доступа: <http://www.voppsy.ru/issues/1982/826125.htm>
9. Караулов, Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус [Текст] / Ю.Н. Караулов. -М.: Наука, 1981.-366 с.
10. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению / Е.И. Пассов. - М.: Просвещение, 1991. - 223с.



Sarvarbek QUZIYEV,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: sarvarkuziev1988@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH FOR TOURISM

Annotation

Nowadays, computer technologies are developing rapidly and the scope of its application is covering all fields. English for tourism requires students' practical ability. In the traditional teaching system, the learning efficiency of students is not ideal. For this reason, more and more teachers began to incorporate computer technology into their teaching work to improve the quality and efficiency of teaching. Therefore, this paper introduces the characteristics of computer-assisted teaching, analyzes the application of computer technology in teaching English for tourism, and examines two specific aspects of the application of computer technology in teaching English in tourism: the establishment of a computer index system of tourism in the hope of providing a relevant reference for teaching English in tourism in colleges and universities, the rational application of English vocational education mode and computer translator software.

Key words: Computer technologies, virtuality, interactivity, web pages, electronic textbooks.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ ТУРИЗМА

Аннотация

В настоящее время компьютерные технологии стремительно развиваются и сфера их применения охватывает все сферы. Английский для туризма требует от студентов практических способностей. В традиционной системе обучения эффективность обучения учащихся не идеальна. По этой причине все больше и больше учителей начали использовать компьютерные технологии в своей педагогической работе для повышения качества и эффективности преподавания. Таким образом, в этой статье представлены характеристики компьютерного обучения, анализируется применение компьютерных технологий при преподавании английского языка в туризме и исследуются два конкретных аспекта применения компьютерных технологий при преподавании английского языка в туризме: создание системы компьютерных индексов туризма в надежде предоставить соответствующие рекомендации по преподаванию английского языка в сфере туризма в колледжах и университетах, рациональному применению режима английского профессионального образования и программного обеспечения компьютерного переводчика.

Ключевые слова: Компьютерные технологии, виртуальность, интерактивность, веб-страницы, электронные учебники.

TURIZM UCHUN INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Hozirgi zamonda kompyuter texnologiyalari jadal suratda rivojlanmoqda hamda uni qo'llash doirasi barcha sohalarni o'z ichiga qamrab bormoqda. Turizm uchun ingliz tili talabalarning amaliy qobiliyatini talab qiladi. An'anaviy o'qitish tizimida talabalarning o'rganish samaradorligi ideal darajada emas. Shu sababli, o'qitish sifati va samaradorligini oshirish uchun kompyuter texnologiyalarini o'qitish ishlariga tobora ko'proq o'qituvchilar kirita boshladilar. Shu sababli, ushbu maqola kompyuter yordamida o'qitish xususiyatlari bilan tanishtiradi, turizm uchun ingliz tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalarini qo'llashni tahlil qiladi va turizmga ingliz tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalarini qo'llanilishining o'ziga xos ikki jihatini ko'rib chiqadi: turizmning kompyuter indeksi tizimini yaratish ingliz tili kasbiy ta'limi rejimi va kompyuter tarjimoni dasturiy ta'minotini oqilona qo'llash, kollej va universitetlarda turizm bo'yicha ingliz tilini o'qitish uchun tegishli ma'lumotnomani taqdim etish umidida.

Kalit so'zlar: Kompyuter texnologiyalari, virtuallik, interaktivlik, websahifalar, electron darsliklar.

Kirish. Turizm uchun ingliz tili ilg'or amaliy iste'dodlarni rivojlantirishga va talabalarning chet tiliga oid ingliz tilidagi kommunikativ qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan. Biroq, ko'pgina o'qituvchilar hanuzgacha an'anaviy o'qitish usulidan, ya'ni bir tomonlama o'quvchilarga tegishli bilimlarni singdirishdan foydalanadilar, bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqining pasayishiga va sinfda o'qitish samaradorligining pastligiga olib keladi[1]. Shu sababli, o'qituvchilar sinfda o'qitish samaradorligini va o'quvchilarning o'rganish ishtiyoqi va qiziqishini oshirish uchun yangi kompyuter texnologiyalarini faol ravishda joriy etishlari kerak. Kompyuter texnologiyalarini turizmga qanday joriy etish Ingliz tilini o'qitish ham ko'plab o'qituvchilarning diqqat markazida bo'ladi.

Kompyuter texnologiyalari yordamida o'qitishning xususiyatlari

1 Interaktivlik

An'anaviy o'qitishda o'qituvchilar odatda o'qitish ma'lumotlarini bir tomonlama chiqarish uchun slaydlar va boshqa vositalardan foydalanadilar va o'qituvchilarning sinfdagi darslari odatda belgilangan jarayonga muvofiq amalga oshiriladi. Turli media texnologiyalarni qo'llash asosan chiziqli bo'lib, samarali

o'zgarishlar va ierarxiya hissi yo'q. Kompyuterlar juda kuchli ikki tomonlama interaktiv funksiyalarni amalga oshirishi mumkin va bu o'zaro ta'sirlar inson va kompyuter o'rtasidagi aloqa va dialogni amalga oshirishi mumkin va shu bilan birga kompyuter aloqa tarmog'i orqali odamlar o'rtasidagi aloqani amalga oshirishi mumkin. O'quv faoliyatida o'quvchilar o'zlarining shaxsiy ta'lim asoslari va o'rganish ishtiyoqiga ko'ra o'quv mazmunini mustaqil ravishda tanlashlari va o'zlarining shaxsiy darajasiga mos keladigan amaliy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin [2]. Faqat bugina emas, kompyuter yordamida o'qitish o'qituvchilarga o'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etishi va ko'plab talabalarning savollariga mos ravishda javob berishi mumkin. O'qituvchilar o'qitishning mulohazalari ma'lumotlariga ko'ra keyingi o'qitish mazmuni va usullarini tasdiqlashlari va hatto turli darajadagi va darajadagi talabalar uchun shaxsiylashtirilgan o'qitishni amalga oshirishlari mumkin.

2 Yuqori samaradorlik

Yuqori samaradorlik o'qitish jarayonini baholashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, zamonaviy OAVdan an'anaviy OAV o'rtasidagi asosiy farq hamdir. An'anaviy o'qitishda o'qituvchilar odatda doska yozish, tajribalar, savollar va boshqa

Ma'ruza paytida SAPR muhitida kashf etilgan o'rganilayotgan ob'ektlarning uch o'lchovli modellari proektsion tasvirlarni aniqlik bilan tushuntirish uchun katta hajmli moddiy modellar bilan raqobatlasha oladi. Chizma geometriya tomonidan yaratilgan sirtlarni shakllantirish usullarini modellashtirish vositalarining kuchi bilan tasvirlangan chizma ularning amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi. Multimedia texnologiyasidan foydalangan holda o'quv ma'lumotlarini taqdim etish uchun grafik paketlardan foydalanish talabalar tomonidan uni tushunish samaradorligini oshirishga imkon beradi va shu bilan birga chet el dasturida ishlash usullari bilan tanishtiradi. Haqiqiy narsalarning virtual modellarini xaritalash haqiqat, ularning proektsion tasviri bilan, fazoviy fikrlashni rivojlantirishga va o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beradi [7].

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, ammo shu bilan birga ular uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Vizual ketma-ketlikni, animatsion effektlarni yaratish, materialni tanlash, uni ekranda namoyish etish shaklini aniqlash, rang, tovush va boshqa multimedia effektlarini kiritish – bu elementlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati, o'qituvchi multimedia ma'ruzalarini o'qiyotganda duch keladi. Animatsiya va ovoz effektlari soni belgilangan maqsadga erishish uchun ishlatilish kerak va chalgitmasligi kerak. Har bir narsa to'g'ri, malakali va o'ylangan bo'lishi kerak. Ba'zan talabalarni yoqimli musiqa, kulgili syujet bilan xursand qilish mumkin. Taqdimotning muvaffaqiyati puxta o'ylangan pedagogik senariy, maket, gipermatnli havolalarni kiritish, o'qituvchining ma'lumotni tanlash, tayyorlash, tuzish, mantiqiy ravishda qurish va kiritish qobiliyati bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. Вольхин К.А., Ярошевич О.В., Мультимедийное сопровождение лекций по начертательной геометрии: методические аспекты. <http://grafika.stu.ru/wolchin/img/publ/052/052.pdf>
2. Mirzayev E.M. Ko'pyoqlik (prizma)larni umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish chizig'i va uning yoyilmasini bajarish mavzusini o'qitishda multemediya texnologiyalaridan foydalanish. // O'zMU xabarlari, 2024 1/3 TOSHKENT – 2024. 153-157 bet.
3. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд. перераб. и доп. М.-СПб. 1998. - 1456 с. / <http://dic.academic.ru>
4. Троян Г.М. Универсальные информационные и телекоммуникационные технологии в дистанционном образовании / Учебное пособие для системы повышения квалификации и профессиональной переподготовки специалистов. – М., 2002. –153с.
5. Григорьев С.Г., Гриншкун В.В. Мультимедиа в образовании / <http://www.ido.edu.ru/open/multimedia/index.html>
6. Murodov Sh.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. Chizma geometriya. – Т.: "Iqtisod-moliya", 2006
7. Вольхин К.А. Изучение начертательной геометрии в свете информатизации инженерного образования // Журнал «САПР и Графика» № 11.– 2010. С.70-72.
8. Карабчевский В.В. Мультимедийный учебник по начертательной геометрии // Образование и виртуальность-2002 Сборник научных трудов 6-й Международной конференции Украинской ассоциации дистанционного образования. Харьков-Ялта: УАДО, 2002. С. 198-203.
9. Орехов В.Б. Мультимедиа – технологии в обучении инженерной графике // УГАТУ. URL: users.kpi.kharkov.ua/lre/orekhov.html (дата обращения 27.01.2011).
10. Ярошевич О.В. Приемы и методы эффективного использования мультимедийных лекций в учебном процессе по начертательной геометрии // Вестн БДПУ. 2006. № 2. Серия 3. С. 30–32.

Samarali, malakali multimedia materiallarini yaratish murakkab, mashaqqatli va katta vaqt talab qiladigan jarayondir. Shu bilan birga, nafaqat o'zimizning mavzu sohanimizni va uning metodologiyasini yaxshilab bilish, balki dasturiy mahsulotga egalik qilish va uning qanday ishlashini namoyish etish bosqichida emas, balki mahorat bosqichida, ya'ni barcha afzalliklardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish talab etiladi. Ammo kontent yaratish bu hamma narsa degani emas. Uni talabalarga taqdim etish, multimedia kompleksi bilan ishlashni o'rganish, tasvirni kuzatish va shu bilan birga tinglovchlar bilan aloqani yo'qotmaslik kerak.

An'anaga ko'ra, o'qituvchi ma'ruzalar o'qiyotganda asosiy ma'lumot tashuvchisi hisoblanadi. Multimedia uskunali bilan jihozlangan auditoriyada ma'ruzalar o'qish tovush va vizual ma'lumotlarning fazoviy bo'linishi bilan bog'liq ba'zi xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Muloqot sub'ektlar o'rtasida vizual aloqani talab qiladi, shuning uchun talaba doimiy ravishda o'qituvchidan taqdimot materiallariga o'tishi kerak, bu esa diqqatni jamlashni talab qiladi. Oldindan tayyorlangan slaydlar ketma-ketligi shaklida taqdim etilishi muammoni hal qilish algoritmini idrok etish, ketma-ketlik sichqoncha kursori bilan emas, balki o'qituvchining qo'li bilan boshqarilganda, doskadagi muammoni to'g'ridan-to'g'ri hal qilishdan ko'ra murakkabroq. Taqdimotga e'tiborni qaratish usullaridan biri o'quv ma'lumotlarini statik bosqichma-bosqich taqdim etish emas, balki dinamik, animatsiyadan foydalanish bo'lishi mumkin. Masalan, mavjud proektsiyadan yangisiga proektsion aloqa liniyasini o'tkazish animatsion taqdimot holatida yo'nalishni ta'kidlaydi va bir zumda paydo bo'lganda, tasvirning qanday o'zgarishi sodir bo'lganligini darhol anglash qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa, agar bu vaqtda talabaning e'tibori taqdimotga emas, balki o'qituvchiga qaratilgan bo'lsa.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ma'ruza darsini tashkil qilishda ma'ruzachining doskaga qaytishining diqqat markazida, bu kompyuterni boshqarish uchun interfaol doskadan foydalanishi juda oson amalga oshiriladi va bu eng eng maqbuldir. Taqdimotni boshqarish uchun interfaol doskadan foydalanish amaliyoti va chizma-grafik ishlab chiqarish muhitida muammolarni to'g'ridan-to'g'ri hal qilish shuni ko'rsatdiki, fan bilimlaridan tashqari, talabalar zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Xususan, chizma dasturlarining instrumental imkoniyatlari bilan tanishish imkoniyati mavjud bo'ladi.



Malika MURTALIBOVA,
Astraxan davlat texnika universiteti Toshkent viloyati filiali Asistenti
E-mail: malikarose@inbox.ru

TDSHU, s.f.d D.I.Madaminova taqrizi asosida

THE PLACE AND ROLE OF NATIONAL AND REGIONAL SECURITY IN THE GLOBALIZATION PROCESS

Annotation

This article reveals the essence of the concepts of regional and global security and their interrelationship with the category of national security. Due to the strengthening of external factors in the process of globalization, it is considered the basis for ensuring security in all forms and forms of politics. Also, the importance of the issue of security in the context of globalization, and the effectiveness of new approaches to security and policies conducted by states in this regard, as well as the analysis of existing threats, were conducted.

Key words: Security, region, globalization, regional security, international security, corruption.

МЕСТО И РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье раскрывается сущность понятий региональная и глобальная безопасность и их взаимосвязь с категорией национальной безопасности. В связи с усилением внешних факторов в процессе глобализации она считается основой обеспечения безопасности во всех формах и формах политики. Также была проведена важность вопроса безопасности в условиях глобализации, эффективность новых подходов к безопасности и политики, проводимой государствами в этом направлении, а также анализ существующих угроз.

Ключевые слова: Безопасность, регион, глобализация, региональная безопасность, международная безопасность, коррупция.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIK O'RNI VA ROLI

Анотасија

Mazkur maqolada mintaqaviy va global xavfsizlik tushunchalarining mohiyati hamda ularning milliy xavfsizlik kategoriyasi bilan o'zaro aloqadorligi ochib berilgan. Globallashuv jarayonida tashqi omillarning kuchayishi oqibatida siyosatning barcha shakllarida va ko'rinishlarida xavfsizlikni ta'minlashga asos bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida xavfsizlik masalasining nechog'li muhim ahamiyat kasb etib borayotgani va bu borada davlatlar tomonidan yuritilayotgan siyosat hamda xavfsizlikka oid yangi yondashuvlarning samaradorligi va mavjud tahdidlar tahlili o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik, mintaq, globallashuv, mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro xavfsizlik, korrupsiya.

Kirish. Eng keng ma'noda xavfsizlik – asosiy qadriyatlarga tahdidlardan himoya qilish holatidir. Dunyoning o'zaro mustahkamligini o'sishi munosabati bilan mazkur xavfsizlik muammosi mintaqaviy va xalqaro doirasida yanada rivojlanib bormoqda. Global rivojlanish jarayonida milliy manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va davlat qudrati xalqaro vaziyatga ta'sir ko'rsatishi davlatning harbiy kuchidan tashqari iqtisodiy va ekologik tarkiblarni ham o'z ichiga oladi.

Xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatlar bilan birgalikda azaliy faoliyat yuritib kelayotgan o'ziga xos hodisadir. Insoniyat o'z taraqqiyoti mobaynida urushlar, terroristik hurujlar, odam savdosi kabi muammolar bilan ro'baro' bo'lib kelgan. Ma'lumki, xavfsizlik deganda, odatda hayotiy muhim qadriyatlarining tahdidlardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Xalqaro munosabatlarda o'zaro bog'liqlikning tobora mustahkamlanib borishi sharoitida mintaqaviy va xalqaro darajadagi xavfsizlik muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, davlatlarning jahon siyosatiga bo'lgan ta'sirchanligini oshirishda nafaqat harbiy, balki iqtisodiy va ekologik omillar yetakchi rol o'ynayotgani hech birimiz uchun sir emas. Fan va texnikaning jadal sur'atlarda rivoj topishi sharoitida xavfsizlik muammolari mohiyatini anglashda yangicha yondashuvlarni ilgari surish muhim hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Zotan, so'nggi yillarda xavfsizlik va mudofaa sohasida nodavlat aktorlarning mavqei ham tobora ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xavfsizlik masalasi o'z dolzarbligiga ko'ra, ilmiy tadqiqotlar doirasidan muhim o'rin egallab kelmoqda. Xususan, Samantha Kostanzo Karletonning fikricha, "Xavfsizlikka oid tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad texnogen va tabiiy ofatlar, shuningdek xavfsizlikka tahdid

solvuchi ko'lamli tahdidlarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat bo'lgan faoliyat turidir"[1].

Olimlarning yana bir guruhi xavfsizlikka oid tadqiqotlarni xalqaro munosabatlarning uyushgan jinoyatchilik, harbiy mojarolar, milliy va xalqaro xavfsizlikni o'rganuvchi sohalaridan biri sifatida e'tirof etadilar. Jumladan, Daria Blinovanning fikricha, "Xavfsizlikka oid tadqiqotlar o'z ichiga xalqaro munosabatlar, geografiya, kriminologiya va harbiy tadqiqotlarni birlashtira olgan akademik fandır. U davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi, shuningdek, fuqarolar xavfsizligiga, ya'ni bir so'z bilan aytganda, milliy xavfsizlikka qarshi tahdidlar yuzaga kelgan sharoitda, mavjud davlatlarning mudofaa imkoniyatlarini o'rganuvchi sohadir[2]. Yuqorida ilgari surilgan qarashlar zamirida xavfsizlikka oid tadqiqotlarni tizimla ravishda tashkil etish va bu borada zamonaviy texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalanish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Zero, xavfsizlik muammosini yagona organ sifatida yaxlit tarzda o'rganish muhim. Shu boisdan, xavfsizlikka oid tadqiqotlar xususida so'z borar ekan, xavfsizlik nazariyalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelayotgan maktablarning ilmiy asoslangan g'oyalarini o'rganish hayotiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Davlatlararo munosabatlarning barqaror rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan xavfsizlik muammolari, o'z ortidan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi keskinlikning avj olishi hamda xom ashyo resurslariga bo'lgan taqchillikning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan, xavfsizlik muammolarini o'rganish va tahlil qilish masalasi hamisha dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Bu esa, o'z navbatida milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi xavfsizlik muammolarini tizimli tarzda o'rganish va boshqarish imkonini beruvchi bir qator tahliliy va tadqiqot markazlarining paydo bo'lishiga imkon yaratdi. "Sovuq urush"

yillariga qadar bo'lgan davrda o'tkazilgan xavfsizlikka oid tadqiqotlarda milliy xavfsizlik, suverenitet va xalqaro munosabatlarga tahdid soluvchi omillarga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad, xalqaro munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, asosiy urg'u "Kimning xavfsizligi?", "Xavfsizlikni kim ta'minlaydi?" va "Xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar nimalardan iborat?" kabi savollarga javob topishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urushi yakun topishi hamda jahon siyosatida ikki qutbli olamning paydo bo'lishi zamirida xavfsizlik masalalarining zamonaviy talqini paydo bo'la boshladi. Endilikda "xavfsizlik" va "suverenitet" bir-birini to'ldiruvchi tushunchalarga aylantirildi. Mazkur tushunchalar xalqaro munosabatlarning kelgusi taqdirini belgilab berdi desak xato bo'lmaydi. Buni 1947 yilda Amerikaning Milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi, Milliy xavfsizlik agentligi (NSA) hamda Markaziy razvedka boshqarmasi (CIA)ning tashkil etilishi kabilar misolida ko'rish mumkin. So'nggi yillarda sodir bo'layotgan voqe'liklar ta'sirida dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan terrorizm va kiberoxavfsizlikka qarshi kurashga katta sarmoya kiritilayotganini ko'rsatmoqda. Xavfsizlik tadqiqotlari xalqaro munosabatlarning muhim tarmoqlaridan biri sifatida realistik, idealistik, marksistik va feministik qarashlar zamirida rivojlantirilgan. Ammo, biz tadqiqot ishimiz doirasida xavfsizlikni tadqiq etish nazariyalariga tayangan uch asosiy maktabni ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, bular:

1. Kopengagen xavfsizlik maktabi.
2. Uels xavfsizlik maktabi.
3. Parij xavfsizlik maktabi.

Kopengagen xavfsizlik maktabi. Kopengagen xavfsizlik nazariyasiga 1985 yilda asos solingan. Bugungi kunda Kopengagen xavfsizlik tadqiqotlari maktabi tomonidan tinchlik va xavfsizlikka oid ko'p tarmoqli tadqiqotlar qo'llab-quvvatlanib kelmoqda. Kopengagen xavfsizlik maktabi xavfsizlik va mudofaa masalalariga doir yangicha qarashlarning shakllanishiga xizmat qilgan holda, xavfsizlikka oid an'anaviy paradigmani real va konstruktiv yondashuvga aylanta oldi.

Kopengagen xavfsizlik maktabi ilmi-fan ravnaqiga qo'shgan munosib hissasi "sekyuritizatsiya" va "de-sekyuritizatsiya" nazariyalarini shakllantirganligi bilan belgilanadi. Ole Veyver mazkur nazariyaning asosiy tarafdorlaridan biridir. Bundan tashqari, B. Byuzan, Uiver va De Uaydlarning qalamiga mansub bo'lgan "Xavfsizlik: yangi asos tahlili" nomli asarda ham mazkur nazariyaga alohida to'xtalib o'tilgan. Kopengagen xavfsizlik maktabi dastlab, o'z tadqiqotlari doirasida xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va bu borada mudofaa masalasiga alohida e'tibor qaratishni lozim topganlar. Ular davlatlar o'rtasida yuzaga keluvchi harbiy to'qnashuvlar va ularga qarshi kurash borasidagi davlat imkoniyatlarini va tahdidlar ko'lamini o'rganishga e'tibor qaratganlar.

1990-yillarga kelib, Kopengagen xavfsizlik maktabining ilmiy-tadqiqot yo'nalishida muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Endilikda, ular xavfsizlik masalalari doirasida inson, atrof-muhit, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarini qamrab olishni maqsad qildilar. Shunga ko'ra, sekyuritizatsiya nazariyasining o'zagi besh muhim yo'nalishdan iborat qilib belgilandi va u xavfsizlikka oid

1-jadval

Kopengagen va Parij xavfsizlik maktablari sekyuritizatsiya modellarining qiyosiy tahlili.

Tahlil mezonlari	Klassik/diskursiv sekyuritizatsiya modeli (Kopengagen maktabi)	exnokratik/diffuziv sekyuritizatsiya modeli (Parij maktabi)
Modelning nazariy-falsafiy asoslari	Klassik/diskursiv sekyuritizatsiya modeli (Kopengagen maktabi) J.Ostinning nutq aktlari nazariyasi;	M.Fukoning siyosiy falsafasi; P. Burdzening siyosiy sosiologiyasi
Epistemologik jihatlar (nima o'rganiladi?)	Diskursiv amaliyotlar, nutq bilan bog'liq harakatlar	amaliyotlar
Uslubiy jihatlar (qanday o'rganiladi?)	Aksariyat hollarda matnning diskursiv tahlili asosida	Siyosiy sosiologiya usullari: intervyular, sosiologik aralashuvlar va hokazo.
Ontologik jihatlar (sekyuritizatsiya nima?)	Siyosiy lashtirishning ekstremal shakli ("favqulodda" siyosiy o'Ichov)	Siyosiy texnologiya ("kundalik" siyosiy o'Ichov)
Me'yoriy jihatlar (xavfsizlik me'yoriy baholanishi / ekspertning o'rni)	X. Arendtning siyosiy falsafasi Xavfsizlikning salbiy qiymati* / tahlilchi ekspert	Xavfsizlik salbiy mazmuni / siyosiy motivatsiyalashgan tanqidchi ekspert

multidissiplinar yondashuvga aylantirildi. Yondashuv tarafdorlari o'z tadqiqotlari doirasida xavfsizlik muammosini nisbatan keng doirada o'rganish zaruratini asoslashga urinib keldilar. Bu borada to'xtalib, B. Byuzan shunday deydi "Xavfsizlikni kuchaytirish va omon qolish uchun nisbatan ko'proq kuch sarflash talab etiladi"[4]. Shu o'rinda, sekyuritizatsiya nazariyasining asosiy tarkibiy qismlari xususida to'xtalib o'tamiz. Skott Nikolas Romanyuk sekyuritizatsiyani uch asosiy bosqichdan iborat deb hisoblaydi:

1. "Nutq akti" nomi bilan yuritiluvchi ekzistensial tahdidning vujudga kelishi.
2. Referent tomonidan ob'ektni ekzistensial tahdidan himoyalash maqsadida maxsus/favqulodda harakatlarning amalga oshirilishi.
3. Nutq aktining bir yoki bir necha auditoriya tomonidan qabul qilinishi[5].

Xavfsizlik masalalarini o'rganish borasida bir qator yutuqlarga erishilganiga qaramay, Kopengagen xavfsizlik maktabi faoliyati yuzasidan bir qator tanqidiy fikrlar ham ilgari suriladi. Xususan, Lene Xansen tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, "Kopengagen xavfsizlik maktabi tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning aksariyat qismi mavhum qarashlarga asoslangan bo'lib, unga ko'ra xavfning muqarraligi va xavflardan holi bo'lishlik bilan bog'liq masalalarni o'zaro farqlash mushkuldir"[6]. Does esa, sekyuritizatsiya nazariyasi cheklangani bois, u real hayotimizda mavjud bo'lgan xavfsizlik muammolarini to'laqonli bartaraf qilish imkoniga ega emasligini ta'kidlaydi[7]. Bir so'z bilan aytganda, sekyuritizatsiya nazariyasi xavfsizlikka tahdidlarni to'laqonli anglash imkonini bermaydi. Mavjud tanqidlarga qaramay, aynan Kopengagen maktabi xavfsizlik tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash hamda uni fanlararo yondashuv asosida universal tarzda talqin qilish imkonini berdi, desak xato bo'lmaydi.

Kopengagen maktabi vakillaridan farqli o'laroq, Parij maktabi asoschilari D.Bigo va J.Gyuysmanslar sekyuritizatsiyani nutq akti hamda siyosatning diskursiv maydoni bilan o'zaro bog'lamaydilar. Ular siyosiy sosiologiyaga tayangan holda, kundalik faoliyati xavfsizlik muammolari bilan chambarchas bo'lgan mutaxassis olimlarining tahdidlar borasidagi qarashlarining shakllanish jarayonini o'rganadilar. Natijada, sekyuritizatsiya diskursiv amaliyot (Kopengagen maktabi misolida) yoki tabiiy ehtiyoj (an'anaviy yondashuvlar taklif qilishi mumkin) sifatida emas, balki jamoaviy qo'rquvni boshqarish va siyosiy hayotni tartibga soluvchi siyosiy texnologiya sifatida maydonga chiqadi. Parij maktabi namoyandalari bosqichma-bosqich tarzda "do'st/dushman" munosabatlariga asoslangan an'anaviy sekyuritizatsiya nazariyasining sifat jihatidan yangi modelni yaratish ustida bosh qotirmoqlar. Sekyuritizatsiyaning "diffuziya" texnologiyasi favqulodda choralar ko'rish hamda kundalik siyosat doirasidan tashqariga chiqishni anglatmaydi. Aksincha, bunda an'anaviy siyosat uning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, bevosita tahdidlarni boshqarish xavflarni boshqarish bilan shug'ullanadi. Quyida Kopengagen va Parij maktablari tomonidan ishlab chiqilgan sekyuritizatsiya modellarining qiyosiy tahlili keltirilgan (1-jadval).

* bunda "ijobiy" va "salbiy" kabi ma'nolarda quyidagilarni anglash mumkin: xavfsizlikning jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi yoki aksincha nomaqbul va zararli hodisa sifatida baholanaishi.

Uels xavfsizlik maktabi. Uels xavfsizlik maktabi feminizm, postpozitivizm va Uels tafakkur maktabining o'zaro birlashuvi natijasida vujudga kelgan. Maktabning xavfsizlik nazariyasiga qo'shgan munosib hissi, uning fanga "emansipasiya realizmi" tushunchasini olib kirgani bilan belgilanadi. Uning asosiy namoyandalari orasida Ken But, Richard Vayn Jons va Endryu Linkleyterlarni uchratish mumkin. Ular shaxsning erkinligiga to'siqinlik qiluvchi omillarni ijtimoiy transformasiya asosida o'rgangan holda, ijtimoiy nazariyani kengaytirishga uringanlar. Olimlarning fikricha, "xavfsizlik - bu emansipasiya"[8] va "emansipasiya - bu xavfsizlik"dir. Zero, mavjud qarashlarga ko'ra, kishilar xavfsiz bo'lgandagina, emansipasiya cheklovlaridan ham ozod bo'lishlari mumkin. Uels xavfsizlik maktabi talqiniga ko'ra, xavfsizlikka oid muammolarni bartaraf etishda shaxs, jamiyat va davlatlarning ishtiroki birdek ta'minlanishi va bu borada ayollarning o'rniga ham alohida e'tibor qaratilishi talab etiladi. Bir so'z bilan aytganda, xavfsizlik masalalarini umummilliy manfaat sifatida kun tartibiga qo'yish orqaligina uni samarali boshqarish mumkinligi e'tirof etiladi. Emansipasiyaning konseptual asoslarini belgilab bergan ingliz olimi Ken But kishilarni himoya qilishning eng samarali vositasi, ularning erkinligi yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishdan iborat ekanligini aytdi[9]. Ali Diskayaning fikricha, "Uelslik nazariyotchil olimlar tomonidan taqdim etilgan mazkur konsepsiya qarshilik strategiyasi va taktikasini qayta shakllantirish, jamiyat ravnaqini ta'minlash, qashshoqlik va zo'rvonlikka qarshi kurash, atrof-muhitni himoya qilish borasida insoniyatga umid bag'ishlagan holda, xalqaro munosabatlarni qayta qurish imkonini beradi"[10]. Olim, Uels xavfsizlik nazariyasi asosida tom ma'nodagi xavfsizlikka erishishda emansipasiya jarayoniga to'laonliq bog'liq bo'lish talab etilishini ham ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, milliy va mintaqaviy xavfsizlik masalalari zamonaviy

boshqaruvning muhim elementlari hisoblanadi. Xavfsizlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad, avvalo davlat va uning hududini mavjud tahdid va xatarlardan himoya qilish, barqarorlikni ta'minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish hamda aholi farovonligini oshirishdan iborat. Ammo, bu borada terrorizm, davlatlararo nizolar va kiberhuruj kabilardan iborat tahdidlar to'siq bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Shunga ko'ra, bugungi kunda davlatlar oldida qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, harbiy salohiyatni oshirib borish hamda diplomatik vositalarga tayangan holda, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi ustuvor vazifalarning qo'yilishi muhim sanaladi. Yuqorida nomlari keltirilgan Kopengagen, Uels va Parij kabi xavfsizlik maktablari o'ziga xos tarzda fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, Kopengagen xavfsizlik maktabining bosh g'oyasi "sekyuritizasiya" va "de-sekyuritizasiya" nazariyasidan iborat bo'lsa, "emansipasiya" nazariyasi Uels xavfsizlik maktabining markaziy qismidan joy egallagan. Parij / Ontologik xavfsizlik maktabi tomonidan esa, xavfsizlik masalalarini o'rganishda "ko'p tarmoqli" yondashuvga tayanilgan. Bu borada ular Kopengagen xavfsizligi maktabining "sekyuritizasiya" nazariyasini qo'llab-quvvatlaganlar. Uels va Kopengagen xavfsizlik maktablarining qarashlaridan bir qator farqli jihatlar kuzatilgan bo'lsada, ular xavfsizlik muammolari bilan bog'liq tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish yuzasidan yagona to'xtamga kelgan edilar. Zero, an'anaviy realistik yondashuvga ko'ra, zamonaviy xavfsizlik muammolarini, ularning ko'p qirrali ekanligini nuqtai nazaridan o'rganish samarali hisoblanmaydi. Yuqorida tilgan olingan xavfsizlik maktablarining har biri, xavfsizlikka oid tadqiqotlarning ravnaqiga munosib hissa qo'shgan bo'lsada, muayyan kamchilikdan holi emas. Shunday bo'lsada, mazkur qarashlar milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik muammolarini tadqiq etishda, ularning o'rnini beqiyos ekanini ta'kidlash joiz bo'ladi. Binobarin, xavfsizlikni ta'minlash doimiy va murakkab jarayon sanalib, u doimiy asosda ilmiy izlanishlar olib borish, tahlillar o'tkazish hamda zaruriy va tezkor choratadbirlar ko'rishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Samantha Costanzo Carleton (2021) What Is Security Studies? // URL.: <https://graduate.northeastern.edu/resources/what-is-security-studies/>
2. Daria Blinova (2022) Security Studies // URL.: tudyqa.com/posts/security-science
3. Ndudi M. Nwabueze. Security theories: a critical analysis. // URL.: www.linkedin.com/pulse/security-theories-critical-analysis-ndudi-nwabueze (July 6, 2023)
4. B. Buzan, O. Weaver, J. de Wilde. Security: New Framework for Analysis. – London: Lynne Rienner, 1998.
5. M. McDonald. Securitization and the Construction of Security // In European Journal of International Relations. –December 2008. – Vol. - № 14. – PP. 4563-4587.
6. Mustafa Sezal. Origins of Differentiation in Critical Security Schools. – University of
7. Lene Hansen (2000), "The Little Mermaid's Silent Security Dilemma and the Absence of Gender in the Copenhagen School" in Journal of International Studies <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/03058298000290020501>
8. Эмансипация - зулм, карамлик ва хурофотдан халос бўлиш. Аёллар эмансипатсияси - жамоат жойлари, меҳнат муносабатлари ва оилавий ҳаётда аёллар тенг ҳуқуқлилигининг таъминлаш; эркак ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлилиқка интилиши.
9. Ken Booth. Security and Emancipation // Review of International Studies. - Vol. 17. - № 4. - Cambridge University Press, 1991. - PP. 313-326.
10. Ali Diskaya. Towards a Critical Securitization Theory: The Copenhagen and Aberystwyth Schools of Security Studie. 2013 // URL.: <https://www.e-ir.info/2013/02/01/towards-a-critical-securitization-theory-the-copenhagen-and-aberystwyth-schools-of-securitystudies/>



Oysuluv MUSURMONKULOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
E-mail: musurmonkulovaoyusuluv@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori D.Kulmuradov taqrizi asosida

PRINCIPLES OF TEACHING STUDENTS TO LATERAL THINKING

Annotation

In today's pedagogy, it is more important to teach them to learn than to teach them. Until recent years, our national pedagogy considered the most appropriate way to teach students the existing knowledge acquired by mankind. This article highlights the fact that teaching young people to think laterally, creatively and non-standardly has become not only a necessity, but also a need.

Key words: Youth, lateral thinking, non-standard, non-standard thinking, student, knowledge, teaching.

ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЛАТАННОМУ МЫШЛЕНИЮ

Аннотация

В современной педагогике важнее научить их учиться, чем научить их. Наша отечественная педагогика до последних лет считала наиболее целесообразным способом преподавания учащимся уже существующих знаний, приобретенных человечеством. В данной статье подчеркивается тот факт, что научить молодежь мыслить нестандартно, творчески и нестандартно стало не только необходимостью, но и потребностью.

Ключевые слова: Молодежь, латеральное мышление, нестандартность, нестандартное мышление, студент, знания, обучение.

O'QUVCHILARNI LATERAL FIKRLASHGA O'RGATISH TAMOYILLARI

Аннотация

Bugungi kun pedagogikasida bilimlar o'rgatishdan ko'ra, ularni o'rganishga o'rgatish ko'proq ahamiyatli hisoblanadi. Milliy pedagogikamiz yaqin yillarga qadar o'quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytga qadar egallangan mavjud bilimlarni o'rgatishni eng maqbul yo'l sifatida qarab keldi. Ushbu maqolada yoshlarni lateral, ijodiy hamda nostandart fikrlashga o'rgatish bugungi kunda nafaqat zaruriyat balki ehtiyojga aylanganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, lateral fikrlash, nostandart, nostandart fikrlash, o'quvchi, bilim, o'rgatish.

Kirish. Har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitish shakllarini joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Aytish kerakki, tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Zamonaviy globallashtan murakkab, noxiziqi olamda yashash va faoliyat yuritish hamda turli muammolarni yechimi uchun nostandart va kreativ fikrlash zaruriyatga aylanmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda nostandart fikrlash (Edvard de Bono, A.Kashkarov, Ch.Fillips), murakkab tafakkur (K.Maynsner, M.Abdullaeva, M.Niyazimbetov), kreativ fikrlash (G.G'affarova, G.Jalalova va E.Izzetova), tanqidiy tafakkur kabi tushunchalar tadqiq va tahlil etilgan [1-6].

Xususan, lateral fikrlash (inglizcha lateral fikrlash - lateral, ko'ndalang, yon tomonga yo'naltirilgan) - bu muammoni hal qilishda insonning mantiqiy tafakkuri tomonidan e'tiborga olinmaydigan maksimal yondashuvlardan foydalangan holda, qutidan tashqarida fikrlash qobiliyati. Ushbu atama 1967-yilda Edvard de Bono tomonidan taklif qilingan va 1970-yilda uning "Lateral fikrlash: bosqichma-bosqich ijod" [2] (1970) kitobi nashr etilgan. Darhaqiqat, lateral fikrlash qiyin muammolarni

g'ayrioddiy usullar yordamida yoki oddiy mantiqiy fikrlash tomonidan e'tiborga olinmaydigan elementlardan foydalangan holda hal qilishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ma'lumki, o'qitishda bilimlar o'quvchi ong va tafakkuriga tayyor holda singdiriladi. Bu jarayonda bilimlar adabiyotlarda tayyor holda mavjud bo'ladi va buni o'zlashtirish o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham qanoatlanarli hisoblanadi. Ammo bu o'quvchilarda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bu turdagi pedagogikaning bosh maqsadi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda o'quvchining qanchalik ko'p bilimni yodda saqlaganiga qarab uning bilimi haqida xulosalar chiqariladi. Bu, to'g'ri, ammo bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini, birinchi bosqich bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika ekanligi oydinlashadi.

Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy axborotdan farqi qolmaydi. Axborot esa bu bilim degani emas. Ya'ni, mavjud bilimlar yangi bilimlarni kashf etish uchun poydevor sifatida xizmat qilishi, jarayonni zanjirli reaksiya sifatida davom etishini ta'minlaydi. Buning uchun o'quvchilar masalaning mohiyatini anglashi, sabab va oqibatlarni tushunib yetishi va xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Uzoq yillar davomida pedagogikaning maqsad va muddaosi shunday bo'lib keldi: o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining bilganlarinigina ro'kach qilib, o'quvchilarning undan nari yoki beriga o'tishlari rag'batlantirilmadi. Natijada, bir necha avlod o'quvchilar adabiyotlarda mavjud bilimlarni esda saqlab qolish, ularni ko'r-ko'rona yodlash, boringki, olgan bilimlarini amaliyotda tadbiiq etishdan nariga o'ta olishmadi. Bu esa o'quvchilarda pedagogik jarayonda eng muhim bo'lgan nostandart fikrlashga bo'lgan rag'batni yo'qotdi. Qanchadan-qancha xotirasi

bilim va informatsiyaga to'lib tushgan iqtidorli o'quvchilar ishlab chiqarish jarayoniga singib "yo'qolib" ketdi.

Vaholanki, agar ularda nostandart fikrlash ko'nikmasi shakllantirilganda, bu boradagi ularning intilishlari rag'batlantirilganda mamlakatimizdagi fan va texnologiyalar sohasi bugungidan ko'ra ancha yuksak marralarni zabt etgan bo'lardi. Xo'sh, ilm-fan rivoji uchun shunchalik ahamiyatli bo'lgan "nostandart fikrlash" deganda nimani tushunish kerak? U qanday namoyon bo'ladi va qanday natijalarga olib keladi?

Avvalo "nostandart fikrlash" tushunchasining o'ziga izoh berib o'tsak: bu tushuncha kishilarning odatiy fikrlash tarziga nomuvofiq, g'ayrioddiy fikrlashi, nooddiy usul va yo'llar bilan xulosalar chiqarishi; vaziyatdan chiqishning hatto g'ayritabiiy, ammo eng maqbul muqobilarni izlab topish, masalalar va hodisalarga nisbatan har doim ijodiy fikrlash orqali yondashish ko'nikmasidir. Darhaqiqat, nostandart fikrlash ko'nikma bo'lib, bunga yillar davomida fikrlash tarzini muntazam mashq qildirish yordamida erishish mumkin.

Har qanday kuchli iqtidor egasi nostandart fikrlash tarzi mahsulidir. Odatiy fikrlash tarzi kishidagi iqtidorni yuzaga chiqarmaydi, uning ijodiy, intellektual va ilmiy salohiyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Oqibatda, qanchalik iqtidor va salohiyat egasi bo'lmasin, odatiy fikrlash tarziga ko'nikkan inson nari borsa boy informatsion bazaga ega "bilimli o'quvchi" yoki "xodim"dan nariga o'ta olmaydi.

Modomiki, gap nostandart fikrlash haqida borar ekan, quyidagi voqea ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini tushunishimizga yordam beradi, deb o'ylaymiz: "Bir kuni universitet o'qituvchisi Qitrollik Akademiyasi Prezidenti, fizika fani bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori Ernest Rezerfordga bir masalada yordam so'rab, murojaat qiladi. U bir talabasiga fizika fanidan imtihonda eng past baho qo'ymoqchi ekanligini, lekin talaba bu bahoga rozi emasligini aytadi. Ularning har ikkisi: o'qituvchi ham, talaba ham uchinchi bir xolis shaxsning fikrini so'rab ko'rishga rozi bo'ladilar. Ular bu masalada Rezerfordni tanlaydilar. Imtihonda berilgan savol quyidagicha edi: "Barometr yordamida bino balandligini qanday o'lchash mumkinligini tushuntiring". Talabaning javobi quyidagicha edi: "Barometr bilan binoning tomiga chiqib, uzun arqonga barometrni bog'lab, pastga tushirish, so'ngra uni yana yuqoriga ko'tarib, arqon uzunligini o'lchash lozim, shu uzunlik binoning balandligini ko'rsatadi". Vaziyat murakkab edi, o'z navbatida, javob ham to'liq va to'g'ri bo'lgan. Boshqa bir tomondan, imtihon fizika fanidan bo'lgan, biroq shunday javobga kelishda esa bu sohada qo'llash mumkin bo'lgan bilimlarga tayanilmagan edi. Rezerford talabadan qaytadan javob berishni so'raydi. Tayyorgarlik uchun olti daqiqa ajratib, talabaga javobda fizik qonuniyatlar aks etishi lozimligini taysinlaydi. Besh daqiqa o'tgunga qadar talaba imtihon varaqasiga hech narsa yozmaydi. Rezerford talabadan imtihonni topshirish yoki topshirmasligini so'raganida, u muammoning bir necha yechimi borligini, shunchaki ular orasidan eng maqbulini tanlayotganini aytadi. Qiziqishi ortgan Rezerford vaqt tugamagan bo'lsa ham, yosh talabadan javobni aytishini so'raydi. Savolga endi quyidagicha javob yangraydi: "Barometr bilan binoning tomiga chiqing va barometrni ipga bog'lab, pastga tashlang, tushish vaqtini belgilab qo'ying. So'ngra formuladan foydalanib, bino balandligini hisoblash mumkin". Shunda Rezerford o'z hamkasbi – o'qituvchidan javobning ma'qul bo'lgan yoki ma'qul emasligini so'raydi. O'qituvchi javob qoniqarli ekanligini tan oladi.

Xo'sh, yoshlarni nostandart fikrlashga o'rgatish uchun bugungi kun pedagogikamizda qanday usul va vositalardan, metodlardan foydalanish zarur? Bu borada biz quyidagilarni tavsia qilamiz:

o'qituvchining talabalarga o'z fikrlash tarzini ro'kach qilib, ulardan ham shunday fikrlashni talab qilishdan tiyilishi;

talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;

turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, o'qitish jarayonida mavjud bilimlarni yodlash va xotirada saqlashdan ko'ra masalaning mohiyatini tushuntirishga e'tiborni qaratish;

ilmiy terminlar va tushunchalarning ta'rifi, qonuniyatlar va qoidalarni shunchaki yodlash emas, balki ularning mazmunini anglash va mohiyatini tushunishga urg'u berish. Bunda uning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirishda muayyan ta'rif, qoida va qonuniyatni analiz (tahlil) va sintez (tavsif) qilish metodi qo'l keladi (ona tili predmeti bo'yicha biror mashhur ta'rifni misol sifatida keltirib tushuntirish kerak);

dars mashg'ulotlarida o'quvchilarni har bir fan, kerak bo'lsa har bir mavzu borasida hodisa va mohiyatni, sabab va oqibatni anglashga, fan doirasida va fanlararo o'zaro bog'lanish, munosabat va muvozanatlarni tushunishlariga, chog'ishtirish, solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarishlariga sharoitlar yaratish;

talabalarda mohiyatga yetib kelishning yangi yo'llarini qidirishga rag'bat uyg'otish, bunda talabalarga xatoga yo'l qo'yishlari tabiiy hol ekanligini va bundan cho'chimaslik kerakligini tushuntirish;

yangicha fikrlar bilan talabalarni kulgiga qolmasliklariga ishonirish;

bir nechta masalani bir usulda yechishdan ko'ra bir masalani bir nechta usullar bilan yechishga qaratilgan metodlardan foydalanish;

talabalardagi ijodiy fikrlash tarzining har qanday ko'rinishlarini rag'batlantirish;

talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish va hokazo.

Aslida bu sanab o'tilgan har bir ta'kid o'qituvchidan izlanishni, har bir dars mashg'ulotiga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Shuning uchun men o'qituvchilarga har bir dars mashg'ulotini ijodiy jarayon sifatida qarashni va unga tayyorgarlik jarayonida mavjud usul va vositalardan foydalanish bilangina chegaralanmaslikni, balki shu mavzuni o'quvchilarga yetkazishga yordam beradigan har qanday usul, vosita va shakllardan foydalanishdan cho'chimasliklarini aytgan bo'lar edim. Demak, nostandart fikrlash tarzini barcha faoliyat turlari qatorida dars mashg'ulotiga ham tatbiq etish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mumkin.

Keling, lateral fikrlashning muhim xususiyatlarini ko'rib chiqaylik [4]:

1. Vertikal fikrlash – vertikal o'rganish turli xil variantlarni ko'rib chiqish va eng yaxshisini tanlash orqali yagona harakat yo'lini tanlashga qaratilgan. Yon fikrlash imkon qadar ko'proq muqobil yechimlarni yaratishni o'z ichiga oladi va yetarlicha samarali variant topilgandan keyin ham davom etadi. Bu yerda yangi g'oyalarni yaratish jarayoni muhim ahamiyatga ega.

2. Yopiq vertikal fikrlash, bu lateral fikrlash doimiy izlanishlarni rag'batlantiradi.

3. Vertikal fikrlash keyingi va hayotiy reallik, lateral fikrlash oldinga siljishni amalga oshirishi mumkin. Vertikal fikrlash bilan har bir yangi qadam mantiqiy bo'lmagan qarorlar zanjiri yaratiladi.

Xulosa va munozara. Umuman olganda, insondagi nostandart fikrlash tarzining ahamiyati esa talabalarda masalaning mohiyatini anglash, sohada yangilik va kashfiyotlar yaratish, ijodiy fikrlash tarzining rivojlanishi, xato qilishdan cho'chimaslik ko'nikmasining shakllanishi, o'ziga nisbatan ishonchni ortishi kabi ijobiy oqibatlar bilan xarakterlanadi. Eng asosiysi, nostandart fikrlash ularni o'qishda hamda ishda kashfiyotlar va yangiliklar sari yetaklaydi. Tavsiyadan ko'rinib turibdiki, lateral tafakkurga ancha murakkab, chunki ko'pincha biz mantiqiy fikr yuritimiz ("vertikalno"). Biz vertikal nostandart yo'llardan yuribgina lateral fikrlashga erisha olishimiz ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2016. – 320-b.
2. Abdullaeva M.N. (2017). Zamonaviy falsafada murakkablik // Qoraqalpoq davlat universiteti axborotnomasi. Berdaha. No 3, - B.99-102.
3. Abdullaeva M.N. (2013). Zamonaviy gnoseologiya va ta'lim kontekstida bilish va ijodkorlik. Evrosiyo xalqlari. Tarix, madaniyat va o'zaro munosabatlar muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalar. Praga, - P.107-111.

4. G'affarova G.G'. (2018). Yoshlarda kognitiv tafakkurni rivojlantirish masalalari. Yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari: XV respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, B.28-29.
5. G'affarova G.G'. (2012). Yosh avlodda kreativ va kognitiv tafakkurni rivojlantirish masalalari. Oila ma'naviy taraqqiyot tayanchi: ilmiy-nazariy konferensiya. Navoiy, - B.29-32.
6. Qashkarov A. Tez va nostandart fikrlash: muvaffaqiyatli shaxsning malakasini o'rgatish uchun 50+50 topshiriq. – Olmaota: "Eksmo", 2016-yil.



Muhiddin MUXTOROV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, PhD
E-mail: cashmoneyarmy@mail.ru

TDPU professori, PhD I.Ilxamova taqrizi asosida

THE OBSTRUCTIONS STUDENTS ENCOUNTER LEARNING A NEW LEXICAL UNIT

Annotation

In this article, the examples of difficulties in acquiring a new lexical unit were presented on the example of students at higher educational institutions on B2 level. It emphasizes the role of chunks, set phrases, collocations and suffixation in enriching and enhancing students' lexical competence.

Key words: lexical ability, lexical competence, awareness, cognitive, cognate, difficulty, homophones, homographs, false friends.

ПРЕПЯТСТВИЯ, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НОВОЙ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ СТУДЕНТАМИ

Аннотация

В данной статье были представлены примеры трудностей в усвоении новой лексической единицы на примере студентов высших учебных заведений уровня В2. В нем подчеркивается роль фрагментов, устойчивых фраз, словосочетаний и суффиксации в обогащении и совершенствовании лексической компетентности учащихся.

Ключевые слова: лексические способности, лексическая компетентность, осведомленность, когнитивный, родственный, трудность, омофоны, омографы, ложные друзья.

TALABALARDA YANGI LEKSIK BIRLIKNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN TO'SIQLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada B2 darajasidagi oliy o'quv yurtlari talabalari misolida yangi leksik birlikni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga misollar keltirildi. Unda bo'laklar, turkum iboralar, qo'shimchalar va qo'shimchalarning o'quvchilarning leksik malakasini boyitish va oshirishdagi o'rni ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: leksik qobiliyat, leksik kompetensiya, xabardorlik, kognitiv, qarindoshlik, qiyinchilik, omofonlar, omograflar, soxta do'stlar.

Introduction. Lexical competence (dependent variable): the basic synthetic understanding that it is necessary to use correct linguistic expressions[2]. Lexical competence, i.e., lexical knowledge is considered as one of the paramount aspects of the communicative competence that teaches to understand, learn, recall and bear in mind vocabulary items with a success. Apart from the aforementioned he also make it clear that the way of mastering a foreign language and its value is beyond the knowledge of the language's form or structure, which in its turn, makes a contribution into the growth of different questions and considerations on the ways of teaching a foreign language, English in our case; hence, lexical competence is related to the semantics of the language, when students are provided with a variety of alternatives in understanding the meaning whatever the speaker's purpose might be.

Literature review. K. Folse states that "vocabulary seen as the achievement of words with its semantic and pragmatic function is perhaps the most important component in L2 ability" [4].

According to Azimov *competent approach* – is a complex of general principles of forming learning aims and performing intercultural/interpersonal communication with native speakers suggesting a practical acquisition of a foreign language [1].

To D. Garcia lexical competence is a natural ability to utilize words in a proper way during a verbal interaction. He also emphasizes its connection to communicative competence [2].

One of the significant scientists Dik stated firmly that it could be obvious to determine lexical competence as being capable of using words appropriately and effectively in interacting verbally, i.e., as a part of the communicative competence [3; 5-6].

Laufer claimed that significant and the most obvious distinction between speakers of L1 and L2 in a foreign language was the number of lexical units they possessed [9]. Thus, this idea implies that broadening the size of vocabulary is one of the pivotal tasks for language learners, which will let them make it easy to recognize and interact in various contexts. Moreover, he suggests that learners of English, especially those from countries

where English is not spoken have a need to emphasize on real life conversations towards achieving appropriate English proficiency.

According to Wiegand, we should not see lexis only as a part of linguistics, but as the discipline which is independent and has significance [16]. However, CEFR which stands for the Common European Framework of Reference for Language deems lexis to be the part of the linguistic competence and it is defined the knowledge and ability to use the vocabulary of a language.

Lexical competence - knowledge of the vocabulary of the language, including lexical elements, and the ability to use them in speech. Lexical elements include words, regular combinations of words, stable combinations (phrasal verbs), complex prepositions, phraseological units [10].

A. Shchukin calls the lexical competence - the ability of students to determine the contextual meaning of a word, comparing a words' volume in two different languages. Moreover, it's the ability to determine a specific national characteristic of the peoples' culture who speak this language in it [12].

Lexical competence is a crucial component of communicative competence, which develops in stages and has a number of levels that can be conditionally identified. The ability of students to resolve issues relating to the practical use of a foreign word in speech on the basis of acquired information and pertinent abilities is referred to as the level of formation of lexical competence [11].

According to Rose, vocabulary learning process is when learners collect and store lexical units in their brain, i.e., which is a collective process. Learners need to use the words learned and gain the feeling of understanding how they are used naturally.

Educators ought to show their students the ways and approaches to learning new words, and not just give ready vocabulary. Nowadays the teaching process in the class and all activities ought to be aimed at students, i.e., learner-centered. Hence, teachers should provide students with independence and make an environment conducive to learning so they become able to cope with new lexical units in context [17].

The lexical competence is the ability to put into practice productive and receptive skills of a language in dealing with the words of the language. Lexical competence is an aspect of both linguistic competence and communicative competence.

The term lexis derived from ancient Greek, meaning "word" which refers to all the words of a language and vocabulary. Nowadays it is believed that teaching vocabulary is done better with not just learning individual lexical units, but as chunks and patterns. Chunks are the group of words found together, some of which are fixed expressions. However, collocation is a type of chunk which entails two lexical words. Leo Selivan in his book called "Lexical grammar 2018" writes:

Language production is not a matter of simply combining words and rules but rather retrieval of the language that we are primed for, i.e., the patterns and combinations that we have previously seen and heard [13].

According to Selivan, the learning process of new structures better to start with getting exposed to chunks [13]. Since the number of chunks which are stored in memory expands, the ones applying to the same pattern start feeding into the grammar system step by step. This is when grammatical competence with a particular structure begins to emerge. Furthermore, he claims that a chunk is a regularly occurring, significant string of two or more words - either fixed or with changeable slots - that may be learned as a whole without the need to examine its constituent parts. As long as a chunk is stored to the long-memory it can be retrieved and utilized the way it is or being modified. Therefore, it obviates the need to generate a new chunk from individual words and grammar rules.

Learning a foreign language entails making associations or connections between a specific linguistic sign and its meaning in a given language, which in its turn means linking the specific graphic representation of a given word and its sound in that language with its meaning.

The linkages between the various language structures - phonological, syntactic, and conceptual - are highlighted by Jackendoff, and he also establishes their relationship: (...) language as a whole can be viewed as a mapping between sounds and meanings, with phonological structure acting as the encoding

Table 1. Difficulty in meaning of word

№	Statement	Scale				Absolutely no
		Absolutely yes	Yes	Don't know	No	
1.	<i>I can feel difficulty in mastering synonymy and antonymy</i>	39.0%	32.3%	6.6%	6.6%	12.3%
2.	<i>I can feel difficulty correctly defining the meanings of words</i>	33.3%	26.7%	20.0%	16.7%	3.3%
3.	<i>I can feel difficulty in words with similar form but different meaning</i>	33.3%	33.3%	33.3%	0.0%	0.0%

According to the table given above, we can see that all the 3 points show that students do have challenges in learning vocabulary. The highest level 73.3% of difficulty is presented in the form of acquiring synonyms and antonyms. It indicates that the students acknowledged that the vocabulary issue of synonymy and antonymy was of the highest mind-blowing.

The difficulty on the next step includes handling what the words mean as well as sets of sentences in English. J. Harmer claims that there are several subjects that students should learn so

Table 2. Difficulty in using improper vocabulary

№	Statement	Absolutely yes	Scale			Absolutely no
			Yes	Don't know	No	
1.	<i>I find it challenging to use vocabulary effectively for some lexical units can solely applied in certain situations.</i>	19%	32.2%	19%	19%	6.5%
2.	<i>I find it challenging to provide a synonym or antonym that fits into the sentence.</i>	34.3%	44.4%	11.0%	7.7%	6.9%

As we can see from the table it is clear that majority of students 76.6% acknowledge that they had trouble providing a word's synonym or antonym. Hence, we can conclude that vocabulary in the appropriate context is crucial while learning new words. The research revealed that students found it

of sounds in a linguistically particular manner and conceptual structure acting as the encoding of meaning. These two structures are connected by syntactic structure, which clarifies and improves the mappings between them [7; 126].

According to several scientists such as: Brown, Nation, Thornbury there are many reasons why some students struggle to learn language. Those include the following vocabulary learning elements as: meaning, proper use, pronunciation, orthography, and connotation [15]. The study says that it can be more difficult to learn words that are difficult to pronounce. The way of spelling of many lexical units may cause problems for students whose languages have fairly regular spelling systems. When we talk about the way of pronouncing, particular spelling patterns may cause confusion. So basically, language learners find it easier to remember lexical units with a wide variety of contexts rather than those with a narrow variety. It might be challenging to know when to employ specific terms properly.

Research methodology. When learning L2 vocabulary, one of the most crucial methods for meaning deduction is being able to recognize polysemy and tell apart homographs and homophones from one another as well as the various meanings they have in one or more languages, both generally and in specific contexts. Although there is just one visual stimulus reaching the brain, the word may have multiple meanings depending on concrete, unique settings, which the learner should be taught to recognize. The same might be said of homophones taken out of context (such as the verb "to hear" and the adverb "here"); in this instance, it may be a deceptive acoustic stimulus whose correct interpretation can only depend on contextual information.

We have conducted a survey in which students of universities were asked 3 questions. In this process, 116 students from Tashkent State Pedagogical University, 102 students from Jizzakh State Pedagogical University, and 82 students from Kokand State Pedagogical Institute were selected and were given a questionnaire.

Analysis and results. The first challenge is the meaning of words. The determination of the word's meaning, the mismatch between form and meaning, and synonym and antonym are the three elements of word meaning issue.

that the latter help them comprehend the meanings of words including grammar, collocation, synonymy, antonymy, connotative and denotative meaning. Since many words have several meanings, a lack of proficiency in certain areas may make it difficult to understand what words signify [5].

The other difficulty is using improper vocabulary. It comprises two components: when students are unfamiliar with widely used words or phrases and the limited use of words in a certain context.

challenging to put well-known terms or word groups that match into sentences or words together with their opposites.

The final difficulty is connotation, which addresses two issues: trouble understanding connotation and difficulty distinguishing word connotation meaning.

Table 3. Difficulty in connotation

№	Statement	Absolutely yes	Scale			Absolutely no
			Yes	Don't know	No	

1.	<i>I have difficulty comprehending the words' connotation whether it has constructive or destructive meaning</i>	25.7%	32.3%	32.3%	6.7%	00.0%
2.	<i>I have difficulty defining the words' connotational definition</i>	14.3%	32.3%	21.0%	27.7	6.7%

According to the statistics above, it is clear that since words can have either positive or negative connotations, the majority of respondents (60%) found it difficult to understand. The degree of the issue is considered to be high. Knowing the definition of an English lexical unit is the final barrier. Students have trouble comprehending the word's implications. The word's connotation might be good or bad. However, most of the students who have been interviewed claimed that the most difficulty in learning vocabulary is connected with how words are pronounced and spelled.

Conclusion. We came to the conclusion that awareness and attention have an impact on a foreign/second language acquisition as well. While L1 is learned implicitly, acquisition of L2 requires attention and awareness, and therefore cognitive effort. Since forgetting is also an aspect of cognitive processes it affects L2 learning process. We believe that by forgetting we get exposed to something new, in a new context. Thus, we can recombine the relearned information with the traces of the learned previously. Moreover, we forget we come back to the same information several times therefore revising the same word again and again.

The goal of the current study was to figure out the difficulties that students in higher educational institutions have while making an attempt to acquire the English language. We can come to conclusion that here are some challenges that students encounter when acquiring English vocabulary. These challenges include: 1) difficulty in distinguishing between the spelling and sounds of English words; 2) trouble in understanding the meaning of English sentences and words; 3) having trouble utilizing vocabulary appropriately in a given context; 4) unable to comprehend the meaning of an English word. Moreover, research illustrates that more than a half of errors (50%) on lexis are brought about by transfers from L1.

We agree that enriching vocabulary consistently makes all four aspects of language skills perform better resulting in efficient and successful communication. We can assume that lexical competence is being able to choose and use words effectively and appropriately during speech, and is part of communicative competence, which was introduced by Hymes, since he states that it includes "not only the ability construe and interpret linguistic expressions, but also the ability to use these

expressions in appropriate and effective ways according to the conventions of verbal interaction prevailing in a linguistic community" [6].

To sum up, according to our research we came to several conclusions:

1. Lexical competence, i.e., lexical knowledge is considered to be one of the paramount aspects of the communicative competence that teaches to understand, learn, recall and bear in mind vocabulary items with a success. It entails knowledge of the vocabulary of the language, including lexical elements, and the ability to use them in speech, i.e., words, polywords, collocations, chunks.

2. Lexical skills are based on the following operations:
a) a lexical unit's transfer from long-term to working memory (word recall);

b) a lexical unit's combination with the one before or after; and

c) figuring out how the scenario's choice and combination of lexical parts match.

3. Frequency plays the role of being basic principle in selecting words. The most famous dictionaries give a learner the lists with words which are arranged according to their use in speech or text. A student studying on a higher educational institution owns 3000 to 5000 active vocabulary; however, passive lexicon of the same student may entail the same from 5000 to 10,000. To be fluent in a foreign language communicator makes an effort to make his passive vocabulary into active one.

4. There are many reasons why some students struggle to learn language. Those include the following vocabulary learning elements as: meaning, proper use, pronunciation, orthography, and connotation. The way of spelling of many lexical units may cause problems for students whose languages have fairly regular spelling systems.

The process of learning language materials must attract and appeal students' interest to content so as to attain their influence, learners should be exposed to a language in an authentic way, and use language authentically. Moreover, it should entail adequate number of linguistic features. Use of authentic material forms a native-like language in learners' mind, since language awareness comes from everyday speech held on a range of topics.

REFERENCES

1. Azimov, E. G. New dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of teaching languages) / E. G. Azimov, A. N. Shchukin. – M.: IKAR, 2009. – 448 p.
2. Daniel García Velasco - lexical competence and functional discourse grammar. Alfa, São Paulo, 51 (2): 165-187, 2007.
3. Dik, S.C. Stepwise lexical decomposition. Lisse: The Peter de Ridder Press, 1978.
4. Folse, K.S. (2004). Myths about teaching and learning second language vocabulary: What recent research says. TESL Reporter, 37(2) 1-13.
5. Harmer, J. (2009). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Harlow: Longman.
6. Hymes, D. On communicative competence. In: PRIDE, J. B., HOLMES, J. Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972. P.269-293.
7. Jackendoff, R. Semantic structures. Cambridge: MIT Press, 1990.
8. Jalolov J.J. Foreign language teaching methodology. Textbook for students of foreign language schools (faculties) revised and updated 2nd edition. -Tashkent: Reader, 2012. -432 p.
9. Laufer, B. (1991). Knowing a word: What is so difficult about it? English Teachers' Journal 42, 82-88.
10. Solovova E. N. Methods of teaching foreign languages: a basic course of lectures / E. N. Solovova. - M.: Education, 2005.-239 p.101.
11. Shamov A.N. Formation of lexical competence as a fundamental goal in teaching a foreign language / in mat. international scientific method. Symposium, May 30–31, 2007 / Pyatigor. state linguistic University; resp. per issue N.V. Baryshnikov. – Pyatigorsk, 2007. – P. 386–391.
12. Shchukin A.N Teaching foreign languages, Theory and practice. – M: Ed. VK, 2012 – 336 p.
13. Selivan Leo. Lexical grammar, Cambridge ELT 2018, 244 p.
14. Selinker, L. (1972). Interlanguage. International Review of Applied Linguistics in Language Teaching, 10, 209-231. <https://doi.org/10.1515/iral.1972.10.1-4.209>.
15. Thornbury, S. (2002). How to teach vocabulary. England. Pearson-Longman.
16. Wiegand, Herbert E. 1999. Semantics and Lexicography. Selected Studies (1976-1996). Edited by Antje Immken and Werner Wolski. TObingen: Max Niemeyer.

17. Yan Liu. Lexical Approach and Its Application in College English Classes, Theory and Practice in Language Studies, Vol. 2, No. 10, pp. 2090-2095, October 2012.



UDK:159.5.6/6

Azizbek NASIMOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi
E-mail: azizbek.@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

AXLOQIY QADRIYATLAR VA AXLOQIY ME'YOR HAQIDAGI QARASHLAR EVOLUTSIYASI

Annotatsiya

Maqola axloq, axloqiy qadriyatlar va axloqiy me'yor haqidagi qarashlarning falsafiy mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, axloq va axloqsizlik tushunchasining o'zaro bog'liqligi, uning jamiyatga ta'siri, axloqiy me'yorlarni tan olmaslikning sa'lbii jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, inson, axloq, qadriyat, me'yor, tizim.

ЭВОЛЮЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА МОРАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ И ПРАВСТВЕННЫЕ НОРМЫ

Аннотация

В статье анализируются философские критерии взглядов на этику, моральные ценности и моральные нормы. Также выделены взаимозависимость понятий нравственности и безнравственности, ее влияние на общество, негативные стороны непризнания моральных норм.

Ключевые слова. общество, человек, мораль, ценность, норма, система.система.

EVOLUTION OF VIEWS ON MORAL VALUES AND MORAL STANDARDS

Annotation

The article analyzes the philosophical criteria of views on ethics, moral values and moral standards. Also, the interdependence of the concept of morality and immorality, its impact on society, and the negative aspects of not recognizing moral standards are highlighted.

Key words. society, man, morality, value, norm, system.

Kirish. Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida «axloq» tushunchasi, uning mazmun-mohiyati borasida, hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida turli fikrlar bildirilmoqda. Buning asosiy sababi axloqning ko'p qirrali tushuncha ekanligi, jamiyat hayotidagi ma'naviy va ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy qarashlarni o'zida to'la mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisa ekanligidir. Shuni ta'kidlash lozimki axloq eng qadimgi ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Uzoq vaqtlar davomida u jamiyatda yagona tartibga solib turuvchilik vazifasini bajarib kelgan. Axloqiy qadriyatlar o'zining rivojlanishida falsafiy jihatdan ko'p qirrali jarayon bo'lib, jumladan, ajdodlarning ming yillar davomida shakllantirilgan falsafiy qarashlar ta'sirida vujudga keladi. Bunda axloqiy qadriyatlar rivojlanishi va evolyusiyasiga hissa qo'shadigan ko'plab falsafiy asoslar va turli falsafiy ta'limotlar muhim rol o'ynaydi. Axloq falsafasining tarixiy taraqqiyoti Sharq falsafasining ko'pchilik yo'nalishlarida muhim o'rin tutadi. Masalan, Zardushtiylik o'zida shunday axloqiy talablarni mujassamlashtirganki, unga binoan kishilar bir-birlari bilan tinchlik va osoyishitalikda ahlik bilan yashashlari, o'z yaqinlariga xayrixohlik ko'rsatishlari, zaruriyat va xavfli vaziyatlarda bir-birlariga yordam berishlari, yomonlik, shafqatsizlik, mag'rurlik, zo'ravonlik, o'zboshimchalik, hasad va tuhmatga qarshi kurash olib borishlari, g'azab va hokazolarga berilmasliklari lozim bo'lgan. Axloq masalalariga xitoy va hind falsafasida ham katta e'tibor qaratilgan. Masalan, konfutsiychilikda axloqiy qoidalar, me'yorlar va boshqarishni tartibga solib turishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur va boshqa qadimgi dunyo mutafakkirlari axloq falsafasi rivojiga muhim hissa qo'shadilar. Suqrot fikrcha, axloq asosini u yoki bu axloqiy ko'rsatmalarga tashqi tomondan rioya etish emas, balki ularning zarurligini tushunish tashkil etadi. Aflotun va Arastu axloq falsafasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan baxt-saodat va ezgulik haqidagi ta'limotni ishlab chiqadilar. Epikur ajoyib axloqiy-falsafiy ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda bosh o'rinni inson baxt saodati mavzusi egallaydi. Faylasuf qayd etgan ediki, agar inson oqilona, axloqan va adolatkorona yashamasa, u baxtli bo'lishi mumkin emas. Axloq falsafasi tarixida muhim o'rinni Musulmon sharqi

mutafakkirlarining g'oyalari tashkil qiladi. Forobiy uchun axloq – bu insonning jamiyat a'zosi sifatidagi axloqiy xatti-harakatlari to'g'risidagi bilimdir. Axloq, odoblik jamiyatni takomillashtirish va baxt saodatga erishish, ravnaq va umumiy ezgulikka erishish garovidir. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari egallaydiki, u turkiy tilda o'rta asrlarda yaratilgan eng yirik dunyoviy adabiyot yodgorliklaridan biridir. U axloqiy-tarbiyaviy, ya'ni axloqiy nasihatlar xususiyatiga ega. Sharq va G'arb faylasuf olimlarining axloqiy qarashlari, axloq muayyan jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga solib turuvchi va o'sha jamiyatdagi birlik, barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi me'yorlar ekanligi, ularning shaxs va, asosan, jamiyat manfaati va ehtiyojiga xizmat qilishi, amalda ish berishi ularning mavjudligini oqlovchi birlamchi mezon ekanligi ochib berilgan.

Jamiyatdagi ma'rifat g'oyalarini ilgari surgan I.Kant va J.S.Mill kabi faylasuflar ham axloqqa nisbatan o'z qarashlarini axloqiy rivojlanishning insoniyatga ta'sir ko'lami borasida dunyoviy qarashlarni o'rtaga tashladilar. I.Kant fikricha, axloqiy qonunlar sifatida universalashtirilishi mumkin bo'lgan harakatlar insonni ulug'laydi va muayyan imperativ axloqiy konsepsiyani yaratishga olib keladi. J.S.Mill esa, eng katta baxt axloqiy tamoyillarni yaxshi anglab yetadigan shaxs bo'lib, unda axloqiy harakatlar umumiy baxtni maksimal darajada bo'lishiga olib keladi.

Har bir davrda madaniy an'analar va jamiyat normalari axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu me'yorlar ko'pincha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ajdodlar falsafiy dunyoqarashining teranligi, keng qirraligi, xalqning donoligi va tajribalarining bir nuqtada jamlanganligidadir. Ular ma'lum bir madaniy yoki ijtimoiy munosabatlar tizimida qabul qilinadigan xatti-harakatlar uchun ko'rsatmalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunday o'izga xoslikni Gegel tahlil qilib, jamiyat ruhi uning axloqiy manzarasini shakllantirishda vujudga keladi. Jamiyatlar o'zaro ta'sirlashgani va madaniyatlar uyg'unlashgani sababli, bu me'yorlar dinamik va doimiy o'zgaruvchan axloqiy poydevorga olib kelishi mumkin, deydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axloq ko'proq insonning ezgulikka yo'g'rilgan fazilatlarini o'zida aks ettirishidir. Axloqiy qadriyatlar - bu shaxs yoki odamlar guruhi tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar va qarorlarda nima to'g'ri yoki noto'g'ri

ekanligini aniqlaydigan tamoyil hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar bir kishidan ikkinchisiga farq qilishi mumkin, shuningdek, bir guruh yoki jamiyat va boshqa guruh yoki jamiyat o'rtasida farq qilishi mumkin. Umumiy axloqiy qadriyatlarning ba'zi misollari halollik, adolat, bag'rikenglik, mehribonlik va mas'uliyatdir. Bundan tashqari, axloqiy qadriyatlar ko'pincha insonning dini yoki e'tiqod tizimi bilan bog'liq, ammo axloqiy qadriyatlar falsafa yoki ijtimoiy normalar kabi boshqa manbalardan ham kelib chiqishi mumkin. Axloqiy qadriyatlar tabiat hamda inson, jamiyat va milliy-elatlarning ijtimoiy hayotidagi jarayon, voqealik xodisalarga xos axloqiy munosabatlarni ham o'z ichiga qamrab olgan. Axloqiy qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga millat xususiyatlariga ham boydir" [2]. Ayniqsa, qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga milliy xususiyatlariga o'zining mazmun - mohiyati, mavqei, jamiyat va inson kamolidagi ahamiyati va betakrorligi, serqirra va sermazmunligi bilan millatimiz mentalitetiga xos va manaviyatimizga mos hamda hayotimizning uzviy bir qismi, yani manaviy hayotimizning negizi sifatida ajralib turadi.

Tahlil va natijalar. Axloqiy qadriyatlarning tub manosi har bir jamiyatga adolat, birdamlik, ezgulik, mustaqillik, tenglik va erkinlik imkoniyat asosida komil, yetuk va mukammal insonni kamol toptirishga qaratilgan. "Har bir davlat yoxud jamiyatning gullab-yashnashi, insonlarning rohat-farog'ati shu yurt farzandlarining xulq-odobi, axloqiy ideallari, estetik madaniyati va ma'naviy yetukligiga bog'liq bo'ladi" [1].

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan.[3]. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Shunda axloqsizlik vujudga keladi. Axloqsizlik - bu ma'naviy me'yorlar va qadriyatlar bir ongli bo'lmagan rioya ifodalangan shaxsi, bir salbiy axloqiy va ma'naviy tomoni hisoblanadi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak axloqsizlik - to'g'rilik qoidalarini buzilishi bo'lib, ijtimoiy me'yorlarni tan olmaslikdir.

Indoneziyaning Klego tumani misolida tadqiqot olib boriladi, unda yoshlarning axloqiy me'yorlarni tan olmasligiga va axloqsizlikni kelib chiqishini rag'batlantiradigan bir qator omillar aniqlanadi.

-yengil huquqbuzarlikga qiziqish va kimlargadir taqlid qilish, qaysarlikni rivojlanib ketishi, ota-onaga itoat qilishni istamaslik;

-ta'lim olishga ishtiyoqni pasayishi, maktabdan qochish, sababsiz dars qoldirish, o'qishni xohlamaslik;
-tengdoshlari bilan sababsiz tortishish, tez-tez janjallashish, odobsiz so'zlarni aytish;
-kiyinish me'yorlariga amal qilmaslik;
- stress, depressiya kabi psixologik buzulishlarni yuzaga kelishi;
-boshqa odamlarning tinchligi va xavfsizligini buzadigan buzuqlik, masalan, o'g'irlik, tuhmat qilish, talon-taroj qilish, hujum qilish;
-jinsiy zo'ravonlikning barcha ko'rinishi;
- spirtli ichimliklar ichish, qimorbozlik;
Demak, mazkur omillar jamiyatda axloqiy qadriyatlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatni rivojlantirishda yoshlar tomonidan ma'naviy axloqiy fazilatlarining o'zlashtirilishi ularning jamiyatdagi o'rini belgilab beradi, shuningdek, jamiyatning barqaror bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy axloqiy qadriyatlar insoniylik xususiyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Jamiyat rivojiga olib keladigan ma'naviy axloqiy sifatlar o'zaro bir-birini tushunish va anglash, mehr-oqibat, ezgulik, adolatlilik, sahovatpeshalik, oila va Vatanga muhabbat, sadoqat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik va bosha shunga o'xshash yuzlab ezgu fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Jamiyat hayotining barqaror rivoji insonlardagi bir-biriga bo'lgan ishonch, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida yashash, qonunlarning ustuvorligiga ahamiyat berishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan inson milliy va umuminsoniy fazilatlarini qadrlaydi, uni boyitib, kelgusi avlodlarga to'laqonli yetkazishga kamarbasta bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axloqiy qadriyatlarining voqelikda rivojlanishini tushunishda ijtimoiy-siyosiy qarashlar, jumladan, jamiyatdagi tengsizlik, adolat va haqiqat tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydi. "Ayniqsa, yoshlarning axloqiy tafakkurida bag'rikenglikni kuchaytirish, xulq-atvorida milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi tuyg'ularni kamol toptirish lozim. Biz yoshlarimizda axloqiy bag'rikenglik tuyg'ularini milliy qadriyatlar negizida rivojlantirib borishimiz, ayniqsa, har bir fuqaroning jamiyatda erkin, tinch yashashi, barchaning tengligi, adolat, ma'rifat, ezgulik, insonparvarlik hamda vatanparvarlikka bo'ladigan yaxshiligu poklik kabi jamiki bag'irkenglik xislat va fazalatlari yig'indisini kuchaytirishimiz lozim"[4].

Axloq shaxsning, ham ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, sinflar, butun jamiyatning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yorlari, o'zaro muloqot va munosabatlarini tartibga solish, boshqarish hamda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Колосова, В. В. Социологические подходы к изучению ценностей личности в процессе профессиональной деятельности / В. В. Колосова. -Текст : непосредственный // Молодой ученый. -2016. -№ 9 (113). -с. 999-1002.
3. Файбуллаев О. Эстетик маданият. –Тошкент: Наврўз, 2020. 270-бет.
4. Холиков Ю.О. Ўзбекистонда бағрикенглик маданиятини ривожлантиришнинг ахлокий тамойиллари. –Самарканд, "Самарканд давлат чет тиллар институти" нашриёти, 2021. 38-бет.
5. Комилов Р.Р. Ўзбек халқи никоҳ маросимларининг ахлокий ва эстетик моҳияти. –Тошкент: "Fan ziyosi", 2021. 64-65-бетлар.



Safiya NIYOZOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L.Muxtarova taqrizi asosida

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SAMARADORLIKKA ERISHISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Bo'sh joylarini yangi texnologiyalar bilan mustahkamlab, pedagogik tizimning umumiy samarasini yaxshilashga urinsa bo'ladi. Bunday yondashishda innovatsiya o'ylab topilgai "tashqi" chora bo'lib ko'rilmaydi, balki chuqur mazmunli talab va tizimni bilish, anglab yetilgan qayta tuzish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, ta'lim, tarbiya, jarayon, samaradorlik, aspektlar.

CHARACTERISTICS OF ACHIEVING EFFICIENCY IN THE EDUCATION PROCESS BASED ON THE INNOVATION APPROACH

Annotation

This article discusses in detail the aspects of achieving efficiency in the educational process based on the innovative approach. It is possible to improve the overall effectiveness of the pedagogical system by strengthening its vacancies with new technologies. In such an approach, innovation is not seen as an invented "external" measure, but as a deep meaningful demand and knowledge of the system, a conscious restructuring.

Key words: Innovation, education, training, process, efficiency, aspects.

ОСОБЕННОСТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются аспекты достижения эффективности образовательного процесса на основе инновационного подхода. Повысить общую эффективность педагогической системы можно за счет усиления ее вакансий новыми технологиями. При таком подходе инновация рассматривается не как придуманная «внешняя» мера, а как глубокое осмысленное требование и знание системы, сознательная реструктуризация.

Ключевые слова: Инновации, образование, обучение, процесс, эффективность, аспекты.

Kirish. Hozirgi kunda innovatsion yondashuv asosida ta'lim tarbiyaning samaradorligini oshirish ta'lim tizimida muhim vazifalardan biri sanaladi. Ta'lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari masalasini o'rganishga kirishishdan oldin "Pedagogik tizim" va "Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish" tushunchasini aniqlab olaylik. Pedagogik jarayon bilimzki, pedagogik tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo'lib, ular o'zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi.

Agarda o'zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o'rniga yangi boshqa hususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvidir.

Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda quyidagi ko'rinishga ega: o'quvchi; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; o'qituvchilar (yoki TTV -U ta'limning texnik vositalari); tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo'ladi. Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga bo'lib, yoyib ko'rsatilishi mumkin. Ko'rilgan tizimni mukammal tarkibiy tuzilish emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydiganlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, "natijalar", "o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish", "texnologiya"lardan iborat, deb ham hisoblashlari mumkin. Ular berilgan chizmadagi pedagogik tizim modelida ko'zga tashlanadi.

Tahlil va natijalar. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz jarayon tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to'la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o'lchov ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o'z maqsad va tuzilishlariga egadir. Pedagogik

tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida alohida omillar birligi deb ta'kidlagan holda ularni ko'pincha, o'quv-tarbiya jarayonining texnologiyasi deb ko'rsatadilar.

Bunday yondashishda pedagogik tizim ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo'yicha pedagogik tizimning tarkibiy qismlar ixtiyoriy "to'plamidan" ajratib olish osondir. Texnologiya - bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo'ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir. Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o'zidayoq, texnolog ma'lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma'lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasining dalili sifatida foydalaniladi, ajoyib xodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi. O'quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik "tajribalarni umumlashtirishdan" farqli "mumkin emas" xulosasini bermaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va harajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma'lum, tekshirib ko'rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o'tkazmay, aniq ko'zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo'l qo'ymaydi uning asosiy vazifasi -aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy yechimida oddiydir. Asosiy yechimni tushunish qolgan hammasini, o'zaro zarur elementlar tizimi, tartibining mazmunini ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismini olib tashlab bo'lmaydi, u yerda ortiqchasi bo'lmaydi, bo'lishi mumkin ham emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o'qituvchi izlash - tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi va shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasining noaniqligini kuchaytiradi. Har doim, ayniqsa "aniq" fanlar deb nomlanuvchi yo'nalish vakillari orasida pedagoglarni harakterlari uchun koyib turuvchilar topiladi va ular har galgidek pedagogika tizimi modellari reviziya qilish va moderizatsiyalashdan boshlaydilar.

Endi quyida pedagogika tizimida sodir bo'ladigan jarayonlarniig ba'zi prinsipial xarakteristikalarida to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik tizimining har bir aniq modifikatsiyasi ko'zlangan natijaga erishishi aniq hususiyat va imkoniyatlarga ega degan qoidadan kelib chiqamiz. Bu imkoniyatlar tizimining aniq hususiyatlari bilan qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu tarzda biz ta'lim va tarbiyaviy jihatdan ko'zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo'lsak, unda shunga mos pedagogik tizim haqida o'ylashimiz kerak va uning ishlashi pedagogik jarayonning kerakli yo'nalishi va intensivligini ta'minlashi zarur. Buning natijasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning yanada yuqoriroq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga dunyoda endi kirishilmoqda. Hozirgi, umumiy ko'rinishga juda ko'p ko'rinishli ko'rsatgich, "harajat" va "natija"larni to'plash mumkin bo'lmoqda va ushbu muammoning foydaliligini aniqlash esa uni iqtisodiy nuqtai nazardan hal qilish imkonini beradi. Intuitiv va sub'ektiv baholarni juda oson noto'g'ri deyish mumkin va bu yerda vaziyatdan chiqish faqatgina fikrlarni to'plashdan iborat bo'ladi. Har qanday pedagogikaning maksimal umumiy samarasi 100% ko'zlangan maqsadga to'la erishilgan xisoblanib, agar tarbiyachilar uchun ilgari erishilgandan pastroq darajada bo'lmasa mumkin bo'ladi. Yana biron-bir pedagogik tizim tuzilishiga nazar tashlaylik, u "yomon" va "yaxshi" pedagogik tizim uchun ham birdir. Uning uchun o'qituvchi ham birdir. Uni o'qituvchi, o'quvchilar munosabatigacha soddalashtiramiz. Bu munosabatlar ilgari o'rganilgan edi va umumiy xulosa ma'lum: deyarli 50% o'qituvchidan, 50% esa o'quvchiga bog'liq.

Bundan kelib chiqadiki, masalan: eng yomon pedagogik tizimning samaradorligi, aytaylik o'qituvchi, umuman hech qanday harakatlarni amalga oshirmagan holda, ammo tizim ishlasa 50% dan kam bo'lmaydi. An'anaviy pedagogik tizimning foydali harakat koeffitsenti 60% dan oshmaydi deb hisoblanadi. Bu esa maktab tarbiyalanuvchilarining faqatgina yarmidan ozgina ko'prog'i dasturni to'la o'zlashtira oladi deganini bildiradi. Yana bir muhim fikr, tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki tizimni baravariga bir necha parametrlar bo'yicha yaxshilash mumkin emas. To'g'ri yo'l yangilikni asta-sekin, uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko'rib, keyingi ishlarni o'ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarisidan ham yomon ishlaydi. Chunki bu jarayonni o'rganish, moslashish, sustkashlikni yengish kerak. Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik tizimni ichki imkoniyatlar xisobiga, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish - ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar xisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiyaning, intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblanadi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, hozirgi pedagoglar nasibasi qaytarish, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat. Yana bir bor qaytarib aytamiz, agarda maktab hali o'lmagan bo'lsa agarda u yashayotgan, rivojlanayotgan va bolalarni o'qitayotgan bo'lsa, bu faqatgina o'zining konservativ tabiati hisobigadir. Ba'zi nazariyotchilar aytadilarki, juda yaqin vaqt ichida pedagogikada innovatsiya bir ma'noni - orqaga, o'tmishga, o'ylab va oqilona tarbiyalash, ma'naviy tarbiyalovchi, yangiliklarsiz va tirishishlarsiz tinch tizimga qaytishnigina bildiradi degan fikrni aytmoqdalar. G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi informatsion texnologiyalar, vaqtni turli xil o'quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi differentsiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqdaki, bu savol aniqligicha qolmoqda: ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li "O'zaro bog'liqlikdagi innovatsiya (yangiliklar)" deb ataluvchi, intensiv va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik tizim rivojlanishi hisoblanadi. Bu pedagogikaning foydalanish imkoniyatlarini chuqur tekshirishni talab qiladi, bu esa ular turli ko'rinishdagi turli xarakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo'ladi. Agar shunday nuqtai nazar

bilan innovatsion chaqiriqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlar yo'qdek tuyuladi. Jumladan, eski muammolarni hal etish uchun yangi "retsept"lar ham yo'q.

Umuman olganda innovatsion g'oyalarga insoniyat taraqqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal qilishga ilgari qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarni kiritishga majburmiz. Pedagogika fanida berilgan g'oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va qisman innovatsion loyihalar shundaki, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning tahliliy umumiy pedagogik innovatsiyalarga kiritish imkonini berdi. Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, juftlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat va uy nazorati, o'z-o'zini baholash. O'quvchi tomonidan olingan har bir baho bilimlar uchun maxsus ochilgan ko'zguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi. Baholar yesa ijobiy shifrlangan tavsifnoma ahamiyatiga yega bo'ladi. Bunday tavsifnomani ye'lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga yega bo'ladi. Bu tavsifnomaning yeng muhim tomoni shundaki, unda o'quvchi xohlagan vaqtda har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o'zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta'kidlaydi V.F. Shatalov, awalambor, o'quvchida ijobiy ye'tiborni qo'zg'atadigan vosita, turki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi hamda o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi. V.F. Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati tizimi maktab o'quvchilarida yeksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o'qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o'qitishda ham keng tarqaldi. G.K. Selevko pedagogik texnologiyani rejalashtiriladigan natijalar bilan birga boshqariladigan tizim deb ta'riflaydi.

Xulosa. Texnologik jarayon tuzilmasini axborotlarning uch asosiy harakat yo'nalishi bilan tavsifiya etiladi. Bu tuzilmada G.K. Selevko 10 uch shahobchani belgilaydi:

1. Asosiy shahobcha — mazmunning harakati bo'lib, u axborotning manba (o'qituvchi)dan qabul qiluvchi (talaba)ga uzatish (o'quvchilar ye'tiboriga uzatish, o'quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o'quvchilar tomonidan bilimlarni idrok yetish, o'zlashtirish va mustahkamlash). Unda axborotlarni qo'shimcha boshqarish manbalari — kitoblar, texnik vositalar, kompyuterlar va o'quvchi tomonidan ularni mustaqil idrok etish (o'z-o'zini boshqarish jarayoni) muhim holat hisoblanadi.

2. Boshqarishga ta'sir o'tkazish shahobchasi. U o'z ichiga rejalashtirishni (strategik va taktik), ta'limiy axborotlarning asosiy psixologik harakati korreksiyasini qamrab oladi.

3. Jarayonlar haqidagi (qayta bog'lanish, nazorat, baholash, qo'shimcha axborotlar shahobchasi) axborotlar o'qituvchidan o'quvchiga uzatilish shahobchasi.

O'quv jarayonining samaradorligi:

- o'quv axborotlari mazmunining yeng maqbul tuzilmasi;
- boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish;

• axborotlarni o'zlashtirishda individual o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish;

• axborotlarni o'zlashtirishning samarali nazoratini tashkil etishga bog'liq. Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o'qitishni boshqarish S.N. Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

- hamkorlik pedagogikasiga bo'lgan shaxsiy yondashuv;
- o'zlashtirish (muvaffaqiyat) - o'qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;
- sinfdagi fayz: xayrixohlik, o'zaro yordam;
- xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishlash emas;

• o'quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;

• vazifaning har bir o'quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo'lib berilishi;

• asta-sekin to'liq mustaqillikka o'tish;

• bilag'on o'quvchi vositasida bilmaydigan o'quvchilarni o'qitish.

ADABIYOTLAR

1. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
2. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: 2008.
3. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
4. I.A.Kolosnikova, N.M.Ворытко i dr. Vospitatelnaya deyatelnost pedagoga. Uchebnoe posobiya. M.: Akademiya, 2006 – 333.
5. Podlasiy I.P. Pedagogika 2-ya chast – M.: VLADOS, 2003.



Abduvoxid NISHONOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin izlanuvchisi
E-mail: nishonovabduvoxid@mail.ru

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M.Raximqulova taqrizi asosida

THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMING THE SKILLS OF PROTECTION AGAINST INFORMATION THREATS IN VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS

Annotation

With the ever-increasing integration of technology into every aspect of modern life, protecting yourself from information threats has become essential. This article examines the theoretical principles of formation of skills of protection against informational threats in students of higher education institutions (HEIs). Drawing from interdisciplinary perspectives including psychology, education, and cybersecurity, it provides insight into the cognitive, behavioral, and sociocultural factors that influence the acquisition and application of these skills. By understanding these theoretical principles, educators and policymakers can develop effective interventions to increase students' resilience to information threats and promote a safer digital environment.

Key words: Information threats, cyber security education, higher education, theoretical principles, cognitive factors, behavioral factors, socio-cultural factors.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЗАЩИТЫ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ У СТУДЕНТОВ СРЕДСТВ

Аннотация

С постоянно растущей интеграцией технологий во все аспекты современной жизни защита от информационных угроз стала крайне важной. В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования навыков защиты от информационных угроз у студентов высших учебных заведений (ВУЗов). Основываясь на междисциплинарных перспективах, включая психологию, образование и кибербезопасность, он дает представление о когнитивных, поведенческих и социокультурных факторах, которые влияют на приобретение и применение этих навыков. Понимая эти теоретические принципы, преподаватели и политики могут разработать эффективные меры для повышения устойчивости учащихся к информационным угрозам и содействия созданию более безопасной цифровой среды.

Ключевые слова: информационные угрозы, образование в области кибербезопасности, высшее образование, теоретические основы, когнитивные факторы, поведенческие факторы, социокультурные факторы.

OTM TALABALARIDA AXBOROT TAXDIDLARDAN XIMOYALANISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Zamonaviy hayotning har bir jabhasiga texnologiyalarning tobora ortib borayotgan integratsiyasi bilan o'zini axborot tahdidlaridan himoya qilish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu maqola Oliy ta'lim muassasalari (OTM) talabalarida axborot tahdidlaridan himoyalani shakllantirishning nazariy tamoyillarini o'rganadi. Psixologiya, ta'lim va kiberxavfsizlikni o'z ichiga olgan fanlararo istiqbollardan kelib chiqib, u ushbu ko'nikmalarni egallash va qo'llashga ta'sir qiluvchi kognitiv, xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy omillar haqida tushuncha beradi. Ushbu nazariy tamoyillarni tushunish orqali o'qituvchilar va siyosatchilar talabalarning axborot tahdidlariga chidamliligini oshirish va xavfsizroq raqamli muhitni targ'ib qilish uchun samarali tadbirlarni ishlab chiqishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Axborot tahdidlari, kiberxavfsizlik bo'yicha ta'lim, oliy ta'lim, nazariy tamoyillar, kognitiv omillar, xulq-atvor omillari, ijtimoiy-madaniy omillar.

Kirish. Raqamli texnologiyalar jamiyatning deyarli barcha jabhalariga singib ketgan asrda o'zini axborot tahdidlaridan himoya qilish qobiliyati muhim mahoratga aylandi. Oliy ta'lim muassasalari (OTM) bilimlilar fuqarolar va mutaxassislarining keyingi avlodini tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va shu tariqa talabalarni raqamli landshaftda xavfsiz harakatlanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashda katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu muqaddima OTM talabalarida axborot tahdidlaridan himoyalani shakllantirishning nazariy tamoyillarini o'rganish uchun zamin yaratadi.

Raqamli platformalarning tarqalishi va onlayn ma'lumotlarning eksponentsial o'sishi muloqot, hamkorlik va bilimga kirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni keltirib chiqardi. Biroq, bu raqamli mo'l-ko'lchilik, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlar, ma'lumotlarning buzilishi, identifikatorni o'g'irlash va kiber-hujumlarni o'z ichiga olgan ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Talabalar raqamli mahalliy aholi sifatida ushbu raqamli inqilobdan manfaatdor va maqsadli hisoblanadi[1]. Ular ko'pincha onlayn bo'shliqlarda harakat qilishda mohir, lekin o'zlarini axborot tahdidlaridan samarali himoya qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy xabardorlik va ko'nikmalarga ega emaslar.

Kognitiv omillar:

Kognitiv omillar odamlarning axborot tahdidlarini tan olish, sharhlash va ularga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Axborotni qayta ishlash bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni tushunish talabalarning raqamli landshaftda qanday harakat qilishlari va onlayn ma'lumotlarning ishonchligini baholashlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi[2]. Bir nechta nazariy asoslar ushbu kognitiv omillarga oydinlik kiritadi va talabalarning axborot tahdidlariga kognitiv chidamliligini oshirish strategiyalari haqida ma'lumot beradi.

1. Diqqat va tanlab ta'sir qilish:

Diqqat cheklangan kognitiv manba bo'lib, odamlar chalg'itadigan narsalarni filtrlashda tegishli ma'lumotlarni tanlab olishlari kerak. Raqamli asrda talabalar turli manbalardan doimiy ma'lumot oqimi bilan bombardimon qilinadi, bu esa diqqatni samarali taqsimlashni qiyinlashtiradi. Tanlangan ta'sir qilish hodisasi shuni ko'rsatadiki, odamlar o'zlarining mavjud e'tiqodlari va afzalliklariga mos keladigan ma'lumotni izlashga moyil bo'lib, potentsial tasdiqlovchi tarafdorlik va noto'g'ri ma'lumotlarga moyillikka olib keladi[3]. O'qituvchilar o'quvchilarni ma'lumotga intilish xatti-harakatlarini tanqidiy baholashga o'rgatish, ularni turli nuqtai nazarlarni izlashga va muqobil nuqtai nazarlarni ko'rib

chiqishga undash orqali kognitiv barqarorlikni rivojlantirishi mumkin.

2. Idrok va tasdiqlash tarfakshligi:

Idrok odamlarning ma'lumotni talqin qilishini va ularning tasdiqlovchi tarfakshlikka moyilligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi - qarama-qarshi dalillarni e'tiborsiz qoldirib, oldindan mavjud e'tiqodlarni tasdiqlovchi ma'lumotni afzal ko'rish tendentsiyasi. Talabalar, ayniqsa, onlayn aks-sado kameralarida navigatsiya qilish yoki shaxsiylashtirilgan kontentga ustuvor ahamiyat beradigan ijtimoiy media platformalari bilan aloqa qilishda tasdiqlash tarfakshligiga nisbatan zaif bo'lishi mumkin. Ta'lim tadbirlari o'quvchilarga faktlarni tekshirish usullari va manba triangulyatsiyasi kabi manbalarning ishonchligini baholash uchun metakognitiv strategiyalarni o'rgatish orqali tasdiqlash tarfakshligini yumshata oladi.

3. Qaror qabul qilish va evristika:

Qaror qabul qilish jarayonlariga kognitiv evristika ta'sir qiladi - aqliy yorliqlar yoki murakkab vazifalarni soddalashtiradigan qoidalar. Evristika qaror qabul qilishni tezlashtirishi mumkin bo'lsa-da, ular axborot tahdidlari oldida tizimli xatolar va zaifliklarga olib kelishi mumkin[4]. Misol uchun, mavjudlik evristikasi o'quvchilarni shov-shuvli yoki hissiy jihatdan yuklangan ma'lumotlarning tarqalishini ortiqcha baholashga olib kelishi mumkin, langar evristik esa dastlabki taassurotlar yoki ramka effektlari asosida ularning mulohazalari bo'lishi mumkin. O'qituvchilar metakognitiv ongni rivojlantirish va o'quvchilarni qaror qabul qilish jarayonlarida evristik tarfakshliklarning ta'sirini tan olish va yumshatishga o'rgatish orqali kognitiv barqarorlikni rivojlantirishi mumkin.

4. Ikki jarayonli nazariya:

Ikki jarayon nazariyasi kognitiv ishlov berish ikki xil rejimda sodir bo'lishini ta'kidlaydi: avtomatik va intuitiv ravishda ishlaydigan 1-tizim va qasddan va analitik fikrlashni o'z ichiga olgan 2-tizim. Ushbu ikki tizim o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunish axborot tahdidlariga kognitiv barqarorlikni oshirish uchun juda muhimdir. 1-tizimni qayta ishlash tez va intuitiv mulohazalarga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, u kognitiv tarfakshlik va evristikaga ham sezgir bo'lishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash va kognitiv jarayonlari haqida fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali 2-tizimni qayta ishlashga jalb qilishlari mumkin.

Diqqat, idrok etish, qaror qabul qilish va ikkilamchi jarayon nazariyasi kabi kognitiv omillarni ko'rib chiqish orqali o'qituvchilar talabalarga raqamli landshaftda yanada samaraliroq harakat qilish va onlayn ma'lumotlarning ishonchligini tanqidiy baholash imkonini beradi[5]. Metakognitiv ongni rivojlantirish va kognitiv barqarorlikni rag'batlantirish orqali OTM talabalarini axborot tahdidlaridan himoya qilish va mas'uliyatli raqamli fuqarolar bo'lish uchun zarur bo'lgan kognitiv vositalar bilan jihozlashi mumkin.

Xulq-atvor omillari:

Xulq-atvor omillari odamlarning axborot tahdidlarini yumshatish va raqamli identifikatorlari va ma'lumotlarini himoya qilish uchun qiladigan harakatlari, amaliyotlari va odatlarini o'z ichiga oladi. Talabalarining himoya xulq-atvorini o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi xulq-atvor omillarini tushunish samarali ta'lim tadbirlarini ishlab chiqish va OTMda raqamli barqarorlik madaniyatini targ'ib qilish uchun juda muhimdir. Bir nechta nazariy modellar va asoslar ushbu xatti-harakatlar omillarini yoritib beradi va talabalar o'rtasida ijobiy kiberxavfsizlik xatti-harakatlarini rivojlantirish strategiyalarini ma'lum qiladi.

Ijtimoiy-madaniy omillar:

Ijtimoiy-madaniy omillar odamlar joylashgan kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstlarni o'z ichiga oladi va ularning axborot xavfsizligiga bo'lgan munosabati, e'tiqodlari va xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Ushbu ijtimoiy-madaniy omillarni tushunish samarali ta'lim tadbirlarini ishlab chiqish va Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) raqamli barqarorlik madaniyatini targ'ib qilish uchun juda muhimdir. Bir nechta nazariy asoslar va modellar ushbu ijtimoiy-madaniy omillarni yoritib beradi va talabalar o'rtasida kiberxavfsizlik bo'yicha ijobiy munosabat va xatti-harakatlarni rivojlantirish strategiyalarini ma'lum qiladi.

1. Ijtimoiy ta'lim nazariyasi:

Ijtimoiy ta'lim nazariyasi shaxs munosabati va xulq-atvorini shakllantirishda kuzatish asosida o'rganish, modellashtirish va mustahkamlash rolini ta'kidlaydi[6]. Kiberxavfsizlik bo'yicha ta'lim kontekstida o'quvchilarning xulq-atvoriga tengdoshlari, o'qituvchilari va namunalar xatti-harakatlari ta'sir qiladi. Ijobiy o'rnak olish, tengdoshlar uchun maslahat dasturlari va hamkorlikdagi o'quv faoliyati talabalarga kiberxavfsizlikning ijobiy xatti-harakatlarini kuzatish va taqlid qilish imkoniyatini beradi. Qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish va ijobiy ijtimoiy me'yorlarni targ'ib qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni himoya xatti-harakatlarini qabul qilishga va kerakli natijalarni mustahkamlashga undash uchun ijtimoiy ta'lim nazariyasi tamoyillaridan foydalanishlari mumkin.

2. Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi:

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi odamlarning o'ziga xoslik hissi va o'zini o'zi qadrlashini ularning ijtimoiy guruhlar va toifalarga a'zolidan kelib chiqadi, deb ta'kidlaydi. Raqamli asrda talabalarining onlayn identifikatorlari va jamoalari ularning axborot xavfsizligiga bo'lgan munosabati va xatti-harakatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarining OTM hamjamiyatining a'zosi sifatida umumiy o'ziga xosligini ta'kidlaydigan va axborot xavfsizligi uchun jamoaviy mas'uliyat hissinii rag'batlantiradigan ta'lim tadbirlari talabalarining himoya xatti-harakatlarini amalga oshirish motivatsiyasini oshirishi mumkin. Axborot va ijtimoiy hamjihatlik tuyg'usini rivojlantirish orqali OTMlar raqamli barqarorlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy o'ziga xoslik nazariyasidan foydalanishlari mumkin.

3. Ishonch va institutsional yordam:

Ishonch shaxslarning onlayn faoliyat bilan shug'ullanish va nozik ma'lumotlarni almashish istagini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Talabalarining raqamli platformalar, muassasalar va hokimiyatlarga bo'lgan ishonchi ularning axborot xavfsizligiga bo'lgan munosabatiga va himoya xatti-harakatlarini qabul qilishga tayyorligiga ta'sir qiladi. OTMlar kiberxavfsizlik siyosati va protseduralari haqida shaffof muloqotni ta'minlash, talabalarining raqamli savodxonligi va chidamliligini oshirish uchun resurslar va yordam taklif qilish hamda talabalarining shaxsiy hayoti va xavfsizligini himoya qilish majburiyatini ko'rsatish orqali ishonchni rivojlantirishi mumkin. Ishonchni shakllantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash tuyg'usini rivojlantirish orqali OTMlar talabalarga raqamli landshaftda ishonchli va mas'uliyat bilan harakat qilish imkoniyatini berishi mumkin.

4. Madaniy normalar va qadriyatlar:

Madaniy me'yorlar va qadriyatlar shaxslarning axborot xavfsizligiga bo'lgan munosabati va xatti-harakatlarini shakllantiradi, shaxsiy hayotga, ishonch va texnologiyaga nisbatan kengroq ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Madaniy farqlar o'quvchilarning axborot tahdidlari haqidagi tasavvurlariga, ularning himoya xatti-harakatlarini qabul qilishga tayyorligiga va onlayn muloqot va o'zaro munosabatlarga bo'lgan afzalliklariga ta'sir qilishi mumkin. OTMlar kiberxavfsizlik bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda madaniy xilma-xillik va sezgirlikni hisobga olishi kerak, bunda intervensiyalar turli madaniy kelib chiqishi talabalari uchun inklyuziv va tegishli bo'lishini ta'minlashi kerak. Madaniy me'yorlar va qadriyatlarini tan olish va hurmat qilish orqali OTMlar talabalarining hayotiy tajribalari va istiqbollari bilan rezonanslashadigan raqamli barqarorlik madaniyatini rivojlantirishi mumkin.

Ijtimoiy ta'lim, o'ziga xoslik, ishonch va madaniy me'yorlar kabi ijtimoiy-madaniy omillarni hal qilish orqali o'qituvchilar talabalar o'rtasida kiberxavfsizlik bo'yicha ijobiy munosabat va xulq-atvorni rag'batlantirishi va OTMda raqamli barqarorlik madaniyatini rivojlantirishi mumkin. Qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish, ishonchni rivojlantirish va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish orqali OTMlar talabalarga axborot tahdidlaridan o'zlarini himoya qilish imkoniyatini berishi va hamma uchun xavfsizroq va xavfsizroq raqamli muhitni yaratishga hissa qo'shishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, ushbu maqolada keltirilgan nazariy tamoyillar Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) talabalarida axborot tahdidlaridan himoyalash ko'nikmalarini rivojlantirishni tushunish uchun keng qamrovli asosni beradi.

Kognitiv, xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy omillar o'quvchilarning axborot xavfsizligiga munosabati, e'tiqodi va xatti-harakatlarini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydi. Ushbu omillarni har tomonlama hal qilish orqali o'qituvchilar, siyosatchilar va

manfaatdor tomonlar samarali ta'lim tadbirlarini ishlab chiqishlari va OTMLarda raqamli barqarorlik madaniyatini rivojlantirishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
2. Fishbein, M., & Ajzen, I. (1975). *Belief, Attitude, Intention, and Behavior: An Introduction to Theory and Research*. Reading, MA: Addison-Wesley.
3. Health Belief Model. (n.d.). Retrieved from <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK221538/>
4. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. New York, NY: Farrar, Straus and Giroux.
5. Social Identity Theory. (n.d.). Retrieved from <https://www.simplypsychology.org/social-identity-theory.html>
6. Theory of Planned Behavior. (n.d.). Retrieved from <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK513247/>



Shirinbek NURBOEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: shirinbek@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dotsent M.Kuychiyeva taqrizi asosida

THE PRINCIPLE OF SYSTEMATICITY IN STUDYING FOLK EPISTLES

Annotation

The article describes the principle of systematicity in the study of folk epics such as "Ravshankhan" in the 7th grade and "Kuntug'mish" in the 8th grade. In addition, the content of the questions and assignments in the textbook is analyzed, in this regard, the students' mastery of the subject and the relevant knowledge, skills and comments that will help in the formation of skills are given.

Key words: Epic, complex, criterion, artistic image, pedagogical principle, didactic principle, folklore studies, epic school.

ПРИНЦИП СИСТЕМАТИЧНОСТИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НАРОДНЫХ ПОСЛАНИЙ

Аннотация

В статье освещен принцип системности при изучении таких народных эпосов, как «Равшанхан» - в 7 классе, и «Кунтугмиш» - в 8 классе. Кроме того, анализируется содержание вопросов и заданий в учебнике. Предоставляются комментарии, которые помогут студентам освоить предмет и развить соответствующие знания, умение, и навыки.

Ключевые слова: Эпос, комплекс, критерий, художественный образ, педагогический принцип, дидактический принцип, фольклористика, эпическая школа.

XALQ DOSTONLARINI O'RGANISHDA TIZIMLILIK TAMOYILI

Аннотация

Maqolada 7-sinfda "Ravshankhan" va 8-sinfda "Kuntug'mish" kabi xalq dostonlarini o'rganishdagi tizimlilikni tamoyili yoritilgan. Shuningdek, darslik-majmuadagi savol-topshiriqlarning mazmun-mohiyati tahlil etilgan, bu borada o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirib olishlari va tegishli bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishiga amaliy yordam qiladigan mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Doston, majmua, mezon, badiiy obraz, pedagogik tamoyil, didaktik tamoyil, folklorshunoslik, dostonchilik maktabi.

Umumta'lim maktablarining adabiy ta'limda tizimlilik tamoyili xalq dostonlarini bosqichma-bosqich (sinflar kesimida) izchil o'rganishga, o'quvchilarning bilim olish va mantiqiy fikrlash faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi, o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Har bir sinfning darslik – majmuasida avvalo, o'rganilayotgan dostonlardan muayyan parchalar hamda mazkur dostonlarning ilmiy-nazariy tahlili berilgan, so'ngra tegishli savol-topshiriqlar bilan ta'minlangan.

Xalq dostonlarini o'rganishga bag'ishlangan savol-topshiriqlar mazmun-mohiyatiga ko'ra asar matni ustida mustaqil ishlash orqali javob berishni talab qiladi. Adabiy ta'limning bosh mezonlaridan biri – asar (doston) mohiyatini o'zlashtirish, buning uchun har bir o'qituvchidan eng avvalo, darslikda berilgan va mustaqil o'qishga tavsiya etilgan matn bilan ishlashni talab qiladi. Darsliklarda berilgan savol-topshiriqlarning aynan shu nuqtai-nazardan tuzilganligi maqsadga muvofiq, lekin asosiy gap shundaki, ularning oson yoki qiyinligi, oz va ko'pligi, eng muhimi, mazmun-mohiyati sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga mos kelishi yoki kelmasligi alohida ahamiyatga ega. Bu borada bizning ayrim mulohazalarimiz tadqiqot ishini olib borishda, ularning tajriba-sinovlarini yakunlashda ayon bo'ldi. Ulardan ayrimlarini berishni lozim topdik.

7-sinfning adabiyot-majmua darsligida[1] Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan "Ravshan" dostonidan parcha matni (132-160-betlar) yuzasidan 28ta, u haqidagi adabiy – nazariy tushunchalar bo'yicha ikkita savol-topshiriq berilgan. O'quv dasturida 19-21 mavzu asosida mazkur dostonni va "Badiiy obraz va mubolag'ali tasvir" mavzusini ham birgalikda o'rganishga boryo'g'i uch soat ajratilgan, xolos. Bizning nazarimizda, berilgan mazkur uch soat davomida va jami 30 ta savol-topshiriqlarga tegishli javoblar tayyorlash va ularni o'zlashtirib olish, izohlab berish uchun nafaqat 7-sinf o'quvchisi, balki pedagogika oliy ta'lim muassalarining filologiya fakulteti talabasidan ham bir necha soat vaqt talab etadi. Shunday ekan, maktab o'quvchisi qanday qilib darslikda berilgan o'quv topshiriqlarni 3 soat davomida bajara oladi? yoki ularni talab darajasida o'zlashtiradi, degan haqli savolning tug'ilishi tabiiy. Bu yerda gap birinchidan, savol-topshiriqlarning ko'p miqdordaligi bo'lsa ikkinchidan,

ularning sodda va murakkab darajasida ekanligida borayapdi. Agarda ularning mazmun-mohiyatiga e'tibor qilinsa, ayrim savol-topshiriqlar mantiqan qiyin va murakkab holda tuzilganligi ayon bo'ladi, bularga tegishli javoblar tayyorlash uchun maktab o'quvchisi biroq bo'lsa-da qiynalishadi va uni muvaffaqiyatli bajarish uchun anchayin ko'p vaqt talab etadi. Xususan, 22-savol: Hasankhonning jangga kirish oldidagi holatidan mubolag'ali tasvirini toping va mubolag'aning shu o'rindagi badiiy vazifasini tushuntiring. U Hasankhonning ayni paytdagi ruhiy holatiga qanchalik mos kelishini izohlang? va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Darslik-majmuada berilgan savol-topshiriqlarning hammasini to'liq va muvaffaqiyatli bajarilishi o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirib olishlari va tegishli bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishiga olib keladi. Lekin bu yerda adabiyot fani o'qituvchisining o'rni alohida: eng avvalo, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat egasi bo'lishni va fan asoslarini puxta o'zlashtirib olganlikni ham talab etadi. Agarda buning aksi bo'lsa, shogirdlarining mavzuga qo'yilgan vazifalarini to'liq bajara olmasligiga va ularning o'zlashtirish natijasi past darajada bo'lishiga asosiy sababchi bo'ladi.

Ikkinchidan esa darslik majmuida berilgan savol-topshiriqlarni oz ko'pligi yoki mazmun-mundarajasigagina emas, balki ularda 7-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ruhiy holatlari ham inobatga olinishi shartki, bunday pedagogik-didaktik tamoyillarga amal qilmaslik berilgan adabiy materiallarni o'zlashtirmaslikka olib keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim o'rinlarda bu pedagogik mezonga unchalik yaqinlashmagan. Masalan, darslik-majmuadagi birinchi savol mazmuniga e'tibor qilaylik. Unda "Ravshankhonning Gulnorga munosabatini haqiqiy sevgi deyish mumkinmi?" Matnga tayanib fikr bildiring", deyiladi.

Nazarimizda "haqiqiy sevgi"dek muqaddas va nozik tuyg'uni qalbdan his qilish, uning sir asrorlaridan hali bexabar bo'lgan, endigina balog'at yoshiga borayotgan 7-sinf o'quvchisi bunday tarzda savol-topshiriqqa javob berishga ruhan va jismonan tayyor emas. Qolaversa, "Matnga tayanib fikr bildiring" kabi topshiriqlarning berilishi matndagi mantiqiy izchillikni

mutlaqo ochib bera olmaydi. Buning sababi shuki, 7-sinf o'quvchisidan fikr bildirish so'ralyapti. Vaholanki, o'quvchi fikr bildirish uchun faqatgina berilgan matnning o'zigagina emas, balki uning tagzaminidagi ma'no yuzasidan ham mustaqil mulohazaga ega bo'lishi kerak. Buning uchun eng avvalo, o'quvchining yosh xususiyati, mos va ijtimoiy-ma'naviy dunyoqarashi yuksak darajada bo'lmog'i darkor. Aytilgan mulohazalardan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlamochimizki, umumta'lim maktablarining adabiyot fani bo'yicha yaratilgan darlik va darslik majmualarida 7-sinf o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar, tushunchalar yuzasidan tuziladigan savol-topshiriqlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari muayyan mezon sifatida hisobga olinishi, adabiy ta'limdagi ilmiylik, mantiqiy izchillik, tizimlilik kabi ta'limiy-didaktik tamoyillarga alohida e'tibor va qat'iy rioya etilishi ta'qozo qilinadi.

8-sinf "Adabiyot"[2] darsligiga murojaat qilsak, unda Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan "Kuntug'mush" dostonidan parcha – matn (13-40-betlar), "Xalq og'zaki ijodi" ruknida "Kuntug'mush dostoni haqida" va "Nazariy ma'lumot" ruknida "Ishqiy-qahramonlik dostonlari" kabi maqolalar berilgan. Ko'ramizki, mazkur darslikda dostonidan muayyan parcha – matn va ularning tahlili bilan birga folklorshunoslikka oid nazariy ma'lumotlarning berilishi, eng avvalo, ilmiy-nazariy, umumdidaktika asosida metodik jihatdan muayyan tizimlilik va izchillilik tamoyillariga amal qilinganligini ko'rsatadi.

Mazkur darslikdagi "Kuntug'mish" dostoni hamda ishqi-yahramonlik dostonlar haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirib olishi, qolaversa, berilgan parcha-matndagi epik tavsilotlarni o'quvchilarning bilib olishlari uchun 22 ta savol-topshiriqlar tavsifiya etilgan. Ularning hammasida asosiy e'tibor o'quvchilarga doston haqidagi ma'lumotlarni yana chuqurroq tushuntirishga qaratilganki, bular ularning bilim darajasini yanada boyitadi va rivojlantiradi. Berilgan savol-topshiriqlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratilsa, ularning naqadar keng qamrovga ega ekanligini tasdiqlaydi.

1. Xalq dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, dostonchilik maktablari va ijrochilariga daxldor savol-topshiriqlar. Masalan, "Xalq dostonlari haqida nimalarni bilasiz?"; "Dostonchilik maktabini yaratgan qaysi mashhur baxshilarni bilasiz?"; "Dostonchilik maktablari qachon paydo bo'lgan va qaysi asr uning juda rivojlangan davri bo'lgan?"; "Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirish, baxshilar ijodini qo'llab quvvatlash uchun nima ishlar qilinyapti?"; "Ishqiy-qahramonlik dostonlar deganda qanday asarlarni tushunasiz?"; "Ishqiy-sarguzasht va ishqi-yahramonlik dostonlarining farqi nimada ekanligini tushuntiring?"; "O'zbek dostonlarining yakunlovchi qismiga xos xususiyat nima?" va hokozolar shular jumlasiga kiradi. Bunday savol-topshiriqlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra, xalq og'zaki ijodiga oid tegishli ma'lumotlarni bilib olishga, ayni paytda, xalq baxshilari va baxshichilik san'ati bo'yicha O'zbekiston Prezidentining tegishli farmonlari, Vazirlar Mahkamasining shu yo'nalishga oid qarorlari bilan habardor bo'lishiga, qolaversa, baxshichilik san'ati maktablarining ma'naviyatimiz tarixida, hozirgi davr ta'lim tizimida qaydarajada muhim o'rin tutganligini bilib olishlariga amaliy yordam beradi.

2. Ona tili fanidan olingan bilimlarni mustahkamlashga va doston matni asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan savol-topshiriqlar. Masalan, "Shirxo'ra" so'zi qanday ma'noni anglatadi? Izohlang"; "Kuntug'mish o'g'illari ismlarining ma'nosi: Gurkiboy va Mohiboy so'zlari nimani anglatadi? Sababini tushuntirib bering"; "Adabiyot daftariga shevaga oid so'zlarni yozib oling va ularni adabiy tildagi shakllari bilan taqqoslang"; "Doston matnidagi hikmatli so'zlar, maqollar darajasidagi yoki ularga yaqin iboralarni toping. Ularning ma'nosini tushuntirishga harakat qiling"; "Kuntug'mish asarda yana qaysi nom bilan eslanadi? va hokozolar shular jumlasidandir. Bunday savol-topshiriqlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra tilimizning lug'at boyligini sheva va adabiy til munosabatlarini, atamalarga oid ma'lumotlarni mukammal o'zlashtirib olishni, dostondagi epik qahramonlarning nomlariga muayyan munosabat bildirib mustaqil fikrlashni taqozo etadi.

3. Dostondagi epik qahramonlarning nasl-nasabi, hayoti va faoliyati, muayyan hatti-harakatlari va fazilatlariga daxldor savol-topshiriqlar. Masalan, "Xolbeka kimning farzandi? Uning kamolga yetguncha bo'lgan hayotini gapirib bering?"; "Kuntug'mish o'n to'rt yoshgacha nimalar bilan shug'ullandi, o'n to'rt yoshdan so'ng qaysi amallarni egalladi?"; "Kuntug'mish va Xolbeka g'ayritabiiy sharoitda (tushda) tanishdilar. Shunga o'xshash holatlarni (tush, ko'zgu, uzuk orqali tanishish) yana qaysi dostonlarda uchratgansiz?"; "Zangar shahri podshohi Xolbekaga oshiq bo'lib, o'z niyatiga yetishish uchun qanday choralar ko'rdi?"; "Qosim Kuntug'mishni saqlab qolish uchun qanday chora ko'rdi?"; "Azbarxo'ja Kuntug'mishni halok qilish uchun qanday hiyla ishlatdi?"; "Dostondagi qahramonlarning qaysi sifatlaridan ibrat olish mumkin deb o'ylaysiz?" va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bu tipdagi savol-topshiriqlarda epik qahramonlarning nasl-nasabi, hatti-harakatidagi ijobiy va salbiy jihatlarga ko'proq e'tibor berilishi adabiy ta'limdagi umumdidaktik talablardan tashqari, yana ma'naviy kamoloti bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadini ham nazarda tutganligini ko'rsatadi. Bularning hammasi dostondagi epik qahramonlar характери, hatti-harakatini tahlil qilishga, ularning syujet tavsilotlaridagi o'rni va rolini aniqlashga muhimi, o'zaro munosabatlarni dalillash uchun tegishli xulosalar chiqarishga undaydi.

Tadqiqotda qo'yilgan muammo yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari savol-topshiriqlarning xaddan tashqari maydalashirilib yuborilishi dostonlarni o'rganishga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlarning biroz zerikarli bo'lishiga va eng muhimi, o'quvchilar faolligining nisbatan sustligiga olib kelishini ko'rsatadi. Ayni pedagogik muammo (hol) o'quvchilarni qo'yilgan asosiy masaladan chalg'itishga olib kelishi mumkin. Nazarimizda, dostonlarni o'rganish bo'yicha tuzilgan savol-topshiriqlarning maydalashirilib o'quv dasturida belgilangan dostonlarni o'rganishga ajratilgan vaqt miqdori, ya'ni o'quv soati yanada oshirilganida ham uni to'la-to'kis bajarish imkoniyotini yo'qqa chiqaradi. Qolaversa, savol-topshiriqlarning o'zaro bir-biriga bog'langanligi sababli ularni o'quvchilarga tanlab tavsiya qilishning ham iloji bo'lmaydi. Bunday hollarda adabiyot o'qituvchisi o'zi dars o'tayotgan sinfini yangi pedagogik texnologiyalar asosida kichik guruhlarga ajratib savol-topshiriqlarni taqsimlashi mumkin va ularni o'zi umumlashtirgani ma'qul.

Savol-topshiriqlarning ko'p miqdordaligi muayyan dostonga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotidan unga ajratilgan vaqt miqdorida qo'yilgan maqsadga ko'ra unumli va samarali foydalanishga imkon bermaydi. Bu esa o'quv mashg'uloti rejasida ko'rsatilgan ayrim muhim masalalar o'z yechimini topmasligiga sabab bo'ladi. Shuningdek, savol-topshiriqlarning an'anaviy so'rovnomalar shaklida "ha" yoki "yo'q", "yaxshi" yoki "yomon" tarzida javob berishiga mo'ljallab tuzulishi ham ilmiy-metodik jihatdan o'zini mutlaqo oqlamaydi. Masalan, 7-sinfdagi Ravshan dostoni yuzasidan tuzilgan 17-savol "Kallarning hunarlariga e'tibor bering. Ular xalqimizning timsoli bo'la oladimi?"; 21-savol: "Dostonda jang manzarasi qanday tasvirlangan?" kabi va shunga o'xshash savol-topshiriqlar bor-yo'g'i oddiy dialog nutqqa hosligi bilan xarakterlanadiki, bularning hammasi doston matni bilan xabarsiz har bir o'quvchini sustkashlik bilan javob berishga olib kelishi tayin. Oxir-oqibatda talab darajasida belgilangan bilimlarni o'quvchi o'z vaqtida o'zlashtira olmaydi.

Yana bir oxirgi mulohaza: umumta'lim darsliklarida berilgan ayrim savol-topshiriqlar mazmun-mohiyati jihatidan bir-birini takrorlagan, ayrim hollarda bir-biriga yaqin bo'lib qolgan. Buni "Doston haqidagi maqolalar ruknida kuzatamiz. "Doston va uning turlari" bilan bog'liq nazariy ma'lumotlar ham darsliklarda u yoki bu tarzda takrorlangan. Bizning nazarimizda, bunday taklif va mulohazalar darslikning mualliflari tomonidan qayta nashrlarida tuzatiladi va to'ldiriladi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning xalq dostonlarini o'rganishda ilmiylik, fanlararo bog'liqlik, tizimlilik va boshqa ta'limiy-didaktik tamoyillarning o'rni beqiyos.

1. Yo'ldoshev Q. va b. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktabjarining 7-sinfi uchun darslik majmua. T.-2017. – B.132-160.
2. Olim S. va b. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktabjarining 8-sinfi uchun darslik majmua. T.-2019. – B.13-40.



Kamola ODILJONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi
Email: kamolaodiljonova5@gmail.com

Andijon davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, PhD Sh.A.Xaliqova taqrizi asosida

INNOVATIVE WAYS OF USING LEXICAL COMPETENCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

In world pedagogy, the creation of modern pedagogical technologies for the formation, development and improvement of students' linguistic competences at language levels and their introduction into the educational system have become the main priority of language education. In this article, an innovative and integrated approach to the formation of lexical competence, their results and results, and a general analysis of theoretically based approaches are described.

Key words: integration, pedagogy, competence, language levels, technology, theory, methodology, innovation.

ИННОВАЦИОННЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В мировой педагогике создание современных педагогических технологий формирования, развития и совершенствования языковых компетенций учащихся на языковых уровнях и внедрение их в образовательную систему стали основным приоритетом языкового образования. В данной статье описаны инновационный и комплексный подход к формированию лексической компетенции, их результаты и результаты, а также общий анализ теоретически обоснованных подходов.

Ключевые слова: интеграция, педагогика, компетентность, языковые уровни, технология, теория, методология, инновации.

TA'LIM JARAYONIDA LEKSIK KOMPETENSIYALARDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION YO'LLARI

Annotatsiya

Jahon pedagogikasida o'quvchilarda til sathlariga doir lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish hamda ta'lim tizimiga joriy etish til ta'limining bosh ustuvor vazifasiga aylandi. Ushbu maqolada leksik kompetentlikni shakllantirishga innovatsion va integratsion yondashuv, ularning natijalari va samari, nazariy asoslangan yondashuvlarining umumiy tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: integratsiya, pedagogika, kompetensiya, til sathlari, texnologiya, nazariya, metodika, innovatsiya.

Kirish. Ta'lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo'llay olishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshiradi. Ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, ro'yobga chiqarish, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini shakllantirish va kafolatlangan yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydi, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. Bundan ko'rinadiki, yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan avlodni voyaga yetkazish, ularning ilmiy dunyoqarashini bugungi kun talablari asosida shakllantirish ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardanidir.

Keng ma'noda "innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo'li bilan ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogik tizimga uning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Ushbu tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va natijadorlikka erishishga oid fikr, g'oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin.

Innovatsion ta'lim shundayki, u o'zini rivojlantirish istagiga ega barcha ishtirokchilarning to'laonli rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, boshqacha aytganda, innovatsion ta'lim rivojlanuvchi va rivojlantiruvchi ta'limdir. O'quvchilarda o'qish istagini shakllantirish va buni malakaga aylantirish – barcha innovatsion ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday ta'lim jarayoni o'quvchining o'quv-bilish faoliyatida faol ishtirokini va uning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tili metodikasida leksikologiyani o'qitishga mavjud adabiyotlarda alohida e'tibor berilgan o'rinlar ko'p uchraydi. Masalan, A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonovalarning "Onatili o'qitish metodikasi" nomli darsliklarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tilini o'qitish sohasida yuz bergan yangiliklar va o'zgarishlar hisobga olingan holda bu fanni o'qitishning metodik jihatlari bayon qilingan. Shu bilan birga, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari, maktabda leksikologiyani o'qitishning ahamiyati va vazifalari haqida ma'lumot berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bosh muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Bunda o'qituvchi darsga mos pedagogik texnologiyani to'g'ri tanlay olishi, qo'llashi juda muhimdir [1]. Shularni inobatga olgan holda o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirishning algoritmik xaritasini ishlab chiqdik:

1-bosqich. Reproduktiv ishlarni bajarish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Sinfda o'quv jarayonini tashkil etish hamda mustaqil ishlarni o'qituvchi rahbarligida bajarish.

2-bosqich. Produktiv ijodiy harakat ko'nikmalarini rivojlantirish va avval bajarilgan harakatlarini mustaqil bajarish.

3-bosqich. Qisman - izlanuvchilik faoliyati jarayonlarini tashkil etish va avval o'zlashtirgan materialni ikkilamchi holatga ko'chirish.

4-bosqich. Ijodiylik. Yangi bilimlarni egallash va mustaqil o'rganish. Mashg'ulotda o'quvchilarning yangi g'oyalari va xulosalarga ega bo'ladi [2].

Yuqoridagi barcha bosqichlarning tartiblangan ketma-ketligi yaxlit innovatsion siklni tashkil etadi.

Ta'lim metodlarini tanlashning mezoni-dars jarayonida o'quvchilarning sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko'p bo'lmasa, u holda faol o'qitish metodlaridan foydalanib, o'qitishni

judal sur'atlarda olib borish mumkin bo'ladi. Agarda ko'p bo'lsa, ularning har biriga e'tibor berish uchun vaqt yetishmasligi natijasida tahsil oluvchilarni boshqarish murakkablashadi, bunda esa ta'limning interfaol metodlaridan guruhlarga olib borish lozim bo'ladi. Buyuk mutafakkir Al Farobiy o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularning bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishonirish kerak ekanligini uqtiradi. Ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida innovatsiyalashtirish pedagogik jarayonda pedagog va o'quvchi o'rtasida yuzaga keluvchi muloqot jarayonining samarali bo'lishi, mazkur jarayonning innovatsion mazmun-mohiyat kasb etilishidir. Dars jarayoniga yangiliklarni kiritish innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi. Innovatsion jarayon quyidagi uchta asosiy bosqichlarning rivojlanishi sifatida qarab chiqiladi:

- fikrlarning shakllantirilishi;
- o'quvchilar tomonidan gipotezalar ishlab chiqish;
- amaliy tarzda g'oyalarning ishlab chiqilishi va yangilikning amaliyotda qo'llanilishi.

O'qituvchi ta'lim tizimi bo'yicha yangilik va g'oyalarni amaliyotga tatbiq etib borishi fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning rivojlanishida quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatiladi:

- o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- ma'lumotlarni yig'ish va holatni tahlil qilish;
- mavjud yangilikni tanlash yoki mustaqil tarzda yangilikni ishlab chiqish;
- joriy etish (o'zlashtirish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- joriy etish, shu jumladan yangilikni tajriba sifatida ishlatish;
- yangilikni o'zlashtirib olish yoki uzoq muddat davomida qo'llash natijasida uni kundalik amaliyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Tahlil va natijalar. Darsda o'quvchilarning hamkorligi ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. "...til faqat kishilar o'rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarning o'zini qurshab turgan olamni bilish, qo'lga kiritgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir. Agar so'zlovchi lisoniy strukturalarni o'zlashtirsa-yu, ammo ulardan qanday va qaysi o'rinlarda foydalanishni bilmasa, lisoniy qobiliyatga to'liq egalik haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda lisoniy qobiliyati kuchli shaxsni tarbiyalamoq uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarning asosiy e'tiborini tilning sof ichki tuzilishini bilishdan tashqari ularning har biridan qaysi vaziyatlarda qanday foydalanishni bilishiga ham qaratishi lozim bo'ladi"[3].

Ta'limda fanlararo bog'lanishdan ko'p foydalaniladi. Bu esa, o'z navbatida, fanlar o'rtasida tarkibiy bog'lanishni mustahkamlash, ularni umumlashtirish, o'quvchilarning mavzu bo'yicha yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida o'qituvchilar fanlararo aloqadorlikka yetarlicha darajada e'tibor qaratishmaydi. Natijada o'tkaziladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar davomida ta'lim samaradorligi ta'minlanmaydi.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyotlarda "fanlararo aloqalar" ning 30 dan ortiq ta'riflari mavjud, ularni pedagogik baholash borasida ham turlicha yondashuvlar va har xil tasniflar mavjud. Fanlararo aloqadorlik o'qitish jarayoniga nisbatan o'qitishning ilmiyligi va qulayligini oshirishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga, ularning bilimlari sifatini yaxshilashga imkon beruvchi va o'quvchilarning ilmiy qarashlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Fanlararo integratsiya bir necha fanda bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalarning kelib chiqish ildizlarini ochishda bu fanlarning o'zaro munosabatini, bir-biriga ta'sirini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Adabiyot darslarida asar matni ustida ishlash mobaynida adabiy asar qahramoni shaxsi va hayoti tahlili asnosida o'quvchining o'zi ham hayotga kirib boradi, o'zgaralarni tushunishni o'rganadi. O'zgaralarni o'rganish orqali o'zi ham shaxs sifatida shakllana boradi. O'rta maktabda adabiyot 5-sinfdan alohida fan sifatida o'rganila boshlaydi. Xuddi shu vaqtda

bolaning har narsaga qiziqadigan, har narsaning mohiyatini bilishga bo'lgan intilishi so'nmagan davrda mavjud imkoniyatlardan foydalanib, unda ijobiy fazilatlarini shakllantirishga, uni mustaqil fikr sohibi etib tarbiyalashga erishish lozim. Insonni shunday rutbaga ko'taradigan, uni inson sifatida baland bo'lishga rag'batlantiradigan asosiy vositalardan biri – adabiyotdir.

Ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq yoki aksincha. Aslida, ona tili adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi[4].

Tildan, undagi imkoniyatlardan foydalanishning ma'lum me'yorlari, mezonlari, ilmiy jihatdan belgilangan qoidalari mavjud. Mana shu hodisalar tildan foydalanishning to'g'ri, maqbul imkoniyatlari doirasini belgilaydi, uni ma'lum tartibga solib turadi. Bu esa o'z navbatida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi, o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga asosiy e'tiborni ta'limga qaratishga va interfaol usullarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarini kiritish hamda ulardan mohirona foydalanishga undaydi.

Metodist olim T. Ziyodova fikricha: "O'quvchilarning matn ustida ishlash faoliyatini tashkil qilishda o'qituvchi faqat darslik bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio-videoavhalardan ham unumli foydalanishi, mazkur mashg'ulotning mahsuldorligini, o'quvchilar uchun qiziqarli va zavqli kechishini ta'minlaydi"[5].

Tilshunoslikning biror fan bilan integratsiyalashishi deganda, tilning o'sha fan ayrim mavzu yoki mavzular majmuasi bilan uyg'unlashib, birlashib, bir butun yaxlit tushunchani, nazariyani tashkil qilishi idrok qilinadi. Bir fan olib tashlansa, o'sha mavzular bayoni kemtiklik, kamchilik, tugallanmaganlik, yaxlit bir butunlikka yetmay qolgandek bo'ladi. Ta'lim tizimida integratsiyaning dolzarbligi ijtimoiy, tabiiy, texnik bilimlarning birlashishi yaqqol ifodalangan fanning zamonaviy rivojlanish darajasi bilan izohlanadi. Bir necha fanni o'zaro bog'liqlikda o'quv jarayoniga tatbiq etish o'quvchi-talabaning fanga qiziqishini oshiradi, ijod qilishga o'rgatadi, izlanishga yo'naltiradi, tasavvurni kengaytiradi. Individual fikrlash orqali erkin mushohada yuritsa, jamoa bo'lib ishlash jarayonida o'zligini anglashga, o'zgaralarni hurmat qilishga o'rganadi. Shunday ekan, integratsiyali darslarni ta'lim tizimining har bir bo'g'inida amalda qo'llash o'quv mashg'ulotlarining yanada qiziqarliroq va davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tashkillashtirish masalalarida katta yordam beradi. Mana shu kabi masalalarni yechishda dars jarayonida integratsiyali darslarni tashkillashtirish samarali natija beradi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim usuli, asosan, kognitiv-pragmatikdir. Bunda dars mashg'ulotlarida faol ishlovchi o'quvchining o'zidir. Har bir dars taxminan to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Takrorlash.
2. Berilgan materiallarning o'quvchilar tomonidan tahlili.
3. Berilgan materiallarni o'qituvchi yordamida umumlashtirish va hukm chiqarish.
4. Hosil qilingan umumiylikni amalda qo'llash va sinash, o'quv masalalarini bajarish.

O'quvchilarning matn yaratish va matn ustida ishlashlari mashg'ulotning ikkinchi, to'rtinchi bosqichlarida va sinfdan tashqari beriladigan topshiriqlarda markaziy o'rinni egallaydi. Matnlar xilma-xildir. Ularning aniq tur va ko'rinishi qisman darslikda berilsa, asosan, o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Dastur o'qituvchiga darslikdagi barcha matnlarni o'z didi, talabi, sharoitga qulayligi bilan bemalol almashtirish, o'qitish jarayonini tom ma'nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida qurishga to'liq imkoniyat beradi. Matn ustida ishlash topshiriqlari va mashqlariga bu dastur va darsliklarda ko'p e'tibor qaratilgan.

O'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini aniqlashda testlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. "Test" atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J. Kettel tomonidan 1890 yilda kiritilgan. "Test" atamasi tekshirish, nazorat, sinov ma'nolarini bildiradi. Pedagogikada

“test” atamasi o'ziga xos shaklga va mazmunga, turli qiyinlik darajasiga ega bo'lgan, o'quvchilar o'zlashtirishi darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat.

Test topshiriqlari – ta'lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalaridan hisoblanadi. Test

sinovlari yordamida barcha o'quvchilarning bilimini bir vaqtda tekshirish, ularni mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishga, mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatish, intizomini mustahkamlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Tajiyev M va b. Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayoniga tatbig'i. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 118 b.
2. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va b. Ona tili o'qitish metodiksi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 174.
3. Sobirov A. Uzluksiz ta'limda til kompetensiyasi //Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2016. – B. 87.
4. Turdiyev N., Asadov Yu., Akbarova S. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Niso Poligraf, 2007. – B. 4.
5. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan. 2008. –B. 35.



Zulfiya ORTIQOVA,

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: ortiqovazulfiya@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF NATIONAL VALUES IN PRIMARY CLASS SUBJECTS OF EDUCATION

Annotation

This article talks about understanding our national values, their essence, preserving them, and protecting the ancient abilities of the people from being lost by forming national abilities in students. is stated.

Key words: Universal, national education, tolerance, national values, manners.

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРЕДМЕТАХ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье говорится о понимании наших национальных ценностей, их сущности, их сохранении, защите древних способностей народа от утраты путем формирования национальных способностей у студентов.

Ключевые слова: Всеобщность, национальное образование, толерантность, национальные ценности, нравы.

BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA FANLARIDA BERILGAN MAVZULARDA MILLIY QADRYATLARNING AHAMIYATI

Аннотatsiya

Ushbu maqolada milliy qadriyatlarimiz, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, ularni asrab-avaylash o'quvchilarda milliy qadriyatlarini shakllantirish orqali xalqning azaliy qadriyatlarini yo'qolib ketishdan saqlash haqida so'z boradi. Tarbiya fanlarida berilgan mavzularda milliy qadriyatlarining ahamiyati to'g'risida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Ummuminsoniy, milliy tarbiya, bag'rikenglik, milliy qadriyatlar, odob.

Kirish. O'quvchilarning ummuminsoniy va Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, ularni tobora boyitish juda muhimdir. O'quvchilarga eng avvalo o'z xalqining milliy madaniy merosiga, tiliga, an'ana va urf odatlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish lozim.

Boshlang'ich sinif tarbiya fanlarida berilgan mavzularda milliy qadriyatlarining ahamiyatini sinflar va mavzular ko'lamida ko'rib chiqadigan bo'lsak, 1-sinf tarbiya

Fani darsligida milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lgan salomlashish odobi haqida so'z boradi. Bunda bolalar ertalab yuz-qo'llarini yuvib bo'lgach, ota-onalariga va o'zidan kattalarga salom beradilar.

Xonaga kirgan odam xonadagilarga salom beradi.

Yurib ketayotgan odam o'tirgan odamga salom beradi.

Odoblari bola doim tabassum bilan: "Assalomu alaykum" – deb salom beradi.

Shu tartibda biz farzandlarimizga uydalgidan salomlashish odobini o'rgatishimiz maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchining shakllanishi, rivojlanishi uchbun muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolaga berilgan bilim va ko'nikmalarni tizimli ravishda olib borish bevosita yangi talablar asosida yaratilayotgan darsliklarga ham borib taqaladi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarning darsliklarida berilgan mavzular o'quvchilarda milliy tarbiyaning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning milliy tarbiyasida uning muomala odobi, tarbiya qoidalariga rioya qilishi hamda boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Maktabda milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida boshlang'ich o'quvchilarning axloqiy sifatleri tarkib topadi va ilk axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Jumladan, odamiylik, jonkuyarlik, mehribonlik, g'oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, andishalilik, yaxshi, mehr-oqibatlilik, muomala. Shu sifatleri boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda turli xil usul va vositalarni ishlab chiqib, ta'lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, unga mos ishlanmalar yaratish, milliy tarbiyalashda bolalarning yoshini hisobga olgan holda didaktik materiallar tanlash, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos holda pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish usullarini tanlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, milliy urf-odat va an'alarimiz, boy ma'naviy merosimizga yo'g'rilgan o'zbekona milliy tarbiyamizni kelajak avlod ongiga singdirib borish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shu narsa ahamiyatliki, milliy tarbiya xususiyati tarbiyada rag'batlantirishning ustuvor bo'lishini taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalash metodikasida uch masala -tushuntirish, rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. Bularga amal qilmasdan kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi.

Jumladan boshlang'ich sinf darsliklaridan "Tarbiya" fanida berilgan mavzularda milliy qadriyatlarimizning, milliy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati yuqori.


Milliy qadriyatimizdan biri bu bag'rikenglik hislatidir. Milliy bag'rikenglik -turli milatga mansub kishilarning birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urfodati va an'alarini, milliy madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadriyatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli milat manfaatlarini uygun ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi. Bag'rikenglik shaxsda diniy, milliy va umuminsoniy g'oyalarni shakllantirishga asoslanadi. Bag'rikenglikning diniy mazmuni bir jamiyatda turli dinlarga e'tiqod qilish bilan belgilanadi. Bag'rikenglikning milliy mazmuni bir jamiyatda turli xalqlar va elatlarining birga yashashi bilan izohlanadi. Bag'rikenglikning umuminsoniy mazmuni dunyodagi barcha xalqlarning o'zaro do'stligi va hamkorlikda yashashidan iborat. Bu g'oyalar boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirilsa, kelgusida uni o'z jamiyati va insoniyat hayoti uchun mas'uliyat sezadigan shaxslar sifatida shakllanadi. Shu qadriyatimizni 1-sinf Tarbiya darsligida o'rin olgan mavzuda qanday yoritilganini ko'rib chiqaylik. 1-sinf tarbiya darsligida -bo'lim30-31 darslar "Bag'rikeng yurtim" deb nomlanadi. Bu mavzuda bizning ona yutimiz O'zbekistonning bag'rikengligi unda turf axil millat va elat vakillarining istiqomat qilishida ekanligi bayon qilingan.



Bu mavzu orqali o'quvchilarda bag'rikenglik haqida tushuncha hosil bo'ladi. Bizning yurtimiz shunday bag'rikeng bir yurt ekanligidan esa faxrlanadi.

Mavzu davomida o'quvchilarga qiziqarli topshiriqlar ham berilgan. O'quvchilarni zukkolikka hamda fikrlashi, dunyoqarashini o'stirishga yordam beradi.

Darslikdagi yana bir qancha mavzular o'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu gapimizning isboti esa, darslikdagi – bolim 10-11 darslar “So'zlashish odobi” mavzusida yaqqol namoyon etilgan.



Mavzuda bolalarga har qanday vaziyatda gapni “Assalomu alaykum” deb boshlash kerakligi aytiladi. O'zbek mahallasida katta-yu kichik bir biri bilan salomlashib o'tib ketishi-chiroyli odatlarimizdan biriligi haqida so'z boradi. Maktabda va boshqa jamoat joylarida telefonda baland ovozda gaplashmaslik kerakligi, oilada, sinfdoshlar va boshqa odamlar bilan gaplashganda telefonni chetga olib qo'yish lozimligi darslikda o'quvchi yoshiga mos holatda tushuntirilgan.

Milliy qadriyatlarimizdan yana biri bu albatta mehmondo'stlikdir. Tarbiya darsligining 28-29 darslari “Mehmondorchilik odobi” haqida. Bu mavzuda O'zbeklar mehmondo'st xalq ekanligi, ostonadan kirib kelgan barha insonga hurmat ko'rsatib, uni ochiq chehra bilan kutib olish va mehmon qilish xalqimizning odatlaridan biriligi bayon etilgan.



Mavzu davomida topshiriqlar berilgan. Yuqoridagi topshiriq aynan o'quvchida mehmondorchilik odobini shakllantirishda xizmat qiladi.

2-sinf darsligining 2-bobi “Oiladagi munosabatlar” milliy qadriyatlarimizda asosiy o'rin tutadi. Oila a'zolariga qanday

munosabatda bo'lish, dasturxon atrofida o'zini qanday tutish, jamoat joylarida va transportlarda yurish odoblarini o'rganish o'quvchilar tarbiyasida yaqqol namoyon bo'ladi.



3-sinf darsligida 26-mavzu: Mahalla va qo'ni-qo'shnicilik mavzusi milliy qadriyatlarimizga misol bo'la oladi. Bunda mahalladagilar, qo'shnilar bilan oqibat munosabat qilish odoblari, bir-biriga oqibatli bo'lish haqidagi bilimlarni beradi.

Xulosa qilib aytilish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy tarbiyalash jarayoniga yangicha yondashuv metodologik samaradorlikni taqozo etadi. Biz esa milliy ruhda tarbiya berishning bugungi davr talabiga mos bo'lgan shakllarini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ongiga singdirib bborishimiz zarur. Eng muhimi yurtimiz kelajagini mustahkamlash uchun kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash orqali ularda milliy tafakkur, milliy ong, milliy mafkura, o'zligimizga bo'lgan hurmat, milliylikimizning bugungi ko'rinishlarini saqlash va davom ettirish kabi ko'plab jarayonlarni amalga oshiramiz. Maktabda milliy tarbiyaning tub mohiyatini yetkazib berish hamda bunyodkor g'oyatoga undovchi milliy mafkuramizni rivojlantirish biz pedagog kadrlarning asosiy vazifamiz deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. N.Ismatova. Tarbiya: 1-sinf. 1-nashr – T: G'afur G'ulom. 2020

2. Tarbiya fani: 2-sinf. K.Suyarov. – Toshkent Respublika ta'lim markazi,2021
3. Tarbiya fani: 3-inf. Ro'ziyeva Dilnoza, Ismatova Nargiza va b. – Toshkent “SANO-STANDART” 2020
4. Tarbiya: 4-sinf. S.Shermuhammadova, S.Akkulova va b. – Toshkent “O'ZBEKISTON” 2020



Nargiza ORTIQOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: farishtalin@gmail.com

NavDPI dotsenti, PhD M.Ummatova taqrizi asosida

SELEKSIYA FANINING RIVOJLANISH JARAYONIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimida seleksiya fanining ahamiyati, rivojlanish tarixi, olimlarning olim borgan izlanishlari va fikrlari haqida ma'lumotlar berilgan. Seleksiya sohasining bugungi kundagi ahamiyati va erishilgan yutuqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Seleksiya fanining dolzarb muammolari va ushbu muammolarning yechimlari haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: seleksiya, pedagogika, genetika, duragaylash, tanlov metodlari, madaniy markazlar.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ НАУКИ О ОТБОРЕ

Аннотация

В этой статье представлена информация о значении селекционной науки в системе образования, истории ее развития, исследованиях и мнениях ученых, в которых участвовал ученый. Дана информация о сегодняшнем значении и достижениях в области селекции. Приведены актуальные проблемы селекционной науки и мнения о решениях этих проблем.

Ключевые слова: селекция, педагогика, генетика, гибридизация, методы отбора, культурные центры.

SPECIFIC ASPECTS IN THE DEVELOPMENT PROCESS OF THE SCIENCE OF SELECTION

Annotation

This article provides information about the importance of selection science in the educational system, the history of development, the research and opinions of scientists that the scientist went through. Information about the importance and achievements of the field of selection today is given. Opinions have been cited about the current problems of selection science and the solutions to these problems.

Keywords: selection, pedagogy, genetics, hybridization, selection methods, cultural centers.

Kirish. Ma'lumki, seleksiya madaniy o'simliklarning yangi navlarini, uy hayvonlarining yangi zotlarini va foydali mikroorganizmlarning yangi shtammlarini yaratish va yaxshilashning genetik, umumbiologik asoslari va metodlarini o'rganuvchi amaliy fan hisoblanadi. Bu fan o'z faoliyatida organik olam evolyutsiyasini ta'min etuvchi omillar – o'zgaruvchanlik, irsiyat hamda tabiiy tanlanish va sun'iy tanlash qonuniyatlariga asoslanib o'z faoliyatini amalga oshiradi. Binobarin, seleksiya o'simlikshunoslik, chorvachilik va amaliy mikrobiologiyaning samaradorligini yanada oshirishga muvaffaq bo'layotgan fan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda seleksiya amaliyoti, uni tashkil etish va seleksiya yutuqlari (o'simliklar navi, hayvonlar zoti)ga doir huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'ri"da" qonuni(1996-yil 30-avgust) bilan tartibga solinib kelmoqda. Bundan tashqari Simolgulyan N.G, Shafrin A.N, Muxammadxonov S.R, "G'o'za genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi", Miraxmedov S, Mirjurayev M, "Kachestvo volokna I seleksiya sortov xlopchatnika", Yigitaliyev M, Muhammadxonov S "Dala ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi" Abdulkarimov D, Safarov T, Ostonaqulov T "Dala ekinlari, urug'chiligi va genetika asoslari" kabi olimlarni asarlarida seleksiya haqida o'z izlanishlari va fikrlarini yoritishgan. **Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi shiddatli davrda seleksiyaning maqsadlari agrotexnika va zootexnikalarning, o'simlikshunoslik va chorvachiliklarning industriyalashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimiz uchun ekologik noqulaylik, qo'rg'oqchilik va paxtachilikning eng shimoliy zonasi bo'lgan sharoitlarimizda g'o'zaning yuqori mahsuldor navlarini yaratish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, bug'doyning Meksika navlarining Hindiston va Pokistonga keng tatbiq etilishining asosiy sabablaridan biri, ular don ranglarining oq rangga o'zgartirilganligidir, chunki mahalliy aholi obi nonni doimo oq bug'doydan yopishga odatlanishganligidir.

Tahlil va natijalar. Atoqli genetik olim, akademik N. I. Vavilov seleksiya fanining mazmuni va vazifalarini ta'riflab bergan bo'lib, hozirgi zamon seleksiyasi yangi nav, zot va

shtammlar yaratish jarayonida quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich turli metodlarni qo'llagan holda amalga oshirmoqda:

1) Seleksiya ishining ob'ektlari bo'lgan o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning nav, zot, shtamm va tur xilma-xilligini o'rganish metodi. Seleksiya uchun zarur bo'lgan dastlabki material yig'ish, kolleksiyalarni yaratish lozim bo'ladi. Buning uchun o'simliklar, hayvonlarning turli-tuman nav va zotlari hamda ularning yovvoyi va yarim yovvoyi ajdodlari to'planadi, o'rganiladi, qiyosiy tahlil qilinadi va baholanadi. Ularning eng yuqori sifatilari seleksiya ishlari uchun dastlabki material sifatida seleksionerlarga tavsiya etiladi.

2) Seleksiyada duragaylash, mutagenез va genetik injeneriya metodlarini qo'llash yo'li bilan irsiy o'zgaruvchanlik doirasini kengaytirish va bundagi qonuniyatlarni tahlil qilish va o'rganish usuli. Buning natijasida amaliy seleksiya uchun yanada qimmatliroq va irsiy o'zgaruvchanlikka o'ta boy material sun'iy ravishda yaratiladi. Oqibatda esa seleksiya samaradorligini keskin oshirish imkoniyati yaratiladi.

3) Yaratilayotgan nav, zot va shtammlar belgi va xususiyatlarining rivojlanishida tashqi muhit sharoitining ahamiyatini aniqlash muhim sanaladi. Buning natijasida organizmlar irsiy belgi va xususiyatlarining rivojlanishi darajasiga ijobiy ta'sir etuvchi tabiiy va sun'iy (agrotexnik va zootexnik sharoitlar) omillari ham aniqlanadi. Bu esa ulardan yuqori mahsulot olish texnologiyasini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4) Yaratilayotgan nav, zot va shtammlarning inson uchun foydali belgilarining kelgusi avlodlarda saqlanib, yanada kuchayib borishini ta'min etuvchi ilmiy asoslangan tanlash metodlarini yaratish va qo'llash. Tanlash seleksiya jarayonining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Seleksiya oldida turgan yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalda bajarish uchun avvalo madaniy o'simliklarning kelib chiqishi, xilma xilligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi.

Seleksiya jarayonining samaradorligi, ya'ni o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning mavjud formalarini takomillashtirish, yangi nav, zot va shtammlarni yaratish ko'p jihatdan bu jarayonda foydalaniladigan boshlang'ich materiallarning sifatiga, uning xilma-xilligiga va o'rganilganlik

darajasiga bog'liq hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu kolleksiya 1041 ta o'simlik turiga kiruvchi 320 ming nav va formalarni o'z ichiga oladi. Ushbu kolleksiya Sankt-Peterburg shahridagi N. I. Vavilov nomidagi O'simlikshunoslik institutida saqlanadi. Madaniy o'simliklar va yovvoyi ajdodlarining turli-tumanligini qiyosiy o'rganib, ularning geografik tarqalishini tahlil qilib, N. I. Vavilov muhim biologik ta'limotni kashf etgan:

1. Irsiy o'zgamvchanlikda gomologik qatorlar qonuni.

2. Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va xilma-xillik markazlari. O'simliklarni madaniylashtirish Qadim zamonlarda inson tomonidan dunyo qit'alarining turli hududlarida amalga oshirilgan. Bu geografik hududlar madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va xilma-xilligining markazlari deb ataladi. N.I.Vavilov madaniy o'simliklarning 8 ta asosiy kelib chiqish markazlarini

1-jadval N.I.Vavilov bo'yicha madaniy markazlarning kelib chiqishi

№	Kelib chiqish markazlarining nomi	O'simliklar florasidagi ulushi %	Qamrab olgan hududlari	Kelib chiqqan o'simlik nomlari
1	Xitoy	20	Sharqiy va Markaziy Xitoy, Koreya, Yaponiya, Tayvan orolining katta qismi	Soya, choy, manjiriy tarig'i, grechexa, g'o'zaning G.arboreim L.turi, olcha olko'ri, behi, kamfar daraxti
2	Hindiston	Madaniy floraning 70%	Hindiston, Hindixitoy yarim orollarining hamda Janubiy Xitoyning tropik hududlari, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi orollar	Choy, limon, apelsin, bodring, shakarqamish, baqlajon, sholi, mosh, kokos palmasi, g'o'za G.arboreum L
3	O'rta Osiyo	Madaniy o'simliklarni ko'pgina qismi	Shimoli-Garbiy Hindiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Tojikiston va G'arbiy Tyanshan	Pakana bug'doy, no'xat, mosh, zig'ir, kunjut, kanop, sabzi, o'rik, nok, bodom, uzum, yong'og', olma
4	Old Osiyo	Madaniy o'simliklarni ko'pgina qismi	Kichik Osiyoning ichki qismi, Kavkazorti, Eron va tog'li Turkmaniston	Bir donli bug'doy turi, qattiq bug'doy, yumshoq bug'doy, javdar, arpa, suli, beda, qovum, qovoq, anjir, anor, olma, nok, behi, uzum, xurmo
5	O'rta dengiz	10-11%	O'rta dengiz sohillaridagi hududlari	Qattiq bug'doy, suli, zig'ir, no'xat, piyoz, sholg'om, karam, turp, qand lavlagi, beda
6	Habashiston	3-4%	Afrikaning Habashiston tog'ligi, Arabiston yarimorolining janubi	Arpa, bug'doy, qo'qon jo'xori, tarvuz, g'o'za G.arboreum L, kofe daraxti, banan
7	Janubiy Meksika va Markaziy Amerika	8%	Meksikaning janubi Markaziy Amerika va Antil orollari	Makkajo'xori, kakao, tamaki, qovoq, kungaboqar, gvayyava, avocado, upland g'o'zasi
8	Janubiy Amerika	Madaniy o'simliklarni ko'pgina qismi	Janubiy Amerika, And tog'lari	Kartoshka, batat, ananas, yeryong'og', amerika yong'og'i, ileks(choy olimadi), g'o'za (G.barbadense L), geveya, xina daraxtlari

Madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlarining dunyo madaniy o'simliklar florasiga qo'shgan hissalari bir xil nisbatga to'g'ri kelmaydi. 13 mingdan ortiq turlarga ega bo'lgan tropik Afrika ham kam sondagi madaniy o'simliklarni dunyo florasiga bergan. N. I. Vavilovning 1926-yilda chop etilgan «Madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari» degan asarida o'zining boshlang'ich markazidan chetga chiqqan madaniy o'simlik turlarining keyingi taqdirleri ham qayd etilgan. P.M.Jukovskiy va boshqa olimlar N.I.Vavilov tomonidan aniqlangan 8 ta markazga aniqliklar kiritib, hozirgi vaqtda madaniy o'simliklar kelib chiqishining 12 ta birlamchi markazlarini ajratdilar. Yuqorida qayd etilgan markazlar ko'pchilik madaniy o'simliklar uchun asosiy genofond bo'lib hisoblanadi. Madaniy o'simliklarning kolleksiyalari hozirgi zamon genetika va seleksiya fanlarining dolzarb muammolari bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirishda, samarali metodlar yaratishda hamda amaliy seleksiya uchun boshlang'ich material manbalari sifatida katta xizmat qilib kelmoqda. P.M.Jukovskiy (1888-1975) bo'yicha Madaniy o'simlik turlari kelib chiqishining birlamchi markazlari;

I - Xitoy - Yaponiya; VII - O'rta dengiz;

II - Indoneziya - Hindixitoy; VIII - Afrika;

III - Avstraliya; IX - Yevropa - Sibir;

IV - Hindiston; X - Markaziy Amerika;

V - O'rta Osiyo; XI - Janubiy Amerika;

VI - Old Osiyo; XII - Shimoliy Amerika.

Har bir nav, zot yoki shtamm ulardan ma'lum turdagi mahsulotni olish uchun yaratiladi. Genetika seleksiyaning nazariy asosi bo'lib, seleksiya uchun muhim bo'lgan irsiy o'zgaruvchanlik, duragaylash tizimlari va tanlov metodlari muammolarini tadqiq qiladi, seleksiyaning samaradorligini oshirish metodlarini yaratadi.

Xulosa. O'simliklar seleksiyasi navning boshlang'ich material yaratish yoki tanlashdan boshlanadi. Ular tabiiy va duragay populyatsiyalar, ilgari yaratilgan navlar, o'zidan changlanadigan liniyalar, poliploidlar, mutantlar bo'lishi mumkin. Boshlang'ich materialdan tanlab olingan o'simliklar avlodi dastlabki baholash, ba'zan qayta tanlash uchun seleksion ko'chatzorlarga ekiladi. Ularning eng yaxshilari nav sinash uchun (dastlabki, stansion, konkurs) tanlab olinadi. 1899-yilda Andijon tajriba dalasi. 1900-yilda Mirzacho'l tajriba dalasi. 1913-yilda Namangan shahri yaqinidagi Paxtaliko'lda g'o'za bo'yicha maxsus Farg'ona seleksiya stansiyasi tashkil etildi. M.M.Bushuyev, G.S.Zaysev, Ye.L.Navrotskiy kabi olimlar g'o'za, g'alla ekinlari, qoramolchilik bo'yicha seleksiya ishlarini olib borishda va g'o'zaning yangi navlarini hamda qoramollarning iqlimimizga moslashgan mahalliy zotini yaratishdi.

ADABIYOTLAR

1. D.A.Musayev, Sh.Turabekov, A.T.Saidkarimov va boshqalar "Genetika va seleksiya asoslari" Toshkent "Voriz-nashriyoti" 2012y.
2. I.T.Ergashev, D.C.Normurodov, B.M.Eshonkulov "Umumiy seleksiya va urug'chilik" Samarqand "SamDU nashri" 2021y.
3. A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullayev "Genetika" "Tafakkur" nashriyoti Toshkent
4. Simolgulyan N.G, Shafrin A.N, Muxammadxonov S.R, "G'o'za genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi" Toshkent "Mehnat nashriyoti" 1987y
5. Miraxmedov S, Mirjurayev M, "Kachestvo volokna I seleksiya sortov xlopchatnika" Toshkent "Mehnat nashriyoti" 1986y
6. Yigitaliyev M, Muhammadxonov S "Dala ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi" Toshkent Mehnat nashriyoti" 1981-y
7. Abdulkarimov D, Safarov T, Ostonaqulov T "Dala ekinlari, urug'chiligi va genetika asoslari" Toshkent "Mehnat nashriyoti" 1989y 89-95-betlar
8. Normamatovych, D. M. (2023). the significance of the tasks of the pisa international program in the teaching of biological sciences. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 23, 132-138.
9. Omonqulov, U. B. (2024). bo'lajak biologiya o'qituvchilarining iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga metodik tayyorlashning konseptual asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2), 177-180.

10. Zayniyev, S. (2023). methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the hardy-weinberg law. *European International Journal of Pedagogics*, 3(05), 16-21.
11. Jumayev Sirojiddin Zafarovich. (2023). forming creative thinking through problems and exercises from molecular biology in providing personal development in the educational system. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 23, 116–120. Retrieved from.



UO‘K:297.1.

Muzaffar OTAMATOV,

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

E-mail: muzaffarotamatov@gmail.com

O‘R Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, f.f.f.d. D.Yusupova taqrizi asosida

TOJIKISTONDAGI DINIY-SIYOSIY VAZIYATNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tojikistondagi diniy-siyosiy vaziyatning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqildi. Xususan, mamlakatning, o‘tish davrida Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan diniy va dunyoviy ta‘lim bo‘yicha ochiqlik siyosati, tuzilmalar (islomiy va noislomiy) soni va uni O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan tuzilmalar bilan nisbati tahlil qilindi hamda ularning farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, oxirgi bir necha yillarda ta‘lim sohasi uchun ajratilayotgan pul mablag‘lari o‘rganildi. Xaj safarini amalga oshirayotgan Tojikiston fuqarolarini Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari bilan aholi sonidan kelib chiqib taqqoslab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Davlat, siyosat, Markaziy Osiyo, din, islom, xaj, diniy ta‘lim, sekulyarizatsiya, desekulyarizatsiya, o‘tish davri, ekstremizm.

ФИЛОСОФСКО-КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ АНАЛИЗ РЕЛИГИОЗНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В ТАДЖИКИСТАНЕ

Аннотация

В статье рассмотрены особенности религиозно-политической ситуации Таджикистана. В частности, при анализе политике открытости страны в плане религиозного и светского образования в ходе анализа было выявлено количество структур (исламский и неисламский) и структур действующих в Узбекистане, а также их различные отличительные аспекты. Также изучено выделение денежных средств на сферу образования в разрезе нескольких последних лет.

Граждан Таджикистана, совершавших хадж, сравнены с гражданами стран Центральной Азии по численности населения.

Ключевые слова: Государство, политика, Центральная Азия, религия, ислам, хадж, религиозное образование, секуляризация, десекуляризация, прошедшая время, экстремизм.

PHILOSOPHICAL CONCEPTUAL ANALYSIS OF RELIGIOUS POLITICAL SITUATION IN TAJIKISTAN

Annotation

In this article the specific aspects of religious and political situation in Tajikistan is considered. In particular, the country's open policy to religious and secular education in relation to Central Asian countries during the transitional period, number of organizations (Islamic and non-Islamic) and the relationship between the organizations operating in Uzbekistan was analyzed and differences were identified.

Also, the funds allocated to the education sector were studied over the years. Citizens of Tajikistan performing Hajj were compared with citizens of Central Asian countries based on population.

Key words: State, policy, Central Asia, religion, islam, hajj, religious, education, secularization, desecularization, transitional period, extremism.

Kirish. Din kishilarni hamisha yaxshilik va ezgu ishlarga chorlagan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e‘tiqodi bo‘lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qilgan[4].

Sobiq ittifoq ta‘siridan deyarli qutulgan Markaziy Osiyo davlatlari qatorida Tojikiston Respublikasi ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatning tarixi va o‘sha davrdagi ma‘naviy tafakkuri, xalqning xohish istaklari va albatta siyosiy elitaning qarashlaridan kelib chiqib fuqarolar va davlatning diniy ehtiyojlarini qondiruvchi o‘z siyosatini tanlashga kirishdi.

Adabiyotlar tahlili. Tojikistondagi diniy vaziyatning o‘ziga xosligini mamlakat konstitutsiyasi va tegishli qonunlari, davlat rahbarlari nutqlaridagi falsafiy qarashlarning mazmun va mohiyatini o‘rganish orqali tahlil qilish mumkin. D.Napayeva, E.Danilova, A.Xalid kabi chet el olimlari tadqiqotlarida islom dinining Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi o‘rni, desekulyar jarayonlarning odamlar turmush tarziga mustahkam bog‘lanib ketganligi hamda sekulyar va desekulyar holatni begilash mumkin bo‘lgan mezonlar haqida so‘z borgan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar D.Yusupova, D.Kamilov va S.Mamayusupovlar ishlarida Tojikistondagi diniy e‘tiqod va umumiy ma‘noda sekulyar va desekulyar holatning paydo bo‘lishi va unga ta‘sir qiluvchi bir qator ichki va tashqi omillar bilan birgalikda ochib berilgan. Mahalliy va chet el olimlarining diniy vaziyat va desekulyar holatni tahlil qilish bo‘yicha qarashlari o‘xshash bo‘lib, fikrlar qarama-qarshiligi deyarli uchramaydi. Bulardan tashqari, ilmiy tadqiqot ishlaridan farqli o‘laroq internet

tarmog‘idagi saytlar va OAV kanallarida mavzuga oid yangi ma‘lumotlar va taqqoslangan statistikalarini kuzatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani tayyorlashda tizimli, retrospektiv va qiyosiy tahlil usullari hamda analogiya metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mavzuga bevosita va bilvosita aloqador bo‘lgan turli adabiyotlar, dissertatsiya ishlari, monografiya va ilmiy maqolalar hamda internet ma‘lumotlari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. O‘tish davrida xalqning diniy ehtiyojini qondirishdagi Tojikistonning diniy siyosati Markaziy Osiyo davlatlari orasida nisbatan jadal va ochiq ekanligini kuzatish mumkin.

Jumladan, fuqarolik va siyosiy huquqlar Xalqaro Paktining 18 moddasiga mos holda ishlab chiqilgan mamlakat Konstitutsiyasining 10 va 26 moddalari[1] hamda Tojikiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar” to‘g‘risidagi Qonuni qabul qilinib, diniy e‘tiqod qilish uchun mamlakatda barcha huquqiy imkoniyatlar yaratildi. Sohaga oid mutaxassislar fikriga ko‘ra aynan ushbu moddalar mamlakatda diniy qadriyatlarini tiklash, ulardan hechqanday to‘siqlarsiz foydalanish va e‘tiqod qilish imkonini beruvchi tamal toshi hisoblandi.

Tojikistondagi aynan diniy bag‘rikenlik masalalari ochiq va erkin yo‘lga qo‘yilganligi bo‘yicha mamlakat Prezidenti I.Raxmon 2010 yil YEXHTning Qozog‘istondagi yig‘ilishida: “Tojikiston Respublikasi mamlakatda demokratiyaning mustahkamlanishi, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi insonlar huquq va erkinliklarini ta‘minlanishi, shuningdek, din va erkin

fikrlarni ta'minlanishiga alohida e'tibor bermoqda" [12] deb takidlagani yuqoridagi fikrlarni to'ldiradi. I.Raxmonning ushbu fikrlari va unga berilgan sharhlar mazmuni shundan darak bermoqdaki, dunyo davlatlarining barchasida o'zining rivojlanish yo'li bilan birgalikda e'tiqod qiladigan dini ham mavjuddir. Bu ikki, bir qarashda alohida bo'lgan yo'nalishlar aslida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z mamlakatini rivojlantirishda asosiy subyekti bo'lgan inson qalbini boshqaruvchi katta kuchga egadir. Qolaversa, asl islom dinining naqadar insonparvar va vatanparvarlik g'oyalari o'zida qamram olganligi davlatning ham demokratiyasi, ham fuqarolarining huquq va erkinliklari hamda ularni ma'naviy buzg'unchilik (vayronkor) g'oyalardan asrab turadigan diniy e'tiqodlarini ta'minlab turadi.

Shuningdek, ekspert M.Muxtorovning fikricha, Tojikiston nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda, ham dunyoviy I-Jadval

Tojikistondagi diniy tuzilmalar sonining o'sishi va ularni O'zbekistondagi tuzilmalar bilan nisbati

Tuzilmalar nomi (turi)	Tojikiston			O'zbekiston
	1943 - 1988 yy	2011 y.	2022 y.	2022 y.
Umumiy diniy tashkilotlar (birlashmalar)			4000 dan ortiq	2340
Islom diniga oid tashkilotlar (birlashmalar)		3755	4000 dan ortiq	2144
Shulardan:				
Besh maxal namoz o'qiladigan masjidlar	17	3362	4000	2100
Jome masjidlari		344	3000 dan ortiq	2096
Markaziy jome masjidlari		40	Ma'lumot topilmadi	
Tojikiston Islom markazi		1		
Samarqand Imom al-Buxoriy xalqaro HIM				1
Madrassa (bilim yurti)		7	19	9
Ismailitlar jamoati		1		
74 ta noislom tashkilotlar			85 ta noislom tashkilot.	
Cherkov	15	Ma'lumot topilmadi	Ma'lumot topilmadi	
Sinagoga	2			
Rus provaslav cherkovi		4	+	39
Yevangel Xristian Baptistlari Respublika Birlashgan cherkovi		1	Ma'lumot topilmadi	
Yevangel Xristian Baptistlari cherkovi		12		24
Yevangel Xristian Baptistlari Birlashmasi		1	+	
Yevangel Xristian cherkovi		15	Ma'lumot topilmadi	64
Yevangel Lyuteran cherkovi		0		2
"Iyegovo guvohlari" cherkovi				1
Protestantlar			+	
Katoliklar (nemis vakilari tomonidan)			+	
Novoapostol cherkovi diniy tashkiloti		3		4
Rim katolik cherkovi		3		5
Yettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi		4		10
Sonmin-Sunbogim cherkovi (koreys)		4		
Koreys protestant cherkovlari				26
Arman apostolik cherkovi				2
Yahudiy diniy jamoalari				8
Xristian missiyasi		3		
Milliy ma'naviy yig'ilishi		1		
Baxoiy diniy jamoalari		6		7
Krishnani anglash jamiyati				1
Budda ibodatxonasi				1
O'zbekiston bibliya jamiyati				1
Turli konfessiyalar cherkovlari		15		

Izoh: jadvaldagi 2022 yilga tegishli ma'lumotlar [22] manbalardan olingan.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tojikistondagi diniy tuzilmalar 2011 yilgacha avvalgi yillarga nisbatan ko'paygan. 2022 yil ko'rsatkichlari 2011 ga nisbatan katta bo'lsada o'sish surati pasaygan. Bunga sabab qilib mamlakatda o'sha davrlarda norasmiy diniy maktablarning ko'payib ketishi oqibatida ekstremizm va diniy aqidaparastlik bo'yicha jinoyatchilikni oshishi, deb hisoblasak bo'ladi. Shuningdek, Tojikiston ko'rsatkichlari O'zbekistonga nisbatan, aholi sonini hisobga olmagan holda ham ko'p ekanligi ko'rinmoqda. O'zbekistonda esa noisloviy tashkilotlar ko'p bo'lishiga qaramay aholi soniga nisbatan olganda Tojikistondan kam deyish mumkin. Umumiy qiliy, desekulyar jarayonlarni asosiy subyektlari 2-Jadval

Tojikiston Respublikasi davlat budjetidan ta'lim sohasiga ajratilgan pul taqsimoti, (somoniy)[16]

Yillar	Ajratilgan pul mablag'i	Yillar	Ajratilgan pul mablag'i
2000 yil	2 364 518	2016 yil	3 146 229
2005 yil	1 305 5	2017 yil	3 581 017
2010 yil	1 068 341	2018 yil	3 863 064
2011 yil	1 363 359	2019 yil	4 404 877
2012 yil	1 607 836	2020 yil	4 429 700
2013 yil	2 130 836	2021 yil	5 597 083
2014 yil	2 516 965	2022 yil	6 300 000
2015 yil	2 918 639	2023 yil	7 200 000

Biroq, bir qarashda davlat budjetidan ta'lim uchun ajratilayotgan pul miqdori yildan yilga o'sib borayotgani ko'rinsada, pulning inflyatsiya hisobiga ko'ra ushbu miqdorlar deyarli/katta miqdorda oshmagan.

3-Jadval

O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iz respublikalarining xaj safari ko'rsatkichlari [17]

Davlatlar	2005-2010		2018-2023		
	Xajga borganlar soni (gacha)	Umumiy aholidan foiz	Xajga borganlar soni (dan ortiq)	Umumiy aholidan foiz	
O'zbekiston Respublikasi	5 000	0,018	49 000	0,136	0,118
Tojikiston Respublikasi	5 200	0,071	30 500	0,122	0,051
Qirg'iz Respublikasi	4 676	0,088	25 000	0,510	0,422
Qozog'iston Respublikasi	4 000	0,025	14 000	0,008	- 0,017

Izoh: jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tayyorlashda [18] gacha bo'lgan manbaalardan foydalanildi.

Jadvalga asosan, birinchi besh yillikda xaj safariga borish boshqa davlatlarga nisbatan Tojikiston davlati fuqarolari tomonidan ko'p amalga oshirilgan. Aholi sonidan kelib chiqib, o'sha davrda 27 mlnlik O'zbekistondan 5000 kishi, deyarli to'rt barobar kam fuqarosi (7 mln) bor Tojikistondan 5200 kishi xaj safariga borganligi katta ko'rsatkich bo'lib o'sha davrdagi mamlakatning diniy qadriyatlariga qay darajada e'tibor qaratganligining bir ko'rsatkichidir.

Ikkinchi besh yillik natijalari va uni birinchi besh yillik natijalar bilan taqqoslanganda, O'zbekiston va Qirg'iz Respublikalari natijalariga nisbatan Tojikiston xaj safarlarini kamaytirganligidan dalolat bermoqda.

Takidlash joizki, xaj amallari uchun ajratilayotgan kvotalarda Markaziy Osiyo davlatlari musulmonlari uchun berilayotgan o'rinlar boshqa mintaqalarga nisbatan ko'pdir. Bu esa o'z o'rnida rus sharqshunosi V.V.Bartoldning "Panislomizm kabi islom shiorlari "har doim ham bir ta'limot shaklida emas, balki juda ko'p diniy, siyosiy maqsad sifatida, asosan faqat siyosiy maqsadlarga erishish uchun bir vosita" [9], deb takidlagan fikrlarini eslatadi. YA'ni, Saudiya Arabistonini Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish maqsadida Islom dini orqali, xususan xaj uchun ajratilayotgan kvotalar sonini oshirganligini kuzatish mumkin.

Islom dinining asosiy ustunlaridan bo'lmish Xaj amallarini bajarish uchun shart-sharoitlar yaratish masalasida ham Tojikiston ko'rsatkichlari yuqori ekanligini kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Tojikistondagi diniy-siyosiy vaziyat Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga nisbatan desekulyar ekanligi bilan ajralib turadi. Tojikiston uyg'onish davrida boshqa davlatlarga nisbatan diniy qadriyatlarni rivojlantirish va mamlakat fuqarolari hayotida islom diniga e'tiqod qilish uchun sharoitlar yaratishni muhim deb hisoblab, o'ziga xos o'z davlat strategiyasini yaratgan. O'tgan yillar mobaynidan dunyoviy ta'limot bilan birgalikda diniy ta'limot va e'tiqod uchun yaratilgan sharoitlar ayrim ekstremistik va terroristik holatlarni keltirib chiqarganligi oqibatida diniy birlashmalar, xususan diniy maktablar, madrasa va masjidlar hamda chet elda diniy ta'limni olish masalalarida davlat nazoratiga olingan. Biroq, jadvallarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'yicha, Tojikiston ko'rsatkichlari, aholi soni jihatidan deyarli besh barobar ko'p bo'lgan O'zbekiston ko'rsatkichlaridan birmuncha ko'pligi rasmiy Dushanbe tomonidan nazoratni yanada kuchaytirish lozimligidan darak beradi. Aks holda, istiqbolda nafaqat Tojikistonda, balki unga qo'shni bo'lgan O'zbekiston va Qirg'iz respublikalarida ham radikal guruhlar faoliyatiga mos keluvchi hudud va muhit shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Tojikiston va bugungi kunda umumiy diniy fon kuchayib borayotgan Qirg'iz respublikalaridagi diniy-siyosiy vaziyatni tizimli ravishda kuzatib borish va tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Конституция Республики Таджикистан., 2020. - mfa.tj/ru/main/tadzh. (мурожаат санаси 30.05.2023й.).
2. Закон Республики Таджикистан «О свободе совести и религиозных объединениях», - mfa.tj/ru/main/tadzh. 2009.
3. Закон Республики Таджикистан об ответственности родителей за обучение и воспитание детей (в редакции Закона РТ от 15.03.2016 г., № 1294; от 17.05.2018 г., № 1532). - <https://www.mfa.tj/ru/main/view/3958/zakon-respubliki-tadzhikistan-ob-otvetstvennosti-roditelei-za-obuchenie>.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент Ислам Университети: Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. Т.:Тошкент ислом университети, 2008.
5. Юсупова Д. Туркистонда диний-сиёсий вазиятнинг фалсафий-концептуал таҳлили (XIX аср охири – XX аср бошлари). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Т.: 2019.
6. Камиллов Д. Секуляришув жараёнининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Т.: 2021.
7. Мамаюсупов С. Ўзбекистонда десекуляриш жараёнининг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари ва ёшлар билан боғлиқ сегментлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Андижон.: 2022.
8. Данилова Э. Десекуляризация в современном обществе (социально-философский анализ). Диссертация на соискание учёной степени кандидата философских наук. – Красноярск.: 2003.
9. Марказий Осиё Ренессанси журнали. Д.Д.Юсупова "Панисломизм Шарқ ва Ғарб оламидаги сиёсий омил сифатида", 2021.
10. Халид А. Ислам после коммунизма: Религия и политика центральной Азии. (Khalid A. Islam after Communism: Religion and politics of Central Asia.) – Москва: Новое литературное обозрение., 2010.
11. Напеева Д. Бывший командир таджикского ОМОНа стал военным руководителем ИГИЛ., 2016. - <https://www.rbc.ru/politics> (мурожаат санаси: 28.05.2023)
12. «Выступление Президента на встрече с молодежью страны» Душанбе., 2018., - <https://tut.tj> (мурожаат санаси 28.05.2023).
13. Statement of Mavlon Mukhtorov, Deputy Head of the State Committee on Religious Affairs, Government of Tajikistan. Свобода мысли, совести, религии и убеждений в РТ. Образование и религия: современное состояние и перспективы., 2011.
14. Власти Таджикистана пытаются ужесточить контроль над религиозным образованием. Силовики пресекают деятельность нелегальных центров религиозного обучения. В частных медресе обучается все больше молодежи., - <https://www.dw.com/ru>. (мурожаат санаси - 18.06.2023)
15. Душанбе: Тожикистоннинг энг йирик жомеъ масжиди очилди Dunyo Yangiliklar. - <https://www.bbc.com/uzbek/central-asia/>. (мурожаат санаси – 18.06.2023).
16. Таджикистан похвалили за большие расходы на образование., 2022. -<https://Asiaplustj.Info/Ru/News/Tajikistan/Society/>. (мурожаат санаси – 10.06.2023).

17. Из какой страны Центральной Азии больше всех граждан поехали в этом году в хадж?. - [https://www. Asia-Plus.uz](https://www.Asia-Plus.uz) (мурожаат санаси: 15.06.2023)
18. Пять тысяч узбекских паломников готовятся совершить хадж в Саудовскую Аравию. - <https://regnum.ru>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)
19. О моей службе. - <https://menin.kyrgyzstan.kz> . (мурожаат санаси – 16.06.2023)
20. Первая группа Таджикских паломников отправилась в хадж. - <https://regnum.ru>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)
21. Ислам в СНГ: Итоги хаджа – 2010 в Кыргызстане. - <https://regnum.ru>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)
22. Ўзбекистон Республикасида диний ташкилотларнинг рўйхатга олиниши ҳақида маълумотнома. - <https://religions.uz/> (мурожаат санаси – 16.06.2023)
23. Ўзбекистон диний бағрикенглик юрти. Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими Жўраев Улўғбек. - <https://moturidiy.uz/uz/news> (мурожаат санаси – 16.06.2023)
24. Религия в Таджикистане. - <https://ru.wikipedia.org/wiki>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)
25. Немусульмане в Таджикистане временно воздержатся от посещения храмов. - <https://fergana.agency/news>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)
26. Дунёдаги энг кўп масжидлар қайси давлатда жойлашган?. - <https://aniq.uz/yangiliklar/dunyodagi-eng-kup-masjidlar-qaysi-davlatda-joylashgan>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)
27. Озода Чориева. Ўзбекистонда масжидлар сони 2 100 тадан ошди. - <https://qalampir.uz/news/>. (мурожаат санаси – 16.06.2023)



Matonat PARDAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: pardayevamatonat@gmail.com

NavDPI dotsenti, PhD M.Ummatova taqrizi asosida

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA ILMIY – METODIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini ilmiy - metodik kompetensiyalarini shakllantirish usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, individual, yondashuv, kreativ, yondashuv, innovatsiya, pedagogika, usul, texnologiya, metodika, integratsiya, intellektual, refleksiv.

METHODS FOR THE FORMATION OF SCIENTIFIC METHODOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE BIOLOGY TEACHERS

Annotation

This article covers the methods of forming scientific methodical competencies of future teachers of biology studying in higher education institutions.

Key words: competence, individual, approach, creative, approach, innovation, pedagogy, method, technology, methodology, integration, intellectual, reflexive.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОЙ - МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье освещаются методы формирования научных методических компетенций будущих преподавателей биологических наук, обучающихся в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: компетентность, индивидуальность, подход, креатив, подход, инновации, педагогика, метод, технология, методология, интеграция, интеллектуальный, рефлексивный.

Kirish. Jahonda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2015 yil Janubiy Koreyada o'tkazilgan butun jahon forumida ta'limning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi "Ta'lim-2030" Incheon deklaratsiyasi qabul qilindi va 2030 yilgacha ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat" ekanligi ta'kidlangan. Hozirgi vaqtda o'qituvchilik kasbi har bir fan sohasida, o'qitish metodikasi, shakllari, texnologiyalari sohasida doimiy takomillashtirish va rivojlantirishni talab qiladi. Innovatsion pedagogik faoliyat xilma-xillik bilan ajralib turadi va o'qituvchi o'qitish usullaridagi o'zgarishlarga mohirlik bilan moslashishi kerak. O'qituvchining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida uning yangi, texnologiyalarga tayyorligi alohida rol o'ynaydi. Shu sababli, o'qituvchilar oldida mas'uliyatli vazifalar turibdi. O'quvchilarni boshlang'ich ta'lim, umumiy ta'lim maktablaridan boshlab, uning muvaffaqiyatli ta'lim yoki maktabdan tashqari faoliyatini oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishlari, kasbiy-metodik kompetentligini doimiy ravishda mustaqil ravishda yangilashga o'rgatadi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning muammolari, ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha B.Abdullayeva, R.Djurayev, N.Muslimovlar; biologiya fanlarini o'qitishning metodik asoslari J.Musayev, A.G'ofurov, O.Mavlonov, I.Azimov, S.Fayzullayev, U.Raxmatovlar; biologiya o'qituvchilarini kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari: J.Tolipova, A.Raximov, I.Azimov, U.Raxmatov; innovatsion ta'limni tashkil etishning konseptual asoslari, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish afzalliklari va imkoniyatari A.Abdudodirov, U.Begimqulov; interfaol ta'limni tashkil etishning amaliy-texnologik jihatlari N.Azizxodjayeva, J.Yo'ldashevlar tomonidan tadqiq qilingan[5].
Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va uzoq xorij olimlaridan

Z.Bolshakova, O.Imanova, L.Spenser, M.Spenser, I.Zimnyaya; biologiya o'qitish metodikasini rivojlantirish bo'yicha T.Bayborotova, E.Demyankov, I.Ponomarevalar olib borishgan. O'qituvchilarni kasbiy madaniyatga qiziqtirish va ularda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari bo'yicha O.A.Kozireva, E.F.Zeer, A.K.Markova, V.A.Yakunin, N.V.Kuzminalar tomonidan tadqiq etilgan[4].

Kompetentlik atamasi "samaradorlilik", "erishish", "muvaffaqiyatlilik", "tushunish", "natijalilik", "ega bo'lish", "sifat", "miqdor" so'zlari yordamida ta'riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. Psixologik-pedagoik adabiyotlarda, ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida "kompetentlik" tushunchasi keying davrlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga komponentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda 60-yillarida shakllana boshlagan. Xususan, L. Spenser va M.Spenserlarning ta'kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi[2].

Dj. Raven kompetentlikni biror bir obyekt yoki obyektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishligi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma'noga ega bo'ladi - deb tushuntiradi[7].

Kompetentlik – tushunchasi shaxsning doimiy o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muommalarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. Bu kompetentlik atamasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqatga kirishish, insonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jaroyonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar zarurligini ko'rsatadi.

Kasbiy metodik-kompetentsiya ma'lum bir fan sohasida samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning egallanishi va bu har qanday sohada har kuchli bilimga ega bo'lgan pedagog kasbiy faoliyatida qo'llay olishidir[3,cr 60]. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi-bu o'qituvchining vaziyatga doir bo'lgan muammolarni kasbiy faoliyat sharoitida hal qilish qobiliyati hisoblanadi va bu pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining uzviy kombinatsiyasi yig'indisidir.

Kompetentsiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talabini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetentsiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarni rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy metodik kompetentligini shakllanishi uning o'quv-pedagogik vaziyatlarda o'ziga xos xususiyatlarining ifodalanishi bilan namoyon bo'ladi. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma, malaka rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog kasbiy kompetentligi rivojlanishi uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

ta'lim yo'nalishida umumkasbiy va ixtisoslik bilimlari asoslarini o'zlashtirish;

o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari, shuningdek pedagogik amaliyot jarayonida amaliy ko'nikma va malakalar shakllanishiga ega bo'lish

ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyot olib borish davrida o'z ustida mustaqil ishlash, dars jarayonlarida kreativ yondashuvlar asosida metodik va ixtisoslik bilimlarini takomillashtirish[4]

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchining malakasini va kasbiy mahoratini, ya'ni uning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirishni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi inson, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlariga moslashish, jamiyatda ijtimoiy moslashishga, ish boshlashga, o'z-o'zini tarbiyalashga va o'zini takomillashtirishga qodir bo'lgan respublikamiz fuqarosining har tomonlama rivojlangan shaxsini tayyorlashdir. O'z faoliyatini yetarli darajada amalga oshiradigan, o'qitish va tarbiyalashda barqaror yuqori natijalarga erishadigan o'qituvchini professional malakali deb atash mumkin.

O'qituvchining kasbiy malakasi professionallik va pedagogik mahoratning ajralmas qismidir. Shuning uchun o'qituvchining bunday kasbiy vakolatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Intellektual va pedagogik kompetentsiya-bilimlarni, kasbiy faoliyat tajribasini samarali o'qitish va tarbiyalashda qo'llash qobiliyati, o'qituvchining yangilik qilish qobiliyati.

2. Kommunikativ kompetentsiya-bu muhim kasbiy sifat, shu jumladan nutq qobiliyati, atrofda odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati.

3. Axborot kompetentsiyasi-o'qituvchining o'zi, o'quvchilari, ota-onalari, hamkasblari to'g'risidagi ma'lumotlar hajmi.

4. Refleksiv kompetentsiya-o'qituvchining xatti-harakatlarini boshqarish, his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati, aks ettirish qobiliyati, stressga chidamliligi.

5. Konstruktiv-o'quvchining shaxsini loyihalash, yoshi va individual qobiliyatlari bilan bog'liq holda o'quv materialini tanlash va tuzish qobiliyati [5, p 65].

O'qituvchining kasbiy malakalarining barcha turlari orasida eng muhimlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Ijtimoiy-psixologik.

Kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan xusiyat. Bu o'qituvchining pedagogik faoliyatini qanday tashkil qilishi va rejalashtirishi, talabalar faoliyatini tashkil qilishi, pedagogik faoliyatning tegishli usullari, vositalari, usullarini, nazorat va o'zini o'zi boshqarish usullarini, ta'lim sub'ektlarining fikr-mulohazalarini tanlashida namoyon bo'ladi.

2. Kasbiy va kommunikativ kompetentsiya.

Bu inson hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan asosiy kompetentsiyadir. O'qituvchi uning rivojlanishiga alohida e'tibor berishi kerak, chunki hozirgi kunga qadar eng dolzarb muammolardan biri o'qituvchining ota-onalar va bolalar bilan aloqasi muammosi edi. Ushbu kompetentsiya pedagogik aloqa va o'quv jarayoni sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyat darajasini belgilaydi.

3. Mavzu kompetentsiyasi.

Bular ma'lum bir mavzu sohasidagi muayyan harakatlarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyatlardir. Ta'lim sifatini yaxshilash va yaxshilash kontekstida u quyidagilarga moslashtirilgan pedagogik tizimdir: ilmiy bilimlar, faoliyat usullari, muammoli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati ko'rinishidagi ijodiy faoliyat tajribasi hisoblanadi.

4. Boshqaruv kompetentsiyasi.

Bu o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasining ajralmas qismidir. Pedagogik tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini taqdim etadi.

5. Axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasi.

Zamonaviy o'qituvchining axborot-kommunikativ kompetentsiyasi uchta asosiy jihatni o'z ichiga oladi: AKT sohasida funktsional savodxonlikning etarli darajasi mavjudligi; samarali asoslangan, ijtimoiy va shaxsiy vazifalar; AKTni ta'limdagi yangi paradigmaning asosi sifatida tushunish, bu o'quvchilarni axborot jamiyatining sub'ektlari sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

6. Refleksiv kompetentsiya.

Ta'lim jarayonida refleksiv kompetentsiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishining zarur elementi bo'lib xizmat qiladi. Bu uning faoliyatiga bo'lgan munosabatini, o'zini sub'ekt sifatida qabul qilish, tashkil etish va o'zgartirish qobiliyatini o'zgartirishdan iborat.

7. Innovatsion faoliyat sohasidagi kompetentsiya.

O'qituvchining innovatsion faoliyati-bu ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik innovatsiyalarni rejalashtirish va amalga oshirishning ijodiy jarayoni va bu bolalar bilan ishlashda pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ta'minlaydigan o'qituvchining bilimlari, ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlarini tizim hisoblanadi.

O'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablarga asoslanib, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning asosiy usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Malaka oshirish tizimi.

Malaka oshirishning kutilayotgan natijasi-xodimlarning kasbiy tayyorgarligi:

ta'lim xodimlarining zamonaviy ta'lim qadriyatlarini tizimiga maqbul kirishini ta'minlash;

asosiy ta'lim dasturining tuzilishiga qo'yiladigan talablarning yangi tizimini, uni ishlab chiqish natijalari va amalga oshirish shartlarini, shuningdek o'quvchilarning ta'lim faoliyati natijalarini baholash tizimini o'zlashtirish;

o'quv-uslubiy va axborot-uslubiy resurslarni o'zlashtirish.

2) O'qituvchilarni egallab turgan lavozimiga va malaka toifasiga muvofiqligini sertifikatlash.

Yangi yo'nalishlarni amalga oshirish vositalaridan biri bu pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishdir, uning vazifasi pedagog xodimlarning malaka darajasini, ularning metodologik madaniyatini, kasbiy va shaxsiy o'sishini maqsadli oshirishni rag'batlantirishdir.

3) O'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashi.

O'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni, ayniqsa, standartlarning asosiy g'oyasi bolada universal ta'lim harakatlarini shakllantirish bo'lganligi sababli dolzarb bo'lib qoldi. Faqat butun hayotini yaxshilagan o'qituvchi o'rganishni o'rgatishi mumkin.

4) uslubiy birlashmalar, o'qituvchilar kengashlari, seminarlar, konferentsiyalar, mahorat darslari, turli tanlovlar, tadqiqot ishlari, vebinarlar, loyihalarda faol ishtirok etish.

5) zamonaviy ta'lim texnologiyalari, uslubiy texnikalar, pedagogik vositalarga ega bo'lish va ularni doimiy ravishda takomillashtirish.

6) axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish.

7) o'zingizning pedagogik tajribangizni umumlashtirish va tarqatish, nashrlar yaratish, o'z blogingizni, saytingizni yuritish[7].

O'qituvchining kasbiy malakasi bolaning shaxsiyatini shakllantirishga eng muhim ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi doimo talab qilinadigan ma'lumot manbai bo'lishi kerak. O'qituvchining xabardorligiga bo'lgan talab nafaqat talabning akademik ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Uning axborotning o'ziga bo'lgan qiziqishi, unga bo'lgan ehtiyoji ham bir xil darajada muhimdir va bu talabning bilim va ko'nikmalarning qimmatli ahamiyatini shakllantirish bilan bog'liq. "Yomon o'qituvchi haqiqatni taqdim etadi, yaxshi o'qituvchi uni topishga o'rgatadi", deb yozgan nemis o'qituvchisi A. Disterveg (1790-1866). Shu

munosabat bilan o'qituvchini talabalarni bilish motivatsiyasining har xil turlariga yo'naltirish zarur.

Xulosa. Har bir mahoratli o'qituvchi shaxsan va professional ravishda o'sishi mumkin bo'lgan muayyan sharoitlar mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin: yangi bilimlarni olish, ko'nikmalarni takomillashtirish, shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi qadrlashni oshirish, hamkasblar orasida mahoratli pedagog sifatida ajralib turadi. Ushbu jarayonning uzluksizligi uning samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Bundan kelib chiqadiki, o'qituvchini takomillashtirishning eng muhim tarkibiy qismi bu doimiy ravishda o'zini o'zi tarbiyalash, zamon bilan hamnafas bo'lishga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all-4-5.
2. Tolipova J.O, G'ofurov A.T.-Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma "O'qituvchi" T.: 2002 - 128 bet.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат– Ташкент: Фан ва технологиялар, 2006. – 186 б.
4. Лукьянова М.И. психолого-педагогическая компетентност учителя// Педагогика -2001.-№10 с 56-61
5. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси /Монография. – Т.: "Фан ва технологиялар", 2013. – 128 б.
6. Kholmurodova, O. S., & Rakhmatov, U. E. (2022). Problems of improving teaching in the process of biological education. *Current research journal of pedagogics*, 3(02), 62-67.
7. Ergashevich, R. U., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Issues of using integrative knowledge in forming students'professional competence.
8. S.Z., J. . (2021). The Importance Of Developing Competence In Understanding And Interpreting Processes In Biological Objects Through Problem-Solving And Exercise. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 503–507. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue05-88>
9. Омонкулов, У. (2024). Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).
10. Doniyorov, M. (2023). "Biologiya darslarida pisa topshiriqlaridan foydalanish". *Biologiyaning Zamonaviy Tendensiyalari: Muammolar Va Yechimlar*, 1(5), 789–791. Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztmy/article/view/467>



G‘ulomjon PIRNAZAROV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD
E-mail: pirnazarovg@mail.ru

Toshkent amaliy fanlar professori, p.f.d. G‘.Hamroev taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEGAL COMPETENCE AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

This article describes the relevance of scientific research on the development of legal competence among students, the essence of the concepts of competence, legal competence, classification and description in world and Uzbek pedagogy, reviews and recommendations on the role of legal competence in the system of competencies.

Key words: Legal competence, competence, skills, qualifications, legal knowledge, legal culture, legal literacy

РАЗВИТИЕ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье описывается актуальность научных исследований процесса развития правовой компетентности у учащихся, сущность понятий компетентность, правовая компетентность, классификация и описание в мировой и узбекской педагогике, отзывы и рекомендации о роли правовой компетентности в системе компетencies.

Ключевые слова: правовая компетентность, компетенция, навыки, квалификация, правовые знания, правовая культура, правовая грамотность.

TALABALARDA HUQUQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Аннотация

Mazkur maqolada talabalarda huquqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini ilmiy tadqiq etishning dolzarbligi, kompetensiya, huquqiy kompetensiya tushunchalarining mazmun mohiyati, jahon va o‘zbek pedagogikasidagi tasnifi va tavsifi, huquqiy kompetensiyaning kompetensiyalar tizimida tutgan o‘rni borasida fikr-mulohaza va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy kompetensiya, kompetensiya, ko‘nikma, malaka, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik.

Bugungi pedagogikada kompetensiyaviy yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsiy, kasbiy va pedagogik kompetensiyalar qatorida huquqiy kompetensiyani rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qilinmoqda. Oliy ta‘limda talabalarining huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda bu borada ayrim tushunchalarga izoh berish zarurati mavjud. Bu borada huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, huquqiy kompetensiya tushunchalari o‘zaro farqli va aloqadorlikka ega. N.Gromova talabalarining huquqiy savodxonligi darajasini oshirishning jamoatchilik bilan aloqalarning uzoq muddatli rivojlanishiga ta‘sir, kelajakda universitet bitiruvchilarining ham, umuman davlatning ham kasbiy farovonligini ta‘minlash qayd etilgan[1]. O.Kolotkina talabalar o‘rtasida huquq sohasidagi universal kompetensiyalarni shakllantirishning bir qator yo‘nalishlarini shakllantiradi, ularga quyidagilar kiradi: turli xil huquqiy manbalardan zarur huquqiy ma‘lumotlarni qidirish va tahlil qilish qobiliyati; huquqiy sohada ishbilarmonlik aloqalarini o‘zlashtirish; o‘z-o‘zini tashkil qilish va yo‘nalish vektorini aniqlash qobiliyati huquqiy o‘z-o‘zini rivojlantirish[2].

“Huquqiy kompetensiya” tushunchasi oliy ta‘lim tizimi kompetensiya yondashuvi metodologiyasiga o‘tgandan keyin faol kompetensiyaning quyidagi turlari mavjud:

qo‘llanila boshlandi. Huquqiy kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs mehnat bozorida ko‘proq talabga ega, professional sohada harakatchan va martaba o‘shishiga ishonishi mumkin. Biroq, “huquqiy kompetensiya” tushunchasining o‘zi akademik o‘qituvchilar tomonidan “kompetensiya”, “kasbiy kompetensiya”, “kompetensiyalar” tushunchalariga nisbatan yetarlicha o‘rganilmagan.

“Kompetensiya” atamasi turli lavozimdagi olimlar tomonidan faol ko‘rib chiqilmoqda. Shunday qilib, D. Raven kompetensiyani professional funksiyalarni samarali bajarish uchun maxsus qobiliyat deb biladi[3].

I.Zimnaya, E.Zeer bir ovozdan kompetensiyani umumiy va universal kompetensiyalar to‘plami sifatida tan olishadi. T. Sorokina kompetensiyani nazariy va amaliy tayyorlik va mehnat qobiliyatining simbiozi deb biladi. Pedagogik ishlarni tahlil qilish “kompetensiya” atamasini ma‘lum bilim va ko‘nikmalarni (nazariy, uslubiy va amaliy daraja) egallash jarayonida shakllangan talaba shaxsining o‘ziga xos xususiyati sifatida ko‘rsatishga asos berdi. Ushbu bilim va ko‘nikmalar o‘qituvchining maqsadli ta‘sir o‘stida kompetensiyalarga aylanadi va shaxsning yagona sifati — kompetensiyani shakllantiradi[4].



1-shakl. Umumiy kompetensiyalar tarkibida huquqiy kompetensiyaning o‘rni

Olimlarning fikrlari bo‘yicha “kasbiy kompetensiya” tushunchasiga kelsak, ular bizga uni kasbiy funksiyalarni bajarish uchun olingan bilim va ko‘nikmalardan foydalanishning umumiy

qobiliyatida ifodalangan talabaning kasbiy ta‘limining shaxsiy mulki sifatida belgilashga imkon berdi.

“Huquqiy kompetensiya” atamasi pedagogika fanida “kompetensiya”ning murakkab tushunchasiga nisbatan kam

o'rganilgan. Shunga qaramay, bir qator olimlar bu atamaga e'tibor qaratdilar. Shunday qilib, I. Seryaeva huquqiy kompetensiyani bilimlarning huquqiy sohasidagi kompetensiyalar yig'indisi sifatida ko'rib chiqadi[5] va G.Sypacheva tartibga solish sohasida kasbiy funksiyalarni bajarishga nazariy va huquqiy tayyorgarlik va amaliy huquqiy tayyorgarlik hamjamiyati sifatida"[6] e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, "huquqiy kompetensiya" tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan belgilanadi (G.Bazakecheva, M.Ibragimov, A.Korotun, E. Rutkovskaya, I. A. sareva va boshqalar.) sifatida: shaxsiy va kasbiy xususiyat, huquqiy bilimlar sohasidagi kompetensiyalar tizimi mavjudligida namoyon bo'ladigan shaxsning murakkab mulki; uning nazariy va huquqiy tayyorgarligining yaxlitligi va asosiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan tavsiflanadigan faqat huquqiy xatti-harakatlarni namoyon qilish qobiliyati. huquq sohasi; berilgan me'yoriy-huquqiy baza doirasida professional ishlashga haqiqiy tayyorlik va qobiliyat; bu shaxsning shaxsiy mulki bo'lib, huquqiy qadriyatlarining ustuvorligini tanlashda, uning kasbiy funksiyalarni amalga oshirishda huquqiy bilim va ko'nikmalarning butun bagajidan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi[7]. I.Denisenko shaxsning huquqiy kompetensiyaini quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholash mumkinligiga e'tibor qaratadi: ta'lim darajasi va siyosiy xabardorlik; huquqiy sohada maxsus bilimlar to'plami[8] kabilar.

"Huquqiy kompetensiya" va "kompetensiya" tushunchalarining mohiyati va mazmunini tahlil qilish ulardagi umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi (talaba nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ko'nikmalar va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyatiga ega:

1) ularning umumiy xususiyatlari bo'yicha umumlashtirilgan;

2) mazmun jihatidan (huquqiy bilimlarning nazariy va amaliy yelementlarini birlashtirish darajasi va individual huquqiy kompetensiyalarni huquqiy kompetensiyalarda kasbiy faoliyatning ma'lum bir turiga bog'lash chuqurroq).

Olimlarning huquqiy kompetensiya tushunchasi haqidagi fikrlarini taqqoslab, ushbu shaxsiy xususiyat murakkab va quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin:

huquqiy kompetensiya kasbiy kompetensiyaning o'ziga xos turi va shaxsning sof shaxsiy xususiyati sifatida tan olinadi;

2) u nazariy va amaliy elementlarni birlashtiradi;

3) kasbiy ta'lim jarayonida maqsadli pedagogik ta'sir jarayonida shakllanadi.

8. United Nations Development Programme. (2019). Digitalisation and Youth Entrepreneurship in Asia and the Pacific. United Nations Development Programme. <https://www.asia-pacific.undp.org/content/rbap/en/home/library/enterprise-development/digitalisation-and-youth-entrepreneurship-in-asia-and-the-pacific.html>
9. World Bank. (2020). Digital Economy for Africa: Strengthening the Digital Ecosystem in Africa. World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/34328>



Nigora TURAYEVA,

The Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Languages Department

Reviewer: Dilnavoz Khalikova, candidate of philological sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

THE ROLE OF MEDIA CONTENTS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotation

This research article investigates the use of media contents, such as videos, audio recordings, and online articles, in teaching English as a foreign language (EFL). The study examines the benefits of using media contents, the different types of media contents that can be used, and effective strategies for incorporating media contents into lesson plans.

Key words: content, communication, foreign languages, influence, result.

РОЛЬ МЕДИАКОНТЕНТА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация

В данной научной статье рассматривается использование медиа контента, такого как видео, аудиозаписи и онлайн-статьи, в преподавании английского языка как иностранного (EFL). В исследовании рассматриваются преимущества использования медиа контента, различные типы медиа контента, которые могут быть использованы, и эффективные стратегии включения медиа контента в планы уроков.

Ключевые слова: содержание, коммуникация, иностранные языки, влияние, результат.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA MEDIA KONTENTLARING O‘RNI

Аннотасија

Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili (EFL) sifatida o'rgatishda videolar, audio yozuvlar va onlayn maqolalar kabi media kontentlardan foydalanish borasida so'z yuritiladi. Tadqiqot media-kontentlardan foydalanishning afzalliklari, ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil media kontentlar va media kontentlarni dars rejalariga kiritishning samarali strategiyalarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: kontent, muloqot, chet tillari, ta'sir, natija.

Introduction. In today's globalized world, proficiency in English is essential for communication, education, and career opportunities. However, teaching English effectively can be challenging, especially in foreign language contexts. Media contents offer a valuable resource for EFL teachers, providing authentic language input, enhancing engagement, and promoting cultural awareness. The utilization of media content in English language learning has garnered significant attention in recent years due to its potential to enhance language acquisition and engagement among learners. This review article critically examines the effectiveness of incorporating various forms of media, such as films, TV shows, podcasts, and social media platforms, in English language learning contexts. By synthesizing findings from existing research studies, this review explores the benefits, challenges, and best practices associated with integrating media content into language learning curricula. Additionally, the review discusses the impact of technological advancements and digital platforms on the accessibility and relevance of media resources for language learners. Through a thorough analysis of the literature, this review aims to provide insights into the practical implications of using media content to facilitate English language learning and offers recommendations for educators, curriculum developers, and policymakers.

Literature review. Scientists in the field of education and language acquisition generally hold positive opinions about the use of media contents in teaching English. They recognize the potential benefits of media contents for enhancing student engagement, providing authentic language input, and promoting cultural awareness.

Professor Emerita of Education at the University of Michigan, Dr. Diane Larsen-Freeman mentioned: "Media can provide authentic input, comprehensible input, and opportunities for interaction, all of which are essential for language learning."

Dr. Rebecca Oxford, Professor of Language Education at the University of Maryland, College Park: "Media can provide learners with opportunities to develop their critical thinking skills, cultural awareness, and intercultural competence."

One study by Zhang and Ma (2020) found that utilizing multimedia materials in English language teaching improved

students' motivation and engagement in learning [11]. Another study by Lin and Wu (2021) highlighted the importance of incorporating current news articles and videos in teaching English as a way to expose students to real-world language use [12].

Scientists also acknowledge that the effectiveness of media contents in language teaching depends on factors such as the appropriateness of the materials, the teacher's pedagogical skills, and the students' learning styles. However, they generally agree that media contents can be a valuable addition to the English language classroom [1].

Brunfaut, T. and Revesz, A. generally hold positive opinions about the use of media contents in teaching English. They recognize the potential benefits of media contents for enhancing student engagement, providing authentic language input, promoting cultural awareness, and developing critical thinking skills. While the effectiveness of media contents depends on various factors, scientists agree that they can be a valuable resource for EFL teachers [8].

Furthermore, media content can help develop students' critical thinking skills and cultural awareness as they engage with different perspectives and voices in English language media. By analyzing and discussing media texts, students can improve their language proficiency while also gaining insights into different cultures and worldviews.

Research methodology. Media content such as movies, music, news articles, and social media platforms can be effective tools in teaching English languages. These materials provide real-life examples of the language being used in context, making it more engaging and relevant for students. One way to incorporate media content in teaching English is through listening and watching activities. Teachers can play audio clips or video segments for students to listen to or watch, and then engage them in discussions or activities based on the content. This can help improve listening and comprehension skills, as well as introduce students to different accents and dialects [3].

Media content can also be used to teach vocabulary and grammar. Teachers can select articles or songs that contain specific vocabulary or grammar structures that they want to focus

on, and create exercises or activities for students to practice using these language elements.

In addition, media content can provide cultural insights and broaden students' understanding of the English language. By exploring different types of media from various English-speaking countries, students can learn about cultural customs, traditions, and current events, while also improving their language skills. One of the key advantages of using media contents in teaching English is that they expose learners to real-life language use and provide opportunities for practicing listening, speaking, reading, and writing skills in a meaningful context. This can help learners develop their language proficiency and improve their communication skills. Media contents also offer a rich source of cultural information, allowing learners to gain insights into different aspects of the target language and culture. This can be particularly beneficial for developing intercultural competence and promoting global awareness among students [4].

Moreover, media contents can cater to different learning styles and preferences, making the learning process more enjoyable and engaging for students. For example, visual learners may benefit from watching videos or films, while auditory learners may prefer listening to podcasts or music. In addition, media contents can be easily integrated into lesson plans and can be used to supplement traditional teaching materials. Teachers can use them to introduce new vocabulary, grammar structures, and pronunciation patterns, as well as to spark discussions and debates in the classroom.

Analysis and results. The influence of media contents in teaching English is significant as it allows for immersive and engaging learning experiences. Media such as videos, podcasts, articles, and social media posts provide authentic and contextualized language input for learners. By incorporating media into English language teaching, educators can enhance students' language skills in listening, speaking, reading, and writing.

Moreover, media content can also serve as a springboard for discussions and activities that promote critical thinking, cultural awareness, and cross-cultural communication skills. For example, students can watch a news broadcast or documentary on a current event and then engage in a debate or role-playing activity to practice their speaking and discussion skills.

Incorporating media content into ESL instruction can also make learning more enjoyable and relevant for students, as it allows them to engage with content that is interesting and relatable to their daily lives and interests. By using multimedia resources that reflect the diverse interests and backgrounds of learners, instructors can create a more inclusive and engaging learning environment that motivates students to actively participate and learn [12].

Benefits of Using Media Contents: Research has shown that using media contents in EFL teaching offers several benefits, including:

Authentic language input: Media contents expose learners to natural and contextually relevant language used in real-life situations.

Enhanced engagement and motivation: Engaging media contents can capture students' attention and make learning more enjoyable and motivating.

Improved listening and speaking skills: Videos and audio recordings serve as models for authentic pronunciation, intonation, and fluency, aiding students in developing their spoken English abilities.

Cultural awareness: Media contents from different cultural contexts promote cross-cultural understanding and broaden students' perspectives.

Scaffolding for language learning: Teachers can utilize media contents to introduce new vocabulary, grammar structures, or cultural concepts in a structured and engaging manner.

Enhanced engagement and motivation: Engaging media contents can capture students' attention and make learning more enjoyable and motivating.

Improved listening and speaking skills: Videos and audio recordings serve as models for authentic pronunciation, intonation, and fluency, aiding students in developing their spoken English abilities.

Cultural awareness: Media contents from different cultural contexts promote cross-cultural understanding and broaden students' perspectives.

Conclusion. To maximize the benefits of using media contents in the classroom, teachers can employ the following strategies:

Select media contents that align with students' level and interests: Choose materials that are appropriate for students' language proficiency and resonate with their personal interests.

Preview and prepare: Familiarize yourself with the media content beforehand to identify potential teaching points and prepare any necessary materials or activities.

Provide pre-viewing or pre-listening activities: Engage students with warm-up activities or discussions to activate their prior knowledge and prepare them for the media content.

Use media contents as a springboard for discussion, activities, and projects: Encourage students to critically analyze the content, express their opinions, and engage in follow-up tasks to deepen their understanding.

Encourage reflection: Prompt students to reflect on the media content and make connections to their own experiences, fostering critical thinking and personal growth.

Media contents can be integrated into lesson plans in diverse ways:

Warm-up activities: Begin lessons with engaging media clips or audio recordings to introduce the topic and stimulate students' interest.

Language practice: Use media contents as models for listening comprehension exercises, pronunciation practice, or fluency development activities.

Cultural exploration: Expose students to different cultures through media contents, fostering intercultural understanding and global awareness.

Project-based learning: Assign projects that involve students creating their own media content, such as videos, podcasts, or online articles.

Homework assignments: Provide students with media content to review or analyze outside of class, reinforcing learning and promoting independent study.

By incorporating media contents into their teaching, educators can create a more engaging, authentic, and culturally relevant learning experience for their English language students.

Overall, incorporating media content in teaching English languages can make lessons more engaging, relevant, and dynamic for students. It can help them to develop their language skills in a more authentic and realistic way, while also providing valuable cultural insights. The use of media contents in teaching English is a valuable and effective approach to create dynamic and interactive learning environments for language learners. Educators should continue to explore innovative ways to integrate media into their teaching practice to support student language acquisition and engagement.

REFERENCES

1. Smith, A., & Johnson, B. (2020). The Role of Films in English Language Learning: A Systematic Literature Review. *Journal of Language Education*, 15(2), 87-102.
2. Lee, C., & Brown, K. (2019). Leveraging Podcasts for Vocabulary Acquisition in ESL Classrooms. *TESOL Journal*, 25(3), 45-60.
3. Williams, D., & Garcia, M. (2018). Integrating Social Media Platforms for Language Practice: A Case Study of English Learners. *Journal of Educational Technology*, 12(4), 211-225.

4. Chen, L., & Nguyen, H. (2017). Enhancing Listening Skills through TV Shows: A Comparative Analysis of Two Approaches. *International Journal of Applied Linguistics*, 30(1), 56-71.
5. Brown, S., et al. (2016). Digital Learning Environments and English Language Proficiency: An Exploratory Study. *Educational Technology Research and Development*, 20(3), 112-128.
6. Hsu, H. Y., & Kuo, C. (2019). The Effects of Using News Articles on College EFL Students' Reading Comprehension. *Journal of Language Teaching and Research*, 10(6), 1217-1224.
7. Salehi, H. (2017). The Audio-Visual Method in Teaching English as a Foreign Language in Iranian Junior High Schools. *Journal of Applied Linguistics and Language Research*, 4(7), 289-299.
8. Brunfaut, T. and Revesz, A., (2016). *The role of language processing in second language acquisition and foreign language teaching*. Cambridge University Press.
9. Chapelle, C.A., (2019). *The role of technology in language teaching and learning: A research perspective*. John Wiley & Sons.
10. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language teaching*, 31(2), 57-71.
11. Zhang, Y., & Ma, Y. (2020). Integrating multimedia materials for improved learning outcomes in English language teaching. *International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology*, 16(2), 87-101.
12. Lin, C. H., & Wu, Y. R. (2021). Using online news articles and videos in English language teaching: A case study. *Journal of Language Teaching and Research*, 12(1), 169-181.
13. Warschauer, M. (2004). *Technology and social inclusion: Rethinking the digital divide*. MIT Press.
14. Barrera, N. (2016). Using multimedia in the ESL classroom. In M. S. Plakias (Ed.), *TESOL encyclopedia of English language teaching*. Wiley.
15. Rilling, S. (2013). Integrating media into your language teaching. *Teaching English with Technology*, 13(1), 17-32.
16. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
17. Nunan, D. (2003). *Practical English Language Teaching*. McGraw-Hill.
18. Brown, H.D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
19. Oxford, R.L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Newbury House Publishers.
20. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Longman.



UDK: 378.013:17.022.1

Aziza TURGUNOVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD
E-mail: aziza.turgunova.88@mail.ru

Islomshunoslik fanlari doktori, professor I.Bekmirzayev taqrizi asosida

ISLOMDA KEKSALAR – IBRAT MAKTABI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada islom dinida keksalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ulug‘lash, tarbiya va tajriba metodlaridan samarali foydalanish shuningdek, bugungi axborotlashgan jamiyatda talabalarni axloqiy negizida bo‘shliqqa olib keladigan zo‘ravonlik, shafqatsizlik kabi destruktiv xatti-harakatlardan himoya qilishda keksa avlod vakillarining konstruktiv diniy bilimlari ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: islom dini, hadislar, tarbiya, axloq, keksa avlod, shukronalik, g‘amxo‘rlik, an‘ana.

ПОЖИЛЫЕ В ИСЛАМЕ КАК ШКОЛА ПРЕПОДАВАНИЯ

Аннотация

В статье рассматривается эффективное использование методов ухода за пожилыми людьми в религии Ислам, прославление, образование и опыт, а также защита пожилого поколения от деструктивного поведения, такого как насилие и жестокость, которые приводят к пустоте в На моральную базу студентов в современном информационном обществе положительно влияет конструктивное религиозное знание его представителей.

Ключевые слова: ислам, хадисы, воспитание, этика, старшее поколение, благодарность, забота, традиция.

ELDERLY IN ISLAM AS A SCHOOL OF TEACHING

Annotation

The article discusses the effective use of elderly care methods in the religion of Islam, glorification, education and experience, as well as protecting the elderly generation from destructive behavior such as violence and cruelty, which lead to emptiness in the moral base of students in the modern information society is positively influenced constructive religious knowledge of its representatives.

Key words islam, hadiths, upbringing, ethics, older generation, gratitude, care, tradition.

Kirish. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ko‘p yillik tajribaga ega, ijtimoiy faol, mehnatsevar, mas‘uliyatli keksalarimiz kamarbasta bo‘lib turibdi. Avlodlar o‘rtasidagi hamkorlik va izchillikni ta‘minlashda milliy qadriyatlarimiz bilan birga islom dinining manbalarida keksalarni ulug‘lash, ularning purma‘no maslahat va o‘g‘itlariga amal qilish har doimgidan ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi «Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida «Bir nuroniy o‘n yoshga mas‘ul» tamoyiliga muvofiq yoshlar har bir mahalladagi hayotiy tajribaga ega bo‘lgan zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniyarga birlashtirilish, boy hayotiy tajribaga ega ziyoli, hunarmand, tadbirkor, fermer va boshqa soha vakillari bo‘lgan nuroniyalar hududlardagi barcha ta‘lim muassasalariga birlashtirish, «Nuroniy har bir oilaga mas‘ul» loyihasi asosida oilalardagi ahillik, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash maqsadida muammoli oilalarning har biriga «Keksalar maslahati» guruhlarning bir nafardan a‘zolari birlashtirish[1] masalalari belgilab berilgan.

Keksa avlod vakillarining bag‘rikengligi, uzoqni ko‘ra olish qobiliyati, ilm va ma‘rifatda donoligi, muomalada xulq-atvorining go‘zalligi, turmushni yuritishdagi ozoda va pokizaligi, ulardagi halollik, olijanoblik, kamtarlik, shukronalik fazilatlarini, oiladagi mo‘tadil, iliq iqlimni yaratish, shu bilan birga o‘rmda qattiqqo‘l va boshqaruvdagi tajribalaridan bugungi axborotlashgan jamiyatda talabalarni axloqiy negizlari buzilishiga olib keladigan turli yot g‘oyalardan asrash, ularni ijtimoiy hayotda uchraydigan turli muammolarga yechim topishga o‘rgatish, huquq va erkinliklarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda o‘z namunali hayotiy tajribasi hamda diniy qadriyat va nazariy ilmning sirlarini egallagan keksa avlodning ibratini, namuna va tarbiya manbalari asosida yoshlarni axloqan pok, vatanparvar, ajdodlar an‘anasiga sodiq, tashabbuskor, sabrmatonatli, shirinso‘z, halol va sog‘lom e‘tiqodga ega insonlar etib tarbiyalashda ijobiy samaraga erishish mumkin.

O‘zbek oilalarida avlodning tajribasi va tafakkurining yoshlar tomonidan qabul qilinishi milliy va diniy qadriyatlar asosida amalga oshiriladi. Islom ta‘limotiga ko‘ra keksalarni ulug‘lash, tarbiyada keksalar tajribalariga tayanish payg‘ambarlar sunnati hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom dinining muqaddas manbasi Qur‘oni karimda keksalarga yahshilik qilish, hurmat bilan munosabatda bo‘lishga oid oyatlarning ko‘pligi yoshi katta insonlarga nisbatan munosabatning ulug‘vorligidan dalolat beradi.

Umrning ana shu o‘ta keksalik bosqichi Qur‘oni karimda «arzalul umr» (eng tuban umr) deyilgan: «Sizlarni Alloh yaratdi. So‘ngra vafot ettiradi ham. Sizlarning orangizda eng tuban umr ko‘rishga (keksayib, zaif holatga) qaytarilib, ilgari bilgan narsalarining hech birini bilmay qoladigan kishilar ham bordir. Albatta, Alloh bilimli va qudratlidir» (Nahl 70).

Isro surasida: «Parvardigoringiz, yolg‘iz Uning O‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uff» tortma va ularning (so‘zlarini) qaytarma! Ularga doimo yaxshi so‘z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut – xokisor bo‘l va: «Parvardigorim, meni (ular) go‘daklik chog‘imdan tarbiyalab-o‘stirganlaridek, sen ham ularga rahm-shafqat qilgin», deb (haqlariga duo qil!)» [6].

Ota-onaga «uff» demaslik so‘zini Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf «Keksalarni e‘zozlash» asarida ikki xil ma‘noda ta‘rifini keltiradi. Bir ma‘nosi – «Ota-onaga yomon so‘z aytib, behurmat qilma» degani bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi – «Ota-onang oldida «uff», dema, ular «Bolam og‘ir holga tushibdi», deb ozorlanadilar» deganidir[8]. Ushbu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, ota-onaga «uff» deyish bilan xam ozor bermaslik, ularga mehribon, itoatda bo‘lish buyuriladi.

Binobarin, islom ta‘limotida, yoshlar tarbiyasi va ta‘limiga alohida ahamiyat qaratilib, payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v.) ham: «Farzandlaringizga suvda suzishni, kamonda otishni, nayza uloqtirishni va otda chopishni

o'rgatishlar» [4], deyдилar. Darhaqiqat, har bir yosh zamon talabidagi ilmlarni egallamog'i lozim.

O'zbek oilalarida ayrim farzandlar o'z halovatini o'ylab keksayib qolgan ota-onalarini g'aribxonalariga joylashtirib keladi, farzandlar ertaga o'zlarini ham ushbu qismat kutayotganini o'ylamaydilar. Holbuki, ota-onalari keksayganda xizmatlarini qilib, duolarini olmagan farzand qarg'ishga uchrashi haqida hadislar keltirilgan. Abu Hurayra(r.a.) aytadilar: «Xor bo'lsin, xor bo'lsin, xor bo'lsin!» – o'n marotaba takror qildilar. Shunda sahobalar: «Yo Rasululloh, kimni aytayapsiz?», – deb so'rashdi. Rasululloh(s.a.v.): «Ota-onasining ikkalasi yoxud bittalari keksayib qolgan vaqtida (ularni rozi qilmay) o'zini do'zaxga tushishga muhtalo etgan kishini», – dedilar. Ushbu hadislar zamirida tug'ilib, ajdodlar tajribasida sinalgan «Ota rozi – Xudo rozi» naqli ham keksa avlodni hurmat qilish an'anasini shakllantirishda ayri xizmat qiladi. Binobarin, keksa avlodni hurmat qilish, ehtiyotkorona avaylash, ehtiyojlarini ta'minlash o'zbek oilalarining betakror fazilatlariga aylangan.

Hadisi shariflarda ham keksaliklarga g'amxo'rlik qilish, maslahat va o'g'itlariga amal qilishga alohida urg'u beriladi. Jumladan, Abdulloh ibn Busrdan rivoyat qiladi: «Bir arabiy: «Ey Allohning Rasuli, odamlarning yaxshisi kim?» dedi. Umri uzun, amali go'zal bo'lgan odam» dedilar.

Ushbu mazmunda Termiziydan rivoyat qilingan. «Odamlarning eng yaxshisi kim?». Nabiy salallohu alayhi vasallam ushbu qisqa va balog'atli savolga juda xam qisqa javob berdilar. «Umri uzun va amali go'zal bo'lgan odam» bed javob bergan. Demak, uzoq umr ko'rish odamlarning yaxshisi bo'lish uchun omil bo'lar ekan [8].

Yana bir hadisda Ibn Abbos roziyallohu anhumodan naql qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: «Yaxshilik (boshqa rivoyatida: baraka) kattalaringiz bilan birgadir». Ibn Hibbon rivoyati.

Arab hikmatlarining birida: «Uch narsa kishi aqlini peshlaydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi hayotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilishdir» deyilgan. Islom dinida keksalar bilan munosabatda ularga nisbatan hurmat-ehtirom ko'rsatish ta'kidlanadi. Rasuli Akram (s.a.v.) shunday marhamat qiladilar: «Musulmon keksa kishini ikrom qilish Alloh taoloni ulug'lash (ta'zim qilish)dandir» [3]. Yoki boshqa bir joyda shunday buyuradilar: «Har bir kishi keksa yoshda bo'lgan shaxsning maqomi va fazilatini yoshiga qarab bilsa va uni hurmat-ehtirom qilsa, Alloh taolo uni oxiratdan qo'rqish va xavotirlanishdan omonda saqlaydi» [2] deyiladi. Sa'd ibn Muoz (r.a.) aytadi: Rasululloh (a.s.): «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga Tubo nasib bo'lib, Alloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi» deydi.

Imom al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» kitobining I-bobi «Alloh taoloning «va insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni tavsiya qildik» degan qavli haqida» deb nomlangani xam musulmon odobi va madaniyatida yoshi katta insonlarga munosabat oliy qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Allomaning ushbu asarida «Kattalar fazli», «Kattalarga hurmat ko'rsatish», «Gap va savol berishni kattalar boshlashi» nomli uch bobga ajratadi.

Imom Buxoriyning yana bir shox asari «al-Jome' as-sahih»da «Ota-onasiga yaxshilik qilgan kishining duosi qabul bo'lishi haqida» degan alohida bob ajratib, u yerda g'orda qamali qolib, bajargan xayrli amalini vasila qilgan uch kishi haqidagi hadisni keltiradi. Ulardan biri o'zining xayrli amali sifatida ota-onasiga ko'rsatgan sadoqati, hurmati va mehr-muruvvatini shunday hikoya qiladi:

«Allohim! Mening yoshi ulug', keksa ota-onam, yosh go'daklarim bor edi. Ular uchun chorva boqardim. Huzurlariga qaytgach, sut sog'ar, so'ng bolalarimdan oldin ota-onamga ichirishdan boshlar edim. Bir kuni o't-o'lan izlab uzoqlashib ketib, kech tushguncha kela olmadim. Kelsam, ikkovlari uxlab qolishgan ekan. Odatdagidek, sutni sog'dim va sut kosani olib kelib, ularning bosh tomonlarida turdim. Ularni uyqudan uyg'otgim kelmadi, ulardan oldin (ichirishni) bolalardan boshlashni ham istamadim. Bolalar ochlikdan oyog'im ostida chiqirishar edi. Men ham, ular ham shu alfozda tong ottirdik. Agar meni shu ishini sening vajhingni istab qilgan, deb bilsang, bizga najot ber». Shunda Alloh tirqish ochdi va osmonni

ko'rdilar[5]. Hikoyada keltirib o'tilganidek, hadislariga ko'ra keksalarni ulug'lash, qadriga yetish, marhamat ko'rsatish, shu bilan birga yoshlar ham ularni eshitishi, boy hayotiy tajribalari asosida o'z ta'lim-tarbiyasi, yurish-turishini nazorat qilishi talab qilinadi.

I.Usmonov, K.Shermuhamedov, Sh.Jo'rayev va b.larning «Islomda keksalar qadri» kitobida «Islom dinida keksalar millati, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar ularning barchasiga bab-baravar hurmat-ehtirom ko'rsatilishi» alohida ta'kidlanadi[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Bolaning ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarini shakllantirishda oilaning roli muhim hisoblanib, oila muhitida bobolar o'g'iti, momolar pand-nasihatlari orqali singdirib boriladi. Bu qadriyatlar bolaning ilk yoshlik yillaridan alla, ertak, maqollar va topishmoqlar orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga ota-ona ibrati, mehr-muhabbati, katta avlodning barcha xatti-harakati ibrat namunasi orqali amalga oshiriladi. Bu o'ziga xos ta'limiy-tarbiyaviy jarayon.

Mazkur jarayonda oilaning kattalari – bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar ham bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Ularning bir-biri bilan aloqasi, mehri, «silayi rahm»ga amal qilishi misolida yoshlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Payg'ambar (s.a.v.) hadislarida ham musulmonlar «silayi rahm»ga chaqirilib, qarindoshlik aloqalarini uzganlarni oxiratda og'ir sinovlar kutayotganligi haqida ogohlantirilgan. Shu bilan birga, yoshi ulug' qarindoshlar bilan bog'lovchi qarindoshlik aloqalarining savobi bundanda ulug'roq bo'lishi ta'kidlab o'tilgan.

Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, ilm olishga ishtiyoq, qadriyatlariga hurmat, mas'uliyat va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bolalarning ta'limi va tarbiyasi maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi hamda borish majburiy hisoblanmaydi. Yurtimizda bu tizim azaliy qadriyatlar, musulmon an'analarga ko'ra oilaning kattalari – bobolar va buvilar mas'ulligida amalga oshiriladi.

Tahlillardan kelib chiqib keksa avlod tajribalarining oiladagi tarbiyaviy funksiyalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- avlodlar vorisligini ta'minlash;
- milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- konstruktiv diniy (duo va zikrlarni o'rganish, silai rahm, shukronalik) bilimlarga o'rgatish
- estetik, jinsiy, huquqiy, ekologik, mehnat tarbiyasiga o'rgatish;
- hayot haqidagi dastlabki bilimlarga o'rgatish;
- yaxshi fazilatlar, halollik, xushmuomalalikka o'rgatish;
- ma'naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy kamolot uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlarini shakllantirish.

Tahlil va natijalar. Keksalar avlod vakillarining yoshlar tarbiyasi va ta'limida boy diniy-pedagogik tajribalarini tahlil qilar ekanmiz, oilalardagi axloqiy meyorlar, umuminsoniy fazilatlar hamda qadriyatlariga amal qilish; milliylik, ijodiylik, jamoaviylik, kengfe'llik, funksional vazifalarni ta'minlash; bola tarbiyasidagi sharqona tarbiyaning metod, usul va vositalarini qo'llash; ustoz-shogird munosabatlarini rivojlantirish, avlodlar o'rtasidagi do'stona hamkorlik va ijobiy munosabatlarni ta'minlashda asosiy ishtirokchi va boshqaruvchi ekanligini kuzatamiz.

Odatda jamiyatda avlodlar o'rtasidagi mentalitet farqlari juda katta va buning natijasida ular o'rtasidagi tom ma'nodagi mulqotni yo'lga qo'yish murakkab degan fikrlar shakllangan. Ammo, aslida bunday emas. Ilmiy va ijtimoiy soha vakillarining asosiy vazifasi ular o'rtasidagi mulqot, loqalarni vujudga keltirish va natija kutish ekanligini unutmazlik lozim.

Haqiqatan, hayotning achchiq-chuchugini tatib, turli sinovlarda toblanib zakovat timsoliga aylangan keksa avlodning ezgu o'git-nasihatlari yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotining mustahkam poydevori hisoblaniladi. Oila har bir insonning ma'naviy axloqiy jihatdan shakllanishi uchun eng qadri maskandir. Shunday ekan, keksalarning diniy qadriyatlar asosida toblangan hayotiy tajribasi, ibrati, sabog'i orqali oilada shaxslararo munosabatlarni tashkil etish insonni komillik, odob-axloq sari yetaklashi shubhasizdir.

Keksalarning Qur'on oyatlari va hadislaridan keltirayotgan ibratli so'zlari, odob-axloq, tarbiya, milliy fazilatlar haqidagi hikmatlari hayot maktabi orqali yoshlar ongi, tafakkuri, tarbiyasi, odob-axloqi, bilimini rivojlantiradi. Keksalar o'rganadi, to'playdi, tarqatadi va yana o'zi ham oladi. Keksalik avlodlar vorisligini ta'minlaydi, yangidan-yangi shaklga aylanib boradi. Keksalarning tajribasi va tarbiya resurlaridan samarali foydalangan, anglay bilgan, shunga ergashgan insongina o'zining taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanlay oladi.

Xulosa va takliflar. Yoshlarning keksalar oldidagi mas'uliyati, saodatmand farzand bo'lishning fazilatlarini, ularga itoat qilish, «uf» deyish bilan xam ozor bermaslik, ota-onaga oq bo'lish, yomonlik qilishning sal'biy oqibatlarini hadis ilmidagi

«birrul volidayn» ni jamiyat milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'rgatish tarbiyaviy zarurat ekanligi;

Axborotlashgan jamiyatda talabalarni axloqiy negizida bo'shliqqa olib keladigan zo'ravonlik, shafqatsizlik kabi destruktiv xatti-harakatlardan himoya qilishda keksa avlod vakillarining konstruktiv diniy (duo va zikrlarni o'rganish, silai rahm, shukronalik) bilimlari ijobiy ta'sir ko'rsatishi an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar integratsiyalashuvini ta'minlash orqali aniqlashtirish.

Yoshlarda to'g'ri e'tiqod, millatlar va dinlararo bag'rikenglik muhitini ta'minlashda gerontopedagogikaning milliy qadriyat, diniy-axloqiy tarbiyaga oid hayotiy tajribasi hamda intellektual salohiyatidan foydalanish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi «Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori
2. Abu Dovud Sijistoni. Sunani Abu Dovud. – J.7. – Bayrut: Dor ar-Risala al-Olamia, 2009. – B. 212.
3. Ahmad ibn Husayn al-Bayhaqi. Jome'li Shuab al-imon. – J:13. – Riyoz: Maktaba ar-Rushd, 2003. – B. 360.
4. Ali ibn Hisomiddin al-Hindiy. Kanz al-ummal. – J: 4. – Bayrut: Muassasa ar-Risala, 1985. – B. 467.
5. Imom al-Buxoriy "Al-jome' as-sahih". Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimai. T.: Qomuslar Bosh tahririyati 1991
6. Исро сураси 23-24-оятлар. Таржима ва изоҳ муаллифи: Шайх Аловуддин Мансур. Қуръони Азим таржимаси. – Тошкент, 2019. – 628 б.
7. Усмонов И., Шермухамедов К., Жўраев Ш. ва б. Ислонда кексалар кадри. Тошкент: Тошкент ислом университети, 2015 – 104 б.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Кексаларни эъозлаш. Hilol nashr, 2021. – Б. 39



Luiza TURDIQULOVA,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi
E-mail: luiza.turdiqulova@gmail.com

Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD U.Yoziyeva taqrizi asosida.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF STRATEGIC DEVELOPMENT OF MUTUAL COOPERATION BETWEEN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION AND PARENTS

Annotation

The methodical possibilities of development of cooperation between educators and parents are currently reflected in a number of normative documents. Today, this problem is being discussed by pedagogues, psychologists, parents, and sociologists. All principles, standards and structures of mutual relations between the parents of the pupils and the educators-pedagogues of the preschool educational organization are observed. The process of development of pedagogical cooperation consists of the following elements: pre-adaptation work, adaptation work, methodological work, organizational work. Introduction to the process: parents with their wishes, needs and forecasts; educators-pedagogues with their plans and programs, but the most important thing is to provide education and training to a child who comes to a preschool educational organization.

Key words. Educator, pedagogue, father, mother, cooperation, problems, relationships, plans, programs, education, upbringing.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ВЗАИМНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РОДИТЕЛЕЙ

Аннотация

Методические возможности развития сотрудничества педагогов и родителей в настоящее время отражены в ряде нормативных документов. Сегодня эту проблему обсуждают педагоги, психологи, родители, социологи. Соблюдаются все принципы, стандарты и структуры взаимоотношений между родителями воспитанников и воспитателями-педагогами дошкольной образовательной организации. Процесс развития педагогического сотрудничества состоит из следующих элементов: преадаптационная работа, адаптационная работа, методическая работа, организационная работа. Введение в процесс: родители со своими пожеланиями, потребностями и прогнозами; воспитатели-педагоги со своими планами и программами, но самое главное – это обучение и воспитание ребенка, поступающего в дошкольную образовательную организацию.

Ключевые слова. Воспитатель, педагог, отец, мать, сотрудничество, проблемы, отношения, планы, программы, образование, воспитание.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKOLIKNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Tarbiyachi-pedagog va ota-ona hamkorligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari g'oyasi bir qator me'yoriy hujjatlarda aks etgan. Bugungi kunda bu muammo pedagoglar, psixologlar, ota-onalar, sotsiologlar tomonidan muhokama qilinmoqda. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning barcha tamoyillari, standartlari va tuzilmalariga rioya qilinadi. Pedagogik o'zaro hamkorlikni rivojlantirish jarayoni quyidagi elementlardan iborat: moslashishdan oldingi ishlar, moslashtirish ishlari, uslubiy ishlar, tashkiliy ishlar. Jarayonga kirish: ota-onalar o'z istaklari, ehtiyojlari va prognozlarini biln; tarbiyachi-pedagoglar rejalarini va dasturlari bilan, lekin eng muhimi, maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan bolaga ta'lim va tarbiya berishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar. tarbiyachi, pedagog, ota, ona, hamkorlik, muammolar, munosabatlar, rejalar, dasturlar, ta'lim, tarbiya.

Kirish. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni strategik rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Hozirgi kunda amaliyot va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu bir qancha sabablar bilan izohlanadi:

bolalar sog'lig'ining yomonlashishi (aqliy, jismoniy); ijtimoiy himoyalanmagan ota-onalar va bolalar foizining ko'payishiga olib keladigan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ijtimoiy-psixologik tashvish, charchoq, moddiy va iqtisodiy funksiyalarni oila ichida qayta taqsimlash, inqirozlar fonida oilaviy hayotni tashkil etishdagi qiyinchiliklar;

ota-onalarning shaxsiy muammolari: charchoq, ruhiy va jismoniy stress, hayot xavfsizligining pasayishi tufayli tashvishlanish, yolg'izlik tuyg'usining kuchayishi (ayniqsa, to'liq bo'lmagan oilalarda), o'zaro tushunishning yetishmasligi va h.k.

Shu bois, so'nggi yillarda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ota-onalar farzand tarbiyasi uchun javobgardir, qolgan barcha ijtimoiy esa ularning tarbiyaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga va to'ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi[2]. Shunga muvofiq, maktabgacha ta'lim

tashkilotining oila bilan ishlashdagi pozitsiyasi o'zgarib bormoqda. Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti nafaqat bolani tarbiyalaydi, balki ota-onalarga bolalarni tarbiyalash bo'yicha maslahat beradi. Pedagog nafaqat bolalar tarbiyachisi, balki ularni tarbiyalashda ota-onaning hamkori hisoblanadi.

Bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishning metodik imkoniyatlari xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, bu tarbiyachilar va ota-onalarning bolalarni tarbiyalashda birgalikda ishlashga ijobiy hissiy munosabati. Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti ularga har doim pedagogik muammolarni hal qilishda yordam berishiga va shu bilan birga ularga zarar yetkazmasligiga ishonishadi, chunki oilaning fikri va bola bilan muloqot qilish bo'yicha takliflar inobatga olinadi. Tarbiyachilar bolada mas'uliyat hissini shakllantirish masalasida ota-onalardan ma'lumot olishadi[1].

Ikkinchidan, bu hamkorlikda bolaning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Tarbiyachi oila bilan doimiy aloqada bo'lib, o'z tarbiyalanuvchisining o'ziga xos xususiyatlari, odatlarini biladi va mas'uliyat hissini shakllantirishda ularni hisobga oladi, bu esa, o'z navbatida, pedagogik jarayon samaradorligining oshishiga olib keladi.

Uchinchidan, ota-onalar mustaqil ravishda maktab yoshida bolani rivojlantirish va tarbiyalashning kerakli yo'nalishini tanlashi va shakllantirishi mumkin. Shunday qilib, ota-onalar farzand tarbiyasi uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar.

To'rtinchidan, bu maktabgacha ta'lim tashkilotida va oilada bolada mas'uliyat hissini shakllantirishning yagona dasturini amalga oshirish imkoniyati.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining zamonaviy sharoitida ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari ustuvor vazifa bo'lib, jamiyat hayotida ro'y berayotgan bu tendensiyalarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Mutaxassislar fikricha, hamkorlik jarayonida tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi muloqot ochiqlik, o'zaro tushunish va ishonch tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak. Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatlarining asosiy ijtimoiy mijozlari hisoblanadi, shuning uchun tarbiyachi-pedagoglarning harakatlari oila manfaatlarini va ehtiyojlariga asoslangan bo'lishi kerak. Aynan shuning uchun ko'plab bolalar bog'chalari ota-onalarning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga oladigan va ota-onalarning faol pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan ishning yangi shakllari va usullarini izlashga qaratilgan[4].

Maktabgacha ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalar natijalariga ko'ra, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ishlashda ijtimoiy mavqeni, oilaning mikroiklimini, ota-onalarning qiziqishlarini va ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga qiziqish darajasini hisobga olgan holda differensial yondashuvga ega bo'lishi kerak. Bunda oilaning pedagogik savodxonlik madaniyatidan kelib chiqqan holda ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishning o'zaro talablari ham shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligini ta'minlash va saqlash faqat tarbiyachilar va ota-onalarning sa'y-harakatlarini birlashtirish orqali mumkin bo'ladi. Bolalar bog'chasi va oila o'rtasidagi hamkorlikka bo'lgan munosabat samarali o'qitish va ta'lim-tarbiya jarayonining markazidir.

Shunga asoslanib, tarbiyachi-pedagoglarning maqsadi bolani oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, ota-onalarni to'la-to'kis ta'lim jarayonining ishtirokchisiga aylantirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning tizimli o'zaro ta'siri natijasida bolalarni maktabga tayyorlashning yuqori sifatiga erishish, ota-onalar va bolalarning qiziqishlarini to'liq qondirish mumkin. Chunki barkamol insonni tarbiyalashning bu murakkab jarayonidagi muvaffaqiyati- tarbiyachilarning kasbiy mahorat darajasiga va ota-onalarning pedagogik madaniyatiga bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ham yangi munosabatlarni nazarda tutadi. O'ziga xos vazifalarga ega bo'lgan holda, ular bir-birining o'rnini bosa olmaydi, shuning uchun ular o'rtasida aloqa o'rnatish maktabgacha yoshdagi bolada mas'uliyat hissini shakllantirishning zarur shartidir.

Bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi-pedagog va ota-ona hamkorligini tashkil etish quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

Axborot almashish va pedagogik bilimlarni targ'ib qilishdagi hamkorlikdan tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida dialogik yo'nalishdagi shaxslararo muloqot sifatida hamkorlikka o'tish. Bu yerda asosiy konsepsiya dialogdir, bu shaxsan teng muloqot, tajribani birgalikda qo'lga kiritishni anglatadi.

Dialogik munosabatlarning muhim komponenti – bu muvofiqlik, ya'ni, muloqot qiluvchilarning o'z his-tuyg'ularini samimiy ifoda etish qobiliyati. Shu bilan birga, boshqa odamni so'zsiz ijobiy qabul qilish tamoyili amalga oshiriladi.

Ota-onalarning bilimga bo'lgan ehtiyojlari va istaklarini inobatga olgan holda, bolalarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan muammolarga muloqot mazmunini yo'naltirish ham dolzarbdir. Bu so'z yaxshi ma'noda, tarbiyachi-pedagog ota-onaning "ko'rsatmalariga ergashadi" degan ma'noni anglatadi[5].

Tarbiyaning ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining o'zgaruvchanligi ham o'zaro ta'sirning yangi tamoyillariga tegishli. Zamonaviy ota-ona ham yangi mavzuni, ham eskisini o'rganishi kerak. Shuning uchun tarbiyachilar ota-onalar bilan

ishlashni, ta'limning turli shakllaridan foydalangan holda, ota-onalarni "tarbiyachi-pedagog" qilib shakllantirishlari kerak.

Hozirgi bosqichdagi o'zaro ta'sir faqat pedagogik ta'lim bilan chegaralanmaganligi uchun ota-onalarning refleksiv qobiliyati kabi xarakterli "o'zaro ta'sir" tushunchasini aniqlashtirish va kengaytirish zarur. Ota-onalarda pedagogik refleksiyaning komponentlaridan birini shakllantirish vazifasi – tarbiyachi sifatida o'zini tanqidiy baholash, ularning ta'lim faoliyati, bilimlari odamning o'rnini egallash va vaziyatga uning ko'zlarini bilan qarash qobiliyati. Bu, ayniqsa, yosh otalar va onalar uchun to'g'ri keladi, chunki ularning ota-onalik pozitsiyasi endigina shakllana boshlaydi. Ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, ularning keyingi ta'lim faoliyatining muvaffaqiyati bu mahoratning shakllanishiga bog'liq. Ota-onalarning bolani tushunish istagi, olingan pedagogik bilimlarni ijodiy qo'llash qobiliyati ular o'rtasida o'zaro tushunish paydo bo'lishiga, bolaning kattalar talablariga emotsional ijobiy, ongli, axloqiy turki berishiga yordam beradi. [3,444-b].

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va tarbiyalanuvchilar oilalari bilan o'zaro ta'sirning ijobiy xarakteristikalarini kundalik ishlar, uchrashuvlarga asoslanadi.

Bunday hamkorlikning rivojlanishi quyidagilardan iborat:

- pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlar majburan o'rnatilishi mumkin emas, u ikkala tomonning tabiiy xohishiga asoslanadi;

- o'zaro ta'sir (hamkorlik) jarayoni izchillik bilan rivojlantiriladi.

Oila va bolalar bog'chasi o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ular bir-birining o'rnini bosa olmaydi. Izchillikning muhim sharti oila va bolalar bog'chasi o'rtasida ishonchli ishchanlik aloqalarini o'rnatish bo'lib, uning davomida ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglarning tarbiyaviy nuqtai nazarlari aniqlashtiriladi. Yuqorida ta'kidlangandek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida ota-onalar ishtirok etadigan ochiq ijtimoiy-pedagogik majmuaga aylanishi lozim. Bu bolalar manfaatida amalga oshiriladigan o'zaro ta'sir, hamkorlikdir[5].

Chunki, agar bolani tarbiyalovchi kattalar unga qo'yiladigan talablar, ta'sir usullari, rivojlantirish yo'llari haqida kelishib olsalar natija kutilganidek bo'ladi. Qaysi ta'lim vazifalarini hal qilishda bir tomon (bolalar bog'chasi yoki oila) kuchliroq bo'lishi va qaysilarini hal qilishda asosiy o'g'irlikni boshqa tomon o'z zimmasiga olishi kerakligini ham hisobga olish zarur. Masalan, emotsional, jinsiy tarbiyada, sportga jalb qilishda oila imkoniyatlari bolalar bog'chasi imkoniyatlariga qaraganda ahamiyatli darajada yuqori. Biroq bolalar bog'chasi ta'lim berish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boshqalarni malakali amalga oshiradi.

Shunday qilib, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-ona o'zaro munosabatining asosini hamkorlik tashkil qiladi deb xulosa chiqarish mumkin.

Hamkorlikni o'rnatish tashabbuskori pedagog-tarbiyachilar bo'lishi kerak, chunki ularning ta'lim ishlariga kasbiy tayyorgarligi bor, demak, ular uning muvaffaqiyatligi bolalarni tarbiyalashda izchillik haqida kelishilganlikka bog'liqligini tushunadilar. Ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari bilan mazmunli muloqotni tashkil qilishda maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari yetakchi rol o'ynaydi.[103, 53b]. Ammo bu rol zamonaviy oilaning xususiyatlari va unda bolalarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini yaxshi bilgan holdagina muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Ota-onalar bilan ishlashda pedagoglar ular e'tiborini bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab ularning tarbiyasidagi oilaning roliga qaratadilar; daliliy materialni jalb qilgan holda, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti maqsadlari va vazifalari inson shaxsini shakllantirishdan iboratligini isbotlab beradilar.

Maktabgacha yoshdayoq bolalarda hayot hodisalari haqida to'g'ri tasavvur hosil qildirish, uning yaxshi, namunaviy tomonlariga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish kerak; mehnat tarbiyasini amalga oshirish kerak; insonparvarlik, jamoaviylik, intizomlilik va mas'uliyatlilik asoslarini rivojlantirish kerak; Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash kerak; bolalarning axloqiy sifatleri va tasavvurlari ularning odatlari va harakatlarida namoyon bo'lishi to'g'risida o'ylash kerak.

Kichkina bolalarda ham atrofdagi voqelikda sodir bo'ladigan salbiy hodisa va narsalarga qarshi turuvchi faol axloq shakllanadi.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish ko'p hollarda bolalar bog'chasi tarbiyachi-pedagogi shaxsiga bog'liq bo'ladi. "Pedagog qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak, uning ota-onalar va tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti qanday kechadi?" – bu savollar bolalar bog'chasi tarbiyachilarini hayajonlantiradi. Ko'p pedagoglarning muammosi kattalar va bolalar bilan muomala qilishda avtoritarizmdir. Sezgirlik, e'tibor, ishonch ohangi nafaqat bolalarda, balki ularning ota-onalarida ham o'z quvonchlarini va tajribalarini baham ko'rish istagini uyg'otadi. Tarbiyachi-pedagoglar bolalar tarbiyasida oilaning juda muhim rolini eng yaxshi oilalar misolida ochib beradilar. Oiladagi tarbiyaning asosiy xususiyati shundan iboratki, u kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar mazmuni va shakllarining emotsionalroq ekanligida. Lekin ushbu ob'ektiv mavjud shartlar, ota-onalar va oilaning boshqa katta a'zolari kichik bolalar uchun uyda va jamoatchilik joylarida ibrat bo'la olgandagina, ular bolalar hayotini: kundalik maishiy turmushini, o'yinlari va mehnatni, foydali qiziqarli mashg'ulotlarini tashkil qila olsalargina, foydali bo'la oladi.

Rafael Nadal aqliy kuchi bilan mashhur. Uni bir-biridan ajratib turadigan narsa - bu o'zi nazorat qila oladigan narsaga e'tibor qaratish qobiliyatidir. "Men to'g'ri mashq qildim", deb aytishni yaxshi ko'radi u turnir boshlanganda. Nadal o'ziga bo'lgan ishonch - bu mavjud holat emasligini tushunadi; u doimo takrorlashi kerak bo'lgan bosqichma-bosqich jarayon. Agar siz o'yinga to'g'ri tayyorgarlik ko'rgan bo'lsangiz, unda g'alaba qozonish borasidagi barcha shubhalarigizdan xalos bo'lish osonroq bo'ladi.

Tana bilan birga fikrni tayyorlash. Tadqiqotlar tobora ko'proq ko'rsatib turibdiki, o'yinchilar o'yinga jismonan tayyor bo'lmasalar, ruhiy jihatdan unchalik tayyor bo'lmaydi.

Noqulaylikda qulaylikni topish. Nervlar yaxshi ishlashingizga yordam berish uchun juda muhimdir.

"Har bir inson uchun optimal tashvish darajasi bor", deydi Guhde. Xavotir o'yinchiga investitsiya qilinganligini ko'rsatadi va bu noqulay joyda qulay bo'lish tashvish vahimaga aylanishining oldini olishning kalitidir. Nervlar zaiflik belgisi emas; ular maqsad sari olga borayotganligingizning belgisidir.

Muvaffaqiyatlarni eslash lozim. Aksincha, g'alaba qozonish haqida o'ylaydiganlar g'alaba qozonish ehtimoli ko'proq. O'tgan g'alabalarigizni eslab, o'z-o'zidan so'zlashuvingizni ijobiy, lekin ayni paytda haqiqatga asoslangan holda saqlang.

O'ylashda davom etish kerak. Ammo fikrlarni tozalashga urinish salbiy fikrlarni bo'sh joyni to'ldirishga taklif qilishi mumkin. Taktik o'ylashni davom ettirish kerak. "Sizning ongingiz oldinga yugurayotgan bo'lishi mumkin, shuning uchun uni bu yerga va hozirga qaytarishingiz kerak", deydi Ostin. "Keyingi nuqtada nima qilish kerakligini o'ylab ko'ring. Qayerda xizmat qilishingizni rejalashtiring, o'zingizga to'pni chuqur ushlab turishni aytin, raqibingizni qayerga olib borishni o'ylab ko'ring."

Tennis g'oliblari uchun ruhiy qo'llanma quyidagicha ko'rsatadi:

- diqqatni qanday jamlash. (va buni bir necha soniya ichida bajariladi, shunda keyingi nuqtaga to'liq e'tibor qaratiladi)

- ballar orasidagi qisqa vaqt ichida his-tuyg'ularingizni qanday boshqarish mumkin (bu qobiliyatni o'zlashtirish sizni tennischilarning eng yaxshi 10 foiziga ko'taradi - hech bo'lmaganda raqobatbardosh guruhda)

- qabul qilish nima va u nima uchun bunchalik kuchli (agar narsalarni xuddi shunday qabul qila boshlansa, hech qachon aqliy mustahkamlik haqida ko'proq ma'lumot kerak bo'lmaydi)

- vizualizatsiyadan maksimal foyda olish uchun bo'lishi kerak bo'lgan muhim omil (agar buni to'g'ri bajarilmasa, ko'p vaqtni behuda sarflanadi va aqliy qobiliyatga ishonchni yo'qotiladi)

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, aqliy mashg'ulot ongni aqliy va jismoniy jihatdan eng yaxshi natijaga erishishingizga yordam beradi. Iшонch, diqqatni jamlash, o'ziga ishonish va motivatsiya kabi ruhiy omillar sport ko'rsatkichlari uchun juda muhimdir va agar jismoniy qobiliyat allaqachon mavjud bo'lsa, sportchini keyingi bosqichga olib chiqishga yordam beradi. Jismoniy mahoratingizni oshirish uchun sport zaliga borganingiz kabi, jismoniy qobiliyatingizdan maksimal darajada foydalanish imkonini beradigan "aqliy mushaklaringizni" yaxshilash uchun vaqt ajratish muhimdir.

Beshta asosiy aqliy mushaklar mavjud bo'lib, ular: motivatsiya, ishonch, intensivlik, diqqatni jamlash va aqliy holat.

Motivatsiya - bu maqsadga erishish uchun sizning qat'iyatingiz va harakatingiz. Kelgusi mavsum uchun o'z maqsadlaringizni belgilash va eslatish, mashg'ulot sherigiga ega bo'lish yoki rag'batlantiruvchi musiqa tinglash kabi oddiy narsa kabi qisqa muddatda motivatsiyangizga yordam berish uchun qo'llashingiz mumkin bo'lgan ba'zi strategiyalar mavjud.

Iшонch bir nechta manbalardan kelib chiqadi, shu jumladan yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga maksimal darajada tayyor bo'lish va ishlarni yaxshi bo'lmaganda ijobiy bo'lish.

Intensivlik - bu tanangizda his qilayotgan fiziologik faollik darajasi, shu jumladan yurak urishi, nafas olish, qon oqimi

va adrenalin. Juda bo'shshagan va juda tashvishli o'rtasida bir joyda siz eng yaxshi harakat qilishingiz mumkin bo'lgan intensivlik darajasidir. Bu daraja hamma uchun farq qilishi mumkin.

Diqqati eng yaxshi tarzda bajarishga yordam beradigan narsalarga e'tibor qaratish va yaxshi ishlashingizga xalaqit beradigan chalg'itadigan narsalardan qochish kiradi. Boshdan oxirigacha diqqatni jamlash qobiliyatingiz sizning qanchalik yaxshi ishlashingizni va boshidan oxirigacha barqaror bo'lib qolishingiz mumkinligini aniqlaydi.

Aqliy holat. Agressiv fikrlash hujumga va "uni olib kelishga" va haqiqatan ham aqliy quvvatlanishga qaratilgan. Musobaqa oldidan asabiylashadigan sportchilar uchun xotirjam fikrlash yaxshidir. Tiniq fikr bajarishdan oldin ongingizda hech narsa bo'lmasligini o'z ichiga oladi; Bu intuitiv, erkin va tajribali sportchilar uchun eng mos keladi.

Aqliy tarbiyaga hissa qo'shadigan boshqa ko'plab muhim aqliy qobiliyatlar mavjud. Aqliy kuchni yaxshilash uchun yana bir nechta maslahatlar:

- Maqsadlarni qo'ying va uzoq muddatli ijobiy tasavvurni yaratish.

- Raqobat qobiliyatlari ustida ishlash uchun tasvir va vizualizatsiyadan foydalanish.

- Diqqat va konsentratsiyaga e'tibor qaratish.

- Qiyinchiliklar bilan tajriba orttirish.

- Xatolarni boshqarishni takomillashtirish.

- Raqobatga ijobiy munosabatni rivojlantirish.

Sport klublari va murabbiylariga o'z sportchilari bilan aqliy tayyorgarlik bo'yicha ishlashda yordam berish uchun Milliy murabbiylik sertifikat dasturi (NCCP) kabi tashkilotlar asosiy aqliy mahorat kursi kabi resurslarni taklif qiladi. Bu kurs, masalan, murabbiylarga sportchiga maqsadlarni belgilash, diqqatni jamlash va xavotirni nazorat qilish ko'nikmalarini yaxshilash, shuningdek, sportchiga ushbu sohalarida yaxshilanishlarga yordam beradigan vositalarni ishlab chiqish kerak bo'lgan belgilarni tan olish qobiliyatini beradi.

Murabbiylarga sportchilarning asosiy aqliy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan asosiy yo'naltirilgan mashg'ulotlarni qanday bajarishni o'rgatadigan shunga o'xshash kurslar maydonda ishlashni yaxshilash va charchashni kamaytiradigan va sportchilarni sportda ushlab turadigan ijobiy muhitni yaratishda muhim rol o'ynashi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bezverxov. V.P Tennis. Uchebnoe posobie. Kurs leksiy dlya studentov obshchego kursa. Tashkent, 2001 g. 68s.
2. Bezverxov. V.P Tennis. Metodika sovershenstvovaniya yunyx kvalifitsirovannyx tennisistov 12-16 let.- T:LiderPress?2008/-150s.
3. Umurkulova D. A. Dynamics of physical training of table tennis people in primary preparatory groups //current research journal of pedagogics. – 2021. – t. 2. – №. 11. – c. 168-177.
4. Umurkulova D. What is special about table tennis? //modern science and research. – 2023. – t. 2. – №. 12. – c. 1064-1071.
5. Internet saytlar
6. https://www.trine.edu/academics/centers/center-for-sports-studies/blog/2021/mental_toughness_the_key_to_athletic_success.
7. <https://sportottawa.ca/the-importance-of-mental-training-in-sport>
8. <https://www.google.com/newyorktennismagazine.com/article/mental-side-tennis>
9. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/psixologiya>
10. https://www.google.com/Sport_psixiatriyasi
11. <https://www.google.com/Masharipov>
12. <https://www.google.com/sourceweb/uniwork.buxdu.uz/resurs>



Ro'zixon USMONOVA,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: usmonovaruzixon1964@gmail.com

P.f.d., prof. S.Matchonov taqrizi asosida

STUDYING THE TRAGEDY "HAMLET" IN THE DEBAT METHOD

Annotation

The opinions expressed in world literary criticism regarding the tragedy "Hamlet" by the great playwright William Shakespeare, contradictions in the assessment of images create a number of problems in the study and analysis of this work at the educational stages. The article talks about the technology of organizing debate classes and its importance in teaching tragedy in the higher education system and instilling in students enthusiasm for independent thinking.

Key words: tragedy, Shakespeare's work, image assessment, problem-based education, debate classes, speakers' activities.

ИЗУЧЕНИЕ ТРАГЕДИИ «ГАМЛЕТ» МЕТОДОМ ДЕБАТЫ

Аннотация

Мнения, высказанные в мировом литературоведении относительно трагедии «Гамлет» великого драматурга Уильяма Шекспира, противоречия в оценке образов создают ряд проблем при изучении и анализе этого произведения на образовательных этапах. В статье говорится о технологии организации занятий по дебатам и ее значении в преподавании трагедии в системе высшего образования, воспитании у студентов энтузиазма к самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: трагедия, творчество Шекспира, оценка образа, проблемное образование, дебатные занятия, деятельность ораторов.

"HAMLET" TRAGEDIYASINI DEBAT USULIDA O'RGANISH

Annotatsiya

Jahon adabiyotshunosligida buyuk dramaturg Uilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasi yuzasidan bildirilayotgan fikr-mulohazalar, obrazlarni baholashdagi ziddiyatlar ta'lim bosqichlarida mazkur asarni o'rganish va tahlil qilishda qator muammolarni yuzaga keltiradi. Maqolada oliy ta'lim tizimida tragediyani o'qitish, talabalarning mustaqil fikrlashga bo'lgan ishtiroqini rag'batlantirishda debat darslarini tashkil etish texnologiyasi va uning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tragediya, Shekspir ijodi, obrazlarni baholash, muammoli ta'lim, debat darslari, spikerlar faoliyati.

Kirish. Dramaturgiyaning nodir durdonalari bilan jahon teatr sahnalarini zabt etgan buyuk ijodkor Uilyam Shekspirning Cho'lpon tarjimasidagi "Hamlet" tragediyasining milliy teatrimiz sahnalarida qo'yilishi o'zbek tomoshabini uchun Shekspir dahosi bilan tanishishda debocha vazifasini o'tagan edi. O'tgan bir asrga yaqin vaqt mobaynida mazkur tragediya o'zbek teatr sahnasidan ham, uzluksiz ta'lim tizimi dasturlaridan ham tushmay keladi. Umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi o'quvchilari asar voqealariga, qahramonlarning xatti-harakatlariga va chigal taqdiriga o'qituvchi yordamida, bevosita uning boshqaruvi asosida yondashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida esa filolog talabalar oldida tragediyaning jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni, adabiyotshunoslikda u haqdagi turli bahs-munozaralar, asarning milliy dramaturgiyaga ta'sirini Shekspir dahosiga tanqidiy tahlil nuqtai nazaridan o'rganish vazifasi turadi. Tanqidiy fikrlashda talabalarning o'z xulosalarini aniq dalillar asosida himoya qilish, asarga buyuk dramaturg ijodining yetakchi xususiyatlaridan kelib chiqib munosabat bildirish, insoniyat tafakkuri tarixidagi o'rni va rolini baholashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Shu bois ta'limning mazkur bosqichida tragediya qahramonlarini baholash, xarakterlarni tahlil qilish, ijodkorning badiiy niyatini ilg'ab olishga mo'ljallangan mashg'ulotlarda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash asar tahliliga yangicha yondashishni taqazo etadi. Tragediya tahlilida har bir qahramon obraziga turli rakurslardan baho berish, bir-biriga zid keluvchi fikrlarning to'qnashuvi asl mohiyatni ochishda asosiy kalit vazifasini o'taydi. Oliy ta'lim muassasasidagi ko'p yillik pedagogik faoliyatimiz davomida "Hamlet" fojiasi tahlilini o'zaro ziddiyatli bahs-munozaralarga boy debatlar shaklida tashkil etish katta imkoniyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bizningcha tragediya bilan tanishtirishdan oldin eng avvalo, u haqdagi ziddiyatli fikr-mulohazalarni o'rganish tavsiya etilgani ma'qul. Bu bilan talabalarning ijodiy fikrlashi, ilmiy mushohada yuritishi uchun turki beriladi, muayyan ilmiy yo'nalishlar belgilab olinadi. U.

Hamdam, Sh. Normatova, F.Boynazarov, H.Boltaboyev, A.Qosimov, H.Ismoilov kabi olimlar tomonidan yaratilgan jahon adabiyotshunosligiga oid ilmiy asarlarda Shekspirning ayni tragediyasi yuzasidan bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, semantik-struktural, sotsiologik va psixobiografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. U.Hamdam: "Shekspir o'z zamonasi oldinga surgan masalalar, voqea va xarakterlarni yuksak ijtimoiy-falsafiy umumlashtirishlar darajasiga ko'tardi, kichik davlatda bo'lib o'tgan shaxsiy masala orqali Renessansning so'nggi davrlarida Ovrupa mamlakatlarining hammasida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy krizis, umumjahon tarixiy ahamiyatiga ega bo'lgan ziddiyatlar, asrlar davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy fomatsiyalar almashishi jarayonini ifoda ettirgan. Albatta, tragediyaning mazmuni to'g'ridan-to'g'ri bu jarayonni tasvirlamaydi, ammo personajlarning psixologiyasi, erk-tuyg'ulari, xatti-harakatlarida chuqur ma'no bor, pyesada ana shu ulkan o'zgarishlarning kishilar ongiga qanday ta'sir etayotganligi badiiy vositalar orqali aks ettirilgan. Hamlet uchun masala qirolning qatl etilishi, o'ch olishda emas, balki nima uchun shunday bo'ldi, insonning burchi, yashashning ma'nosi nimadan iborat ekanligini anglab yetishida"[1] – deya masalaga umuminsoniy nuqtai nazardan yondashsa, Sh.Normatova asar uchun manba bo'lgan voqealar tahliliga ko'proq e'tibor qaratadi. Shekspir yaratgan "Hamlet" obrazini boshqa ijodkorlar talqinidagi Hamlet bilan qiyosiy o'rganishni ma'qul ko'radi. Olima Hamletni "fikrlovchi, hayot mohiyatini izlovchi inson"[2] ekanligini ta'kidlaydi. Yana bir adabiyotshunos olim H.Ismoilov tragediyadagi deyarli barcha obrazlarni tahlil qiladi, ularning dramadagi o'rni, ularga yuklatilgan aniq vazifalar xususida mulohaza yuritadi. Hamletni "...inson aqlining eskilik ustidan tantanasini aks ettirgan Uyg'onish davrining haqiqiy timsolidir,"[3] – deb uqitiradi.

Talabalar bilan mavjud ilmiy adabiyotlardagi fikrlar tahlil qilinganidan so'ng darsning asosiy metodik qismiga o'tish mumkin. Buning uchun guruhdan olti nafar talaba tanlab olinadi. Ularga debat mavzusi oldindan beriladi. Talabalar uchtdan ikki guruhga ajraladilar. Birinchi guruh tasdiqlovchilar, ikkinchi guruh esa inkor etuvchilar hisoblanadi. Guruhlarning a'zolari spikerlar deb ataladi. Jamoalar bir-biriga raqib sifatida qaramasliklari zarur, o'zaro hurmatni saqlagan holda tegishli fikrlarni asosli dalillar asosida rad etishlari yoki yanada aniq va ishonchli faktlarni keltirib o'z jamoasi hisobiga ko'proq ustunlik olishlari mumkin. Debatda har bir spikerining o'z vazifasi va ular uchun ajratilgan vaqt reqlamenti mavjud.

Guruhlarning birinchi nutq so'zlovchi spikerlariga olti, ikkinchi va uchinchi spikerlarga besh daqiqadan vaqt ajratiladi. Debatni har doim tasdiqlovchi tomon boshlab beradi. Uning asosiy vazifasi guruh haqida ma'lumot berish, bugungi mavzuning dolzarbligini yoritish, asosiy kalit so'zlar va argumentlar bilan tinglovchilarni tanishtirish hisoblanadi. Debat uchun bu mavzuning tanlanishidan maqsad – oradan qancha vaqt o'tishiga qaramay tragediya aks etgan voqealar hali hamon insoniyatning eng qayg'uli muammolaridan biri ekanligi hamda Shekspir tragediyalari ichida aynan "Hamlet" har bir zamon va makonda yangicha dunyoqarash, yangicha ma'no kasb etishi barobarida asar markazida hamisha navqiron yigitning iztiroblari, butun boshli jamiyatga qarshi isyonkor kayfiyatning aks etishidir. Asosiy kalit so'zlar qatoriga: tragediya, Daniya, XVI asr, hokimiyat uchun kurash, qasos, muhabbat, fojia kabi tushunchalarni keltirishimiz mumkin. Argumentlar soni mavzu doirasidan kelib chiqib tanlanadi. "Hamlet" asari doirasida quyidagi argumentlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Jahon dramaturgiyasida Shekspirning o'rni
2. Hamlet obrazining mohiyati, o'zini telbalikka solib qirol amakisidan o'ch olishga intilishi
3. Ofeliyaning o'limida Hamlet aybdormi?

Tasdiqlovchi tomonning birinchi spikeri tragediya Qadim Yunonistonda paydo bo'lganligi, uning asosini tragik pafos tashkil etishi, tragediyaning yakuni o'lim bilan tugashi haqida ma'lumot beradi. Shekspir ijodiga doir ma'lumotlarni keltirib, V.G.Belinskiyning: "Dramaturgiya san'atida hanuzgacha Shekspir bilan hech kim tenglasha olgani yo'q. Uning nomi yoniga faqat uning o'z nominigina yozish mumkin..." degan so'zlarini isbot sifatida keltirishi mumkin. Shekspirning jahon tragediyanavislari orasidan mustahkam o'rin olishidagi asosiy omillar sifatida – mavzu ko'lamining xilma xilligi, g'oyaviy jihatdan yetukligi va hayotning real tasvirlanishini keltirishimizning o'zi kifoya. Dramaturgning butun ijodiy konsepsiyasi Hamletning aktyorlar bilan suhbatlari, ularga berilayotgan maslahatlar, sahnadagi holat va detallarning joylashuvida namoyon bo'ladi. Shu kabi mulohazalar bilan o'z argumentni himoya qilishi lozim.

Ikkinchi argument ya'ni Hamlet obrazining mohiyati, o'zini telbaga solib, amakisidan qasos olishga intilishi xususida quyidagi tezisni keltirishi mumkin:

Dramaturg Hamlet obrazi orqali O'rta asrlar Yevropasidagi ilg'or fikrlovchi, o'z taqdir yo'llarini o'zgartirib yuborishga qodir inson shaxsini yaratadi. Yosh bo'lishiga qaramasdan otasining bevaqt o'limidan, onasining amakisi bilan shoshilinch nikohidan bazovtalangan qahramon yuz berayotgan voqealarning qandaydir g'ayritabiiy ekanligidan shubxalanadi. Bu gumonlarni oydinlashtirish uchun dramaturg ota arvochini sahnaga olib kiradi. Qirolning o'limi mutlaqo sirli ravishda amalga oshirilganligi sababli bu haqida biror tirik inson Hamletga xabar bera olmasdi. Ammo ruhning bezovtaligi tragik situatsiyaning yuzaga chiqishida arvoch obrazi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mavhum vaziyatlarning oydinlashida tush, bashorat, arvoch kabi motivlarning qo'llanilishi jahon adabiyotida tez-tez uchraydi. Xo'sh, Hamlet otasining arvochi orqali butun haqiqatni bilib oldi, lekin unga qarshi turgan jamiyatga qarshi qanday kurash olib boradi? Hamlet uchun eng oqilona yechim o'zini telbalikka solib haqiqatning achchiq yuzini hammaga ko'rsatishdir. Asar davomida Hamlet xulq-atvorida evrilishlar yuzaga keladi. U oddiy bir kitobsevar yigitdan jamiyatdagi buzilishlarni o'rniga qaytarishga harakat qilayotgan qahramonga aylanadi. Bu bilan dramaturg Hamletga favqulotda aqliy

salohiyat, murakkab vaziyatlarda kutilmagan yechimlar topa olish qobiliyatiga ega sirli inson xarakterini baxsh etadi.

Uchinchi argument, "Ofeliyaning o'limida Hamlet aybdormi?" – degan muammoga biz: "Yo'q" – deya javob beramiz. Chunki Ofeliya qarama qarshi hislar iskanjasida qolgan tuyg'ularining qurboni bo'ldi. Sevgisining rad etilishi, otasining manfur qirol Klavdiyga hayrihohligi natijasida sevgilisi tomonidan o'ldirishi uni telbaga aylantirdi. Bu telbalik Hamletning telbaligidan farq qiladi, bu haqiqiy ma'nodagi telbalik, aql ozishdir. U o'zining xatti-harakatlarini boshqara olmaydi. Bu borada adabiyotshunos olim U.Jo'raqulovning: "Shekspir Ofeliyaning halokatida telbalik va nazokatni bir oraga keltira olgan", - degan fikrlari juda o'rindir. Chindan ham Ofeliyaning o'limida Hamletning aybi yo'q, u o'zining murakkab ruhiy holatida Ofeliyaga ozor berishdan qo'rqdi, asardagi fojia bilan yakunlangan har bir taqdirning halokatiga jirkanch saroy muhiti, chirkin jamiyatning tiyiqsiz ehtirosi sababchidir.

Birinchi spiker nutqini yakunlagandan so'ng Inkor jamoasining chalg'ituvchi savollariga javob beradi. Buning uchun uch daqiqa vaqt ajratilgan. Savolga aniq va lo'nda javob berish lozim.

Debatni Inkor jamoasining birinchi spikeri davom ettiradi. U ham Tasdiq jamoasining birinchi spikeri singari o'zi, jamoa a'zolari va o'yindagi pozitsiyasini tanishtiradi. Shundan so'ng opponent jamoaning argumentlariga qarshi fikr bildirishi yoki mustaqil argumentlar asosida o'z fikrini bildirishi mumkin, yani har qanday tragediyaning oxiri doimo o'lim bilan yakunlanmasligi, ba'zan tragik yechimning boshqa ko'rinishlari ham mavjud bo'lishini ta'kidlaydi. Isbot sifatida Shekspirning "Qirol Lir", "Otello" kabi tragediyalari qahramonlarining telba bo'lib qolishlari yoki Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasidagi Edipning uzoq va mashaqqatli yo'lga otlanishini keltirishi mumkin. Tragediyalarning asosiy xususiyati tragik pafosning paydo bo'lishi qahramon ichki dunyosi va ongida katarsis holatini yuzaga chiqarishida ifoda etiladi. Lekin Shekspirning "Hamlet" asari haqida biz bunday fikrlay olmaymiz, tarzida nutq so'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu notiq Tasdiq jamoasining mulohazalariga qarshi buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning "Shekspir va drama to'g'risida"[4.139-160] tanqidiy-ocherkidagi fikrlarga tayanib Ozod pozitsiyasini himoya qilishi mumkin. Bu tanqidiy ocherk Ozod Sharafiddinov tomonidan o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilingan. Shekspir o'zi mustaqil ravishda biror xarakter yaratmaganligi, uning qahramonlari doimo shekspirona sun'iy tilda, juda balandparvoz va quruq gapirishlarini iddao qilishlari mumkin. Xarakter jihatidan ajralib turadigan Lir, Kordeliya, Otello, Hamlet kabi qahramonlar ham aslida Shekspirga tegishli emas. Ular, asosan, Shekspirgacha yaratilgan asarlarning qahramonlari bo'lib, dramaturg shunchaki ularni o'zlashtirib olgan. O'zlashtirib olishi ham mayli, ularga yuklatilgan vazifani shu darajada zaiflashtiradiki, qahramonlar g'arib vaziyatga tushib qoladilar. Bu hol, ayniqsa, Hamlet obrazida nihoyatda aniq ko'zga tashlanadi. Asar uchun asos bo'lgan voqeada Hamlet amakisi tomonidan o'ldirilgan otasining qasosini olish uchun turli hiylalar ishlatgani, haqiqatni bilib qolgach o'zini jinnilikka solib saroydagi barcha ishlarni zimdan kuzatgani, amakisining uni o'ldirishidan cho'chib yurishi, onasini fosh etgani va oxir-oqibat barcha dushmanlaridan o'ch olib ularni yoqib yuborgani tasvirlanadi. Bu voqealar Hamlet tushgan vaziyat uchun o'ta tabiiy hisoblanadi. Shekspir o'z "Hamlet"ini yaratishda har doimgiday faqat o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrlarni bosh qahramon nutqidan hikoya qiladi, lekin vaqt, zamon va vaziyatni hisobga olmaydi. Uning muqim bir xakteri yo'q, ba'zan onasiga nadomat qiladi, ba'zan Ofeliyani sevadi, ba'zida esa unga kurakda turmaydigan so'zlar aytib ranjitadi. Uning o'limida esa bevosita aloqador. Chunki uni avvaliga umidvor qilib, sovg'alar berib yuradi, keyin esa birdan uni rad etadi. O'limidan so'ng esa, u uchun eng ko'p qayg'u chekkan kishiga aylanadi. Modomiki, uning telbaligini vaziyat taqqos etgan bo'lsa, nega bunday harakatlar qiladi? Chunki "Shekspir Hamletni xakterga ega qilib ko'rsata olmagan va balki buni xohlamagan ham bo'lishi mumkin. Qolaversa, buning kerakligini tushunmagan ham"[4].

Shundan so'ng bu notiqqa Tasdiq jamoasi o'zining chalg'ituvchi savollarini berishi mumkin. Har bir chalg'ituvchi

savolga uch daqiqadan vaqt beriladi. Bu vaqt davomida javob berayotgan notiqning aniq dalillar keltirishi va reglamentga amal qilishi muhim sanaladi.

Jamoalarning ikkinchi spikerlariga yuklatilgan vazifa bir xil. Ular o'yinning kesishish nuqtalari, mavzu yuzasidan qarama qarshi jamoaning keltirgan faktlarini inkor etuvchi kuchli asosga ega bo'lgan, o'z pozitsiyalariga doir dalillarni keltirish orqali ustunlikka erishishlari kerak.

Tasdiq jamoasining ikkinchi spikeri o'z guruhi foydasiga adabiyotshunos olim U.Jo'raqulning "...Telbaga yo'qdur qalam" maqolasidan olingan: "Tolstoy maqolasida ko'p bor tilga olingan yunon klassik dramalari, Antik va O'rta asr rivoyatlari, g'aroyib syujetga ega solnomalar Uyg'onish davri adabiyoti uchun ma'naviy asos bo'la olmasdi. Chunki, ushbu manbalar bu davrga kelib ma'nan eskirgan, tafakkur shakli sifatida o'z umrini yashab bo'lgan edi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, hech bir jamiyat yoki shaxs ma'nan eskirgan aqidaga qaytgan emas. Bu qonuniyat. Shuning uchun Uyg'onish davri mutafakkirlari garchi Yunon klassik syujetiga murojaat qilgan bo'lsalar-da, ularga faqat shakli vosita sifatida qaraganlar, xolos,"[5] – degan iqtibosni keltirish orqali jamoa fikrini yanada mustahkamlashi mumkin.

Mazkur spiker ham mavzu yuzasidan aniq manbalarini keltirgan holda to'ldirishlar va xulosa bildirishi kerak. U ham chalg'ituvchi savollarga javob beradi.

Inkor jamoasining ikkinchi spikeri ham xuddi tasdiq jamoasining a'zosi singari kuchli dalillarni keltirib o'z jamoasi fikrini yanada quvvatlantirishi shart.

L.N.Tolstoy bu maqola yozayotganda 75 yoshda bo'lgan va umrining kamida 50 yilini Shekspir ijodini hazm qilishga sarflagan va har safar boshqalarning fikrlariga qo'shila olmagan. Balki biz o'qigan ilmiy adabiyotlarda Shekspirni ulug'lash, u yaratgan qahramonlarga eng oliy baholarni berishga odatlanib qolganimiz uchun ham buyuk mutafakkirning mulozalari biz uchun erish tuyulishi mumkin. Ammo Tolstoyning bu maqolasi yozilganiga yuz yildan oshdi, lekin hali hech kim bu maqolaga asosli faktlar bilan raddiya yoza olgani yo'q. Buni o'zbek adabiyotining mashhur tanqidchisi Ozod Sharafiddinov Tolstoyning maqolasiga yozgan so'z boshida e'tirof etadi. "Tolstoy maqolasini qabul qilganlar ham bor, ammo uni keskin rad etganlar ham anchagina. Lekin qanday bo'lmasin, shu paytga qadar dunyoda hali biron kishi Tolstoy maqolasini chuqur dalillar bilan, asosli ravishda ishonadigan qilib rad etgani yo'q"ligini, bundan tashqari "1856-yilda esa, yana bir AQShlik Deliya Bekon "Shekspir pesalarining ochilgan falsafasi" kitobida V.Shekspir

asarlarining haqiqiy muallifi faylasuf olim Frensis Bekon deb ochiqdan ochiq ko'rsatgan"[6] ligini isbot sifatida keltirishi ahamiyatlidir.

Bu notiq ham o'zidan oldin nutq so'zlagan jamoadoshining fikrlariga qo'shimcha ma'lumotlar keltirishi va o'z fikrini xulosalashi zarur. Shundan so'ng u ham chalg'ituvchi savollarga javob beradi.

Va nihoyat, navbat uchinchi spikerlarga yetib keldi. Ularning vazifasi opponent jamoaning kamchiliklari, yo'l qo'yan xatolarini kuzatib borish hamda o'z jamoasining yutuqlarini e'tirof etishdan iborat. Agar qarama qarshi jamoaning kamchiliklarini aniq faktlar asosida tuzata olsa o'yinni jamoa foydasiga hal qilish imkoni paydo bo'ladi. O'yinning taqdiri ma'lum ma'noda mana shu spikerlarning nutqiga bog'liq. Sababi o'zidan oldingi nutqlarni sinchkovlik bilan kuzatish, manbalarning ishonchli ekanligini tasdiqlash, ma'lumotlarni to'ldirish, yakuniy xulosa chiqarish, eng so'nggi so'zni aytish uning zimmasiga yuklatilgan vazifadir. Jamoaning bu a'zosisiga hech qanday savol berilmaydi.

Spikerlarning nutqidagi ilmiylik, dalil va isbotlarning o'z o'rnida qo'llanilishi, vaqt reglamentiga amal qilish, manbalarning ishonarli ekanligi g'olib jamoani aniqlashda muhim me'zon sanaladi. G'olib jamoani hakamlar hay'ati va tomashabin tinglovchilar aniqlab beradilar.

Xulosa va takliflar. Debat shaklidagi darslarni tashkil etish talabalarda ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, nazariy bilimlarni egallashda faqatgina darsliklar doirasida cheklanib qolmasdan tanqidiy maqolalarga ham murojaat etish madaniyatini shakllantiradi. Talabalarda o'z fikrini himoya qilish, asoslash, zarur xulosalarni chiqarishda soha mutaxassislarining fikrlariga tayanish, ularni saralash va eng ma'qul yechimni topa olish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ammo bu kabi darslarning o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud, ya'ni darsda ishtirokchilar soni cheklanganligi uchun talabalar jamoasini qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham bu tipdagi darslardan har doim ham foydalanish imkoni mavjud emas. Lekin guruhdagi talabalar sig'imidan kelib chiqib, ishtirokchilar sonini ko'paytirish mumkin. Oliy ta'limda professor o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini an'anaviy ma'ruza shaklida o'tishga odatlanib qolganliklari, boz ustiga fanning umumiy o'quv saotlarining katta qismini mustaqil o'qishga ajratilganini nazarda tutsak, talabalarni ijodiy izlanishga, mustaqil o'qishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish sifat samaradorligini o'stirishda asosiy omillardan biri ekanligiga yana bir bor shohid bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. U.Hamdani, A.Qosimov. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: 2017. 178 b.
2. Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "Cho'lpon", 2008. 96 b.
3. H.Ismoilov. Jahon adabiyoti tarixi 1-jild. O'quv qo'llanma – T.: 2009. 232 b.
4. L.N.Tolstoy. "Shekspir va drama to'g'risida". Jahon adabiyoti jurnali. 1998, 11-son. 208 b.
5. U.Jo'raqul. "...Telbaga yo'qdur qalam". Sharq yulduzi jurnali. 2010. 1-son. 192 b.
6. Saidov A. "Vilyam Shekspir va 57 nomzod". Jahon adabiyoti jurnali, 2010 yil, 4-son. 208-b.



Rustam FAYZULLAYEV,

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti dotsenti, PhD

E-mail: fayzullayevrustam@mail.ru

Yulduz SAYFIYEVA,

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tayanch doktoranti

E-mail: sayfiyevayulduz@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T. Islomov taqrizi asosida

GUIDE STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS TO ACQUIRE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS IN THE INDEPENDENT MASTERY OF THE SCIENCES

Annotation

In today's rapidly developing educational environment, special attention is paid to the formation of independent learning of subjects among students of higher education institutions. This article explores the multifaceted approach needed to guide students to acquire not only knowledge, but also the essential skills and competencies required for independent learning in the disciplines. Drawing on educational theories, pedagogical strategies, and empirical evidence, this article outlines effective methodologies and practices to empower students on their academic journey. By cultivating a culture of curiosity, critical thinking, and independent learning, higher education institutions can educate students who are not only consumers of knowledge, but also active contributors to the development of science.

Key words: Independent learning, Higher educational institutions, subjects, guidance to students, acquisition of knowledge, skills, development, critical thinking, self-management, research based learning, problem-based learning, metacognition

СОДЕЙСТВИЕ СТУДЕНТАМ ВУЗОВ К ПРИОБРЕТЕНИЮ ЗНАНИЙ, НАВЫКОВ И НАВЫКОВ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ОСВЕЩЕНИИ НАУК

Аннотация

В современной стремительно развивающейся образовательной среде особое внимание уделяется формированию самостоятельного изучения предметов у студентов высших учебных заведений. В данной статье исследуется многогранный подход, необходимый для того, чтобы помочь студентам приобрести не только знания, но и необходимые навыки и компетенции, необходимые для самостоятельного обучения по дисциплинам. Опираясь на образовательные теории, педагогические стратегии и эмпирические данные, в этой статье излагаются эффективные методологии и практики, расширяющие возможности студентов в их академическом пути. Культивируя культуру любознательности, критического мышления и самостоятельного обучения, высшие учебные заведения могут воспитывать студентов, которые являются не только потребителями знаний, но и активными участниками развития науки.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, Высшие учебные заведения, предметы, руководство студентами, приобретение знаний, навыков, развитие, критическое мышление, самоуправление, исследовательское обучение, проблемное обучение, метапознание.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI FANLARNI MUSTAQIL O'ZLASHTIRISHIDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI EGALLASHIGA YO'NALTIRISH

Аннотация

Bugungi jadal rivojlanayotgan ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabarlari o'rtasida fanlarni mustaqil o'zlashtirishni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqola talabalarni nafaqat bilim, balki fanlar bo'yicha mustaqil ta'lim olish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali yondashuvni o'rganadi. Ta'lim nazariyalari, pedagogik strategiyalar va empirik dalillarga tayangan holda, ushbu maqola talabalarni akademik sayohatlarida kuchaytirish uchun samarali metodologiya va amaliyotlarni belgilaydi. Qiziqish, tanqidiy fikrlash va mustaqil bilim olish madaniyatini tarbiyalash orqali oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim iste'molchisi, balki ilm-fan rivojiga faol hissa qo'shuvchi talabalarni tarbiyalashi mumkin.

Kalit so'zlar: Mustaqil o'zlashtirish, Oliy o'quv yurtlari, fanlar, talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, bilimlarni egallash, ko'nikmalar, rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, izlanishga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, metatanish

Kirish. Oliy ta'lim sohasida bilimga intilish ma'ruza xonalari va darsliklar doirasidan tashqariga chiqadi. Bugungi kunda nafaqat olimlar, balki ilm-fanning murakkab relyefida mustaqil harakat qila oladigan mohir mutafakkir va ijodkorlarni yetishtirishga intilish turibdi. Doimiy tezlashib borayotgan kashfiyotlar va innovatsiyalar sur'ati bilan talabalar nafaqat bilim olishlari, balki o'zlarining intellektual yo'nalishlarini belgilash uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishlari juda muhimdir.

Yodlash va passiv o'rganish bilan ajralib turadigan an'anaviy ta'lim paradigmasi talabalarni zamonaviy dunyo muammolariga tayyorlashda endi etarli emas. Buning o'rniga oliy ta'lim muassasalari talabarlari o'rtasida mustaqillik, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish muhimligi e'tirof etilmoqda.

Ushbu maqola talabalarni fanlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali yondashuvni o'rganishga intiladi. Ta'lim nazariyalari, empirik dalillar va ilg'or tajribalar sinteziga tayanib, biz talabalarning akademik sayohatlarida imkoniyatlarni oshirish uchun samarali metodologiya va strategiyalarni belgilaymiz. Qiziqish va izlanishni rivojlantirishdan hamkorlik va muloqotni rivojlantirishgacha bo'lgan ushbu yondashuvning har bir jihati nafaqat bilim oluvchilar, balki ilmiy tushunishga intilishning faol ishtirokchisi bo'lgan talabalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim doirasida fanlarni mustaqil egallashga intilish o'quv tadqiqotlari va adabiyotlarida katta e'tiborni tortdi. Ushbu bo'limda talabalarni mustaqillik, tanqidiy fikrlash va ilmiy fanlar bo'yicha mustaqil o'rganishga yo'naltirish bo'yicha samarali amaliyot va

metodologiyalarni tushunishimizga hissa qo'shadigan asosiy tadqiqotlar va ilmiy ishlar ko'rib chiqiladi.

Fanlar bo'yicha mustaqil o'zlashtirishni rivojlantirishning ta'sirchan pedagogik yondashuvlari sifatida so'rovga asoslangan ta'lim (IBL) va muammoli ta'lim (PBL) paydo bo'ldi. Savin-Baden va Xouell Major (2004) va Xmelo-Silver (2004)[7] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va chuqur kontseptual tushunishni rivojlan-tirishda PBL samaradorligini ta'kidlaydi. Xuddi shunday, Pedaste (2015)[4] Windschitl(2008)[10] va boshqalarning tadqiqotlarida talabalarda qiziquvchanlik, izlanish qobiliyatlari va ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda IBLning afzalliklarini ta'kidlaydi. Talabalarni haqiqiy ilmiy izlanishga va muammoli vazifalarni hal qilishga jalb qilish orqali bu yondashuvlar talabalarga o'z bilimlarini egallashga va fanlar bo'yicha mustaqil izlanish uchun zarur bo'lgan kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqillik va akademik yutuqlarni rag'batlantirishda metakognitsiya va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limning roli ta'lim psixologiyasida keng o'rganilgan. Zimmermanning (2002)[11] o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim modeli o'z ta'lim xatti-harakatlarini rejalashtirish, kuzatish va tartibga solish kabi metakognitiv jarayonlarning muhimligini ta'kidlaydi. Schraw and Moshman (1995) va Pintrich (2000) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar metakognitiv xabardorlik va akademik samaradorlik o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatib, o'quvchilarda metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Talabalarga maqsadlar qo'yish, ularning taraqqiyotini kuzatish va o'rganish strategiyalari haqida fikr yuritishni o'rgatish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga ilmiy izlanishlar murakkabliklarini mustaqil ravishda yo'lga qo'yishga qodir bo'lgan o'z-o'zini boshqaradigan o'quvchilar bo'lish imkoniyatini beradi.

Tengdoshlarning o'zaro ta'siri va bilimlarni qurish bilan ajralib turadigan hamkorlikdagi o'quv muhiti fanlarda mustaqil o'zlashtirishni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jonson (1999) va Roseth va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (2008) hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muloqot ko'nikmalari va ilmiy tushunchalarni kontseptual tushunishini oshirishini ko'rsatdi. Tengdoshlarning o'zaro ta'siri kognitiv ziddiyatni kuchaytiradi, ko'p nuqtai nazarlarni rag'batlantiradi va kurs mazmuni bilan chuqurroq shug'ullanishga yordam beradi. Birgalikda muammolarni hal qilish, guruh loyihalari va tengdoshlarning fikr-mulohazalari uchun imkoniyat-larni taqdim etish orqali o'qituvchilar talabalar bir-biridan o'rganadigan va hamkorlikda ilmiy izlanishlar uchun zarur bo'lgan shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantiradigan qo'llab-quvvatlovchi ta'lim hamjamiyatini yaratishi mumkin.

Texnologiyalardagi yutuqlar fan ta'limi landschaftini inqilob qilib, mustaqil o'rganish va izlanish uchun yangi imkoniyatlarni taklif qildi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari talabalarga haqiqiy ilmiy hodisalarni takrorlaydigan immersiv, amaliy tajribalar bilan ta'minlaydi. Barab[1] va boshqalar tomonidan tadqiqot. (2001) va Smetana va Bell (2012)[9] talabalar o'rtasida so'rov ko'nikmalarini, kontseptual tushunishni va ilmiy fikrlashni rivojlantirishda virtual laboratoriyalarning samaradorligini ko'rsatdi. Texnologik takomillashtirilgan o'quv vositalaridan foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga haqiqiy ilmiy tajribalar va mustaqil tajribalar o'tkazish imkoniyatlarini taqdim etishlari va shu orqali ularning ilmiy tushunchalar va tamoyillarni o'zlashtirishlarini oshirishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarni fanlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirishning markaziy o'zni tegishli ta'lim nazariyalarini mustahkam tushinishdir. Bu nazariyalar o'quvchilarda mustaqil bilim olish xulq-atvorini shakllantirishga

yo'naltirilgan pedagogik amaliyotni ma'lum qiluvchi kontseptual asoslar va boshqaruv tamoyillarini ta'minlaydi. Ushbu bo'linda biz mustaqillik, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishning uchta asosiy nazariy asoslarini ko'rib chiqamiz: konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim nazariyasi.

Tahlil va natijalar. Konstruktivistik nazariyaning zamirida o'quvchilar o'zlarining atrof-muhit bilan o'zaro munosabati orqali dunyo haqidagi tushunchalarini faol ravishda qurishlari haqidagi g'oya yotadi. Talabalar passiv bilim olish o'rniga, yangi ma'lumotlarni o'zlarining mavjud kognitiv tuzilmalariga o'zlashtirish va yangi tajribalar asosida tushunchalarini moslashtirishni o'z ichiga olgan ma'no yaratish jarayonlarida ishtirok etadilar. Talabalarni fanlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish kontekstida konstruktivizm amaliy izlanish, tajriba va izlanish imkoniyatlarini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Ilmiy tushuncha va hodisalar bilan faol shug'ullanib, o'quvchilar mavzuni chuqurroq tushunishadi va mustaqil izlanish va muammoni yechish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Konstruktivizm tamoyillariga asoslanib, ijtimoiy konstruktivizm o'rganish tabiatan ijtimoiy ekanligini va boshqalar bilan o'zaro aloqada bo'lishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilimlar tengdoshlar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikdagi faoliyat, nutq va muzokaralar orqali birgalikda quriladi. Oliy ta'lim sharoitida fanlarni mustaqil o'zlashtirishga ko'maklashish uchun hamkorlikdagi o'quv muhitini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Guruh loyihalari, munozaralar va o'rtog'lar o'rtasida repetitorlik kabi hamkorlikdagi o'quv faoliyati nafaqat o'quvchilarning ilmiy tushunchalarini tushunishlarini kuchaytiribgina qolmay, balki muloqot ko'nikmalarini, jamoada ishlash va muammolarni jamoaviy hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'z tengdoshlari bilan birgalikda ishlash orqali talabalar o'z g'oyalarini ifoda etishni, taxminlarga qarshi turishni va hamkorlikda yangi bilimlarni yaratishni o'rganadilar.

O'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim nazariyasi odamlarga o'z ta'limni nazorat qilish imkonini beradigan metakognitiv jarayonlarga qaratilgan. Bu nazariyaga ko'ra, o'z-o'zini tartibga soluvchi o'quvchilar o'z oldiga maqsad qo'yish, o'z taraqqiyotini kuzatish, fikr-mulohaza va mulohaza asosida o'z ta'lim strategiyalarini moslashtirish bilan faol shug'ullanadilar. O'quvchilarni fanlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish kontekstida o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim o'quvchilarga o'z bilimlarini samarali rejalashtirish, boshqarish va baholashni o'rgatishdan iborat. O'qituvchilar maqsadlarni belgilash, o'z-o'zini baholash va ta'lim strategiyalari haqida fikr yuritish uchun imkoniyatlarni taqdim etish orqali o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limni qo'llab-quvvatlashi mumkin. O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash kabi metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali talabalar o'zlarining ta'lim tajribalarini boshqarishga qodir bo'lgan avtonom o'quvchilarga aylanadilar.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida bayon qilingan nazariy asos fanlarni mustaqil o'zlashtirishni tarbiyalashning asosiy tamoyillarini tushunish uchun mustahkam zamin yaratadi. O'qituvchilar konstruktiv, ijtimoiy konstruktivistik va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim nazariyalariga tayanib, o'quvchilar o'rtasida faol ishtirok etish, hamkorlik va o'z-o'zini boshqarishga yordam beradigan pedagogik tadbirlarni ishlab chiqishlari mumkin. Amaliy izlanishlar, hamkorlikda izlanishlar va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish kombinatsiyasi orqali talabalar fanlarda mustaqil o'quvchilar sifatida rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Barab, S. A., Hay, K. E., Barnett, M., & Squire, K. (2001). Constructing virtual worlds: Tracing the historical development of learner practices. *Cognition and Instruction*, 19(1), 47-94.
2. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235-266.
3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning* (5th ed.). Allyn & Bacon.

4. Pedaste, M., Mäeots, M., Siiman, L. A., de Jong, T., van Riesen, S. A., Kamp, E. T., ... & Tsourlidaki, E. (2015). Phases of inquiry-based learning: Definitions and the inquiry cycle. *Educational Research Review*, 14, 47-61.
5. Pintrich, P. R. (2000). The role of goal orientation in self-regulated learning. In M. Boekaerts, P. R. Pintrich, & M. Zeidner (Eds.), *Handbook of self-regulation* (pp. 451-502). Academic Press.
6. Roseth, C. J., Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2008). Promoting early adolescents' achievement and peer relationships: The effects of cooperative, competitive, and individualistic goal structures. *Psychological Bulletin*, 134(2), 223-246.
7. Savin-Baden, M., & Howell Major, C. (Eds.). (2004). *Foundations of problem-based learning*. McGraw-Hill Education.
8. Schraw, G., & Moshman, D. (1995). Metacognitive theories. *Educational Psychology Review*, 7(4), 351-371.
9. Smetana, L. K., & Bell, R. L. (2012). Computer simulations to support science instruction and learning: A critical review of the literature. *International Journal of Science Education*, 34(9), 1337-1370.
10. Windschitl, M., Thompson, J., & Braaten, M. (2008). Beyond the scientific method: Model-based inquiry as a new paradigm of preference for school science investigations. *Science Education*, 92(5), 941-967.
11. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory into Practice*, 41(2), 64-70.



УДК:101.2

Зухриддин ХОЖАЕВ,

Научный исследователь Наманганского государственного университета

E-mail: xojaevzuxriddin@mail.ru

На основы рецензии доктор философских наук, доцент И. Сиддиковой

ЭФФЕКТ ОТКРЫТОСТИ И ПРОЗРАЧНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ КОРРУПЦИИ

Аннотация

В данной статье исследуется влияние открытости и прозрачности деятельности органов внутренних дел на уровень коррупции. Авторы анализируют различные международные практики и подходы к обеспечению прозрачности в работе правоохранительных органов, опираясь на сравнительный анализ статистических данных, обзоры антикоррупционной политики и экспертные опросы.

Ключевые слова: Открытость органов внутренних дел, прозрачность правоохранительной деятельности, снижение коррупции.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDAGI OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNING TA'SIRI KORRUPSIYANI KAMAYTIRISH OMILI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligi va shaffoqligining korruptsiya darajasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Mualliflar statistik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, korruptsiyaga qarshi kurash siyosati sharhlari va ekspert so'rovlariga tayangan holda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida shaffoqlikni ta'minlash bo'yicha turli xalqaro amaliyot va yondashuvlarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlarining shaffoqligi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffoqligi, korruptsiyani kamaytirish.

THE EFFECT OF OPENNESS AND TRANSPARENCY IN THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES AS A FACTOR IN REDUCING CORRUPTION

Annotation

This article examines the impact of openness and transparency of the activities of internal affairs bodies on the level of corruption. The authors analyze various international practices and approaches to ensuring transparency in the work of law enforcement agencies, relying on comparative analysis of statistical data, reviews of anti-corruption policies and expert surveys.

Key words: Openness of internal affairs bodies, transparency of law enforcement, reduction of corruption.

Введение. В последние годы вопрос борьбы с коррупцией в органах внутренних дел занимает одно из центральных мест в повестке многих государств. Это обусловлено тем, что коррупция в правоохранительных органах не только подрывает доверие граждан к власти, но и серьезно затрудняет эффективную борьбу с преступностью. Одним из ключевых механизмов борьбы с коррупцией является повышение открытости и прозрачности деятельности органов внутренних дел.

Открытость и прозрачность: определения и значимость. Открытость предполагает доступность информации о деятельности органов внутренних дел для общественности, а прозрачность — возможность для граждан понимать принципы и процессы принятия решений в этих органах. Такой подход позволяет общественности контролировать действия правоохранительных органов, что создает дополнительные барьеры для коррупционных действий. Эффект открытости и прозрачности. Открытость и прозрачность органов внутренних дел способствуют созданию атмосферы доверия и сотрудничества между населением и правоохранительными органами[1]. Это доверие, в свою очередь, увеличивает готовность граждан сотрудничать с полицией, сообщать о коррупционных проявлениях и других преступлениях.

Практическое применение. Для реализации принципов открытости и прозрачности органы внутренних дел могут использовать ряд инструментов, включая:

Публикацию отчетов о деятельности и результатах работы.

Организацию публичных слушаний и встреч с гражданами.

Разработку и внедрение электронных платформ для обратной связи с населением.

Введение прозрачных механизмов расследования жалоб на действия сотрудников полиции.

Преимущества и вызовы. Повышение открытости и прозрачности приносит значительные преимущества в борьбе с коррупцией, включая уменьшение возможностей для злоупотреблений и укрепление законности и правопорядка. Однако на пути реализации этих принципов могут возникнуть вызовы, такие как сопротивление со стороны сотрудников, опасаящихся увеличения контроля и потери привилегий, а также технические и финансовые трудности при внедрении новых систем учета и контроля.

Эффект открытости и прозрачности в деятельности органов внутренних дел является ключевым фактором в борьбе с коррупцией[2]. Данная статья направлена на освещение значимости прозрачности для снижения коррупционных рисков и укрепления доверия общественности к правоохранительным органам. Коррупция в органах внутренних дел представляет собой серьезную угрозу правопорядку и общественной безопасности. Это не только подрывает доверие населения к правоохранительной системе, но и влияет на эффективность борьбы с преступностью[3]. В контексте глобализации и развития информационных технологий открытость и прозрачность становятся ключевыми инструментами в преодолении коррупции.

Открытость органов внутренних дел означает доступность информации о их деятельности для общественности. Прозрачность включает в себя не только публикацию данных, но и объективность, честность и понимание механизмов принятия решений. Эти качества играют решающую роль в предотвращении коррупции по нескольким причинам: Когда действия органов внутренних дел находятся под общественным контролем, это увеличивает их ответственность и снижает вероятность коррупционных

действий. Прозрачность способствует формированию доверия со стороны общественности, что является необходимым условием для эффективной работы правоохранительных органов. Открытость информации об органах внутренних дел затрудняет скрытые злоупотребления и коррупцию в их рядах[4]. Для увеличения уровня прозрачности и открытости в деятельности органов внутренних дел могут быть применены различные меры:

Shunday qilib, o'qituvchi ma'lum bir pedagogik ta'sirning turli xil variantlariga tayyor bo'lishi kerak amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyat turlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasining bir qismi

sifatida o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab kompetensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin, masalan, o'quv, tashkiliy, uslubiy, ilmiy, AKT kompetensiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyasi va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Xujayarova N.S. Individual learning trajectory in increase of educational efficiency. **Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 12, Issue 2, February (2024)** <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5271>. Page 474
3. Равен Д. Педагогическое тестирование: Проблемы, заблуждения, перспективы. М.: «Когито-Центр», 1999. 144 с.
4. Девид Жекеус (David Jaques), Learning in Groups Gulf, 1992.
5. Ilxamova I. N. Nofilologik ta'lim yo'nalishidagi talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligi kontekstida nutq ko'nikmalarini takomillashtirish. Ped.f.d. (PhD) diss. avtor. -T., 2019.-78 -b.
6. Arziqulova S.F. Организации процесса обучения студентов в условиях кредитно-модульной системы. Наука, инновации, образование: актуальные вопросы и современные аспекты: монография / Под общ. ред. Г. Ю. Гуляева - Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». - 2023. - 256 с. <https://naukaip.ru/wp-content/uploads/2023/03/%D0%9C%D0%9E%D0%9D-194-1.pdf>
7. Xujayarova N.S. Technology for the development of professional competence based on a creative approach. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education USA CONFERENCE February 28th 2023. , <https://conferencea.org/index.php/conferenceas/article/view/418/424>. Page 28-31
8. Xujayarova N. S Opportunities for the development of professional competence of future primary school teachers based on a creative approach. In Volume 4, Issue 3 of ResearchJet Journal of Analysis and Inventions (RJAI) March, 2023. ISSN:2776-0960, SJIF (2022): 6.072, Impact Factor (2022): 7.655. <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/2636>. Page 119-122

9. Xujayarova N. S Development of Creative Thinking Skills in Students Based on an Individual Learning Trajectory. **Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS)** Volume: 02 Issue: 12 | 2023 ISSN: 2751-756X <http://innosci.org>. | Page 89-91.
10. Begmatova S.N. "The role and significance of specific competence types in the training of future teachers in modern education". International scientific and practical conference Cutting edge-science 2022 Shawnee, USA Conference Proceedings Primedia E-launch Shawnee, USA November December 2022. ISBN 978-1-64945-234-4 DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7527949> 35-38
b



Bahodir XURRAMOV,

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: bbbxurramov@gmail.com

TerDuning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD M.Djumayeva taqrizi asosida

MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY MALAKA OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimining joriy etilishidagi muammolar, izlanishlar va yechimlar haqida fikr va mulohazalar hamda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy metodik ko'nikmalarini rivojlantirishda masofaviy va aralash malaka oshirish shakllari xususida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Malaka oshirish tizimi, masofaviy o'qitish shakllari, uzluksiz kasbiy rivojlanish, andragogika, o'qitish tamoyillari, o'qituvchining kasbiy ehtiyoji.

IMPROVING THE SYSTEM OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF INFORMATION TECHNOLOGY AND IT TEACHERS ON THE BASE OF DISTANCE EDUCATION TECHNOLOGIES

Annotation

In this article, some difficulties in implementation of continuous professional training, studies and solutions about view and opinions, also to develop information technology and IT subject teachers's continuous professional methodical skills analytical data mentioned about remote and mixed training forms.

Key words: Training system, forms of distance learning, continuous professional development, andragogy, teaching principles, teacher's professional need.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПЕДАГОГИ ИТ НА ОСНОВЕ ДИСТАНЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В этой статье рассматриваются некоторые трудности в реализации непрерывного профессионального обучения, исследованиях и решениях взглядов и мнений, а также в развитии непрерывных профессиональных методических навыков учителей информационных технологий и ИТ-предметов, аналитические данные упоминаются о дистанционных и смешанных формах обучения.

Ключевые слова: Система обучения, формы дистанционного обучения, непрерывное профессиональное развитие, андрагогика, принципы преподавания, профессиональная потребность педагога.

Kirish. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu islohotlarning negizi sifatida, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi" deya takidlab o'tgan so'zlarida hamda O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni yo'lida faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olishimiz, buning uchun esa, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarurat borligini ta'kidlab o'tgan holda, sharq donishmandlarining quyidagi fikrlarini e'tirof etgan, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir"- deya takidlab o'tgan fikrlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Shu sababli barchamiz zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishimizda uzluksiz bilim olish hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Shu jumladan, bugungi davrda taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini

egallash bu, yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Masofaviy va aralash shakldagi malaka oshirish kasbiy faoliyati bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlarni qondirish, masofaviy ta'lim texnologilari, informal ta'lim, avvaldan olingan kasbiy bilimlarni yangilash va chuqurlashtirish kabi maqsadlari o'z ishiga olgan uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi sifatida oshirish yuzasidan respublikamiz olimlaridan A.Aminov, A.D.Asqarov, U.Begimqulov, M.A.Batirov, O.Bobomurodov, A.Ibraymov, M.Komilov, N.Muslimov, D.Sayfurov, MDH davlatlarda A.Andreev, A.S.Lesnevskiy, A.Shabanov, K.Sharifzyanova xorijiy davlatlarda T.Anderson, Z.Berge, J.Daniel va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borgan.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari, malaka oshirish tizimi muassasalarining o'qituvchi shaxsini, uning qadr-qimmatini va kasbiy manfaatlarini rivojlantirish borasida N.Goncharova, E.M.Nikitin, E.A.Levanova, V. P.Korsunov kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tahlil va natija. Malaka oshirishni tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilayotganda, uzluksiz ta'lim muammolar bo'yicha birinchi nazariy tushunchalar XX-asrning birinchi yarmida ingliz tadqiqotlarining ilmiy ishlarda paydo bo'lgan. Mazkur muammoga bag'ishlangan birinchi ilmiy ishlarda, asosiy nazariy amaliy masalalarda deyarli kam ishlab chiqilgan katta yoshdagi insonlarga ta'lim berish haqida so'z yuritiladi.

Avvalo ta'lim katta yoshdagi insonlar bazaviy ta'lim berishda boshliqlarni bartaraf etishga imkon yaratuvchi, yoxud olingan kasbiy bilimlar eskirishi bilan bog'liq zaruriy ta'lim o'rni to'ldiruvchi ta'lim sifatida ko'rib chiqilgan.

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi hayotining barcha bosqichlarida insonning rivojlanishini ko'zda tutadi va fikrimizcha, birinchidan, hozirgi vaqtda yechimni talab etadigan muammolarni, yangi avlodning o'sib yetilish davrigacha qoldirilishi mumkin emasligi va shuning uchun bugungi hayot uchun to'liq javobgar bo'lgan kattalar bilimlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish zaruriyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

XX-asrning ikkinchi yarmida nazariy va amaliy g'oyalarni umumlashtiruvchi yangi gumanitar soha - uzluksiz ta'lim jarayoni sifatida katta yoshdagi insonlarga ta'lim berishning nazariy va amaliy muammolarni yechimini ochib beruvchi androgogika ilmiy-amaliy yo'nalishi paydo bo'ldi.

Ushbu yo'nalishga asos solgan M.Sh.Nouls tomonidan katta yoshdagi insonlarga ta'lim berishning zamonaviy nazariyasi amaliyotini quyidagi tamoyillar asoslab beradi:

- ta'lim oluvchining ijtimoiy-kasbiy ehtiyojlari;
- ta'lim oluvchini motivatsiyalash;
- ta'lim oluvchining beixtiyoriyliigi;
- shaxsiy ehtiyojlarga asoslangan ta'limni individuallashtirish;
- ta'lim olishning mustaqilligi;
- ta'lim olishning selektivligi;
- ta'lim olishda ta'lim oluvchining ijodiy, hayot tajribasidan foydalanish;
- yangi tajribani o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi shaxsiy ko'nikmalar va eskirgan tajribalari to'g'irlash;
- ta'lim oluvchining amaliy faoliyatidagi ta'lim natijalarni talab qiluvchanligi;
- ta'limning tizimliyligi;
- ta'lim oluvchining rivojlanishi.

Ushbu tamoyillar, katta yoshdagi insonlarning ta'lim berishning asosiy nazariy va amaliy vazifalari e'tirof etilgan didaktik usullardan farqli ravishda ta'lim jarayonini ta'lim beruvchi emas, balkim ta'lim oluvchi yetakchi rol o'ynashi muhimligini taqdim etish mumkin. Bunday hollarda, ta'lim oluvchining vazifasi uning shaxsiy tajribasini aniqlash, tizimlashtirish, shakllantirish, uning bilim ko'nikmalarini to'ldirish va tozalashda yordam berishi muhim hisoblanadi.

Bunda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy malaka oshirishning tanqidiy masalalarni hal etishning uslubiy ko'rsatmalari katta yoshdagi insonlarning ta'lim jarayoniga "maktab" didaktikasi vazifasini to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishga yo'l qo'ymaydigan o'rta va yuqori ta'lim uslubiyoti o'rtasida prinsipial farqqa egaligini ta'kidlaydi.

Bugungi kun informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish, ularning zamonaviy texnologiyalar, o'qitish usullari va fanni o'qitish yuzasidan ta'lim amaliyotidagi so'nggi yutuqlar bilan yangilanib turishini ta'minlash muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq, hozirda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

Ta'limdagi texnologik o'zgarishlar – informatika va axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan va doimiy rivojlanishga ega bo'lgan soha. Eng yangi texnologiyalar, dasturlash tillari va vositalaridan xabardor bo'lish o'qituvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa ularni o'qituvchilar yetkazish jarayonlarini bilishi talab etiladi.

Resurs cheklovlari - cheklangan resurslar, ham moliyaviy, ham vaqt, maktablar va ta'lim muassasalarining informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari uchun etarli tayyorgarlik imkoniyatlarini ta'minlash qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Seminarlar, konferensiyalar va kurslarni moliyalashtirishning etishmasligi ularning kasbiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'zgarishlarga qarshilik – ba'zi o'qituvchilar o'zgarishlarga chidamli bo'lishi yoki yangi o'qitish metodologiyasi va texnologiyalarini o'zlashtirishni qiyin deb bilishi mumkin. Bu qarshilik ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi yoki oddiygina an'anaviy o'qitish usullariga o'rganib qolishdan kelib chiqishi mumkin.

Variativ o'quv dasturlari - o'quv dasturlarining mavjudligi va sifati har xil bo'lishi mumkin. Ba'zi malaka oshirish dasturlari informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilmagligi mumkin va ular ushbu sohada samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan tegishli ko'nikma va bilimlarni qamrab olmasligi mumkin.

Cheklangan hamkorlik imkoniyatlari - informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari soha mutaxassislari yoki soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. O'qituvchilar va fan yo'nalishi bo'yicha soha amaliyotchilari o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar kasbiy rivojlanish sifatini oshirishi mumkin, ammo bu aloqalarni o'rnatish har doim ham oson bo'lmasligi mumkin.

Malaka oshirish boshqa yo'nalishi o'quv dasturlari bilan integratsiya - mavjud o'quv dasturlari bilan kasbiy rivojlanish faoliyatini muvofiqlashtirish qiyin bo'lishi mumkin. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonida o'rganganlari va o'quv jarayonida kutilayotgan narsalar o'rtasida uzilish bo'lishi mumkin, bu esa yangi ko'nikma va bilimlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Vaqt cheklovlari - o'qituvchilar ko'pincha talabchan jadvalarga ega va uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun vaqt topish qiyin bo'lishi mumkin. O'qituvchilik mas'uliyati, baholash va boshqa informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilar o'z kasbiy sohasiga tegishli bo'lmagan ortiqcha vazifalarni berilishi, o'qituvchilarga o'zlarining professional kasbiy ko'nikmalarini o'sishlari uchun oz vaqt qoldirishi mumkin.

Kasbiy ko'nikmalarini baholash - informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining o'qitish samaradorligiga kasbiy rivojlanish tashabbuslarining ta'sirini o'lchash qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu dasturlarning muvaffaqiyatini baholash uchun aniq ko'rsatkichlarning yo'qligi ularning umumiy samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi.

Rag'batlantirishning yetishmasligi - informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining doimiy kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi tizimli rag'batlantirish mexanizmining yo'qligi. Doimiy ishtiroq bo'lmasa, ba'zi o'qituvchilar o'z malakalarini yangilash uchun vaqt va kuch sarflashga majbur bo'lmasligi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari uchun samarali, moslashtirilgan va mavjud kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish uchun xizmat qiluvchi omillar sifatida qarashimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa. Informatika fani o'qituvchilarni masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurs mazmuni takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlarni rivojlantirish, o'qituvchilarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tavsiyalar va kasbiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan variativ kurslar ishlab chiqish hamda uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayonlari natijalari bo'yicha o'qituvchilar rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga, kursdan keyingi pedagogik faoliyatdagi samaradorligini aniqlash va aniqlangan tahlillar asosida tizimni rivojlantirish yuqori natijalarga erishishi mumkin ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Bu esa, informatika fani o'qituvchilarni masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida uzluksiz kasbiy malaka oshirish ta'limi jarayonlarida har tomonlama professional tajribali pedagog shakllantirishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ 637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori.

4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X., Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. Toshkent, «Fan» nashriyoti 2009 y.
5. Yeldasheva G.V. Masofaviy ta'lim orqali maxsus fan o'qituvchilari malakasini oshirishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish. P.f.n. ... ol.uchun yozilgan dis. – Toshkent, 2011.
6. R.Jo'rayev, M.Yuldashev, N.Raxmanqulova, A.Baxramov, A.Zakirov. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent, 2014.
7. Шарифзянова К.Ш. Проектирование индивидуальной образовательной траектории повышения квалификации педагогов в условиях информационной образовательной среды: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Казан., 2014.
8. "E-Learning and the Science of Instruction" - Ruth C. Clark, Richard E. Mayer, Wiley, 2016.
9. Ibraymov A.E. Umumta'lim maktabi fizika o'qituvchilari masofaviy malaka oshirishlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.b.f.d.(PHD) ... ol.uchun yozilgan dis. – Toshkent, 2017.
10. Asqarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. P.f.b.f.d.(PHD) ... ol.uchun yozilgan dis. – Toshkent, 2017.



Zavqiddin HOJIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlamuvchisi, PhD

E-mail: zfarxodov1938@gmail.com

Sotsiologiya fanlari doktori, professor T.Matibayev taqrizi asosida

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI IJTIMOY INSTITUT SIFATIDA: SOTSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqola davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy institut sifatidagi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Xususan, davlat xizmatining boshqa institutlar bilan chambarchas bog'liqligi, tarixiy shakllanganligi, tashkiliy-madaniy an'nalari, ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ijtimoiy institut tushunchasi nazariy-metodologik jihatdan o'rganilib, xorijiy sotsiolog olimlarning bu boradagi yondashuvlari tahlil qilingan. Ushbu ijtimoiy institutning murakkab fenomen sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, tabiati, maqsadi, funksiyalari, qadriyatlarini, institutsional rivojlantirish masalalari yoritilgan. Davlat xizmatini takomillashtirish muammosi sohalar kesimida o'rganilib, alohida ijtimoiy institut sifatidagi mezonlari, uning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, davlat fuqarolik xizmati, ijtimoiy institut, evolyutsiya, hamkorlik, ijtimoiy mezon, yondashuv, ehtiyoj, mehnat taqsimoti, funksionalizm, ratsionallik, ijtimoiy qatlam.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ГРАЖДАНСКАЯ СЛУЖБА В КАЧЕСТВЕ СОЦИАЛЬНОГО ИНСТИТУТА: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье обращено внимание на аспекты государственной гражданской службы как социального института. В частности, указано на тесную связь государственной службы с другими институтами, историческую сформированность, организационно-культурные традиции, и что она является неотъемлемой частью социальных отношений. Изучено с теоретико-методологической позиции понятие социального института и проанализированы подходы зарубежных ученых-социологов по данному вопросу. Освещены своеобразные свойства, природа, цели, функции, ценности данного социального института, как сложного феномена, а также вопросы его институционального развития. Проблема совершенствования государственной службы изучена в разрезе отраслей, раскрыты ее критерии как отдельного социального института, а также ее правовые, социальные, экономические аспекты.

Ключевые слова: государство, общество, государственная гражданская служба, социальный институт, эволюция, сотрудничество, социальный критерий, подход, потребность, трудовое распределение, функционализм, рационализм, социальный слой.

STATE CIVIL SERVICE AS A SOCIAL INSTITUTION: SOCIOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

In this paper we focus on those aspects of state civil service which makes it a social institution. In particular, we make an attempt to prove that the civil service is closely connected with other institutions, has evolved historically, presents organizational and cultural traditions, and considered to be an integral part of social relations. Through examining the concept of a social institution has been examined from a theoretical and methodological viewpoint, we analyze the approaches of foreign sociologists on this issue. Moreover, we study the peculiar properties, nature, goals, functions, values of this social institution as a complex phenomenon, as well as issues of its institutional development. Finally, we propose some ways of improving the public service in the context of industries, and highlight its legal, social, and economic aspects as a separate social institution.

Key words: state, society, state civil service, social institution, evolution, cooperation, social criterion, approach, need, labor distribution, functionalism, rationalism, social stratum.

Kirish. Bugungi kunda davlat xizmati fenomenini o'rganish bo'yicha keng tarqalgan yondashuvlardan biri bu institutsional yondashuv hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida davlat xizmatining konseptual asoslari va uning amaliy chora-tadbirlarini shakllanishi hamda rivojlanib borishi mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy xususiyatlari, an'analari, turmush tarziga bog'liq holda sodir bo'ladigan dinamik jarayondir. Bunday o'zgarishlar mustahkam nazariy va metodologik asoslarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi. Professional faoliyatning maxsus turi sifatida davlat fuqarolik xizmatini institutsional rivojlantirish masalasi nafaqat sotsiologiya fanining, balki siyosatshunoslik, iqtisodiyot, huquqshunoslik fanlarining yetakchi muammolaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy o'zgarishlarning institutsional jarayonlarga ta'siri, davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy institut sifatida ularning o'zaro hamkorligi ijtimoiy mexanizm sifatida yanada o'rganish zaruratini ko'rsatmoqda.

«Davlat xizmati» tushunchasi professional va institutsional siyosiy boshqaruvni o'zida aks ettiradi. Ushbu xizmat davlat boshqaruvining bir qismi bo'lib, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlaridan biri sanaladi. U davlat hokimiyati funksiyalarini amalga oshirishuvchi jihatlar bilan farqlanadi.

Bunda siyosiy boshqaruv davlat xizmati doirasida o'zining funksiyasini amalga oshirishi orqali jamoatchilik boshqaruvini rivojlanishiga xizmat qiladi. An'anaga muvofiq ko'pchilik mamlakatlarda mazkur faoliyati turi davlat xizmati deb nomlanada, rivojlangan davlatlarda ommaviy xizmat, fuqarolik xizmati, jamoatchilik xizmati («public service» yoki «civil service») deb ham yuritiladi.

O'zgarishlar yoki rivojlanish jarayonida davlat fuqarolik xizmatini o'rganishda avvalo, institutsional yondashish, uning ijtimoiy institut sifatida samaradorligini o'rganish va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat fuqarolik xizmati ijtimoiy institut sifatida insonlar faoliyatini tartibga soluvchi turli shakldagi qoidalar, tamoyillar, qadriyatlar, an'analari, normalar va ko'rsatmalar majmuasi tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Davlat xizmatida 3 ta guruhni – tartibga soluvchi (boshqaruv), ta'minlovchi va texnologik funksiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Sotsiologik nuqtai nazardan ularning barchasini ijtimoiy roli, aloqa shakli va harakatlari orqali bir majmua sifatida tushunish mumkin. Davlat xizmatining ijtimoiy roli jamiyatdagi ijtimoiy institutlarni birlashtirish orqali davlat boshqaruvida jamoatchilik ehtiyojlarini

qondirish va ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlashdan iborat [1].

Davlat xizmatining ijtimoiy xususiyatlari quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi: 1) jamiyatda (ijtimoiy institut tabiati, uning maqsad va funksiyalari); 2) davlat xizmatchilarining ijtimoiy qatlamida (qadriyatlar, an'analar va normalar); 3) alohida davlat xizmatchisida (ijtimoiy maqom, nufuz, imij, reyting) [2]. Mazkur darajalarning har birida davlat xizmatining o'ziga xos tamoyillari va normalari kuzatiladi. Mazkur institutning jamiyat darajasidagi ijtimoiy xarakteri, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga va shu orqali jamiyat manfaatlarini yo'lida faoliyat olib borishi lozimligini anglatadi.

Davlat xizmatining mavjud holatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy institut sifatida ikkita tarkibiy qismga bo'lish mumkin. *Birinchisiga* hokimiyatni amalga oshirish va davlat xizmatchilariga qo'yiladigan talablarni tartibga soluvchi huquqiy normalar va standartlar kiradi. *Ikkinchisi* esa davlat tashkilotlarida professional faoliyat olib boruvchi fuqarolar bo'lib, mazkur holat ushbu xizmatning ijtimoiy xususiyatini o'zida namoyon etadi.

Ijtimoiy institut sotsiologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Unda ma'lum ma'nodagi tashkiliy ijtimoiy harakatlar shakli va jarayonlari, ijtimoiy jamiyat va guruhlarning umumiy rolida aks etadi. Uning dastlabki ko'rinishlari turli kichik guruhlarning o'zaro hamkorligi natijasida vujudga keladigan murakkab ijtimoiy institut shakllanib boradi. Ijtimoiy institutning shakllanib borishi jamiyatlar, jamoalar va guruhlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

«Institut» atamasi lotincha «institutum» so'zidan olingan bo'lib, «o'rnatish», «ta'sis qilish» degan ma'nolarni anglatadi. «Ijtimoiy institut» tushunchasi jamiyat hayotini tartibga soluvchi tarixiy shakllangan tashkilot bo'lib, jamiyatning hayotiy muhim funksiyalarini amalga oshiradi [3]. Shu ma'noda sotsiolog olim M.Veber institutga misol sifatida davlatni ko'rsatib o'tadi. Uni ratsional me'yorlar, konstitutsiya, qonunlar va boshqalarga asoslanadigan xulq-atvoriga ega bo'lgan insonlar hamjamiyatini tashkil qiluvchi sifatida baholaydi [4]. Ushbu ijtimoiy institut doirasida shaxslar, guruhlar, jamiyatlar o'rtasida munosabatlar sodir bo'ladi. Institutlar – insonlararo munosabatlar modeli sifatida barqaror, mustahkam va chidamli xarakter kasb etuvchi aloqalar tizimini mujassamlashtiradi.

Mumtoz neoinstitutsionalizm vakili D.Nort institut tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: «institutlar jamiyatni ma'lum bir tarkibiy tuzilishga keltirgan holda undagi noaniqliklarni kamaytiradi. Jamiyatdagi insonlararo o'zaro munosabatlarni tashkillashtiradi» [5]. Boshqacha aytganda, institut jamiyat a'zolari foydalanadigan imkoniyatlarni shakllantiradi, davlat xizmati esa ijtimoiy institut sifatida insonlar faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Davlat xizmati ijtimoiy institutning shakli hisoblanadi va bir vaqtning o'zida uning funksiyalarini amalga oshiradi.

Ijtimoiy institut – muayyan tashkiliy tuzilma bilan bog'liq bo'lgan normalar, talablar va qoidalar majmuasi hisoblanadi. Ushbu majmua orqali jamoatchilik tomonidan jamiyat hayotining muhim sohalarida insonlar faoliyati nazorat qilinadi va tartibga solinadi [6].

Ijtimoiy institutlar evolyutsion jihatdan tabiiy tanlov asosida shakllanib kelgan. Amerikalik olim T.Veblen o'z qarashlarida jamiyatning rivojlanib borishi natijasida jamoa ehtiyojlariga mos ravishda institutlarning o'zgarib borishini asoslab bergan [7].


Mumtoz sotsiologiyada davlat xizmatining institutsional yondashuvga muvofiq ijtimoiy institut sifatida davlatning tuzilmasida mustahkam o'rnatilgan muhim soha sifatida tan olindi. Fransuz sotsiolog olimi O.Kont jamiyat tuzilmalarining birlamchi elementlarini, ya'ni oila, birlashma, cherkov va davlatlarni ijtimoiy institutlarni ko'rsatib o'tadi [8]. Olim bunday xulosaga ularning ijtimoiy jarayonlarni birlashtiruvchi funksiyalarini e'tiborga olgan holda kelgan.

Angliyalik sotsiolog olim G.Spenser «ijtimoiy institut» atamasini birinchilardan bo'lib qo'llagan bo'lib, uning olti turini, ya'ni sanoatlashgan, siyosiy, kasaba uyushmalari, marosimlar, cherkov va uy xo'jaligini ajratib ko'rsatgan. Olimning fikriga ko'ra, har qanday «ijtimoiy institut» ijtimoiy harakatlarning barqaror faoliyati natijasida shakllanadi. Ijtimoiy institutlar paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun jamiyat va inson tomonidan unga kuchli ehtiyoj tug'ilishi kerak. Xohlagan ijtimoiy institut u yoki bu ko'rinishdagi ijtimoiy ehtiyojlarni bajarish uchun shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Ehtiyojlarning kamayib borishi yoki yo'qolib ketishi natijasida bu turdagi ijtimoiy institutlarning faoliyat ko'rsatishi ahamiyatsiz bo'lib qoladi va jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsata boshlaydi. Ijtimoiy aloqalar asosida bunday institutlar an'analar asosida ozroq faoliyat ko'rsatadi, lekin aksariyat holatlarda uning faoliyati to'xtatiladi [9].

G.Spenser ijtimoiy institutlarni ijtimoiy taraqqiyot ta'siri ostida bir necha turga bo'ladi: oila evolyutsiyasi bosqichlarini ishlab chiquvchi, oilaviy munosabatlar o'zgarishini tadqiq etuvchi institutlar; urf-odat, an'ana, axloq orqali insonlarning kundalik xatti-harakatini boshqaruviga yunaltilgan institutlar; jamiyat hamjihatligi va e'tiqodiy birligiga ta'sir etuvchi diniy va boshqa fuqarolik institutlari; mehnat taksimlanishi asosida yuzaga keluvchi kasb-hunarga tayyorlash institutlarini ajratib o'tgan [10].

Ilmiy adabiyotlarda davlat xizmati tushunchasini institutsional yondashuvni tahlili qilishda professional faoliyatning turi sifatida faoliyatli yondashuv keng qo'llaniladi. Insonning professional faoliyatini sotsiologik jihatdan o'rganish masalasi E.Dyurkgeym va uning mehnatni taqsimlash nazariyasi bilan bog'liq holda o'rganish mumkin. U jamiyatni murakkab stratifikatsion tizim ekanligini, ushbu tizimning tarkibiy elementlari bir-biriga bog'liq va aloqadorligi bilan xarakterlanishini aytib o'tadi. Olimning nazariyasiga ko'ra, mehnatni taqsimlash qonuniyati jamoatchilik tomonidan XVIII asrda tan olingan bo'lsa-da, ushbu jarayon insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlab yuzaga kelgan. Jamiyat hayotining turli sohalarida mehnat taqsimotini kuzatish mumkin: siyosiy, ma'muriy, sud funksiyalariga ixtisoslashgan. Mehnat taqsimoti kuchaygani sayin, borgan sari kishilar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'la boradi, chunki ularning har biri boshqa kasbdagi kishilar ishlab chiqarayotgan mahsulot va xizmatlarga ehtiyoj sezadi [11].

Natijalar va muhokama. Har bir institut tarkibiy elementlarga ega bo'lib, u yoki bu ko'rinishda davlat xizmatiga bog'liq ravishda shakllangan bo'ladi. Bunda ular o'z funktsiya va vazifalarni bajaradi. Maqsad va vazifalarga erishish uchun ushbu institutlar tashkilot va vositalardan tashkil topadi. Vositalar moddiy, g'oyaviy va ramziy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bunda davlat fuqarolik xizmati instituti belgilangan norma va harakatlarni tartibga solib turadi. Davlat fuqarolik xizmatini ijtimoiy institutni o'rganish bo'yicha mavjud yondashuvlarni tahlil qilgan holda ularni quyidagi mezonlarga bo'lib chiqdik (1-rasm).



1-rasm

1-rasm. Davlat fuqarolik xizmatini ijtimoiy institut sifatidagi belgilari

Davlat fuqarolik xizmati ijtimoiy institut sifatida siyosiy tuzilishidan qat'i nazar barcha jamiyatda u yoki bu ko'rinishda faoliyat olib boradi. Shu o'rinda ushbu institutning mazkur jihatlarini ko'rsatib o'tish joiz: 1) siyosiy rejimga bog'liq ravishda hukumat tomonidan tashkil qilinadi; 2) lavozim va maqomlar iyerarxiya tuzilishga ega; 3) huquqiy normalarga, funksiyalarga va vakolatlariga ega bo'ladi; 4) belgilangan axloqiy qadriyatlarga ega

Ijtimoiy institut sifatida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish muammosini quyidagicha ko'rinishda tahlil qilish mumkin (2-rasm).



2-rasm

2-rasm. Davlat fuqarolik xizmatini ijtimoiy institut sifatida takomillashtirish yo'llari

Davlat fuqarolik xizmati ijtimoiy institut sifatida jamiyatda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratadi; ijtimoiy munosabatlar doirasida jamoa a'zolarining harakatlarini muvofiqlashtirib turadi, bunda istalgan harakatlarni amalga oshirilishini ta'minlaydi, istalmagan yoki taqiqlangan harakatlarni sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi; umumiy funksiyalarning bajarilishini ta'minlash orqali jamiyatdagi barqaror turmush tarzini olib borilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydi; harakatlarning birlashishga bo'lgan intilishlarini amalga oshiradi, individlarning birgalikdagi harakatlari va munosabatlari orqali jamoa jipsligiga sharoit yaratadi.

Davlat fuqarolik xizmatining ushbu raxsurs asosidagi yondashuviga asosan, ijtimoiy institut sifatida «uyushgan shaxslardan tashkil topgan guruh shaklida o'z faoliyatini ierarxiya asosida amalga oshiruvchi, o'zini o'zi qayta tiklaydigan, ixtisoslashgan tizimda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni (boshqaruv) bajaruvchi muassasalar – davlat idoralarning ichki va tashqi jihatdan bir-biri bilan aloqador tartibiga asoslangan, umumiy maqomga ega bo'lgan, davlat

bo'lgan kadrlar tarkibi mavjud bo'ladi; 5) manfaatlar guruhlarining hamkorlikdagi mexanizmlariga ega bo'ladi. Mazkur faoliyati davomida jamiyatning muhim institutlari bilan o'zaro aloqaga kirishadi, maqsad va vazifalarni aniqlash orqali ko'pincha uning ta'sirini, shuningdek o'zining faoliyati uchun sharoitlarni qabul qiladi.

funksiyalari bilan bog'liq vazifalarni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlarini o'zida mujassamlashtiradi» [12].

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda «davlat fuqarolik xizmati» va «ijtimoiy institut» tushunchalarining qiyosiy tahlili ularning funksiyalari, mexanizmlari va boshqa qator o'xshash jihatlarining bir-biriga bog'liq ravishda o'zaro kirishib ketgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Davlat fuqarolik xizmatining doimiy evolyutsiyasi – ijtimoiy-boshqaruv texnologiyasining tarixiy yangilanib borish jarayonidir. Davlat xizmati tarixiy jihatdan ijtimoiy institut sifatida yuzaga kelgan bo'lib, davlat xizmatidagi shaxslarning hamkorlikdagi faoliyati natijasidan barqaror shakllanib kelgan. Umumiy qabul qilingan belgilar (jamiyatda legitimlashgan tashkilotlarning majudligi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy va qadriyatlarga egaligi)dan tashqari ushbu institut vakolatlar istisnoligini anglash, egallab turgan lavozimi orqali hokimiyat vakolatiga egaligi, shaxsiy javobgarlik va faoliyat samaradorligini aniq belgilovchi mezonlar kabi maxsus xususiyatlarga ega hisoblanadi. Ushbu xizmat muhim ijtimoiy institut sifatida, davlatning mavjud bo'lishi va faoliyati ko'rsatishida muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Государственная служба как социальный институт и профессиональная деятельность // https://studme.org/65055/pravo/gosudarstvennaya_sluzhba_sotsialnyy_institut_professionalnaya_deyatelnost
2. Государственная служба: нравственные основы, профессиональная этика / Под ред. В.М. Соколова, А.И. Турчинова. – М., 2006.
3. Социологический энциклопедический словарь. На русском, английском, немецком, французском и чешском языках. Редактор-координатор – академик РАН Осипов Г.В. – М.: Издательская группа ИНФРА М – НОРМА. 1998. – С. 105.
4. Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики. 2016. – С. 18.
5. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. М., 1997. С. 18.
6. Staines, Z., Hoffstaedter, G., & Binnie, N. (2023) Introduction to the Social Sciences. The University of Queensland. <https://doi.org/10.14264/3e239ee>
7. Veblen T. The Theory of the Leisure Class. М.: 1984. P. 184.
8. Кравченко А.И. Парадокс начала: Огюст Конт как метафизик и революционер. «Социология» журнал Российской социологической ассоциации. 2019. №1. – С. 50-70.
9. Offer J (2019) Herbert Spencer, Sociological Theory, and the Professions. Front. Sociol. 4:77 doi: 10.3389/fsoc.2019.00077
10. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: «Yoshlar nashriyot uyi», 2020. – B 23.
11. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. М.: Канон, 1996. С.50-51.
12. Шаров А.В. Правовые и организационные проблемы регулирования государственной службы. М., 1997.



Aziza SHAMSIYEVA,
Teacher of the Uzbekistan National University
E-mail: ashamsiyeva01@gmail.com

Based on review of associate professor Sh.Kenjaboyev

TEACHING STRATEGIES TO INCREASE NEW LEARNER STUDENT'S LISTENING SKILLS: A REVIEW OF LITERATURE

Annotatsiya

Listening skills are vital not only in academic settings but also in everyday life. While reading, writing, and language skills are emphasized in schools, listening often takes a back seat. However, it is crucial for educators to recognize the significance of listening comprehension and to incorporate strategies to develop these skills alongside other language abilities. By emphasizing active listening techniques and providing support for students with hearing impairments, educators can help enhance overall learning and comprehension in English and other subjects. This article review underscores the importance of supporting students in developing effective learning strategies and strengthening their English listening skills, particularly for those struggling in other subjects who may also be learning English as a foreign language. The researcher offers suggestions for educational activities that both students and instructors should engage in to facilitate learning. This holistic approach aims to address the diverse needs of students and enhance their overall academic performance.

Key words: listening, English, language, student, skill, activities, information, vocabulary, Foreign Language.

СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ УСПЕШНОСТИ НОВЫХ СТУДЕНТОВ НАВЫКИ СЛУШАНИЯ: ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

Навыки слушания жизненно важны не только в академической среде, но и в повседневной жизни. Хотя в школах уделяется особое внимание чтению, письму и языковым навыкам, аудирование часто отходит на второй план. Тем не менее, преподавателям крайне важно признать важность понимания речи на слух и внедрить стратегии развития этих навыков наряду с другими языковыми способностями. В обзоре этой статьи подчеркивается важность поддержки учащихся в разработке эффективных стратегий обучения и укреплении их навыков аудирования на английском языке, особенно для тех, кто испытывает трудности с другими предметами и, возможно, также изучает английский как иностранный. Исследователь предлагает предложения по образовательной деятельности, которыми должны заниматься как студенты, так и преподаватели, чтобы облегчить обучение. Этот целостный подход направлен на удовлетворение разнообразных потребностей студентов и повышение их общей академической успеваемости.

Ключевые слова: аудирование, английский язык, язык, студент, умение, деятельность, информация, словарный запас, иностранный язык.

TALABALARNING TINGLASH MALAKASINI OSHIRISH UCHUN O'RGATISH STRATEGIYASI: ADABIYOTNI Tahlili ASOSIDA

Annotatsiya

Tinglash qobiliyatlarini nafaqat akademik sharoitlarda, balki kundalik hayotda ham juda muhimdir. Maktablarda o'qish, yozish va til ko'nikmalariga urg'u berilsa-da, tinglash ko'pincha ikkinchi o'rinda turadi. O'qituvchilar tinglash usullarini rivojlantirish orqali eshitib, anglash qobiliyati zaif o'quvchilarni ingliz va boshqa fanlarni umumiy o'rganish va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Ushbu maqola sharhi talabalarni ingliz tilida tinglash ko'nikmalarini mustahkamlashning samarali o'rgatish strategiyalarini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi, ayniqsa ingliz tilini chet tilini sifatida o'rganayotgan o'rganuvchilar uchun. O'rganishni osonlashtirish uchun talabalar va o'qituvchilarga kerakli bo'lgan ta'lim faoliyati bo'yicha turli xil xorijiy adabiyotlarni tahlili asosida takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tinglash, ingliz tili, til, talaba, malaka, faoliyat, ma'lumot, lug'at, chet tili.

Introduction. Listening is regarded as one of the four essential practical competencies for communicating in English, reading, writing, and speaking. Out of these four skills, listening is the most crucial one. Given that this skill can significantly improve one's success in other areas, this investigation aims to determine the substantial value of having this ability. This talent has the potential to significantly improve one's performance in other areas (Darti & Asmawati, 2017). To attain their aim of speaking English fluently, students of English as a Foreign Language (EFL) need to spend a significant amount of time daily immersed in the English language (Darti & Asmawati, 2017). Improving listening skills is essential for acquiring a second language (L2) in one's lifetime (Kajiura et al., 2021, p.1). The skill to listen does not require active engagement and can be cultivated on one's own, as stated by Osada (2004). According to Rost (2002), listening is the most crucial skill for effective language acquisition.

The study emphasizes the importance of listening as the most frequently used skill in daily life, which also tends to

improve more rapidly than other abilities, making it easier to acquire new talents. Specifically, for students of English as a Foreign Language (EFL), listening poses both significant challenges and promising opportunities for progress. Challenges include difficulties in controlling the pace of speech, limited vocabulary, trouble perceiving signals or cues, analyzing auditory information quickly, maintaining focus, and established patterns of comprehension. Addressing these challenges through targeted strategies and practice can lead to substantial improvement in English listening proficiency for EFL students.

In this review study, the researchers began by reviewing some of the strategies employed for listening comprehension. Afterwards, they focused on some of the students' challenges while listening to oral passages. This study aimed to improve educators' understanding of these challenging listening comprehension aspects to encourage effective teaching strategies. It is intended that the results of this literature review will provide instructors and students with insightful and instructional

perspectives on the method of instructing and developing listening comprehension.

Academics have developed various conceptualizations to describe the act of listening. According to Chastain (1971), listening is the ability to take in native speech when presented at a regularly timed tempo. Morley (1972) defines hearing as aural grammar, auditory discrimination, the selection of important information, the maintenance of that information, and the coupling of that information to the relationship between sound and meaning form. Hearing is a sense that allows humans to communicate with one another. According to Postovsky (1975), who formulated this argument, listening differs from sound detection and auditory understanding in terms of the meaning conveyed by each activity.

According to the definition of "listening" provided by Goss (1982), parsing the information taken in by hearing into lexical parts so that it may be given meaning. This is done so that the information can be interpreted. Hearing and comprehending spoken language is essentially the same thing, according to a study that Bowen, Madsen, and Hilferty carried out in 1985. The students will begin by listening to spoken language and then segment it to dissect its meaning by deconstructing it into its lexical and syntactic components. Listening is an action that should be done since it is a crucial skill for gaining knowledge in one's day-to-day life (Nushi & Orouji, 2020). Purdy (1997) suggests that the process of hearing may be broken down into three distinct stages: receipt, interpretation, and reaction to spoken and nonverbal stimuli. According to Rost (2002), hearing is a complicated process that requires one to grasp what they have heard to appreciate what they have heard fully.

The initial step towards accurately comprehending and retaining cognitive techniques involves incorporating information stored in either short-term or long-term memory. Cognitive strategies, as described by Derry and Murphy (1986), serve as learning tools for problem-solving and directly utilize or modify learning resources. In the context of listening, cognitive approaches involve absorbing, retaining, and recalling recently learned material through strategies like top-down and bottom-up processing.

According to the claims made by Azmi Bingol, Celik, Yidliz, and Tugrul Mart, a school of thought contends that it is not too challenging for students to grasp listening texts that make use of vocabulary that is already familiar to those students (2014). This is because evidence suggests that children do not need excessive effort to grasp hearing materials.

During their research, one of the topics that they brought up was precisely this. If children have a better understanding of the meanings of the words they hear and read, it may be simpler for them to participate in activities and keep their motivation up over time. It is more probable that pupils will get confused when they are given the task of using terms in situations when such words would not be acceptable since they may have more than one meaning. Since many words have the potential to indicate many meanings simultaneously, this is the case.

Some Effective Tips Can Help Students Who Struggle with Listening Comprehension

Students might benefit from the following advice, which will assist them in overcoming some of the difficulties they now have with their ability to comprehend what they have heard. Several examples of these are as follows:

1. Teachers should give fundamental listening tools for learners to use to support learners in a more precise grasp of native speakers' speech. Students must be able to listen to activities customized to their needs.

2. The teacher is responsible for preparing listening activities for the class that will attract the pupils' attention and assists them in developing listening skills and strategies. These activities test the student's capability to comprehend what they have heard and urge them to use a broad array of listening strategies to benefit as much as possible from the tasks.

3. To properly prepare their students to hear the wide distinct varieties of short natural speech, tutors must familiarize their pupils with pronunciation conventions. Teachers can also push their pupils to mimic native speakers' pronunciation.

4. Educators have to expose pupils to a wide variety of information through a variety of media, including but not limited to lectures, broadcast newscasts, movies, plays, notifications, ordinary discussions, and interviews.

5. It is important to encourage pupils in a teacher's class to get familiar with regional and national accents worldwide.

6. Exercises in listening should range in difficulty from simple readings to more challenging material for students with more expertise.

7. During the time students spend listening to various listening materials, their teachers should offer them background information and linguistic understanding.

8. It is the responsibility of teachers to offer appropriate feedback on their students' performances since doing so may inspire students to correct their mistakes, enhance their excitement, and help students grow their self-confidence when engaging in listening activities.

Conclusion. In conclusion, listening comprehension often receives insufficient emphasis in English language programs, despite its vital role in understanding detailed auditory information. Effective listening involves applying multiple comprehension techniques simultaneously, including comprehending, remembering, linking information to context, and adjusting understanding based on prior knowledge and new revelations. It's essential for classrooms to teach students how to listen effectively, recognizing that there isn't a one-size-fits-all approach. As students progress in their English studies, listening exercises should become increasingly challenging to foster continued improvement. Beyond language acquisition, listening is essential for everyday conversation and communication. Thus, prioritizing and enhancing listening skills is crucial in English language education.

REFERENCES

1. Abdalhamid, F. (2012). Listening comprehension strategies of Arabic-speaking ESL learners (Unpublished Master's dissertation). Department of English, Colorado State University, Fort Collins, Colorado.
2. Bingol, M. A., & Celik, B. (2014, April). Importance of listening in language learning and planning a listening lesson properly. In *vltal 2014 conference* (Vol. 13, p. 267).
3. Darti, D., & Asmawati, A. (2017). Analyzing students' difficulties toward listening comprehension. *English, Teaching, Learning, and Research Journal*, 3(2) 211-228. <https://doi.org/10.24252/Eternal.V32.2017.A9>
4. Derry, S. J., & Murphy, D. A. (1986). Designing systems that train learning ability: From theory to practice. *Review of educational research*, 56(1), 1-39.
5. El-Dali, M. (2017). L2 listening comprehension: is it a language problem or listening problem. *English Linguistics Research*, 6(1), 14-37.
6. Goh, C. (2000). A Cognitive Perspective on Language Learners' Listening Comprehension Problems. *System*, 28, 55-75. Retrieved from [http://dx.doi.org/10.1016/S0346-251X\(99\)00060-3](http://dx.doi.org/10.1016/S0346-251X(99)00060-3).
7. Hamouda, A. (2013). An Investigation of Listening Comprehension Problems Encountered by Saudi Students in the EL Listening Classroom.
8. Mohseny, A., & Raesi, N. (2009). The Relationship between Language Proficiency of EFL Students and Their Strategy Use in Listening Comprehension. *TEFLL*, 1(4), 111-132.
9. Munro, M. J., & Derwing, T. M. (1999). Foreign accent, comprehensibility, and intelligibility in the speech of second language learners. *Language learning*, 49, 285-310.
10. Nadig, A. (2013). Listening comprehension. *Encyclopedia of autism spectrum disorders*, 1743.



UDK: 070:323(09)(470)(575.1)

Akbar ELMURODOV,
O'zJOKU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: elmurodov_akbar@mail.ru

O'z JOKU professori, s.f.d M.Qirg'izboyev taqrizi asosida

“YOSH TURKLAR”NING TURKISTON JADIDLARIGA TA’SIRI

Annotatsiya

Jadidchilik – ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to'la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy harakatdir. Ushbu maqolada “Yosh turklar”ning Turkiston jadidlari va ularning rivojlanishiga ta'siri masalasi atroflicha ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, jadid mafkurasi, jadid matbuoti, “Yosh turklar”, milliy manfaat, axborot, ma'naviy-ahloqiy qarashlar.

ВЛИЯНИЕ «МОЛОТОТУРОК» НА ТУРКЕСТАНСКОЙ ДЖАДИДОВ

Аннотация

Джадидизм – общественно-политическое, литературно-просветительское движение, очень глубокое, сложное, противоречивое и в то же время полное новаций, добрых пожеланий и практической деятельности. В данной статье рассматривается влияние «младотурков» на туркестанских современников и их развитие.

Ключевые слова: Джадидское движение, джадидская идеология, джадидская пресса, «младотурки», национальный интерес, информация, духовно-нравственные взгляды.

THE INFLUENCE OF THE “HAMMER TURKS” ON THE TURKESTAN JADIDS

Annotation

Jadidism is a socio-political, literary and educational movement, very deep, complex, contradictory and at the same time full of innovations, good wishes and practical activities. This article examines the influence of the “Young Turks” on Turkestan contemporaries and their development.

Key words: Jadid movement, Jadid ideology, Jadid press, “Young Turks”, national interest, information, spiritual and moral views.

Kirish. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston jadidlarining rivojlanishida shu paytgacha qadar tatar jadidlari, xususan, Ismoil Gaspirinskiy xizmati beqiyos bo'lgan deyiladi. Bundan tashqari Usmonli imperiyasida faoliyat olib borgan “Yosh turklar”ning ham xizmati katta bo'lgan. Shuningdek, Turkiston jadidlarining “Yosh turklar” bilan aloqalari ikki yo'lda rivojlandi, birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri Usmonli imperiyasi bilan aloqalar hamda ikkinchisi, Qirim tatar ziyolilari orqali.

Turkiston xalqi azal-azaldan Usmonli imperiyasi bilan mustahkam aloqada bo'lgan. O'rta Osiyo aholisining Usmonlilar saltanatiga bo'lgan munosabatini misol tariqasida A.Vamberining “O'rta Osiyoga sayohat” kitobida keltirgan turkistonliklar bilan bo'lgan suhbatini keltirish mumkin: “Usmonli sultonining irodasi oramizda juda hurmatga sazovor, chunki, birinchidan, u musulmonlarga xayrixoh hukmdor, ikkinchidan, turkiylar va usmonlilar birodardirlar”[7].

O'rta Osiyo xonliklari va amirligida birinchi marta taxtga o'tirgan har bir yangi xon yoki amir, Istanbulga elchi jo'natgan. Ular sultonga Turkistondan xat va turli xil qimmatbaho sovg'alar olib borgan. Bunga javoban sulton ham katta hurmat bilan elchilarni kutib olgan.

Shuningdek, Turkiston aholisi bilan Usmonli imperiyasi aloqalarining yaxshi yo'lga qo'yilishida Turkiston aholisining haj safariga borishida Turkiya orqali o'tishgan. Ularni Turkiya aholisi yaxshi kutib olishgan. Hajdan qaytishda Turkistonga turli xildagi gazeta va jurnallar, maktab va ta'limga adabiyotlar, turli xil mazmundagi broshyuralar, Qur'on, maktablari uchun mo'ljallangan geografik xaritalar ko'rinishidagi plakatlari ham olib kelingan.

Usmonli imperiyasi gazetalarida 1865-1875 yillardagi turkiy dunyo va O'rta Osiyoda sodir bo'lgan voqealar, turkiylik mafkurasiga asoslangan ko'pgina materiallar chop etilgan va ana shu omillar tufayli turkiy davlatlar bir-biriga qiziqishi kuchaydi. Usmoniylikning rasmiy konsepsiyasi Usmonli imperiyasining barcha sub'ektlari, diniy mansubligidan qat'i nazar, huquq va burchlar birligi g'oyasi sifatida asta-sekin butun dunyo musulmonlari birligi mafkurasi bilan almashtirila boshlandi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.

Maqolani yozishda mahalliy va xorijiy mamlakatlar olimlari, tarixchi olimlari, ekspertlarning mazkur mavzuga oid tahlillari va tavsilari o'rganildi. Maqolada tadqiqot olib borishning umumilmiy metodlari - tizimli-funksional, qiyosiy, mantiqiy, shuningdek manbalar va ma'lumotlarni tizimlashtirish va qiyoslash, umumlashtirish, tuzilmaviylik hamda dinamik tahlil metodlariga ham murojaat qilindi.

Tahlil va natijalar. Sovet tarixchilarining fikricha, Turkistonda jadidchilikning shakllanishiga turk va tatar burjua mafkurachilarining ta'siri katta bo'lgan. Bunga ularning Turkiston jadidlari etakchilari bilan shaxsiy aloqalari hamda Turkistonda liberal burjuaziya tomonidan nashr etilgan panislomiy va panturkistik gazeta, jurnal va kitoblarning tarqalishi tufayli erishilgan[8].

Mustafo Cho'qevning fikricha, jadidlarning maorif sohasidagi faoliyati tufayli 1920-yillarda Turkistonda milliy ziyolilar shakllana boshlanadi. Bunga uchta yo'l bilan erishildi; birinchisi, u mintaqaning o'zida sharq allomalari qoldirgan buyuk ilmiy merosni o'qib tarbiyalangan; ikkinchisi, qardosh Turkiyada ta'lim olgan; keyingisi esa, son jihatdan arzimagan uchinchi guruh G'arbning eng markazi Germaniyada ta'lim olgan turkistonlik yoshlar zamonaviy bilimlar zaxirasi bilan etib kelishdi[9].

Turkiyaga yuborilgan yoshlar orasida eski uslubdagi maktab va madrasada ta'lim olgan bo'lajak mafkurachi, jadidchilikning yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat ham bo'lgan. U jadidchilik g'oyalarini o'ziga singdirgan iqtidorli, ilg'or fikrli yigit ekanligini ko'rsatgach, jadidlar jamoasi uni Turkiyaga o'qishga yuboradi. 1908-1913 yillarda o'qib yurgan Fitrat turk inqilobining ilk qadamlarini, uning feodal tuzum ustidan g'alaba qozonishini kuzatdi. U ko'rgan va o'qiganlaridan ta'sirlanib, Buxoroda sodir bo'lgan voqealarni tanqidiy mulohaza yuritir ekan, taraqqiyot yo'lidagi asosiy illat diniy fikrli ommaning aqidaparastligi ekanligiga ishonch hosil qiladi. U mehnatkash xalq hayotini o'zgartirish va yaxshilash uchun, avvalo, uning “rahbarlari”ning jaholat va zulmatiga qarshi kurashish, ularning

muqaddas niqoblarini yirtib, murosqa qilish kerak, degan xulosaga keladi.

Uning Turkiyada yozgan va nashr ettirgan, Buxoroga yashirinchasi olib kelingan reasion ruhoniylar va amirlikning davlat asoslarini ayovsiz fosh etgan "Munozara" va "Hind sayohatchisi" kitoblari yoshlarni larzaga soldi[23].

Ko'pchilik jadidlarni g'arbparastlikda ayblagan. Ular g'arbparastligini tushunsa bo'ladi. Bu nafaqat jadidlar falsafasiga, balki tashqi ko'rinishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Ular hatto evropaliklarga o'xshab kiyinib, charmdan tikilgan poyabzal kiyib yurar, so'ngra mullalar jadidlarni cho'chqa terisidan tikilgan oyoq kiyim kiyganlikda ayblar, lekin ular bunga parvo qilmas edi. Jadidlar, agar biz G'arbnin madaniy va texnologik yutuqlarini bilmasak, kelajagimiz barbod bo'ladi, deb hisoblagan. Jadidlarning G'arb davlatlari qarashlariga yaqinligining yana bir sababi ular Turkiyadagi "Yosh turklar" bilan yaqin aloqada bo'lishgan[24].

Turkiston jadidlari 1908 yilgi "Yosh turklar" inqilobi va 1905-1911 yillardagi fors inqilobi ta'sirida uyushgan tus ola boshladi va butun musulmon Sharqini kuchli milliy inqilobiy hayajon qamrab oldi.

Turkiston jadidlaridan Sadridin Ayniy o'zining "Buxoro inqilobi tarixiga oid materiallar" asarida shunday yozadi: Turkiyada konstitusiyaviy monarxiya o'rnatilgandan keyin "Siyrat-ul Mustaqim" jurnali bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldik. Bu jurnal diniy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va adabiy jurnal bo'lib, xalifalik markazidagi eng yirik va ko'zga ko'ringan shaxslar ishtirokida nashr etilgan. Ushbu jurnal siyosiy va ijtimoiy islohotlarni o'ylay va hadislar orqali tushuntirgani uchun tushunchamizda tub o'zgarishlar ro'y berdi[25].

1908 yildagi "Yosh turklar" inqilobi va konstitusiyaning e'lon qilinishi Turkiston jadidlari tomonidan o'zlarining siyosiy qarashlari va maqsadlariga mos kelgani bois katta ishtiyoq bilan kutib olindi. Buxoro jadidlaridan biri Fayzulla Xo'jaev voqealarning rivojlanishini quyidagi so'zlar bilan izohlagan: "Turk va Eron inqiloblari ta'sirida 1910 yildan boshlab butun musulmon Sharqida milliy inqilobiy harakatlar kuchaya boshladi[3].

Turkiston jadidchiligi madaniy-ma'rifiy yo'nalishda ko'p jihatdan tatar maorif harakatidan ilhomlangan bo'lsa, XX asr boshlarida jahonda yuz bergan inqilobiy voqealar, xususan, "Yosh turklar" inqilobi ta'sirida siyosiy boshladi. Turkiston jadidlari

Turkiston jadidchiligi shakllana boshlagan 1900 yillarning dastlabki yillarida Usmonlilarning siyosiy ta'siri ancha panislomiy xarakterga ega edi. "Yosh turklar" inqilobidan keyin va Birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda panturkistik ta'sir kuchaya boshladi. 1920 yillarda Turkistondagi jadidlar va ularning tarafdorlari ham asosan, Turkiston millatchiligi tushunchasi atrofida birlashdilar.

Alixon Bukeyxonov o'zining 1910 yilda yozgan "Qirg'iz" maqolasida qozoq ziyolilarining yarmi dunyoviy g'arb tarafdorlari, qolgan yarmi panislomistlar va panturkistlar ekanligini eslatib o'tadi[4]. Boshqa tomondan, bir qator tadqiqotchilarning fikricha, Rossiyadagi musulmonlar orasida panturkizm panislomizmga qaraganda ancha chuqurroq ildiz otgan[5].

Turkiston jadidchiligi mafkurachilaridan biri Abdurrauf Fitrat 1936 yilda yozgan "Arus haqida" maqolasida bu haqiqatni shunday ifodalaydi: "Mamlakatimizda jadidchilikning ilk davri panislomizm bayrog'i ostida kechdi... keyinchalik, panturkizm va nihoyat o'zbek millatchiligi turli g'oyaviy yo'nalishlardan ajralib chiqdi. Men uchlasidan ham o'tib ketdim"[6].

Xo'sh bu panturkizm, panislomizm qay tartibda rivojlandi va buning "Yosh turklar" va Turkiston jadidlariga qanday aloqasi bor? Ana shu masalalar atrofida javob qidiramiz.

Turkiy xalqlarni birlashtirish mafkarasi qay tartibda amalga oshiriladi degan ko'plab savollarga turk ziyolilari javob izlayotgan bir vaqtda asli Qirimlik Yusuf Akchura 1904 yilda Qohiradagi "Turk" gazetasida "Uch xil siyosat"[20] maqolasini e'lon qildi. U bu maqolada, Usmonlilar hukumatining diniy fenomenga asoslangan siyosiy mafkura asosida millatni birlashtirishga qaratilgan avvalgi urinishlarini tanqid qilib, buni ma'nosiz va muvaffaqiyatsiz deb hisobladi.

Haqiqatan ham Sulton Abdulhamid davrida olib borilgan "Islom birligi" siyosati musulmon xalqlarning millatchiligini

kuchaytirdi. Bu vaqtda dunyoda millatchilik kuchayib, boshqa tomondan, bu davrda Evropada millatchilik harakati yangi bosqichga kirdi. Fransuz sosiologi Graf Artur de Gabineau tomonidan ilgari surilgan irq gipotezasiga aslanib, Evropadagi yirik davlatlari, masalan, nemislar pangermanizm, ruslar panslavyanizm g'oyasi bilan kuch va buyuklik uchun poygaga kirishdilar. Shu bois turkiy davlatlarni birlashtirish uchun ana shunday g'oya zarur edi[21]. Turkiy davlatlarda iqtisodiy suverenitet, etnik qardoshlik, hududiy birlik tamoyillariga asoslangan yangi davlat yaratish g'oyasi amalga oshirish mavridi kelgan edi. Yusuf Akchura o'z maqolasida yuqoridagi ikki mafkura: panislomizm va panturkizmning qaysi biri asosida Usmonli imperiyasining omon qolishi uchun muhim bo'ladi degan savolni ko'taradi[20]. Umuman olganda, Usmonli hokimiyatlarining mamlakat ichkarisida va xorijda turkiy yoki panislomiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan turkiy davlatlar bilan aloqa o'rnatmaganligini jiddiy kamchilik deb bildi. U Markaziy Osiyo siyosiy va intellektual elitasi qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan turkiylik mafkurasini shakllantirishga chaqiradi. Bu Turonizm g'oyasi nomini oladi. Unga ko'ra, turklarning vatani na Turkiya va na Turkiston, turklarning vatani buyuk va abadiy Turon deb qaraladi[16].

Akchura tomonidan kiritilgan "turkchilik" tushunchasi dastlab siyosiy mafkuraga aylana olmagan bo'lsada, keyinchalik u a'zo bo'lgan va keyinchalik umumiy nomi "Yosh turklar"[17] deb atalgan turk siyosiy muhojiratining maqsadiga aylandi. Bu mafkuraning negizida Sulton Abdulhamidning despotik tuzumiga barham berish va konstitusiyaviy monarxiyani o'rnatish edi.

Yusuf Akchuraning Sadri Maqsudiy bilan do'stligi ham Parijda boshlangan. 1902 yili Qozondan Parijga huquqshunoslik bo'yicha o'qishga kelgan Sadri Maqsudiy Fotih Kerimdan olib kelgan maktubini etkazishi munosabati bilan uni qidirib topadi va shu tariqa hamkorlikni davom ettiradi[18]. Yusuf Akchura va Sadri Maqsudiy keyinchalik birga olib borgan eng muhim ishlariidan, qaynisi Ismoil Gaspirlaning Qrimda 1883 yil nashr qila boshlagan "Tarjumon" gazetasining 20 yilligi munosabati bilan yubiley tashkil qilish edi. Ular birgalikda 1903 yilning bahorida Baxchisaroyda har tarafdan mehmonlar va vakillar ishtirokida chiroyli marosim o'tkazildi. Sadri Maqsudiyning yozishicha, bu marosim turkiy xalqlarning birinchi milliy qurultoyi edi. "Tarjimon" yubileyi rus turklarining milliy uyg'unlash tarixida muhim voqea bo'ldi. Shundan so'ng, Rossiyada turklarning milliyligini himoya qilish uchun uyushgan kurash davri boshlandi va shundan keyin bosha qurultoylar ham davom etdi[19].

Aynan mana shu 1903 yilda Mahmudxo'ja Behbudiy Qozonga borgan. Tarixiy manbalarda Behbudiyning "Tarjimon"ning 20 yillik yubileyida qatnashganligi to'g'risida ma'lumot yo'q. Ammo Behbudiy ham ushbu qurultoyda qatnashgan degan fikrdamiz. Chunki Behbudiy I.Gaspirlinskiyning o'zining ma'naviy ustozlari deb bilgan. Aynan mana shu tadbirda Behbudiy "Yosh turklar" va Qozondagi jadid ziyolilari bilan uchrashgan. Bu uchrashuv Behbudiy dunyoqarashiga ta'sir o'tkazmasdan qolmadi. Bu haqda Xoji Muin shunday yozadi: Hijoz safaridan keyin Behbudiy afandi Bog'chasaroyda chiqatarg'on «Tarjimon» gazetasini oldurub o'quya boshladi. Ikkinchi yoqdan, turlik ilmiy, fanniy kitoblarning mutolaasi bilan ma'lumotini kengaytirdi. Oz vaqtda dunyo siyosatidan va zamon ahvolidan xabardor bo'ldi. Behbudiy afandi bir necha yil (1901-1905 yillarda) fikriy inqilobga uchrab, e'tiqodsizlanib yurgan bo'lsa-da, lekin so'ngra ko'b mutolaa soyasida va har bir diniy, falsafiy masalalarni tekshirish natijasida e'tiqodini tashih va ta'dil etdi. Taraddud va shubhalardan chiqib, dindor va mahkam e'tiqodliq bo'ldi[13].

Haqiqatan ham, Mahmudxo'ja Behbudiy Ismoil Gaspirlali faoliyatiga juda yuqori baho beradi. Unga "ustod", "hazrat", "muxlisingiz"[14] kabi so'zlar bilan murojaat qiladi. O'z navbatida Gaspirlinskiy ham Behbudiyning "fazilatlu muftiy", "ulamo-yi munavvaradan", "ulamoyi asriyundan samarqandli muftiy"[15] kabi epitelar bilan ta'riflaydi.

Turkiyada madaniyat va ta'lim sohasida katta o'zgarishlar olib kelgan "Yosh Usmonlilar" harakati hamda musulmonlar birligi g'oyasini himoya qilgan Jamaliddin Afg'oni ta'sirida Gaspirlinskiy fikr, til va faoliyat birligi tushunchasini taklif qildi.

U barcha turkiy-musulmon o'lkalarida "usul-u jedid" deb atalgan yangi usul maktablarini yaratishda peshqadam bo'lgan. U musulmon liberalizmining namoyandasi bo'lib, ta'lim islohoti va Rossiyadagi musulmon turklarni birlashtirish orqali musulmon jamiyatini modernizatsiya qilish mumkin, deb hisoblagan. Biroq jadidchilik sof maorif islohoti doirasidan tashqariga chiqdi. Mualliflar ishtirokida siyosiy harakatga aylandi. Konstitutsiyagacha bo'lgan qonunlarni himoya qilgan musulmon ziyolilari. Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim. Ularning ko'pchiligi Turkiyani "Yosh turklar" hukmronligi davrida namuna sifatida ko'rdilar, ularning harakatlarida G'arbga iqtisodiy qaramlikdan va ijtimoiy arxaizmdan qutulishga urinish ko'rdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi jadidlari ya'ni "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" nomlari bilan tanilgan. Ushbu nomlarning qo'yilishida ham Usmonli imperiasidagi "Yosh turklar" harakatining ta'siri bo'lgan. Ular Buxoro amirligi va Xiva xonligini o'rniga jumhuriyat qurmoq niyatida Sovetlar bilan, hatto qurol bilan ish birligi qildilar[12].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, Turkiston xalqini ma'rifatlilik qilish, bu o'lkada mustaqillik va davlatchilik g'oyalarining keng tarqalishida, Turkiston jadidlariga ham fikr, maslakdosh bo'lishda, Turkiyadagi "Yosh turklar"larning o'rni katta.

Turkiston milliy-ozodlik harakati mafkurasi rivojiga Yosh turklar inqilobi g'oyalarining ta'siri shunchalik sezilib turardiki, bu inqilobning muhim nuqtalariga qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. "Yosh turklar" ("yosh turklar") deb ataluvchi harakatning ishtirokchilari liberal burjuaziya manfaatlarini ilgari suruvchi ziyolilar, asosan zobitlar, shifokorlar, kichik amaldorlar vakillari edi. Yosh turklarning asosiy siyosiy tashkiloti "Ittihad va

tarakkiy" maxfiy qo'mitasi bo'lib, u mamlakat iqtisodiy hayotida turk burjuaziyasini mustahkamlash edi.

"Yosh turklar inqilobi" Turkiston ziyolilari va tadbirkorlari orasida katta qiziqish uyg'otdi. Bu milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq mafkurasi shakllanishiga sezilarli sur'at berdi. Uning ta'siri ostida jadidlarning dasturiy tuzumlarida antifeodal va mustamlakachilikka qarshi motivlar kuchayib, imperiyaga qarshi kurash g'oyalari va mahalliy despotizmga, mavjud hokimiyat institutlarini isloh qilish konstitutsiyasini amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'ldi[11].

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston jadidlari va "Yosh turklar" aloqalari XX asr ikkinchi yarmidan rivojlana boshladi. Bunda Turkiston jadidlarining Makka shahriga ziyoratga borish asnosida Usmonli imperiyasi ziyolilari bilan uchrashganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Shuningdek, Turkiston jadidlari bilan "Yosh turklar" munosabatlarida Qrim tatar ziyolilari ham muhim vositachi vazifasini o'tagan. Chunki Butun Rossiya turkiy xalqlarining va Usmonli imperiyasi ziyolilari o'rtasida mustahkam aloqa bo'lgan. "Yosh turklar" tarkibida bo'lgan Yusuf Akchura va Ismoil Gapirali bir biri bilan yaqin aloqada bo'lgan (ular bir biri bilan qarindoshlik aloqalari ham bo'lgan, ya'ni Ismoil Gapirali Yusuf Akchuraning qaynisi bo'lgan).

Bu tarafdan esa, Turkiston jadidlarining etakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy ham Ismoil Gaspirali bilan doimiy aloqada bo'lgan. Bundan tashqari Turkiston, Buxoro va Xiva xonligidan ta'lim olishga borgan jadidlar davrida ham "Yosh turklar" bilan aloqalar ancha mustahkamlangan. Ularning ta'sirida "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" kabi harkatlarning tashkil etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Хайит Боймирза Туркистон Россия ва Хитой оралиғида, -Т.: Янги аср авлоди, 2023. – 528 бет.
2. Агзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: Миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси – Т.: "Маънавият", 2000. – 168 б.
3. Ходжаев, Файзулла. Избранные труды. Т. I, Ташкент : Фан, 1976. С. 84.
4. Букейханов А. Киргизы. С. 577-600
5. Landau, Pan-Islam Politikaları, İdeoloji ve Örgütlenme. Anka Yayınları, İstanbul, 2001. S. 11; D'encausse H.C. Islam and the Russian Empire : Reform a. revolution in Central Asia / Hélène Carrère d'Encausse ; Préf. by Maxime Rodinson ; Transl. by Quintin Hoare. - London : Tauris, 1988. P. 60.
6. Абдурауф Фитрат. Чин Севиш. Танланган Асарлар. 3 жилд. Тошкент, Маънавият, 2003. С. 9.
7. Vambery A. Sketches on Central Asia. London, 1868. S. 54. Saray M. The Turkmens in the age of Imperialism. Ankara, 1990, p.92.
8. Аршаруни А., Габидуллин Х. Очерки панисламизма и пантюркизма в России. Изд-во «Безбожник», 1931. С. 6-8.
9. Шоқай М. 1936 жылы Берлин каласында Түркістан жастарының алдында сөйлеген сөзі [Речь перед молодежью Туркестана в 1936 году в г. Берлине] // М. Шоқай. Түркістанның қилы тағдыры / Құраст. Б. Серікбайұлы Қошым-Ноғай. – Алматы: Жалын, 1992. –184 б.
10. Internet manbalari, maqolalar:
11. Агзамходжаев С. Политизация джадидского движения и выработка им программных проектов будущего устройства Туркестана: 1905–1917 гг. // <https://islamrf.ru/news/umma/islam-world/2882>.
12. Хайит Б. Туркистонда жадидчилик ва унинг тугатилиши. // <https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/boymirza-hayit-turkistonda-jadidchilik-va-uning-tugatilishi.html>
13. Хожі Муин. Махмудхўжа Бехбудий (1874-1919) (1923) <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/790-kitob.html>,
14. Samarqand qāzilaridan Behbūdī1906,
15. "Samarqand gāzītasi" 1913,
16. Киреев Н.Г. История Турции XX век/Н.Г. Киреев. – М.: ИВ РАН: Крафт+, 2007. – с 89.
17. "Birlik va taraqqiyot" partiyasi a'zolari shunday atalgan.
18. Sadri Maksudi Arsal (1977), Dostum Yusuf Akçura, Türk Kültürü, 174, s.346-347.
19. Arsal, agm., s.349-351; Temir, age., s.29-30
20. Akchura Y. Uch Tarz-ı Siyoset, TTK Yayınları, Sayı 73, Ankara, 1976 yil. <https://www.otuken.com.tr/u/otuken/docs/u/c/uc-tarzi-1442401918.pdf>
21. Enver Ziyō Karal (1976), Uch Tarz-ı Siyaset nomi bilan nashr etilgan kitobga so'zboshisi, Anqara: TTK Basimevi, 4-bet.
22. Akchura Y. Turkchuluk. Toker Yayınları, İstanbul, 1990 yil. S. 141.
23. Каримов Наим Возникновение джадидизма как первоосновы национальной идеи./ <https://mytashkent.uz/2010/08/28/vozniknovenie-dzhadidizma-kak-pervoosnovyi-natsionalnoy-idei-chast-1/>
24. Сатторов Д. Жадидларнинг гоёвий асослари, ютуқ ва хатолари // <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/>
25. Айни С. Бухара Тарихи Инкилабы Ючюн Матерьяллер. Танланган Асарлар, Уз. ССР Давлат Бадии Адабият Нашрияти, Таşkент, 1963. С. 184



Javlon ESHBOYEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: samboll2006@mail.ru

QarMII, Xorijiy tillar kafedrası mudiri, (Phd), dotsenti B.H.Xoliyorov taqrizi asosida

TECHNOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation

This article interprets and applies the improvement of the technological system for the development of students' communicative competence, as well as various development factors. This system helps to form social humanitarian knowledge through students' vital communication skills and to connect them closely with social functions.

Key words: communication, evolution, technological system, digital platforms, multimedia resources, artificial intelligence (AI) and virtual environments.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация

В данной статье интерпретируются и применяются совершенствование технологической системы развития коммуникативной компетентности студентов, а также различные факторы развития. Эта система помогает формировать социально-гуманитарные знания через жизненно важные коммуникативные навыки учащихся и тесно связывать их с социальными функциями.

Ключевые слова: коммуникация, эволюция, технологическая система, цифровые платформы, мультимедийные ресурсы, искусственный интеллект (ИИ) и виртуальные среды.

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK TIZIMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning texnologik tizimini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda rivojlantirishning turli xil omillari talqin va tadbıq etilgan. Bu tizim ijtimoiy gumanitar bilimlarni talabalarning hayotiy muloqot qobiliyatları orqali shakllantirish va ularni ijtimoiy funktsiyalar bilan chambarchas bog'lanishida yordam beradi.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, evolyutsiya, texnologik tizim, raqamli platformalar, multimedia resurslari, sun'iy intellekt (AI) va virtual muhitlar.

Kirish. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot va madaniyatdir. Etarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatsiz sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish mushkul. O'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash – dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorigin zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish [1] kabi vazifalar belgilab olindi.

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilar faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Odamlar

o'rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatining eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shaxslararo kommunikativ muloqotni o'rganishda A. A. Chivilev, I. V. Serafimovich, G. Yu. Bazanova, O. A. Leontovich, O. F. Korol, L. R. Komalova, E. B. Yakovleva [2] singari bir qator tilshunos olimlarning o'rni juda katta, shu

bilan bir qatorda avval ishlangan va erishilgan natijalar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda [7].

Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlarining o'z oldiga qo'ygan oliy maqsadlaridan biri bu yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy qobiliyatları, ko'nikma, bilim va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Oliy ta'limda bilim olayotgan har bir bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ular nafaqat akademik bilimlarga, balki turli sohalar, shu bilan bir qatorda faoliyatlarida yuzaga keladigan har qanday muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunga kelib muloqot kompetentsiyasi turli sohalarida, jumladan, ta'lim, biznes va shaxsiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot kompetentsiyasi tegishli til, og'zaki bo'lmagan ishoralar va madaniy xabardorlikdan foydalangan holda turli kontekstlarda xabarlarini samarali yetkazish va sharhlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi tufayli barcha yoshdagi va jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirish va rivojlantirishni tezlashtiradigan innovatsion tizimlar paydo bo'ladi.

An'anaga ko'ra, kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish ko'p jihatdan yuzma-yuz muloqotga, til kurslariga va chuqur tajribaga tayanadi. Ushbu usullar hali ham qimmatli bo'lsa-da, texnologiya bizning yondashuvimiz va kommunikativ ko'nikmalarimizni oshirish usulini jadallashtirdi. Raqamli platformalar, multimedia resurslari, sun'iy intellekt (AI) va virtual muhitlar o'rganish va amaliyot uchun yangi yo'llarni ochdi.

Shu bilan bir qatorda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning texnologik tizimlari quyidagicha tavsiflandi:

1. Til o'rganish ilovalari va dasturlari: Mobil ilovalar va kompyuter dasturlari til o'rganishni o'zgartirdi. Duolingo, Babbel va Rosetta Stone kabi platformalar nutq va tinglash qobiliyatlarini yaxshilash uchun interfaol darlar, lug'at mashqlari va nutqni aniqlash texnologiyasini taklif qiladi.

2. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): VR va AR texnologiyalari til amaliyoti uchun immersiv muhitlarni taqdim etadi. Talabalar virtual muhitda kommunikativ qobiliyatlarini oshirib, simulyatsiya qilingan suhbatlar, madaniy senariylar va real hayot simulyatsiyalarida qatnashishi mumkin.

3. Onlayn til almashinuvi: Tandem va HelloTalk kabi platformalar butun dunyo bo'ylab til o'rganuvchilarni til almashish hamkorliklari uchun bog'laydi. Matnli, ovozli va video chatlar orqali foydalanuvchilar o'z tillarida so'zlashuvchilar bilan gaplashish, tinglash va madaniy almashinuvni mashq qilishlari mumkin.

4. Nutqni aniqlash va fikr-mulohazalarni bildirish tizimlari: SpeechAce va LanguageTool kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalar talaffuz, grammatika va so'z boyligida foydalanish bo'yicha tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Talabalar kommunikativ ko'nikmalarni samarali rivojlantirishga yordam beradigan shaxsiylashtirilgan baholashlar va takomillashtirish bo'yicha takliflarni oladilar.

5. Raqamli hamkorlik platformalari: Zoom, Microsoft Teams va Google Workspace kabi vositalar masofaviy hamkorlik va aloqani osonlashtiradi. Ular shaxslarga virtual uchrashuvlar, taqdimotlar va munozaralarda qatnashish, raqamli kontekstda kommunikativ malakalarini oshirish imkonini beradi.

6. Gamifikatsiya va interaktiv ta'lim: Gamifikatsiyalangan platformalar til o'rganishni interaktiv o'yinlar, viktorinalar va muammolar bilan birlashtiradi. Quizlet va Kahoot kabi ilovalar o'rganishni qiziqarli va qiziqarli qiladi, faol ishtirok etish va kommunikativ ko'nikmalarni saqlashga yordam beradi.

Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda ko'rsatilgan talablarni belgilash maqsadli bo'ladi. Chunki yoshlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish omillarini, kommunikatsiyani amalga oshirishda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, uni amalga oshirish usul va yo'llarini hamda muloqot maqsadiga mos keladigan ifodani topa bilish, tilni o'rgatishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish hamda nutq madaniyati, muloqot madaniyatini tashkil etishda so'zlarning ularning leksik ma'nosiga mos ekanligini aniqlash kabilar davlat ta'lim standartiga qo'yilgan asosiy talablardan sanaladi [8]. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda kommunikativ kompetensiya uchun texnologik tizimlarning afzalliklari tahlil qilindi:

1. Foydalanish imkoniyati: Texnologiya kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni geografik to'siqlardan qat'i nazar, butun dunyo bo'ylab odamlar uchun ochiq qiladi. O'quvchilar internetga ulangan istalgan joydan resurslarga kirishlari va turli tillarda so'zlashuvchilar bilan muloqot qilishlari mumkin.

2. Shaxsiylashtirish: Texnologik tizimlar individual taraqqiyot, afzalliklar va o'rganish uslublariga asoslangan shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taklif qiladi. Moslashuvchan algoritmlar va tahlillar kontentni yetkazib berishni optimallashtiradi va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun fikr-mulohazalarni moslashtiradi.

3. Ishtirok etish: Texnologik tizimlardagi interaktiv va multimedia elementlari ishtirok etish va motivatsiyani kuchaytiradi. O'yinlashtirish, virtual muhit va ijtimoiy o'zaro ta'sir xususiyatlari kommunikativ ko'nikmalarni o'rganishni dinamik va immersiv qiladi.

4. Fikr-mulohaza va baholash: AIga asoslangan teskari aloqa tizimlari kommunikativ ish faoliyatini tezkor va ob'ektiv baholashni ta'minlaydi. Talabalar konstruktiv fikr-mulohazalarni oladilar, ularning taraqqiyotini kuzatib boradilar va real vaqtda yaxshilash kerak bo'lgan sohalarni aniqlaydilar.

5. Davomli o'rganish va qo'llab-quvvatlash: Texnologik tizimlar doimiy o'rganish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Talabalar kommunikativ ko'nikmalarni mustaqil ravishda mashq

qilishlari, resurslardan kun davomida foydalanishlari va til ixlosmandlari va ekspertlar hamjamiyatlari bilan bog'lanishlari mumkin.

Natijalar va muhokama. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida ta'lim tizimi madaniy va tarixiy rivojlanish modelining o'zgarishi bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ta'lim tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmasin, baribir ular ishtirokchiga – ya'ni, o'qituvchi shaxsi zimmasiga yuklanadi. Aynan o'qituvchi turli xil innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy shaxs hisoblanadi. Yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun (va ta'limni modernizatsiyalashning asosiy g'oyalaridan biri bu kompetentliklarni rivojlantirish), yangi sharoitda unga qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun o'qituvchi zarur darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lishi kerak [1].

Texnologik tizimlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun katta afzalliklarni taqdim etsa-da, bir qator muammolar va mulohazalar mavjud:

1. Raqamli bo'linish: Texnologiyadan foydalanish va raqamli savodxonlikdagi nomutanosiblik, ayniqsa, yetarli darajada xizmat ko'rsatilmagan jamoalarda texnologik yechimlarning ta'minlanishi va samaradorligini cheklashi mumkin.

2. Sifatni ta'minlash: Texnologik tizimlardagi kontentning aniqligi, dolzarbligi va madaniy muvofiqligini ta'minlash samarali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muhimdir.

3. Maxfiylik va xavfsizlik: foydalanuvchi ma'lumotlari, maxfiyligi va onlayn o'zaro aloqalarini himoya qilish raqamli ta'lim muhitida, ayniqsa sun'iy intellektga asoslangan platformalar va ijtimoiy funksiyalar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

4. An'anaviy metodlar bilan integratsiya: Texnologik tizimlardan foydalanishni an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan muvozanatlash o'ylangan integratsiyani va o'quv maqsadlari va natijalari bilan moslashishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish kelajagi keyingi yutuqlar va innovatsiyalarga guvoh bo'ladi:

1. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim: AI algoritmlari individual

o'rganish ehtiyojlari, afzalliklari va taraqqiyotiga mos keladigan borgan sari moslashtirilgan va moslashtirilgan o'rganish tajribasini taklif qiladi.

2. Multimodal va multisensorli tajribalar: haptik teskari aloqa, immersiv muhit va tabiiy tilni qayta ishlash kabi multisensor elementlarning integratsiyasi kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning haqiqiyliigi va samaradorligini oshiradi.

3. Virtual va kengaytirilgan voqelik integratsiyasi: VR va AR texnologiyalari til o'rganishning real va interaktiv muhitlarini yaratishda muhimroq rol o'ynaydi, madaniy immersiyani va real dunyo muloqot simulyatsiyasini osonlashtiradi.

4. Hamkorlik va ijtimoiy ta'lim maydonlari: Raqamli platformalar global til almashinuvi, madaniy muloqot va hamkorlikdagi loyihalar uchun hamkorlik maydoni sifatida rivojlanishda davom etadi, madaniyatlararo kompetensiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik tizimlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish landshaftini inqilob qildi, innovatsion vositalar, immersiv tajribalar va shaxsiy o'rganish imkoniyatlarini taklif qildi. Muammolarni hal qilishda va inklyuzivlikni ta'minlashda ushbu yutuqlarni qabul qilish butun dunyo bo'ylab odamlar turli kontekstlarda o'zlarining kommunikativ qobiliyatlarini samarali va ishonchli tarzda oshirishlari mumkin bo'lgan kelajakka yo'l ochadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. Чивилев А.А. Межличностная коммуникация как объект исследования культурологии, Вестник культуры и искусств. - 2015. С.38-42.;
3. Серафимович И.В., Базанова Г.Ю. Роль интеллектуальных и мета когнитивных особенностей для эффективной коммуникации студентов в процессе профессионализации, European Social Science Journal. - 2016.- С. 510 - 522.;

4. Леонтович О.А. Позитивная коммуникация: постановка проблемы, Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. - 2015. - С. 17–22.;
5. Король О.Ф. К вопросу о социальной компетентности личности: межкультурные коммуникации в управленческом взаимодействии, Проблемы современного педагогического образования. - 2016.-С. 445 - 460.;
6. Комалова Л.Р., Яковлева Э.Б. Межличностная коммуникация: от конфликта к консенсусу. - 2016. 142 с.
7. Saydullayeva S.S. Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy tahlili. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Samarqand, –2023, 22-b
8. Xalikova Sh. A Kommunikativ savodxonlikni oshirish – davr talabi, raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023-yil 2-iyun, 660 b.
9. Amirov N.I., ta'lim jarayonida talabalar kommunikativ kompetentligini shakllantirish, oliy ta'lim / высшее образование, 2020, 3 (88), 25 b.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-maktabda-chet-tilini-o'qitishning-yangi-texnologiyalari-va-afzalliklari/> viewer



Mahliyo YULDASHEVA,
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: myuldasheva229@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti I.Siddiqov taqrizi asosida

DIFFERENTIAL ANALYSIS OF LONELINESS

Annotation

In recent years, the phenomenon of loneliness has attracted psychological scientists as one of the pressing problems of our modern society. Statistics show that during the pandemic, the tendency to loneliness increased in young people compared to older people. The problem of loneliness is widely studied in foreign psychology, where it is studied on the basis of various theories, concepts, approaches, positions, directions. This article presents the analytical results of our research on the mechanisms of perception of loneliness by the youth of Uzbekistan. The degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by methods of mathematical statistics: the Mann-Whitney criterion, as well as the Spearman correlation coefficient.

Key words: loneliness, general loneliness, dependence in communication, positive loneliness, differential analysis, interpersonal relationships, behavior, empirical research.

ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОДИНОЧЕСТВА

Аннотация

В последние годы феномен одиночества привлекает ученых-психологов как одна из насущных проблем нашего современного общества. Статистические данные показывают, что во время пандемии склонность к одиночеству усилилась у молодых людей по сравнению с людьми старшего возраста. Проблема одиночества очень широко изучается в зарубежной психологии, где она исследуется на основе различных теорий, понятий, подходов, позиций, направлений. В данной статье излагаются аналитические результаты нашего исследования по изучению механизмов восприятия одиночества молодежью Узбекистана. Степень статистической достоверности полученных результатов подтверждалась методами математической статистики: критерием Манна-Уитни, а также коэффициентом корреляции Спирмена.

Ключевые слова: одиночество, общее одиночество, зависимость в общении, позитивное одиночество, дифференциальный анализ, межличностные отношения, поведение, эмпирическое исследование.

YOLG'IZLIK HISSINING DIFFERENSIAL TAHLILI

Аннотация

So'nggi yillarda yolg'izlik fenomeni zamonaviy jamiyatimizning dolzarb muammolaridan biri sifatida psixolog-olimlarni o'ziga jalb qilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra pandemiya davrida yolg'izlikka moyillik katta yoshdagi insonlarga nisbatan yoshlarda kuchaygan. Yolg'izlik muammosi xorij psixologiyasida juda keng o'rganilgan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashuvlar, pozitsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Mazkur maqolada O'zbekiston yoshlarining yolg'izlik kechinmasini idrok qilish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotimizning tahliliy natijalari bayon qilinadi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Mann-Uitni mezonini hamda Spirmenning korrelyatsiya koeffitsienti orqali tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: yolg'izlik, umumiy yolg'izlik, mulqotdagi tobelilik, pozitiv yolg'izlik, differensial tahlil, shaxslararo munosabat, xulq-atvor, empirik o'rganish.

Kirish. Nazariy tahlillarda yolg'izlik psixologik muammo sifatida e'tirof etiladi. Bu esa depressiya, xavotirlik va shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlarga moyillik, psixoaktiv moddalar iste'moli va alkogolga ruju qo'yish, suisidga moyillik kabi holatlarning yolg'izlik bilan o'zaro aloqadorlikdagi muammolar sifatida o'rganiladi [1,2]. O'zbek tilining izohli lug'atida yolg'izlik "yolg'iz inson" ma'nosida "yolg'iz yashaydigan odam" tushunchasi bilan taqqoslanadi: "Yolg'iz – birorta ham sherigi yo'q, bir o'zi, yakka, tanho" [8].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A.A.Artamonova, Yu.D.Babayeva, N.A.Berdyayev, S.A.Vetrov, T.I.Golman, O.B.Dolginova, Ye.N.Zavorotnix, I.A.Ilin, S.V.Kurtiyan, D.A.Mateyev, Ye.V.Neumoyeva, A.V.Nechayev, J.V.Puzanova, L.A.Pyankova, V.A.Sakutin, S.N.Solovoyov, Ye.N.Trubetskiy, S.G.Trubnikova, Ye.V.Filindash, G.R.Shagivaleyeva va boshqalar yolg'izlik hissining ontogenetik va differensial masalalarini ilmiy tadqiq etishgan. Xorij olimlaridan D.Bernshteyn, K.Boumen, V.Veys, S.Grof, E.Dyurkgeym, G.Zilburg, A.Kamyu, E.Klyaynenberg, J.Lipovetski, A.Maslou, R.Merton, K.Mustakas, B.Miyuskovich, L.E.Pepla, D.Rassel, K.Rodgers, D.Rismen, Ye.Roy, G.S.Sullivan, U.Sadler, K.Solano, Z.Freyd, E.Fromm, R.Fridmen, F.Fromm-Reyxman, Dj.Flanders, Dj.Yang va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yolg'izlik muammosi tadqiq etilgan [1, 7].

Respublikamizda talabalarda yolg'izlik hissini o'rganish masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i kam bo'lsa-da, mazkur muammoga muayyan darajada e'tibor qaratilgan. Jumladan, Sh.A.Inakov, V.M.Karimova, N.Sh.Mullaboyeva, N.Z.Rasulova, N.A.Sog'inov, T.G.Suleymanova, A.B.Sabirova, G.Q.To'laganova, B.M.Umarov, U.D.Qodirov, G'.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan yolg'izlik hissining suitsidal xulq-atvorning omili sifatidagi psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, lekin talabalarining yolg'izligi alohida psixologik muammo sifatida o'rganilmagan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz ilmiy tahlil qilishga tayangan holda nazariy va metodologik asos sifatida ijtimoiy-psixologik yo'nalishda shakllantirildi. Muammo tarixiylik usuli orqali o'rganildi, bu esa yolg'izlik tushunchasining mazmun-mohiyati borasidagi g'oyalar xilma-xilligini tahlil qilishga imkon berdi.

Biz talabalar guruhida yolg'izlik hissining differensial tahlilini amalga oshirishga harakat qildik. Talabalarda yolg'izlik kechinmasini empirik tahlil qilish E.N.Osin va D.A.Leontyevlarning "Yolg'izlik hissini differensial o'rganish" so'rovnomasi orqali amalga oshirildi [3]. Tadqiqotimizda Farg'ona davlat universitetining "Pedagogika va psixologiya" fakulteti talabalaridan 124 nafari (64 nafar yigitlar va 60 nafar qizlar) ishtirok etdi. Tanlov maqsadli reprezentativ tarzda amalga oshirildi. Tadqiqotda grant va to'lov-shartnoma asosida kunduzgi

ta'lim shaklida tahsil olayotgan bakalavriatning birinchi va uchinchi bosqich talabalari ishtirok etdilar.

Yolg'izlik hissining differensial tahlilini amalga oshirish talabalarining xulq-atvorlari, bilish sohalari va hissiy-emotsional sohalari xususiyatlarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Metodika bo'yicha talabalarining ko'rsatkichlarini qanday statistik mezon bo'yicha tahlil qilish masalasi respondentlarning natijalarini normal taqsimlanishga mosligini tekshirishga olib keldi.

1-jadval

“Yolg'izlik hissini differensial o'rganish” so'rovnomasini normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari

	Min.	Maks.	o'rtacha	stan. og'ish	z	p
Umumiy yolg'izlik kechinmasi	15,00	46,00	25,30	6,245	2,783	0,000
Muloqotdagi tobellilik	24,00	54,00	37,44	6,91	1,873	0,002
Pozitiv yolg'izlik	16,00	37,00	28,11	5,28	2,676	0,000

Izoh: ***p<0,001

“Umumiy yolg'izlik” (Z=2,783; p<0,001), “Muloqotdagi tobellilik” (Z=24,00; p<0,001), “Pozitiv yolg'izlik” (Z=2,676; p<0,001) shkalalarining natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, tadqiqotning keyingi bosqichlarida “Yolg'izlik hissini differensial o'rganish” so'rovnomasini shkalalari noparametrik mezonlar asosida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo'lishi aniqlandi. Buning uchun

Mann-Uitni mezoniga ko'ra natijalarning o'rtacha ko'rsatkichlari va Spirmen bo'yicha korrelyatsiya tahlili amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

Talabalardagi yolg'izlik hissining xususiyatlarini umumiy, jinsiy va ijtimoiy tajribalari nuqtai nazaridan tahlil qilishga e'tibor qaratildi.

2-jadval

“Yolg'izlik hissini differensial o'rganish” so'rovnomasini shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlarining jins tafovutlari bo'yicha tahlili (Mann-Uitni mezon)

Shkala	Jins	N	O'rtacha rang	U	p*
Umumiy yolg'izlik kechinmasi	Yigitlar	64	204,45	19643,5	0,799
	Qizlar	60	215,16		
Muloqotdagi tobellilik	Yigitlar	64	234,64	19462,5	0,684
	Qizlar	60	209,63		
Pozitiv yolg'izlik	Yigitlar	64	224,40	17732,0	0,042*
	Qizlar	60	211,50		

Izoh: * p<0,05.

Metodikaning xususiyatiga ko'ra talabalarining yolg'izlik hissiga munosabatini differensiasiyasi yigitlar bilan qizlarda kuzatilmadi.

“Umumiy yolg'izlik kechinmasi” shkalasi bo'yicha yuqori ballar izolyatsiya tajribasining haqiqiy vazni, hissiy yaqinlik yoki odamlar bilan aloqalarning yetishmasligi va respondentning o'zini yolg'iz, izolyatsiya qilingan odam sifatida bilishi bilan bog'liq. Shkalaning past ko'rsatkichlari respondentning yaqinlik yoki aloqa yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan og'riqli yolg'izlik tajribasini boshdan kechirmasligini va o'zini yolg'iz odam, deb hisoblamasligini ko'rsatadi.

“Umumiy yolg'izlik kechinmasi” shkalasi haqiqiy yolg'izlik hissi darajasini aks ettirishi, boshqa odamlar bilan yaqin aloqaning yetishmasligini ifodalaydi. Talabalar jinsiga ko'ra umumiy yolg'izlik hissi bo'yicha natijalarda ishonch darajasidagi jins bo'yicha farq aniqlanmadi (204,45 va 215,16; U=19643,5). Bunga ko'ra talaba-yigitlar bilan talaba-qizlarda umumiy yolg'izlikka munosabat farqqa ega emas ekan. Talabalarining yolg'izlikka munosabati yolg'izlikni ekzistensial fakt sifatida qabul qilishlari, insonga yolg'izlik holatlarini qadrlash va ularni o'z-o'zini aloqa qilish va shaxsiy o'sish uchun manba sifatida foydalanish imkoniyatini aks ettirmoqda, deyish mumkin. O'z navbatida talabalar orasidan yuqori yolg'izlikka ega talabalar ham uchrashi, shubhasiz. Ular esa yolg'izlikdan voz kechish yoki qo'rqish, aksincha, yolg'izlikdan qochishga, ijtimoiy aloqalarni doimiy izlashga olib keladi, bu shaxsning o'zini tartibga solishga va shaxsiy o'sishga to'sqinlik qiladigan holatlarga duch keladiganlar ham mavjuddir. Demak, talabalarining jinsiga ko'ra umumiy yolg'izlik bilan bir qatorda muloqotga tobellilik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarida ham hech qanday tafovut kuzatilmadi

(234,64 va 209,63; U=19462,5). Ammo talabalarining ko'rsatkichlari har ikkala jins vakillarida yolg'izlikni rad etish va yolg'iz qolmaslikni aks ettirmoqda. Ushbu miqyosdagi yuqori ko'rsatkichlar respondentlarning yolg'izlikka salbiy qarashlarini va yoqimsiz yoki og'riqli tajribalar bilan bog'liq bo'lgan yolg'izlik holatlaridan qochish uchun har qanday darajada muloqotga kirishishga moyilligini ko'rsatadi. O'z navbatida talabalarining bir toifasi esa yolg'izlik tajribasiga, yolg'izlik holatlariga va yolg'iz odamlarga nisbatan xotirjam, tolerant munosabatga egadirlar.

Talabalarining pozitiv yolg'izlik bo'yicha jinsga ko'ra o'rtacha rang ko'rsatkichlarida tafovut kuzatildi (224,64 va 211,50; U=17732,0; p <0,05). Mazkur shkala insonning yolg'izlikdan resurs topish, uni o'z-o'zini bilish va o'zini rivojlantirish uchun ijodiy ishlatish qobiliyatini baholaydi. Talabalarining shkala bo'yicha o'rtacha rang tafovutini quyidagicha tahlil qilish mumkin: talaba-yigitlarning qiymatlari (224,64) respondentning tanholik vaziyatlarida ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishini, ularni qadrlashni bilishini va o'z hayotida ongli ravishda o'zi bilan yolg'iz vaqt o'tkazishga intilishini ko'rsatadi. Talaba - qizlarda esa shaxsiy hayoti bilan bog'liq tanholik vaziyatlarda ijobiy his-tuyg'ularning yetishmasligi holatlarida imkoniyat topa olmasligini aks ettiradi. Ular yolg'izlikni pozitiv baholashda har doim ham imkoniyat topa olmas ekan.

Navbatdagi bosqichda talabalarining yolg'izlik hissiga munosabatidagi differensiasiyani tadqiq etishda ularning ijtimoiy tajribalari (ta'lim bosqichlari)ga ko'ra qirralarga e'tibor qaratildi (3-jadval).

3-jadval

“Yolg'izlik hissini differensial o'rganish” so'rovnomasini shkalalarini talabalarining ta'lim bosqichlari bo'yicha tafovutlari tahlili (Mann-Uitni mezon asosida)

Shkala	Jins	N	O'rtacha rang	U	p*
Umumiy yolg'izlik	1-kypc	62	254,19	14461,5	0,000***
	3-kypc	62	177,49		
Muloqotdagi tobellilik	1-kypc	62	234,50	18400	0,001***
	3-kypc	62	194,92		
Pozitiv yolg'izlik	1-kypc	62	249,65	15370	0,000***
	3-kypc	62	181,51		

Izoh: ***p<0,001

Tadqiqotda talabalar ta'lim bosqichlarining ularni ijtimoiy tajribasi sifatida ifodalashimizga to'g'ri keladi. Talabalar har bir ta'lim bosqichida yangi sotsial munosabatlarni

o'zlashtiradi, har xil toifa insonlar bilan munosabat o'rnatishga ega bo'ladi, yangi hayotiy maqsadlar qo'yadi va hayotiy tajribalar to'plab boradi. Shu mazmunda talabalarining ijtimoiy tajribalari

ortib borishi hisobida yolg'izlikka munosabatlarida differentsiatsiya kuzatilishini o'rganishga erishildi. Yolg'izlik hissi borasidagi talabalar munosabatlarining jinsiy holatidan farqli ravishda ijtimoiy tajribalari bo'yicha qiyosiy holat anchagina ahamiyatli natijalarni taqdim etdi. 1-3-bosqich talabalarining umumiy yolg'izlik hissi (254,19 va 177,549 $U=14461,5$; $p<0,001$); muloqotdagi tobelilik (234,50 va 194,92; $U=18400$; $p<0,001$) va pozitiv yolg'izlik (249,65 va 181,54; $U=15370$; $p<0,001$) shkalalari bo'yicha yolg'izlikka munosabatlarida statistik ahamiyatga ega bo'lgan tafovutlar aniqlandi.

Xulosa. Metodikaning tatbiqidan olingan natijalar quyidagicha psixologik xulosalarni ilgari surishga sabab bo'ldi: 1-bosqich talabalarida 3 – bosqich talabalariga nisbatan umumiy yolg'izlik hissigina munosabatlari anchagina og'riqli ekan. Ularning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim muhiti yoki yangi sosial munosabat subyektlari bilan muloqotga kirishayotganliklari tufayli yolg'izlikni kuchli his etishlari, o'zga insonlar bilan yaqin munosabatda ilqlikning yetishmayotganligi, o'zlarini ajralib qolgandek his etishlari, insonlar bilan emotsional ilqi munosabatlarga erisha olmaganlik kechinmalari yolg'izlikni kuchli boshdan kechirayotganliklaridan dalolat bermoqda. Uchinchi bosqich talabalarida esa o'tgan o'quv yillari davomida ta'lim muhitiga to'liq moslashganlar, munosabat muhitidagi to'siqlarni bartaraf etishga erishganlar, ular yolg'izlikni og'riqli qabul qilmaydilar va o'zlarini yolg'iz inson, deb baholamasliklaridan dalolat bermoqda (254,19 va 177,549

$U=14461,5$; $p<0,001$). Shu sababli ham ularning umumiy yolg'izlik hissigina munosabatlari bo'yicha ko'rsatkichlarida farqlar kuzatildi.

O'z navbatida talabalarining muloqotga tobelilik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarda ham statistik ahamiyatli farq aks etdi. Ushbu holat talabalarining ta'lim bosqichiga ko'ra quyidagicha izohlash mumkin: 1-bosqich talabalariga yolg'izlikni yoqimsiz va og'riqli kechinmasidan qochish uchun har xil darajadagi muloqot muhitini izlashlari xos bo'lgan-da, 3-bosqich talabalarida esa yolg'izlik hissigina, yolg'iz qolgan sharoitlar va yolg'izlikni boshdan kechirishga, yolg'iz odamlarga va vaziyatlarga tolerant va xotirjamlik munosabatiga ega bo'lar ekanlar (234,50 va 194,92 $U=18400$; $p<0,001$).

Talabalarining ta'lim bosqichida pozitiv yolg'izlik shkalasi ko'rsatkichlarida statistik tafovut kuzatildi. Bunda talabalarining yolg'izlik hissigina munosabatidagi tafovutlar 1-bosqich talabalarida hisobiga ijobiy tus oldi. Pozitiv yolg'izlik bo'yicha 1-bosqich talabalarida 3-bosqich talabalariga nisbatan yolg'izlikdan samarali foydalanishga xayrixohlikning o'sishiga sabab bo'lmoqda. Yolg'izlik hissigina munosabatlarning ta'lim bosqichiga ko'ra tahlili kechinmalarining ijobiy tus olishida ijtimoiy tajribalarning ta'siri mavjudligini tasdiqlamoqda. Bizningcha, 1-bosqich talabalarining umumiy yolg'izlik va muloqotga tobelilik shkalalari bo'yicha ko'rsatilgan yolg'izlikka salbiy munosabatlari ularda ijtimoiy tajriba to'plash vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR

1. Корчагина, С.Г. Психология одиночества: учебное пособие.- М.:Московский психолого-социальный институт, 2008.- 228 с.
2. Косоротова, Ю. Краткий курс одиночества. Как быть счастливым наедине с собой. Питер: Санкт-Петербург. 2016. - 220 с.
3. Осин, Е. Н., & Леонтьев, Д. А. Дифференциальный опросник переживания одиночества: структура и свойства. Психология. Журнал Высшей школы экономики, 2013, 10 (1), 55-81.
4. Юлдашева, М. Б., & Эргашова, З. Экспериментальное изучение чувства одиночества. Universum: психология и образование, 2021. (5 (83)), 31-33.
5. Юлдашев, Ф. А., & Юлдашева, М. Б. Экзистенциальные проблемы изучения одиночества. Материалы международной конференции "Проблемы психологического благополучия". УРГПУ Екатеринбург. 2021. Стр (pp. 281-284).
6. Юлдашева, М. Б. ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ДЕТЕРМИНАНТОВ ОДИНОЧЕСТВА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, 2(10-2), с. 422-428.
7. Yuldasheva M.B. Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 19.00.05 / Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna. – Toshkent, 2022. – 121 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 2 tomli./S.F.Akabirov, T.A.Aliqulov, S.I.Ibragimov va boshq.; Z.M.Magrufov tahriri ostida.- M.:Rus.yaz..1981. 1 tom. A-R. 632 b.



O'DK: 659(575.1),
321(575.1)

Mansur YUNUSOV,
Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, PhD
Xalqaro islom akademiyasi dotsenti
E-mail: mansur-yunus@mail.ru

O'zDJTU professori, f.f.d Xurshid Do'stmuxammad taqrizi ostida

MEDIASAVODXONLIK VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

Аннотация

Mazkur maqolada davlat boshqaruvida mediasavodxonlik, undan samarali foydalanish, davlat organlari va rahbar imijini rivojlantirishda mediasavodxonlik bilan hamkorlik aloqalarini shakllantirish masalalari ilmiy, amaliy keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: Mediasavodxonlik, axborot, yangilik, yolg'on axborot, televidenie, siyosat, media platforma, internet, xabar, fakt, tahlil, tanqi.

МЕДИАГРАМОТНОСТ И ЕЕ РОЛЬ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Аннотация

В данной статье научно и практически затронуты вопросы медиаграмотности в государственном управлении, ее эффективного использования, формирования отношений сотрудничества с медиаграмотностью в развитии имиджа государственных органов и руководителей.

Ключевые слова: Медиаграмотность, информация, новости, фейковые новости, телевидение, политика, медиаплатформа, интернет, новость, факт, анализ, критика.

MEDIA LITERACY AND ITS ROLE IN PUBLIC ADMINISTRATION

Annotation

In this article, the issues of media literacy in public administration, its effective use, formation of cooperation relations with media literacy in the development of the image of state bodies and leaders are scientifically and practically mentioned.

Key words: Media literacy, information, news, fake news, television, politics, media platform, internet, news, fact, analysis, criticism.

Kirish. Biroq bugungi sharoitda mediasavodxonlik turli muammolarga duch kelmoqda. Ulardan biri raqamli madaniyatning axborot-kommunikatsiya normalarini o'zgartirishidir. Ya'ni media muhitda raqamli madaniyat an'anaviy institutlarga ishonchsizlik, haqiqatni mafkuraviy munosabat bilan almashtirish va o'yin-kulgi, chuqur muloqot o'rtasidagi bo'shliqni kengaytirishga yordam bermoqda.

Shu nuqtai nazardan ham, mediasavodxonlikning davlat boshqaruvida o'rni yanada oshib borayotganini ta'kidlash mumkin. Chunki aynan mediasavodxonlik raqamli asrda jamoatchilik bilan aloqalar va turli manfaatdor guruhlar bilan samarali muloqotni amalga oshirishga yordam bera oladi.

Masalan, onlayn tarmoqlar va muqobil media platformalar dunyo bo'ylab nafratlanuvchi guruhlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Misol uchun Turkiyada minglab akademik va muxolif siyosiy guruhlarning ta'qib qilinishi va qamoqqa olinishiga, Shvetsiya, Niderlandiya, Germaniya va assosiy fuqarolik institutlariga bo'lgan ishonchning susayishiga imkon berdi. Bundan tashqari, raqamli makonlarda kommunikatsiya tezligi ko'plab muassasalarning imkoniyatlaridan ancha yuqori. Bir tomondan, mediasavodxonlik jamiyat va alohida fuqarolarga ommaviy axborot vositalaridagi ma'umotlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ular haqiqatni yolg'ondan ajratishga, manipulyatsiya va soxta yangiliklarni aniqlashga va media tashkilotlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan mafkuralarni tushunishga yordam beradi. Shuning uchun ham mediasavodxonlikni oshirish odamlarga, ayniqsa, davlat boshqaruvi xodimlariga ommaviy axborot vositalaridan uzatayotgan axborotlardan ongli iste'molchi sifatida ko'proq xabardor bo'lishga yordam beradi.

Umuman olganda, davlat boshqaruvida mediasavodxonlikning asosiy jihatlaridan biri axborotning ishonchligini tahlil qilish va baholash qobiliyatidir. Boshqaruvi xodimlari OAV ma'lumotlari bilan ishlashda faktlarni fikrlardan ajrata olishlari, soxta yangiliklarni tan olishlari va tanqidiy

fikrlashga ega bo'lishlari kerak. Bu ularga to'g'ri va ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi va manipulyatsiya va xatolardan saqlaydi.

Raqamli asrda raqamli savodxonlik ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalanish, axborotni samarali va xavfsiz qidirish, tahlil qilish va axborot almashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu boshqaruvi xodimlariga zamonaviy aloqa vositalari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda, shuningdek, kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlarga samarali qarshi turishda yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shunday qilib, mediasavodxonlik davlat boshqaruvida muhim o'rin tutadi, boshqaruvi xodimlariga OAV ma'lumotlarini samarali boshqarish va tahlil qilish, o'z faoliyatida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, zamonaviy aloqa vositalari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Ogohlilikni, demokratik boshqaruvi va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlash uchun jamiyatda mediasavodxonlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Mediasavodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

analitik qobiliyatlar: axborotning tuzilishini tushunish, uning asosiy elementlari va faktlarni aniqlash, tekshirish, axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlari;

tanqidiy fikrlash: OAV ma'lumotlarini tanqidiy baholash va sharhlash, ularning to'g'riligi, ishonchligi, betarafliigi va nuqtai nazarini tahlil qilish, o'z fikrini mazmunli ifodalash qobiliyati;

samarali muloqot: media axborot muhitida o'z fikr va g'oyalarni aniq, ravshan ifodalash, turli ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qilish xususiyatlarini tushunish, muloqot uslubini turli auditoriyalarga moslashtirish va turli kommunikatsiya kanallaridan foydalanish qobiliyati.

Ayniqsa, davlat boshqaruvida mediasavodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mediasavodxonlik davlat organlariga ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda

vaziyatni samarali tahlil qilish, sharhlash va jamoatchilik bilan muloqot qilish imkonini beradi. Davlat boshqaruvida mediasavodxonlikni rivojlantirishning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

media ma'lumotlarini tahlil qilish: mediasavodxonlikni rivojlantirish davlat boshqaruv xodimlariga OAV ma'lumotlarini to'g'ri tahlil qilish va baholashni o'rgatishdan iborat. Bu ularga ishonchli ma'lumot va noto'g'ri ma'lumot o'rtasidagi farqni aniqlashga, manipulyatsiya usullarini tan olishga va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun axborotlarni filtrlashga yordam beradi;

manipulyatsiyani tan olish: mediasavodxonlikni rivojlantirish davlat idoralari ommaviy axborot vositalaridagi manipulyatsiyani tan olishga yordam beradi. Manipulyatsiya usullarini tushunish muassasalarga zararni va taqdim etilgan ortiqcha ma'lumotni bartaraf etishga va muloqotda shaffoflik, ishonchlikni rag'batlantirishga imkon beradi;

texnologiya savodxonligi: davlat boshqaruvida mediasavodxonlikni rivojlantirish texnologik savodxonlikni ham o'z ichiga oladi. Boshqaruv kadrlar turli media, aloqa vositalari va kommunikatsiya platformalarini yaxshi bilishlari kerak. Bu ularga ushbu vositalardan samarali foydalanish va ma'lumotlarga kirish imkonini beradi;

tanqidiy fikrlash: mediasavodxonlik davlat boshqaruv xodimlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash ularga ma'lumotni tahlil qilish va baholash, savollar berish, faktlar va dalillarni tekshirish, muqobil nuqtai nazarlarni izlash va asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi;

samarali muloqot: davlat boshqaruvida mediasavodxonlikni rivojlantirish turli media vositalari orqali samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi xodimlari o'z aloqalarini turli muhit va auditoriyaga moslashtira olishi, axborotni samarali taqdim etishi, fuqarolar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi kerak.

Mazkur xulosani N.V.Demchuk tadqiqotidagi quyidagi fikr bilan tasdiqlash mumkin: "Ommaviy axborot vositalari hokimiyat uchun asosiy axborot manbalaridan biri, ularning faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilish va qabul qilingan qarorlarga jamoatchilik munosabatini bildirish usulidir. Davlat va munitsipal xodimlarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga media didaktik yondashuv barqaror ta'lim natijalariga erishish ... imkonini beradi"[1].

Media-tahlil – ommaviy axborot vositalarining mazmuni va shaklini tizimli, tanqidiy o'rganish, baholash jarayoni. Ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarni tahlil qilishda ma'lumotlarning manbalari, maqsadi, mazmuni, konteksti, uslubi va taqdim etish usuli kabi turli jihatlarni ko'rib chiqiladi.

Media-tahlilning maqsadi OAV ma'lumotlari qanday yaratilishi, o'zgarishi va bizning tasavvurlarimiz va fikrlarimizga ta'sir qilishini chuqurroq tushunishdir. Bu ommaviy axborot vositalaridan uzatilayotgan faktlardan xabardor va tanqidiy iste'molchi bo'lish imkonini beradi.

OAV ma'lumotlarini tahlil qilish bir qator usul va yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

faktlarning tanqidiy tahlili: OAV tahlilining muhim qismi OAV materiallarida keltirilgan faktlarni tekshirish hisoblanadi. Taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchligi va to'g'riligini tekshiriladi va uni tasdiqlovchi dalillar yoki qarama-qarshiliklar mavjudligini aniqlanadi;

manbalarining ishonchligini tekshirish: OAV ma'lumotlarini tahlil qilish olingan manbalarining ishonchligini baholashni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni ma'lumotlar muallifi kimligi, u qanday maqsadlarni nazarda tutishi, manbalar qanchalik xolis va haqqoniy ekanligini aniqlash uchun tadqiqot olib boriladi;

kontekst tahlil: OAV tahlilining muhim jihati axborot taqdim etilayotgan kontekstni o'rganishdir. Ya'ni ma'lumotni talqin qilish va idrok etish usuliga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarni tahlil qilish davlat boshqaruvidagi xodimlarni tanqidiy va xabardor iste'molchilar bo'lishiga yordam beradi. Bu ommaviy axborot vositalaridagi manipulyatsiya va

buzilishlarni tan olish va ishonchli, ob'ektiv ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

OAV ma'lumotlarini tahlil qilish davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega. Samarali va asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun davlat organlari ommaviy axborot vositalari ma'lumotlarini tahlil qilishi va baholashi kerak.

Analitik ko'nikmalarini rivojlantirish mediasavodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, quyidagi sabablarga ko'ra media ma'lumotlarini samarali idrok etish va tushunishda asosiy o'rin tutadi:

manipulyatsiyani aniqlash: tahliliy ko'nikmalar bizga ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan manipulyatsiya usullari va taktikalarini aniqlash imkonini beradi. OAV ma'lumotlari ma'lum bir manfaatlar nuqtai nazaridan taqdim etilishi, manbalar sub'ektiv ravishda tanlanishi yoki taqdim etilgan faktlar buzib ko'rsatilishi mumkin. Analitik yondashuv yashirin motivlar va maqsadlarni hamda qo'llaniladigan manipulyatsiya usullarini ko'rishga imkon beradi;

axborotni tekshirish: tahliliy ko'nikmalar ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchligini va to'g'riligini baholashga yordam beradi. Ya'ni faktlarni tekshirish, taqdim etilgan ma'lumotlarni boshqa manbalar bilan solishtirish va manbalarining ishonchligini tekshirish mumkin. Bu haqiqiy ma'lumotni fikrlar, taxminlar yoki yetarli darajada tasdiqlanmagan axborotlardan ajratish imkonini beradi;

tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: OAV ma'lumotlarini tahlil qilish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, ongli va to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ya'ni turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil ma'lumot manbalarini izlash va ma'lumot taqdim etilgan kontekstni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Tanqidiy fikrlash adashishdan qochishga, faktlarga tayanishga va qarorlarni asoslashga yordam beradi;

keng ko'lamlı axborotning kontekstini tushunish: OAV ma'lumotlarini tahlil qilish axborot taqdim etiladigan keng kontekstni tushunishga yordam beradi. Bunda axborotni yaratish va talqin qilishga ta'sir qiluvchi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitlarni baholash mumkin. Kontekstni tushunish esa, ma'lumotni yaxshiroq baholash va uning oqibatlarini hamda jamiyatga ta'sirini tushunish imkonini beradi.

Davlat boshqaruvida OAV ma'lumotlarini tahlil qilish davlat organlari xodimlariga xabardor va tahliliy dunyoqarashga ega bo'lishga yo'naltiradi. Bu esa ongli va samarali qarorlar qabul qilish hamda jamoatchilik fikri va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari va globalashuv davrida, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutadigan mazkur davrda mazkur masala yanada dolo'arb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Faktlarning tanqidiy tahlili ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan bayonotlar, hodisalar yoki ma'lumotlarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Bu usul faktlarning to'g'riligini tekshirish, ma'lumotni boshqa manbalar bilan solishtirish va tasdiqlovchi ma'lumotlar yoki dalillar mavjudligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ma'lumotni adekvat tushunishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar, xatoliklar yoki boshqa shubhali jihatlarni aniqlash muhimdir.

OAV ma'lumotlarini tahlil qilishda manbalarini ham tekshirish muhim. Manbani qay darajada to'g'ri ekanligi keltirilayotgan faktning nechog'lik ahamiyatli ekanligini aniqlab beradi.

Kontekst tahlil axborot taqdim etiladigan matnning tushunishiga yordam beradi. Bunda axborotning shakli va mazmuniga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar o'rganilishini nazarda tutish mumkin. Kontekstni tahlil qilish media ma'lumotlarini qanday qabul qilish mumkinligini, qanday yashirin maqsad va manfaatlar mavjudligini izlash hamda ularni tushunishga yordam beradi.

Davlat boshqaruvida ommaviy axborot vositalari axborotini tahlil qilishning ushbu usullaridan foydalanish davlat organlarining xabardorligi, tahliliy va mas'uliyatli bo'lishiga imkon beradi. Bu tasdiqlangan faktlar va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan holda qaror qabul qilishni osonlashtiradi.

OAV ma'lumotlari kontekstida tanqidiy fikrlash - ommaviy axborot vositalari ma'lumotlarini tanqidiy va mazmunli

baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati. Bu ommaviy axborot vositalaridagi axborotga turli nuqtai nazardan qarash, uning mazmuni va shaklini tushunish, taqdim etilayotgan axborotning salbiy va ijobiy tomonlarini baholash imkonini beruvchi mahorat va yondashuvdir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda maxsus texnikalardan foydalanish mumkin. Xususan:

savol berish – tanqidiy fikrlashning asosiy texnikasi. Savollar kontekst, maqsad va taqdim etilgan faktlarni chuqurroq tushinishga yordam beradi. “Mazkur da’voni qanday ma’lumotlar va dalillar tasdiqlaydi?” deb yoki “Ma’lum bir nuqtai nazarning targ’ib qilinishidan kim manfaatdor bo’lishi mumkin?” kabi savollar ustida bosh qotirish zarur. Bunday savollar yashirin niyatlarni tushinishga, dalillarni tekshirishga va ma’lumotni to’liqroq tahlil qilishga yordam beradi;

muqobil nuqtai nazarlarni topish – ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan turli nuqtai nazar va dalillarni solishtirgan holda o’rganish va tushunishni o’z ichiga oladi. Ma’lumotga turli nuqtai nazardan qarash, shubhalanish va taqdim etilgan ma’lumotlardagi noto’g’ri faktlar yoki bir tomonlamalikni aniqlash tushiniladi. Muqobil nuqtai nazarlarni izlash taqdim etilgan ma’lumotni to’liqroq anglashga imkon beradi;

argumentlarni baholash – OAV ma’lumotlarini baholashda taqdim etilgan manbalar va dalillarning sifatini baholash. Bunda ularning ishonchligi, taqdim etilgan ma’lumotlarga aloqasi, dolzarbligi va asosligi haqida savollar berish muhimdir. Tanqidiy fikrlash argumentlar mantiqini tahlil qilish, mantiqiy qarama-qarshiliklarni tekshirish va hissiy manipulyatsiya yoki asossiz da’volardan foydalanilishiga e’tibor berishni o’z ichiga oladi;

fakt va ma’lumotlarni tekshirish – qo’shimcha manbalar izlash, taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchligi va to’g’riligini tekshirish, ma’lumotlarni boshqa ilmiy manbalar bilan solishtirish. Bu asolangan va tasdiqlangan faktlarni sub’ektiv fikrlar yoki asossiz da’volardan ajratishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Jamiyat, ijtimoiy tashkilotlar va muassasalar faoliyati qanchalik murakkab va tarqoq bo’lib, ular bilan bog’liq – ilmiy, badiiy, siyosiy, maishiy va hokazo ma’lumotlar to’planib borsa, boshqaruv jarayonlarida ijtimoiy aloqalarning shunchalik ahamiyati oshib boradi. Bu chinakam axborot inqilobi sodir bo’layotgan zamonaviy sharoitda, ya’ni sayyoraviy kommunikatsiya jarayonlari ko’p tomonlama va ko’p bosqichli tizimga asoslangan bugungi kunda paydo bo’lgan sanoatlashgan axborot jamiyati – axborot sohasining tez, miqdoriy va sifat jihatidan o’zgarishi natijasida davlat boshqaruvining ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy asoslari tubdan o’zgartirilishiga olib kelmoqda. Media axborot muhitida ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, vebinarlar, video platformalar va shu kabi ko’plab kommunikatsiya kanallari mavjud. Samarali muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirish davlat boshqaruvi xodimlariga

kommunikatsiyaning turli formatlari hamda kanallariga moslashishga, ma’lumot uzatish va muloqot maqsadlariga erishish uchun eng samarali va mos vositalarni tanlashga imkon beradi.

Media-axborot muhitida samarali muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirish davlat boshqaruvi xodimlariga auditoriya bilan yanada muvaffaqiyatli va to’g’ri muloqot qilish, axborotni yetkazish va ommaviy axborot vositalari ma’lumotlarini tanqidiy va ongli ravishda qabul qilish imkonini beradi. Ular axborot jamiyatida davlat va jamiyat o’rtasidagi murosa – bir-birini yaxshi tushunish va o’zaro ta’sir o’tkazish, kommunikatsiya sifatini yaxshilash va tushunmovchilik yoki ehtimoliy nizolarni kamaytirishga hissa qo’shadi.

I.A. Bikov va M.V. Medvedevalarning xulosalariga ko’ra, tanqidiy fikrlash media kompetentsiyasining ajralmas qismidir, chunki u ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlarni baholashga yordam beruvchi siyosiy manipulyatsiyani tan olish qobiliyatidir. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash foydalanuvchilarga o’z xabarlarini yaratish va boshqa foydalanuvchilarning xabarlariga javob berish imkonini beradi [2].

Xulosa va takliflar. Davlat boshqaruvida samarali muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirishning ba’zi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat.

Samarali muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirish o’z fikr va g’oyalarni aniq va ravon ifoda etish qobiliyatini o’z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi xodimlari murakkab axborotni turli auditoriya uchun oddiy, tushunarli xabarlariga aylantira olishi kerak. Aniq ifoda tushunmovchilik va noaniqlikdan qochishga va samarali muloqotga yordam beradi.

Davlat xodimlari o’z muloqotlarida moslashuvchan bo’lishi kerak. Har bir auditoriyaning o’ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlari borligini muloqot jarayonida hisobga olish muhimdir. Moslashuvchanlik muloqotni turli muhitlar, madaniyatlar va kontekstlarga moslashtirish imkonini beradi.

Mediasavodxonlik davlat organlariga OAV ma’lumotlarini tahlil qilish va baholash, faktlarni manipulyatsiyadan ajratish va manbalarning ishonchligini tekshirish imkonini beradi. Shuningdek, jamoatchilik fikrini mazmunli idrok etish va jamoatchilik reaksiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali davlat organlarida muloqot sifatini oshirish fuqarolar bilan o’zaro munosabatlarni yaxshilash, intellektual qarorlar qabul qilinishini ta’minlash hamda fuqarolarning manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mediasavodxonlik demokratik va ochiq hukumatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan aholi ishonchini, axborotning shaffofligini va samarali qarorlar qabul qilishni kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim ko’rsatkichdir.

ADABIYOTLAR

1. Н. В. Демчук (2016). Медиаобразование будущих государственных и муниципальных служащих. Журналистский ежегодник, (5), 29-32.
2. Bykov, I., & Medvedeva, M. (2021). Importance of Media Literacy for Political Communication in Russia. Journal of Political Research, 5(4), 7–22. <https://doi.org/10.12737/2587-6295-2021-5-4-7-22>
3. Mihailidis, P. (2018). Media Literacy’s Civic Problem 1. In Civic Media Literacies (pp. 23–51). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315526058-2>



Malika YUNUSOVA,

Uzbekistan State University of world languages English Integrated Course 2 chair teacher

E-mail:yunusovam988@gmail.com

Doctor of philological Sciences, Associate Professor based on the review of Kamola Shukhratovna Muratkasimova

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI STEM YONDASHUVI ORQALI TA'LIM BERISH

Аннотация

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) yondashuvidan foydalanishni o'rganadi. STEAM yondashuvi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini yaratish uchun ushbu fanlarni birlashtiradi. Ingliz tili darslariga STEAM faoliyatini qo'shish orqali o'qituvchilar yosh talabalarga til ko'nikmalarini yaxshilashga yordam berishlari mumkin, shuningdek, o'rganish va izlanishga bo'lgan muhabbatni uyg'otishlari mumkin. Ushbu maqolada erta bolalik sharoitida ingliz tilini o'rgatishda STEAM yondashuvidan foydalanishning afzalliklari muhokama qilinadi va sinfda STEAM faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy strategiyalar va misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, maktabgacha yoshdagi bolalar, STEAM yondashuvi, fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika, tilni bilish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, o'rganish tajribasi, tadqiqot, sinfda amalga oshirish.

ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЕТЯМ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОДХОДА STEAM

Аннотация

В данной статье исследуется использование подхода STEAM (наука, технология, инженерия, искусство и математика) при обучении английскому языку детей дошкольного возраста. Подход STEAM объединяет эти дисциплины для создания увлекательного и интерактивного учебного процесса, который способствует критическому мышлению, творчеству и навыкам решения проблем. Включая занятия STEAM в уроки английского языка, преподаватели могут помочь юным ученикам улучшить знание языка, а также воспитать любовь к обучению и исследованиям. В этом документе обсуждаются преимущества использования подхода STEAM в обучении английскому языку в дошкольных учреждениях, а также приводятся практические стратегии и примеры реализации мероприятий STEAM в классе.

Ключевые слова: преподавание английского языка, дети дошкольного возраста, подход STEAM, наука, технологии, инженерия, искусство, математика, знание языка, критическое мышление, креативность, навыки решения проблем, опыт обучения, исследования, внедрение в классе.

TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE STEAM APPROACH

Annotation

This paper explores the use of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) approach in teaching English to preschool children. The STEAM approach integrates these disciplines to create engaging and interactive learning experiences that promote critical thinking, creativity, and problem-solving skills. By incorporating STEAM activities into English language lessons, educators can help young learners develop language proficiency while also fostering a love for learning and exploration. This paper discusses the benefits of using the STEAM approach in preschool English instruction and provides practical strategies and examples for implementing STEAM activities in the classroom.

Key words: Teaching English, Preschool Children, STEAM Approach, Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics, Language Proficiency, Critical Thinking, Creativity, Problem-Solving Skills, Learning Experiences, Exploration, Classroom Implementation

Kirish. Teaching English to preschool children through the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) approach is gaining recognition as an innovative and effective method to enhance language learning in young learners. This approach integrates various disciplines to create a holistic learning experience that fosters creativity, critical thinking, problem-solving skills, and language development [1]. By combining English language teaching with hands-on STEAM activities, educators can engage children in meaningful and interactive learning experiences that promote language acquisition in a fun and engaging way.

In this paper, we will explore the integration of the STEAM approach into English language teaching for preschool children. Drawing on recent studies from South Korea, Taiwan, the United States, and China, we will examine the impact of STEAM-based activities on language development, cognitive skills, and overall learning outcomes in young learners. Through a comparative analysis of different teaching practices and methodologies, we aim to provide insights into the effectiveness of incorporating STEAM education in teaching English to preschool children and highlight the benefits of this

interdisciplinary approach for early childhood language learning [2].

Teaching English to preschool children through the STEAM approach involves integrating language learning with hands-on activities in science, technology, engineering, arts, and mathematics. This approach recognizes the importance of engaging young learners in meaningful and interactive experiences that promote language development while also fostering skills in critical thinking, problem-solving, creativity, and collaboration. One key aspect of the STEAM approach is its emphasis on experiential learning. By incorporating hands-on activities such as experiments, building projects, art projects, and math games into English language lessons, educators can create a dynamic and engaging learning environment that appeals to the diverse interests and learning styles of young children. For example, a lesson on colors and shapes in English could be enhanced by incorporating a hands-on art project where children create their own geometric shapes using colored paper and glue [3]. This not only reinforces language concepts but also allows children to explore and manipulate materials in a creative and meaningful way.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Furthermore, the STEAM approach promotes interdisciplinary learning by connecting different subject areas in a cohesive and integrated manner. For preschool children learning English, this means that language lessons can be enriched by drawing connections to other disciplines such as science, technology, engineering, and math. For instance, a lesson on animals and their habitats in English could be supplemented by a science experiment where children observe and classify different types of animal tracks or a math activity where they measure and compare the sizes of animal footprints [4]. Moreover, the STEAM approach encourages a holistic approach to learning that goes beyond rote memorization of vocabulary and grammar rules. By engaging children in hands-on activities that require them to think critically, solve problems, and work collaboratively with their peers, educators can help them develop essential 21st-century skills that are crucial for success in an increasingly complex and interconnected world.

Teaching English to preschool children through the STEAM approach offers a dynamic and innovative way to enhance language learning by integrating it with other disciplines. By providing young learners with opportunities to engage in hands-on activities that stimulate their curiosity, creativity, and critical thinking skills, educators can create a rich and engaging learning environment that supports their language development and overall cognitive growth. Teaching English to preschool children through the STEAM approach involves incorporating technology into language learning activities. Technology can be a powerful tool for engaging young learners and enhancing their English language skills in a fun and interactive way. By integrating technology into the STEAM approach, educators can leverage digital tools such as educational apps, interactive whiteboards, tablets, and computers to create engaging and immersive learning experiences for preschool children [5].

One way technology can enhance English language learning in the preschool classroom is through the use of educational apps. There are numerous apps available that are specifically designed to help young children learn English vocabulary, grammar, and pronunciation through interactive games, quizzes, and activities. For example, an app that features colorful graphics, audio pronunciations, and engaging animations can help children learn new words and phrases in a playful and engaging manner. Interactive whiteboards are another valuable technology tool that can be used to support English language learning in preschool classrooms. Educators can use interactive whiteboards to display multimedia content, interactive games, videos, and online resources that reinforce language concepts and engage children in hands-on learning activities. For instance, a teacher could use the whiteboard to display a digital storybook with audio narration and interactive elements that encourage children to participate in the storytelling process and practice their listening and speaking skills [6].

Tadqiqot metodologiyasi. In addition, tablets and computers can be used to provide children with personalized learning experiences tailored to their individual needs and interests. With access to educational websites, online videos, e-books, and language learning platforms, preschool children can explore English language content at their own pace and engage with interactive activities that cater to their learning preferences. For example, a child who enjoys music and rhythm may benefit from using a language learning app that incorporates songs and rhymes to help them memorize vocabulary and improve their pronunciation [7]. Integrating technology into the STEAM

approach for teaching English to preschool children can enhance language learning by providing interactive and engaging experiences that cater to the diverse learning styles and preferences of young learners. By leveraging digital tools and resources, educators can create a dynamic and immersive learning environment that motivates children to actively participate in their language learning journey and develop essential English language skills in a fun and meaningful way.

The STEAM approach, which integrates Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics into the curriculum, can be a valuable framework for teaching English to preschool children. By incorporating elements of STEAM into language learning activities, educators can create engaging and interactive experiences that help children develop their English language skills while also fostering creativity, critical thinking, and problem-solving abilities. One way to incorporate the STEAM approach into teaching English to preschool children is through hands-on activities that combine language learning with scientific concepts. For example, educators can organize science experiments that involve following instructions in English, describing observations, and discussing results in the target language. This not only helps children practice their English vocabulary and communication skills but also encourages them to think critically and make connections between language and real-world phenomena [8].

Furthermore, technology can play a significant role in implementing the STEAM approach for teaching English to preschool children. Educational apps, interactive whiteboards, and digital resources can be used to introduce children to engineering concepts, such as building structures or designing simple machines, while also reinforcing English language skills. For instance, a language learning app that incorporates engineering challenges or puzzles can engage children in problem-solving activities that require them to use English to communicate and collaborate with their peers [9]. Incorporating arts into English language learning activities can also enhance the STEAM approach in the preschool classroom. Educators can use music, drama, storytelling, and visual arts to engage children in creative expression and language practice. For example, organizing a puppet show where children act out a story in English can help them improve their speaking and listening skills while also stimulating their imagination and artistic abilities.

Xulosa va takliflar. Moreover, mathematics can be integrated into English language learning activities to help children develop their numeracy skills while practicing English vocabulary and grammar. Educators can incorporate counting games, shape recognition activities, and measurement tasks into language lessons to reinforce mathematical concepts in a language-rich environment. For instance, organizing a scavenger hunt where children have to solve math problems in English to find hidden clues can make learning both subjects more engaging and interactive. Overall, teaching English to preschool children through the STEAM approach offers a holistic and multidisciplinary approach to language learning that promotes creativity, critical thinking, and problem-solving skills. By incorporating elements of Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics into English language lessons, educators can create dynamic and immersive learning experiences that cater to the diverse needs and interests of young learners while helping them develop essential language skills in a meaningful and engaging way.

ADABIYOTLAR

1. Bautista, A., & Mendoza, N. (2018). STEAM in early childhood education: Integrating science, technology, engineering, arts, and mathematics. *Journal of Research in Childhood Education*, 32(3), 366-380.
2. Hsu, Y. C., & Wu, H. K. (2019). Effects of a STEAM project-based learning program on students' creativity, problem-solving ability, and self-regulation skills. *EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education*, 15(11), em1775.
3. Kang, J., & Park, S. (2019). Early childhood teachers' perceptions and practices of STEAM education: A case study in South Korea. *International Journal of Early Childhood*, 51(2), 197-212.
4. Lai, P. (2020). Integrating STEAM education in early childhood: A case study in Hong Kong. *Journal of Research in Childhood Education*, 34(2), 165-180.
5. Yoon, J., Kim, H., & Kim, M. (2017). Preschool children's engagement in STEAM-related activities: A case study in South Korea. *Early Child Development and Care*, 187(8), 1195-1206.

6. Kim, M., & Kang, J. (2018). Integrating STEAM education into English language teaching for young learners: A case study in South Korea. *English Teaching*, 73(4), 3-26.
7. Lee, H., & Park, S. (2019). Implementing the STEAM approach in teaching English to preschool children: A qualitative study in Taiwan. *Journal of Early Childhood Education Research*, 8(2), 85-98.
8. Park, J., & Kim, Y. (2020). Exploring the effectiveness of integrating STEAM education in teaching English to preschool children: A comparative study in the United States and South Korea. *Early Childhood Education Journal*, 48(3), 299-312.
9. Song, J., & Lee, S. (2018). The impact of STEAM-based English language teaching on preschool children's language development: A longitudinal study in China. *Early Child Development and Care*, 188(6), 818-832.